

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES



2

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

| | |
|-------------------------|--|
| D. Sayfullayev | <i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i> |
| D. Muxiddinova | <i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i> |
| A. Mannonov | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i> |
| R. Xodjayeva | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i> |
| Sh. Shomusarov | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i> |
| Q. Omonov | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i> |
| U. Muxibova | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i> |
| X. Xamidov | <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i> |
| B. Abdulhalimov | <i>tarix fanlari doktori, professor</i> |
| A. Xodjayev | <i>tarix fanlari doktori, professor</i> |
| M. Is'hoqov | <i>tarix fanlari doktori, professor</i> |
| A. Doniyorov | <i>tarix fanlari doktori, professor</i> |
| X. Fayziyev | <i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i> |
| D. Xodjimuratova | <i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i> |
| Sh. Yovqochev | <i>siyosiy fanlar doktori, professor</i> |
| N. Abdullayev | <i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i> |
| A. Vahobov | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i> |
| R. Abdullayev | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i> |
| I. Mavlanov | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i> |
| R. Bahodirov | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i> |
| E. Izzetova | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i> |
| G. Glizon | <i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i> |
| A. Shonazarova | <i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i> |
| Ono Masaki | <i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i> |
| Li Dji In | <i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i> |
| V. Mesamed | <i>Isroilning Quddus universiteti professori</i> |
| A. Gurer | <i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i> |
| A. Vorobyov | <i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i> |
| G. Avda | <i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i> |
| S. Kuraym | <i>Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i> |
| A. Tohir | <i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i> |
| H. Baydemir | <i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i> |

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdanzoda, G. Xushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

| | |
|--|----|
| <i>Ochilov O.</i> Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy she'riyati shakllanishidagi ahamiyati | 5 |
| <i>Yuldasheva X.</i> Milliy identifikatsiya arab adabiy personaji timsolida | 16 |
| <i>Sharaxmetova M.</i> “Boburnoma”ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi | 22 |
| <i>Kabirova N.</i> Rahnavard Zaryob asarlarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari..... | 31 |

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

| | |
|--|----|
| <i>Sodiqov Q.</i> Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari..... | 44 |
| <i>Umarova M. Yakubova Sh.</i> Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari | 63 |
| <i>Jumaniyazov M.</i> «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-Unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi..... | 71 |
| <i>Abdurahmonova M.</i> Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi | 89 |
| <i>G'iyosov B.</i> Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi | 98 |

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

| | |
|---|-----|
| <i>Karimov A.</i> Xitoyning amaliy san'ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari..... | 110 |
| <i>Faromarzi F, Vohidova M.</i> Mirzo Muhammad Rahimbek va uning “Esdaliklar” asari | 119 |
| <i>Xubbaliyeva M.</i> “Du Huanning borgan joylari xotirasi” sayohatnomasida Markaziy Osiyo..... | 135 |

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

| | |
|--|-----|
| <i>Ulug'ov N., Saidolimov S.</i> Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta'siri | 148 |
| <i>Sadibaqoyev H.</i> AQSHning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati | 157 |
| <i>Abdullayev J.</i> Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarining zamonaviy tarixi..... | 170 |



| | |
|---|-----|
| Güngör Şahin, İsmail Polat. The Role of Energy Security in the Case of Kazakhstan – People’s Republic of China Relations..... | 182 |
| Normayeva M. Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida) | 198 |
| Medihanur Argali. Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan..... | 210 |
| Bekdurdiyeva G. Xalqaro munosabatlarda “Yashil nazariya” asoslari va unga doir yondashuvlar | 230 |
| Gafarov I. Strategic approaches of Russia and China vis-a-vis Central and South Asia | 244 |
| Xodjayev L. Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda xorijiy tilni o’rgatishning xususiyatlari..... | 256 |
| Abdurasulov J. Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy holati | 269 |

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

| | |
|--|-----|
| Mavrulova M. Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish to’g’risida..... | 285 |
|--|-----|



ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ
// LITERARY STUDY

OCHILOV OZODJON

Dotsenti, PhD, TDSHU

ORCID: 0000-0002-3119-9863

Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy
she'riyati shakllanishidagi ahamiyati

Annotatsiya. Hu Shi (1891—1962) 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari orasida yirik shaxs hisoblanadi. Uning adabiy nazariyalari, ayniqsa, baihua tili asosida yangi she'r yaratish bo'yicha qarashlari, xitoy adabiyotining yangilanishida muhim rol o'ynadi. Hu Shi Xitoyning adabiy an'analarini yangilash va zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan adib sifatida tanilgan. Uning islohotlari nafaqat lingvistik soha, balki umummadaniy va ijtimoiy jarayonlar modernizatsiyasiga ham chuqur ta'sir qilgan. Hu Shi o'z faoliyatining boshlang'ich davrida an'anaviy xitoy she'riyatini zamonaviy badiiy ifoda usullari bilan boyitishga intildi. Biroq vaqt o'tishi bilan u o'zining yangi she'riyatga bo'lgan paradigmalarini o'zgartirdi va an'anaviy uslublarni to'la rad etish orqali yangi demokratik va ko'proq mulohazaga yo'naltirilgan she'riyat g'oyasini jadal ilgari surdi. Jarayon, ayniqsa, baihua tilining adabiyotda katta miqyosda qo'llanilishi orqali amalga oshirildi, bu esa keng jamoatchilikka she'riyatni yanada yaqinlashtirish uchun xizmat qildi. Hu Shining bu harakatlari adabiyotda demokratik prinsiplarni kuchaytirishga olib keldi. U she'riyatni oddiy xalq tili asosida qayta yaratish orqali keng ommaga yaqinlashtirdi va shu tariqa, madaniy va ijtimoiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Baihua tilida yangi she'r yaratish orqali Hu Shi adabiyotda tabiiylik va oddiyligni targ'ib qildi. Bu harakat nafaqat adabiy uslublarni o'zgartirdi, balki Xitoyning madaniy va ijtimoiy hayotini ham yangilashga xizmat qildi. Hu Shi o'z islohotlari orqali Xitoy adabiyotiga yangi yo'nalish berdi va yangi she'riyatni keng jamoatchilikka tanishtirishda muhim rol o'ynadi.

Kalit so'z va birikmalar: Hu Shi, Xitoy yangi she'riyati, baihua she'riyati, adabiyot islohotlari, G'arb va Sharq integratsiyasi, lingvistik va madaniy o'zgarishlar, baihua adabiyotining rivoji, adabiy nazariya, 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari, adabiy tanqid.

Abstract. Hu Shi (1891-1962) is considered a prominent figure among 20th-century Chinese literary scholars. His literary theories, particularly his perspectives on creating new poetry in the baihua language, played a crucial role in the renewal of Chinese literature. Hu Shi is known for advocating the revitalization of Chinese literary traditions and reshaping them based on modern demands. His reforms profoundly impacted not only the linguistic sphere but also the cultural and social processes of modernization. In the early stages of his career, Hu Shi endeavored to enrich traditional Chinese poetry with modern artistic expressions. However, over time, he shifted his paradigm towards new poetry and vigorously promoted the idea of new democratic and more dialogue-oriented poetry, completely abandoning traditional styles. This process was particularly



propelled by the widespread use of baihua in literature, making poetry more accessible to the general public. Hu Shi's efforts in promoting baihua poetry contributed to the democratization of literature, bringing it closer to the masses and significantly influencing cultural and social processes. His innovations made a crucial contribution to the development of Chinese poetry and literature as a whole.

Keywords and expressions: *Hu Shi, Chinese New Poetry, baihua poetry, literary reforms, East-West integration, linguistic and cultural transformations, development of baihua literature, literary theory, 20th century Chinese literary scholars, literary criticism.*

Аннотация. *Ху Ши (1891-1962) считается выдающейся личностью среди китайских литературоведов XX века. Его литературные теории, особенно его взгляды на создание новой поэзии на языке байхуа, сыграли ключевую роль в обновлении китайской литературы. Ху Ши известен как сторонник обновления китайских литературных традиций и их реформирования на основе современных требований. Его реформы оказали глубокое влияние не только на лингвистическую сферу, но и на общекультурные и социальные процессы модернизации. В начале своей деятельности Ху Ши стремился обогатить традиционную китайскую поэзию современными художественными выражениями. Однако со временем он изменил свои взгляды на новую поэзию и начал активно продвигать идею новой демократической и более ориентированной на диалог поэзии, полностью отказавшись от традиционных стилей. Процесс особенно активизировался благодаря широкому использованию языка байхуа в литературе, что сделало поэзию доступной для широкой публики. Деятельность Ху Ши по продвижению поэзии на языке байхуа способствовала демократизации литературы, приближению ее к народным массам и оказала значительное влияние на культурные и социальные процессы. Его новаторские идеи внесли важный вклад в развитие китайской поэзии и литературы в целом.*

Ключевые слова: *Ху Ши, новая китайская поэзия, поэзия на байхуа, литературные реформы, интеграция Востока и Запада, лингвистические и культурные трансформации, развитие литературы на байхуа, литературная теория, литературоведы Китая XX века, литературная критика.*

Kirish. *Hu Shi (1891—1962) 20-asr Xitoy adabiyotshunoslari orasida yirik shaxs hisoblanadi. Uning adabiy nazariyalari, ayniqsa, baihua tili asosida yangi she'r yaratish bo'yicha qarashlari xitoy adabiyotining yangilanishida muhim rol o'ynadi. Hu Shi Xitoyning adabiy an'alarini yangilash va zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish g'oyalarini ilgari surgan adib sifatida tanilgan. Uning islohotlari nafaqat lingvistik soha, balki umummadaniy va ijtimoiy jarayonlar modernizatsiyasiga ham chuqur ta'sir qilgan. Hu Shi o'z faoliyatining boshlang'ich davrida an'anaviy xitoy she'riyatini zamonaviy badiiy ifoda usullari bilan boyitishga intildi. Biroq, vaqt o'tishi bilan u o'zining yangi she'riyatga bo'lgan paradigmalarini o'zgartirdi va an'anaviy uslublarni to'la rad etish orqali yangi, demokratik va ko'proq muloqotga yo'naltirilgan she'riyat g'oyasini jadal ilgari surdi. Jarayon ayniqsa baihua tilini adabiyotda katta miqiyosda qo'llanilishi orqali amalga oshirildi, bu esa keng jamoatchilikka she'riyatni yanada yaqinlashtirish uchun xizmat qildi.*



Asosiy qism. Hu Shi o'smirlik davrida keng ko'lamli xitoy an'anaviy madaniyati va klassik she'riyatining chuqur ta'sirida o'z bilimlarini boyitdi. Turli manbalardan ma'lum bo'lishicha, u asosiy e'tiborini konfutsiychilik ta'limotiga va klassik adabiyot namunalariga qaratgan, bu sohalarga oid chuqur bilim egalagan. Keyinchalik Hu Shida yangi she'riyat nazariyasiga oid qarashlar rivojlana boshladi, uning an'anaviy paradigmalariga nisbatan pozitsiyasining keskin o'zgarib boshlaganligi shundan dalolat beradi. 1910-yilda Hu Shi, davlat tomonidan berilgan grant asosida AQSHga tahsil olish uchun yuborildi, bu esa unga G'arb madaniyati va nazariyalarini chuqur o'rganish imkoniyatini berdi. Amerikada o'tkazgan yetti yillik o'qish davrida u doimiy ravishda yangi nazariyalar bilan tanishib, ularni Xitoyning an'anaviy adabiyoti bilan birlashtirishga intildi. O'zining izlanishlari davomida to'plagan bilimlari asosida Hu Shi baihua tilidagi she'riyat nazariyasini yaratdi, bu esa keyinchalik Xitoy yangi she'riyatining g'oyaviy poydevori sifatida xizmat qildi.

Amerikadagi o'qishi davomida Hu Shining baihua she'riyati borasidagi izlanishlari nazariya va amaliyot bilan hamohang kechganligi kuzatiladi. U mazkur davrdagi ijodida she'riyatning an'anaviy qonuniyatlaridan voz kechmagan bo'lsa-da, o'zining nazariy qarashlarida bunday she'riyatning murakkabligi haqida gapirishni boshlagan va ayrim masalalar yechimiga doir takliflar bildirayotgan pallaga yetgan edi. Hu Shi "Adabiyot takomili va uning muvaffaqiyatini ta'min etish uchun nuqsonlardan saqlanish to'g'risida" deb nomlangan maqolasida u o'z davri adabiyotining eng katta qusurlarini ochiqdan ochiq sanaydi: "*Faqat shakl bor-u ruhiyat yo'q, faqat matn boru sifat yo'q, faqat jarangdor qofiyalar bor, ular esa shunchaki yuzaki so'zlardir*".¹ Adib o'z o'rnida adabiyot muvaffaqiyatini ta'min etish uchun nuqsonlardan saqlanishning ma'lum choralari taklif qiladi: so'zlarning ma'noga ega bo'lishi, grammatika qoidalari asosida yozish va yozuvda ushbu qoidalarni qo'llash ("即言之有物、讲文法、用文之文字"). Ya'ni adabiyot va yozma matnlarni yaratishda aniq ma'no, to'g'ri grammatika va yuqori darajadagi yozuv mahorati kerakligi ta'kidlangan. Uning bu qarashlari sekin-astalik bilan rivojlanib "yangi adabiyot uchun sakkiz yechim"² kosepsiyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Shundan so'ng Hu Shi ancha shov-shuvlarga sabab bo'lgan "Adabiyotni takomillashtirish bo'yicha takliflar" nomli maqolasini e'lon qildi. Mazkur maqolada adabiyotning mazmuni va shakli qayta yaratish jarayonida Hu Shi o'zining pozitsiyasini radikal islohotlardan mo'tadil takomillashuvga tomon o'zgartira boshlaganligiga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birga, yangi adabiyot uchun taklif qilingan "Sakkiz masala"ning mazmuni kengaytirilgan va ayrim tuzatishlar kiritilganligini kuzatamiz. Aytish mumkinki, bu Hu Shining erta davr she'riyat nazariyasiga doir eng muhim natijalaridan bo'lib, o'z davrida she'riy ijod amaliyotiga eng ko'p yo'naltirilgan nazariyalardan hisoblanadi.

¹胡适：《胡适留学日记》第3卷，上海商务印书馆，1947年11月第1版，第251页。

²O'sha manba: -B.:1002-1003.



Albatta, Hu Shi tomonidan takomilga yetkazilgan “Sakkiz yechim” asosan uning Amerikada tahsil olish davrida hammaslagi Mei Guangdi bilan olib borgan bahs-munozaralar natijasida shakllangan. Ushbu davrda adib G‘arb nazariyalarini o‘rganish bilan birga, o‘z ijodiy amaliyotidagi tajribalarni umumlashtirishga ham katta e‘tibor berdi va bu tajribalarni G‘arb bilan birlashtirish yo‘llarini izladi. Hu Shi o‘z esdaliklarida yozishicha, agar o‘sha paytdagi yaqin do‘stlari va hamkorlari bilan olib borgan muntazam muloqotlari bo‘lmaganida, uning adabiy qarashlari bunday katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmas va shu tarzda tizimli bir rejaga aylanib, asta-sekin o‘z yo‘lini topa olmas edi¹. U tilga olgan guruhdosh ikki qadrdoni aynan Mei Guangdi va Ren Hongjunlar bo‘lib, ular o‘rtasidagi muhokama va munozaralar 1915-yilda boshlanadi va bir yildan ko‘proq vaqt davom etadi. Hu Shi ilgari surayotgan g‘oyaga ko‘ra baihuada - xalq tilida she‘r yozish mumkin. U “Liang tog‘iga majbur ketish”² maqolasida baihua adabiyoti uchun kurash jarayonini tavsiflab, baihua adabiyotida erishilgan janglarda o‘n mahorabadan yetti-sakkiztasida g‘alaba qozonganmiz. Baihua she‘riyat olamini zabt eta olsak, baihua adabiyotining g‘alabasi to‘liq bo‘ladi, degan fikrlarini bayon etgan. Bu kuzatuvlar uning baihua she‘riyati masalasiga qanchalik e‘tibor qaratganini ko‘rsatadi.

Hu Shi she‘riyatni isloh qilish borasidagi bir qator munozara va muhokamalardan so‘ng asosan quyidagi qarashlarni ilgari surdi:

Til va yozuv birligiga erishish. Nutq va yozuvning uzoq vaqt davomida birbiridan uzoqlashuvi tufayli yozma til sekin-astalik bilan doimo faol va boy bo‘lgan shevalardan xoli tilga aylanib bordi. Mumtoz she‘riyatning eng asosiy konsepsiyasi, u nafis bo‘lishi kerak, nafislikka esa turli sheva, jargonlardan kirib kelgan so‘zlar zarar yetkazadi, deb hisoblangan. Shu sababdan she‘riyat muntazam ravishda ulardan “tozalanib” borildi va natijada u oddiy xalq tilidan butunlay uzoqlashdi, ularni o‘qib tushunish tobora murakkablashib bordi. Hu Shi 19-asr oxirlarida Huang Zunxian tomonidan ilgari surilgan “nimani so‘zlasam, shuni yozaman” shiorini qo‘llab-quvvatlagan holda, she‘riyatda so‘zlashuv tili, shevalar va dialektlar aks etishi kerakligini ta‘kidladi. U til va yozuv birligiga erishish maqsadida “*she‘r yozish matn yozishdek bo‘lishi kerak*”, “*she‘r yozish so‘zlash kabi bo‘lishi kerak*” singari she‘riyat tili islohotiga qaratilgan g‘oyalarni faol targ‘ib qildi. Uning “She‘r matn kabi bo‘lishi kerak” g‘oyasi she‘r yaratish jarayonida aniq belgilangan qoidalarga rioya qilinmasligi, she‘r matn

¹胡适：《逼上梁山》，《胡适文集》第1卷，北京大学出版社，1998年，第159页。

²《逼上梁山》("Bi Shang Liang Shan") - bu klassik Xitoy adabiyotida tez-tez uchraydigan bir ibora bo‘lib, "Liang tog‘iga majburan chiqish" degan ma‘noni anglatadi. Bu ibora Xitoyning mashhur romani - "水浒传" ("Suv bo‘yida")dan olingan. Roman adolatsizlik va ijtimoiy bosimlar tufayli qaroqchilikka majbur bo‘lgan turli xil odamlar guruhini hikoya qiladi. Ularning ko‘pchiligi adolat izlab, oxir-oqibat Liang tog‘idan boshpana topadi va qaroqchilar guruhiga qo‘shiladi. Bu ibora, kengroq ma‘noda, kishilarni o‘zlarining xohish-irodasi tashqarisida ekstremal qarorlar qabul qilishga majbur qiladigan vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.



yoki badiiy esse kabi tabiiy tashkil etilgan bo‘lishi kerakligini anglatadi. “She’r yozish so‘zlash kabi bo‘lishi kerak” g‘oyasi tinglovchi yoki o‘quvchining she’r matni bilan yanada yaqinroq aloqa o‘rnatish imkoniyatini yaratish uchun uning sodda va tabiiy qurilishga intilishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv she’riyatni yanada demokratik va kengroq auditoriyaga murojaat qiluvchi vosita darajasiga ko‘tarib, sodda va samimiy ifoda uslublarini qo‘llashni targ‘ib qiladi.

“Tirik adabiyot” va “o‘lik adabiyot”: Hu Shi bu haqda shunday yozadi: *Xayf, so‘nggi besh yuz yil davomida yarim o‘lik qadimgi matnlar, yarim o‘lik she’riyat va qofiyalangan so‘zlar jonli adabiyot o‘rnini qayta egallab oldi, tirik adabiyotning zaiflashuvi, umidsizligi bugungi kunga qadar davom etmoqda*¹. Hu Shi so‘nggi besh yuz yil ichida xitoy adabiyoti, ayniqsa, qadimgi uslubdagi matnlar va she’riyatning ahvolini keskin tanqid qildi. She’riyat “*Yarim jonsiz*” (“半死之古文” va “半死之诗词”) holga kelib qolganligi va zamonaviy kontekstda avvalgidek ta’sir kuchiga ega emasligini ta’kidlaydi. An’anaviy adabiyot bir paytlar jonli adabiyotning o‘rnini egallab, yangi va jonliroq adabiyot shakllariga yo‘l ochish o‘rniga, tobora murakkablashib borgan qat’iy qoidalarga ega adabiyotni yaratish bilan band bo‘ldi va oqibatda u ayni paytda nochor holga keldi, u zamonaviy odamning his tuyg‘ularni kuylashga kuchsiz, bu xalq uchun tirik adabiyot, tirik she’r kerak, degan fikrda qat’iy turdi.

“Har bir davrning o‘z adabiyoti bor” g‘oyasi. Hu Shi G‘arbning zamonaviy ilmiy-falsafiy ta’limotlariga asoslangan hamda evolutsiya nazariyasiga oid yondashuvlar bilan tushuntirilgan “har bir davrning o‘z adabiyoti bor” g‘oyasini ilgari surdi. Hu Shi bu g‘oyasi orqali Xitoyning “adabiyot inqilobi” davrida G‘arbning ilmiy nazariyalaridan foydalanish kerakligiga urg‘u beradi. “Evolutsiya nazariyasi” yondashuvi, adabiyotning vaqt va jamiyat sharoitlari bilan qanday o‘zgarib borishini tahlil qilishda qo‘llagan holda o‘sha davrning madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi yangi adabiyot yaratish va bunda, avvalambor, barcha uchun tushunarli bo‘lgan yagona tilni targ‘ib qilish g‘oyasini amalga oshirishga harakat qildi.

Baihua tarixini o‘rganish. Qadimgi she’riyatdan baihua elementlarini qidirish bo‘yicha chuqur o‘rganish boshlandi, bu esa keyinchalik “Milliy adabiyot tarixi” va “Baihua adabiyoti tarixi”ning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qildi. Bu tajriba, qadimgi matnlarni yangi perspektivadan baholash va tushunish hamda baihua tilining adabiyotdagi o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Baihua yangi she’riyatini targ‘ib qilish jarayonida Hu Shi yangi she’rlar yaratish bilan ham band bo‘lgan. Biroq, u avvalroq baihua tilida an’anaviy uslubda she’riyat yaratish tajribasidan o‘tgan bo‘lib, bu jarayon unga baihua tilida she’riy ifoda vositalarini mohirona qo‘llashni o‘rganishga yordam bergan bo‘lsa-da, boshqa tomondan uning an’anaviy she’riyat ta’siridan xalos bo‘lishini qiyinlashtirgan. Masalan:

¹胡适: 《胡适留学日记》第3卷, 上海商务印书馆, 1947年11月第1版, 第865页。

江上秋晨¹

眼前风景好，何必梦江南？□ Yǎnqián fēngjǐng hǎo, Hébì mèng jiāngnán?
 云影渡山黑，江波破水蓝。 Yún yǐng dù shān hēi, Jiāngbō pòshuǐ lán.
 渐多黄叶下，颇怪白鸥贪。 Jiàn duō huáng yè xià, Pō guài bái ōu tān.
 小小秋蝴蝶，随分来两三。□ Xiǎo xiǎo qiū húdié, Suífēn lái liǎng sān.

Jiāngshàng qiū chén

Daryo kuz tongi²

Ko‘z oldimda manzara go‘zal,
 Nega orzu qilay Janub tomonni?
 Tog‘larni qoraytirar bulutlar,
 To‘lqinlar buzadi moviy daryoni.
 Ko‘paymoqda sarg‘aygan barglar,
 Ochko‘z chag‘alaylar kezar har yonni.
 Kuz oyining mittigina kapalaklari,
 Ikki-uchta, sekin ortmoqda soni.

Bu Hu Shining 1916-yil an‘anaviy metrik qoidalarga binoan baihua tilida yozgan ilk she‘ri bo‘lib, kundaliklarida yozishicha, do‘stlari va hammaslamlari bu she‘rni baihua she‘ri sifatida tan olishmaydi. Unga baho berishar ekan, she‘rning tili oddiy, tushunish oson, hech qanday murakkablik yo‘q, unda baribir an‘anaviy badiiy tilning kuchli ta‘mi sezilishini; “好 hao” (yaxshi) va “黑 hei” (qora) so‘zlari ikki ohangli ekanligi; “南 nan” (Janub), “蓝 lan” (moviy), “贪 tan” (ochko‘z) so‘zlari an‘anaviy she‘riyatda standart qatlamli qofiya sanalishi, she‘r butunlay tabiat tasvirlariga bag‘ishlangan bo‘lib, chuqur hissiy yuklamalarga ega emasligi aytiladi. Adib unga bildirilgan tanqidiy fikrlarga javoban, she‘riyatning asosiy ilhom manbasi tabiiy va instinktiv hislar ekanligini ta‘kidlagan holda: she‘riyat tabiatdan kelib chiqadi va shoirning ichki tuyg‘ulari tomonidan boshqariladi, uni esa tiyib turishning sira iloji yo‘q, she‘riyat bu tabiiylikdir³, deya o‘z she‘ri haqida mulohazalarini bayon qiladi.

Hu Shi biroz o‘tib, xitoy yangi she‘r tarixida kashfiyot sifatida qaraladigan “Kapalak” she‘rini yozdi:

¹胡适:《白话律诗》,《胡适留学日记》第4卷,上海商务印书馆,1947年11月第1版.

²Tarjimalar maqola muallifiniki

³胡适:《胡适留学日记》第3卷,上海商务印书馆,1947年11月第1版,第22页.

**蝴蝶¹**

| | | |
|--------|--------|--|
| 两个黄蝴蝶， | 双双飞上天。 | Liǎng gè huánghúdié, shuāng shuāngfēi shàngtiān. |
| 不知为什么， | 一个忽飞还。 | Bùzhī wèishéme, yīgè hū fēi huan. |
| 剩下那一个， | 孤单怪可怜。 | Shèng xià nà yīgè, gūdān guài kělián. |
| 也无心上天， | 天上太孤单。 | Yě wúxīn shàngtiān, tiānshàng tài gūdān. |

□

Kapalaklar**Daryo kuz tongi**

Ikki sariq kapalak,
 Uchishdilar birga osmonga.
 Bilmadim ne uchundir,
 Biri qaytdi orti tomonga.
 Unda qolgan u bir kapalak,
 Yolg'iz qoldi qanday bechora.
 Hissiz uchar endi u ko'kda,
 Yolg'iz qoldi usiz, nachora.

Bu she'r ham 1916-yilda yozilgan bo'lib, Hu Shining baihuada yozilgan ilk she'rlaridan hisoblanadi. "Sinama she'rlar to'plami"dan birinchi jild, birinchi she'ri sifatida o'rin egallaganligini hisobga olsak, mazkur she'r Hu Shi uchun alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy baho berish mezonlari bilan qaraganda, she'r badiiy qimmatini oz, muvaffaqiyatsiz yangi she'rdek tuyulishi mumkin, lekin tarixiy nuqtayi nazardan baho berilsa, Hu Shi baihuada sinab ko'rgan muvaffaqiyatli tajribalardan biri sifatida tan olishimiz lozim. Shu tariqa baihua og'zaki tili she'rga kirib kelishi jadallashdi va uning imkoniyatlaridan kelib chiqib, tabiiy ritm shakllana boshladi, qofiyalarning ham erkinligi ta'minlanishi uchun yana bir qadam tashlandi.

Hu Shi, 20-asr Xitoy adabiyotidagi yangilanishlar harakatining markaziy shaxslaridan biri sifatida, til va she'riyatda katta o'zgarishlarni ilgari surdi. Baihua tili Hu Shi tashabbuslari natijasida adabiy va ilmiy sohalarda keng qo'llanila boshladi. Uning bu yo'nalishdagi asosiy maqsadi, til va adabiyotni oddiy xalqqa yaqinroq qilish va shu orqali ilmiy va ma'naviy taraqqiyotga zamin yaratish edi. Hu Shi she'riyatdagi an'anaviy qoliplarni buzishga intildi, bu esa "she'riyat ozodligi" g'oyasi asosida amalga oshirildi. Uning fikricha, she'rlar murakkab qofiya va vazndan ozod bo'lishi, tabiiy va samimiy ifodalarga ega bo'lishi kerak edi. Bu yangilik avvaliga an'anaviy adabiy doiralardan tomonidan keskin tanqid qilindi. Ko'plab qadimchi olimlar va shoirlar Hu Shining bu yondashuvini xitoy adabiy merosiga zarar yetkazishga urinish deb baholashdi.

Hu Shi kabi bir qator islohot tarafdorlari klassik xitoy tili tizimi, ya'ni *venyaning* yangi zamonga xos tushunchalarni erkin ifoda etish imkoniyatlari

¹胡适：《尝试集》，《胡适全集》第10卷，安徽教育出版社，2003年，第50页。



yo‘q, an‘anaviy adabiyot nazariyalari va uslublari jamiyatning rivojlanish ehtiyojlariga mos kelmay qoldi va yangi davrning ma‘naviy mazmunini ifodalay olmaydi, shuning uchun yangi tizimni o‘rnatish hamda belgi va ma‘no o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash zarur, degan g‘oyani ilgari sura boshlashdi. Dastlab, Huang Zunxian va Liang Qichao yangi adabiyot rivoji uchun unga mos keluvchi modellarni qidirishdi, ular tomionidan ilk bor amalga oshirilgan “she‘riyat inqilobi” va “hikoyachilik inqilobi” eski adabiy shakllar adabiyot rivojiga to‘sqinlik qilayotganligini, yangi adabiy shakllarni o‘rnatish zarururiyati borligini ko‘rsatadi. Bu asosda, Hu Shi an‘anaviy xitoy tilini baihua tili bilan almashtirishdek inqilobiy g‘oyasini tarixiy oqimga mos ravishda ilgari surdi va shu bilan birga adabiyot ichki mexanizmini sozlash va o‘zgartirish ehtiyojini qondirishga ulkan hissa qo‘shdi, deb hisoblashimiz mumkin.

Baihua harakati asosida nazm va nasrga nisbatan yuzaga kelgan qarshiliklar sezilarli darajada farq qiladi. Hu Shi baihua tilini she‘riyatda qo‘llash masalasini ko‘targanida, uning yondashuvi ikki asosiy jihatda namoyon bo‘ladi. Bular, birinchidan, u eski she‘riyatning qat‘iy metrik qoidalarini rad etib, tabiiy bo‘g‘inlarga o‘tishni taklif qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, baihuada she‘r yozish bu – faqat klassik xitoy tilining leksikasini baihua leksikasiga almashtirish emas, balki baihua grammatikasini qo‘llash va xorijiy tillar grammatikasidan ilhomlanish orqali prozaik she‘riyat shakliga o‘tishdan iborat edi. Bu yangi zamon ruhida fikrlashni boshlagan ziyolilarning an‘anaviy she‘riyat tiliga va shakliga qarshi isyoni edi, ularning bunday harakatlari yangi she‘riyat shakllari va uslublarni yaratish yo‘lini ochdi. Hu Shining “She‘r yozish, matn yozishdek bo‘lsin” g‘oyasi ortida davrning talab qilgan chuqur o‘zgarishlari yotgan bo‘lsada, hali ham ustunlik qilayotgan she‘riyat an‘analari va estetik qadriyatlar kuchli qarshilikka ega edi. Baihuani she‘riyatda qo‘llash masalasi ko‘tarilganda, unga bo‘lgan qarshilik juda keskin bo‘ldi. Qarshilik harakatining asosiy shaxslaridan biri Mei Guangdi, ‘Har bir janr o‘ziga xos. Roman va qo‘shiqlar uchun yoziluvchi *tsi* (詞) va *chuy* (曲) uchun baihuani ishlatish mumkin, lekin aslo she‘riyatda emas, degan fikrni ilgari surdi. Ren Shuyong esa baihua tilining o‘z ishlatilish o‘rni bor, masalan, nasr yoki sahna nutqida foydalanish mumkin, lekin she‘riyatda ishlatib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi¹. Ko‘rinadiki, Mei Guangdi va Ren Shuyong kabi adiblar adabiyotni isloh qilish kerakligi, zamon ruhiga moslashtirish lozimligi tarafdorlari bo‘lishgan, ular faqatgina Hu Shi tomonidan yangilanishlarning eng muhim masalasi sifatida ilgari surilayotgan she‘riyat tilini rasman o‘zgartirish, venyan o‘rniga baihuani qo‘llash taklifiga nisbatan qat‘iy qarshi turishgan.

Xitoy adabiyoti tarixiga nazar solsak, nazm nasrdan ko‘ra ustun mavqega ega ekanligini, she‘riyatning adabiyot olamida eng yuqori madaniy-estetik tur sifatida tan olinganligini ko‘rish mumkin. Nasriy asarlarga qo‘yilgan qoidalar ancha moslashuvchan bo‘lib, yozuvchilar o‘z asarlarini xohlagan tarzda yozish

¹胡适:《逼上梁山》,《胡适文集》第1卷,北京大学出版社,1998年,第156页。



imkoniyatiga ega bo'lib, ular til jihatidan venyan yoki baihuada erkin yozishlari mumkin edi. Biroq, she'riyat uchun bunday yondashuv mumkin emas, chunki she'riyat Xitoy o'rta asrlar madaniy diskursida alohida va deyarli muqaddas darajadagi o'ringa ega bo'lgan. Tang sulolasi davrida qat'iy metrik qoidalarga asoslangan she'riyatga talab ortib, bu talablar vaqt o'tishi bilan yanada kuchaygan. She'riyat tili istisnosiz venyan tilida bo'lib, uning baihuada yozilishi, hatto ko'pchilik zamonaviy kishilar tomonidan ham qabul qilinmaydigan holat edi. Xitoy adabiyot an'anasida she'riyat asosiy tur sifatida yuqori madaniyatga tegishli bo'lib, u ko'cha-ko'y so'zlaridan iborat romanlar kabi quyi madaniyatga xos hisoblanmaganligi sabab, baihua tilida yozilgan she'riyat estetik me'yor sifatida qabul qilinmagan. Bunday vaziyatda Hu Shining she'riyat tilini baihuaga o'tkazish g'oyasi bilan chiqishi adabiyot ahli o'rtasida katta dessonans keltirib chiqarishi tabiiy edi.

Ko'p urinishlardan so'ng baihuani she'riyat tili sifatida qo'llash o'sha vaqt kishilarining estetik mezonlariga katta ta'sir ko'rsata oldi, faqat bir muammo - baihuani she'riyatning haqiqiy "rasmiy" tili sifatida qabul qilish masalasi qolgan edi. Venyan an'anaviy yuqori qatlam madaniyatining belgisi sifatida namoyon bo'lsa, baihua oddiy xalqning kundalik so'zlashuv tili, ya'ni u quyi qatlam madaniyatiga xos. Hu Shi shundan kelib chiqib, baihua nima sababdan xitoy yangi she'riyatining tili bo'lishi kerakligini muxtasar tushuntirib berdi: bosh g'oya baihua tilini ilgari surish orqali nafaqat uni adabiyotning asil tili darajasiga olib chiqish, balki baihua tili xos bo'lgan quyi madaniyatni yangi madaniyatni tatbiq qilishning ulkan qudratiga aylantirish. Hu Shi shunday deydi: Kuchimiz boricha baihuada she'r yozaveraylik, baihua adabiyoti uchun kechayotgan jangda eng katta qal'ani qo'lga kiritmaguncha harakat qilaylik. Zero, she'riyat yozma adabiyotning eng sof yoquti, adabiyot san'atining eng yuksak ifodasidir. She'r, bu g'oyalarni qo'lga kiritish maydoni sifatida zabt etilishi lozim, shundagina baihua tilining muvaffaqiyati o'zining so'nggi kafolatiga ega bo'lgan hisoblanadi¹. Agar baihua she'riyat tili sifatida tan olinadigan bo'lsa, uning yuqori madaniyatga xos deb hisoblangan an'anaviy she'riyatga kirib borishi tabiiy va mantiqiy holga aylanadi. Shubhasiz, Yangi Madaniyat Harakati tashabbuskorlari she'riyatni baihua harakatining markaziy qismiga aylantirishga intilishgan. Ular bu orqali adabiyot an'alarida asli o'rni bo'lmagan baihuani quyi qatlam madaniyatining vakili sifatida rasmiy tan olinish darajasiga ko'tarishni maqsad qilishgan. Bu islohotchilar tomonidan ilgari surilgan eng kuchli strategiyalardan biri bo'lib, yangi adabiyot tilini qonuniylashtirishning eng samarali yo'li hisoblanar edi.

Baihua she'riyati rasman tan olindi ham deylik, biroq uning tashabbuskorlari oldida baihua she'riyatining imkoniyatlarini qanday ro'yobga chiqarishdek muhim masala turardi, chunki ularda ajdodlardan deyarli hech qanday tajriba

¹李孝悌.胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901-1911.石家庄:河北教育出版社,2001.287.



meros bo‘lib qolmagan. Bu masalaning yechimi yuzasidan inqilobchi va muxolif oqim vakillari turli fikrlarni o‘rtaga tashlay boshlashdi. Muxolif Wu Mi yangi she‘riyatning qoidasi yangi materiallarni tayyor eski qoliplarga joylash kerak, degan tashabbus bilan chiqdi. Shundan so‘ng ko‘pchilik tajriba tariqasida she‘rlar yoza boshlashdi: eski shaklga moslashtirilgan baihua she‘rlar, eski shakldagi “*tsi*”, “*qu*”larni baihualashtirish, prozaik baihua she‘rlar yozish va hokazolar. Hu Shi esa baihua she‘rlari bo‘yicha o‘zining alohida amaliyotni olib bordi, uning “Sinama she‘rlar to‘plami” baihua she‘riyati islohotlari maydonidagi birinchi portlash bo‘ldi, deb baholash mumkin. Biroq, baihua she‘riyatiga o‘tishning dastlabki davrida klassik she‘riyatning metrik qoidalari va boshqa elementlaridan voz kechilgan bo‘lsa-da, hissiy-emotsional jihatlarini saqlab qolgandi. Hu Shi “Yangi she‘r haqida” maqolasida tan olganidek, unga ma‘lum bo‘lgan yangi she‘riyat vakillarining ko‘pchiligi eski uslubdagi she‘r, qo‘shiq-lardan chiqib kelishgan”¹. Yangi adabiyot harakati, “4-may” harakatining madaniyat qanoti ham strategik jihatdan baihua she‘riyatini baihua nasridan ancha ustun mavqega ega deb hisoblashsa-da, erishilgan natijalar quvonarli emasdi. Bunga yangi she‘r harakatining boshlang‘ich namunalarning sifat jihatdan pastligini, baihua she‘riyati nazariyasining sayozligi hamda yangi she‘riyat hali-gacha “sinov” jarayonidan o‘tayotganligini asosiy sabablar sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Nima bo‘lganda ham baihua she‘riyati allaqachon “buzilish”dan “qurilish”ga tomon yo‘nalgan o‘ta murakkab va ortga qaytib bo‘lmas yo‘lga tushib bo‘lgan edi. U “Manjurlar saltanatining so‘nggi yillariga kelib o‘z mav-qeyini ancha mustahkamlab olgan baihuaning o‘rnini qaytadan belgilab berdi. Asli o‘rni quyi yoki o‘rta-quyi qatlamdagi jamiyatga xos bo‘lgan baihua endi har bir qatlamgacha kirib borishga erishdi; uning foydalanuvchilarini arava tortib, sharbat sotadigan odamlardan adabiyot va san‘at olamining “qo‘riq-chilari” darajasigacha ko‘tardi”². Tan olib aytish mumkinki, Hu Shi ko‘plab jid-diy qiyinchiliklarga qaramay yangi adabiyot uchun yangi yo‘l ochib berdi, u zamonaviy she‘riyat uchun har tomonlama pishiq namunalar taqdim eta olmagan bo‘lsa-da, keyinchalik paydo bo‘lgan yangi she‘riyatning turlicha masalalari Hu Shi tomonidan ilgari surilgan baihua she‘riyati nazariyalari bilan chambarchas bog‘liqligi aksaryat zamondosh olimlar tomonidan so‘zsiz tan olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Hu Shining yangi adabiyot, xususan, yangi she‘riyat yaratish borasidagi izlanishlari, qizg‘in faoliyati va uning zamonaviy xitoy adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelindi: **birinchidan**, Hu Shi xitoy adabiyotida klassik xitoy tili (venyan) o‘rniga oddiy xalq so‘zlashuv tili - baihuadan foydalanishni targ‘ib qilish orqali adabiyotni tubdan modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynadi; adabiyotni yanada ommalashtirish va zamonaviy hayotga moslashtirish maqsadida tilni

¹胡适.谈新诗.中国新文学大系·建设理论集.上海:上海良友图书印刷公司, 1935.

²李孝悌.胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起.清末的下层社会启蒙运动:1901-1911.石家庄:河北教育出版社, 2001.287.



soddalashtirishga alohida urg'u berishi adabiyotni demokratlashtirish va uning ahamiyatini oshirishda katta qadam bo'ldi; **ikkinchidan**, Hu Shi G'arb adabiy nazariyalari bilan tanishib, AQSHda olgan bilimlarini xitoy adabiy an'analari bilan integratsiyalashga harakat qildi; bu yondashuv G'arb va Sharq adabiyotini birlashtiruvchi, kengroq madaniy va adabiy tushunchalar qabul qilinishini ilgari suruvchi gibrid madaniyatni shakllantirishga yordam berdi; **uchinchidan**, Hu Shi an'anaviy she'riy shakl va uslublardan to'liq voz kechishga undab, zamonaviy san'atda novatorlik va kreativlikni rag'batlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning baihua tilida yangi she'riyat yaratish g'oyasi, adabiyot sohasida tub burilish yaratib, badiiy ifodaning chegaralarini kengaytirdi. Bu yondashuv, Hu Shi ta'kidlaganidek, tilning sodda va tabiiy qurilishini qo'llab-quvvatlash orqali she'riyatni kengroq auditoriyaga murojaat qiluvchi vositaga aylantirishga xizmat qildi; **to'rtinchidan**, Hu Shining bu yondashuvi boshqa san'at turlariga ham ilhom berdi. Masalan, rassomlar, musiqachilar va dramaturglar ham o'z ishlarida an'anaviy qoliplardan chetlashib, zamonaviy ifodalash usullarini qabul qilishga moyil bo'ldilar. Hu Shining islohotlari nafaqat xitoy adabiyotiga, balki, umuman, san'atning turli sohalariga yangi yo'nalish va yangilanish ruhini olib kirdi. Bu o'zgarishlar zamonaviy san'at asarlarining yaratilish uslubida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi va ijodkorlarni yanada erkinroq va eksperiment qilishga undadi; **beshinchidan**, Hu Shi o'z islohotlari orqali til va adabiyotni yangilash bilan birga, Xitoy jamiyatida chuqur ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni rag'batlantirgan. Uning baihua tilini adabiyotda qo'llashga bo'lgan harakati, an'anaviy uslublardan voz kechish va yangi she'riyat yaratish tashabbuslari, o'z navbatida, kengroq ijtimoiy va madaniy diskurslarni yangilashga xizmat qildi. Hu Shi islohotlari nafaqat tilshunoslik va adabiyotni, balki, umuman, Xitoyning zamonaviy madaniyatini qayta shakllantirishda muhim rol o'ynadi, bu esa eski qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish va yangicha fikrlash usullarini keng tarqatish imkonini berdi; **oltinchidan**, Hu Shi o'zining adabiy islohotlarini ilgari surishda turli qarshiliklar va tanqidlar bilan duch kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan uning g'oyalari kengroq qabul qilina boshlandi. Uning islohotlari nafaqat she'riyat, balki butun bir adabiy tilning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Natijada, baihua tili zamonaviy xitoy adabiyotining asosiy vositasiga aylandi va bu til orqali yozilgan asarlar xitoy madaniyati va jamiyatida chuqur ildiz otishga muvaffaq bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 胡适: 《胡适留学日记》第3卷, 上海商务印书馆, 1947年11月第1版
2. 胡适: 《逼上梁山》, 《胡适文集》第1卷, 北京大学出版社, 1998年.
3. 胡适. 谈新诗. 中国新文学大系·建设理论集. 上海: 上海良友图书印刷公司, 1935.
4. 胡适: 《白话律诗》, 《胡适留学日记》第4卷, 上海商务印书馆, 1947年11月第1版.
5. 胡适: 《尝试集》, 《胡适全集》第10卷, 安徽教育出版社, 2003年



6. 李孝悌. 胡适与白话文运动再评估——从清末的白话文谈起. 清末的下层社会启蒙运动: 1901-1911. 石家庄: 河北教育出版社, 2001. 287.
7. Озоджон Очилов. "Хитой янги шеърийатининг эволюцион шаклланиш хусусиятлари (XIX асрнинг охири-XX асрнинг бошлари)" Sharq ma'shali / Восточный факультет, vol. 14, no. 2, 2022, pp. 20—25.

YULDASHEVA XILOLA

Dotsent, f.f.n., TDSHU

Milliy identifikatsiya — arab adabiy personaji timsolida

Annotatsiya. Milliy identifikatsiya va uning arab adabiyotidagi personajlar timsolida aks etishi mavzusida tahliliy va tanqidiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan ushbu maqola, arab adabiyotining klassik va zamonaviy asarlaridagi muhim personajlar orqali milliy identifikatsiyaning qanday shakllangani va rivojlangani, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstlardagi o'zgarishlarning personajlar xarakteri va ularning milliy identifikatsiyadagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'z va birikmalar: Arab adabiyoti, milliy identifikatsiya, personajlar tahlili, madaniy o'zgarishlar, klassik va zamonaviy asarlar, madaniyat va identifikatsiya, milliy o'zlikni anglash.

Abstract. This article explores the theme of national identity and its reflection in the characters of Arabic literature, examining both classical and contemporary works. Through extensive research in literature and cultural studies, the author delves deeply into the mechanisms of formation and development of national identity through literary characters, revealing various ways of understanding and expressing national self-awareness. The paper also investigates how changes in cultural and social contexts affect the characters' nature and their role in national identification. Based on literary analysis and critical reflection, the article illuminates the dynamic essence of national identity within the complex network of cultural and social relationships, providing readers with a profound understanding of the rich and diverse world of Arabic literature.

Keywords and expressions: Arabic literature, national identification, character analysis, cultural changes, classical and modern works, culture and identity, national self-awareness.

Аннотация. В данной статье рассматривается тема национальной идентификации и её отражения в образах персонажей арабской литературы на примере как классических, так и современных произведений. На основе обширных исследований в области литературы и культурологии анализируются механизмы формирования и развития национальной идентичности через литературные персонажи, раскрывая разнообразные способы понимания и выражения национального самосознания. В статье подчеркивается динамический характер национальной идентичности в контексте сложной сети культурных и социальных взаимоотношений, что позволяет глубже понять богатый и многогранный мир арабской литературы.



Ключевые слова: арабская литература, национальная идентификация, анализ персонажей, культурные изменения, классические и современные произведения, культура и идентичность, осознание национальной самобытности.

XX asrda kelib chiqqan va XXI asrga meros bo‘lib o‘tgan ekzistensial muammo shundaki, inson boshqa odamlardan, adabiy qahramonlardan, o‘zining haqiqiylikidan, atrofidagi dunyodan borgan sayin begonalashib bormoqda. Identiklikni izlash, ya’ni insonni hayotdagi u yoki bu hodisalar bilan aynanlashtirishni qidirish hozirgi zamonning dolzarb gumanitar muammolaridan biriga aylandi. Depersonalizatsiya, anomiya, marginallashuv, rollar to‘qnashuvi va inson mavjudligining boshqa shakllari kabi ijtimoiy hodisalarda mujassamlangan o‘zlikni yo‘qotish XX asr boshlarida shakllangan adabiy an‘ananing manbayi bo‘lib xizmat qildi.

Adabiy qahramon obrazining milliyliги va o‘ziga xosligi muammosi, fikrimizcha, bir tomondan, Mixail Mixaylovich Baxtin ta’riflagan muallif va qahramon asaridagi ikki tomonlama boshqaruvi bilan, boshqa tomondan esa, asar qahramoni bo‘lgan ijodiy subyekt rivoyat faoliyatining protsessual tabiati, qiymati, semantik yo‘nalishining dinamik-keskin nisbati va o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq¹.

Ijodiy faoliyat jarayonida qahramon obrazining o‘ziga xosligi insonning, ma’lum bir shaxsning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy, mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, psixologik, ijtimoiy ahamiyatga ega tarkibning ayrim tomonlariga munosabat orqali shakllanadi hamda “milliy identiklik” tushunchasi badiiy vositalar yordamida yaratilgan tasvirning tana-vizual to‘liqligini o‘z ichiga oladi. Asarda tasvirlangan birgina obraz zamirida yuzlab, minglab insonlarga xos xislat va belgilar umumlashtirilib, jamlab berilgan. Shu sababli, yozuvchining mahorati, uslubi va tasvirlash san’ati haqida fikr yuritilganda ham, asosan, shu unsurlardan kelib chiqib ish tutish zarur bo‘ladi. Mana shunga ko‘ra, badiiy asarni o‘qiganda sezib turamizki, asarda tasvirlangan kishilar hayotdagi jonli odamlarning aynan o‘zi emas, balki, aksincha, jonli odamlarning eng muhim, tipik xislatlarini o‘zida jamlagan, badiiy bir butunlikka yig‘gan, sintezlangan shaklidir. Umumlashtirish badiiy obrazning muhim xususiyati bo‘lib, busiz badiiy obraz yaratib bo‘lmaydi.

Yozuvchilar o‘z asarlarida qahramonlarning qiyofasi, ismlari, kiygan kiyimlari va voqealar sodir bo‘layotgan joylar orqali muayyan madaniyat va millatlarning aniq tasvirini yaratishga harakat qiladilar. Bu tasvirlar orqali o‘quvchilar asarning qaysi millatga xos ekanligini osonlik bilan tushunishlari mumkin.

Misol uchun, agar qahramonning ismi Juan yoki Mariya bo‘lsa va u kishilar flamenko raqsini o‘ynab, chiroyli Ispan kiyimlarini kiyishgan bo‘lsa, o‘quvchi darhol bu voqealar Ispaniya madaniyatiga oid ispan xalqi identikligi ekanligini tushunishi va u millatni identifikatsiya qilishi mumkin. Shuningdek, agar asarda

¹ Бахтин, Михаил Михайлович. Собрание сочинений: в 7 т. Т. 1: Философская эстетика 1920-х годов / М. М. Бахтин; [ред.: С. Г. Бочаров, Н. И. Николаев]; Рос. акад. наук, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. - Москва: Русские словари: Языки славянских культур, 2003. - С. 612.



ko'pincha sushi, samuraylar va geysalar haqida so'z borsa, bu Yaponiya madaniyatiga xos jihatlardir. Bunday ma'lumotlar orqali o'quvchilar asarga yanada chuqurroq kirishib ketishadi va uning mazmunini, madaniy kontekstini yaxshiroq tushunishadi. Shuning uchun, yozuvchilar o'z asarlarida madaniy tafsilotlarga alohida e'tibor beradilar.

Masalan, "...Ertalab bo'lganida, hamma Abu Avadni ko'rdi. U o'z dalasiga g'amgin, qaddi bukilgan holda borardi va boshini al-iadamiya (kufiya uqalsiz¹) bilan bog'ladi – qasos qasamini ichgan odam uni shunday kiyadi va qasamni bajarmagunicha olib tashlamaydi...."²

Mazkur parcha suriyalik yozuvchi Mavaxib al-Kiyalining "Qasos" romanidagi arab shaxsini ko'rsatuvchi asosiy element arablarning an'anaviy bosh kiyimi–kufiya, hisoblanadi. Boshni bir necha qatlamlarga o'ralgan mato bilan yopish, havo qatlamini yaratish an'anasi arablarda mahalliy aholi tomonidan islom qabul qilinishidan oldin ham rivojlangan. Mahalliy aholi tasvirlangan eng qadimgi rasmlarda erkaklar boshlarini turli rangdagi mato bo'laklari bilan yopib, echki junidan o'ralgan halqalar bilan mustahkamlashlari tasvirlangan. Shunisi qiziqki, hozirgi kunda juda mashhur bo'lgan qora va qizil katakli kufiyalar yaqinda, o'tgan asrning 20-yillarida paydo bo'lgan. Bu urf Birinchi jahon urushidan keyin sobiq Usmonli imperiyasi hududida Falastin va Iordaniyani ajratgan inglizlarning mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq. Ingliz mustamlakachilar "Iordaniya"dan "Falastin"ni ajratish uchun, qizilkatak kufiya kiyishni "Iordaniya"ga va qora kufiyani "Falastin"ga buyurgan.

Lekin, shuni ta'kidlash kerakki, katakli naqsh qadimgi Mesopotamiya va Iroqqa xos qadimiy an'anadir. Aslida, "kufiya" nomining o'zi Iroqning Kufa shahridan olingan va shu sababli Iroq aholisi ularni boshqalardan oldin kiyishni boshlagan deyiladi. Fors ko'rfazining boshqa mamlakatlariga kelsak, ularda Britaniyaning bevosita aralashuvini boshdan kechirmagan, ular oddiy, ko'pincha oq kufiya kiyishni afzal ko'rishadi. Shuningdek, kufiya kiyish uslubiga ko'ra, uning egasi Qatar, Saudiya, Kuvayt, Ummon, Bahrayn yoki Birlashgan Arab Amirliklari mintaqasidan ekanligini identifikatsiya qilish mumkin. Saudiyaliklar qizil-oq katakli kufiyani ukal bilan kiyishni afzal ko'rsalar, Ummon uni salla kabi o'rashadi, Yaman esa bandana kabi bog'laydi. Saudiya Arabistonida "kufiya" emas "g'utra" so'zi ishlatiladi. Gutra kufiyadan farqli o'laroq oq rangda bo'ladi. Bularning barchasidan ko'rinib turibiki, garchi arablar bir tilda so'zlashuvchi millat bo'lsalar ham ularni qaysi mintaqadan ekanliklarini kiyimlaridan identifikatsiya qilsa bo'ladi. Shu sababli yozuvchilar ham o'zning identikligiga qarab qahramonlarining kiyimini urf-odatlarini tasvirlaydi. Kufiyani uqalsiz kiyish–bu kontekstda alohida ahamiyatga ega. Qahramonning boshini uqalsiz kufiya bilan qanday

¹ Echki yoki tuya junidan to'qilgan bog'ich, arablar kufiya ro'mollari ustidan mustahkamlash uchun qo'llaydilar.

² Идрис Юсуф, Теймур Махмуд "Рассказы арабских писателей" Издательство иностранной литературы М.1955. С. 35.



bog'lashi tavsifi qasos yoki qasam va'dasi bilan bog'liq madaniy identiklikka ishora qiladi. Bu Suriya arab madaniyatida chuqur ildiz otgan an'ana va urf-odatlarining identifikatsiyasidir.

Misr yozuvchisi Mahmud Teymur o'zining "Sayyoh" nomli hikoyasida asar bosh qahramonini shunday tasvirlaydi: "Muhammad Najibek Abdulloh al-Azhar diniy maktabi yaqinidagi uyida onasi, enagasi va bir nechta sadoqatli xizmatkorlari bilan yashagan"¹.

Yoki, "Najibekning hayoti yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlikda edi; uning oylik daromadi yuz Misr funtini tashkil etadi; uning norozi va shikoyat qiladigan hech narsasi yo'q edi. Najibek qirq sakkiz yoshda edi va uning qora soqoli allaqachon oq oralagan edi. U har doim rangli yoki qora jubba kiygan va boshida keng, biroz yassilangan torbush bor edi"².

Ko'rib turganimizdek, mazkur parchada Mahmud Teymur misrlik arablar identifikatsiyasining ayrim jihatlari orqali Misr arab madaniyati va ijtimoiy hayotining xususiyatlarini ko'rsatishga uringan. Najibek Muhammad Abdullohning obrazi orqali Misr arab identikligining bir necha jihatlari bilan tanishamiz; Najibekning "oylik daromadi yuz Misr funtini tashkil etadi" degan qismi uning ijtimoiy maqomini va Misr pul birligini ko'rsatadi. Bu miqdor, o'sha davr uchun katta mablag' hisoblanadi va uning yuqori ijtimoiy tabaqaga mansubligini bildiradi. Uning "rangli yoki qora jubba kiygan" va "boshida keng, biroz yassilangan torbush" kiyishi Misr arab madaniyatining an'anaviy kiyim elementlari identifikatsiyasidir. Jubba va torbush (arabcha "jubba" "tarbush") an'anaviy Misr arab kiyimining muhim qismi hisoblanadi.

Yoki, quyidagi parchaga e'tibor qaratsak, "Va Shayx Salom javondan uchta kitob oldi: "Ming bir kecha", "Ibn Batutaning sayohati", "Hindiston mo'jizalari". Najibek hech qachon boshqa kitob o'qimagan. Oyoq kiyimlarini yechib, oyoqlarini ostiga tiqib o'tirar, yoniga kitoblarni qo'yib olib bir finjon qahva yoki suvdan ho'plab, o'qishni boshlardi."

"Ming bir kecha", "Ibn Batutaning sayohati" va "Hindiston mo'jizalari" arab madaniyati va adabiyotiga klassik namunalari hisoblansa, Najibekning o'qish paytida oyoq kiyimlarini yechib, chordana qurib o'tirishi va qahva ichishi arablarning o'ziga xos urflaridan. Najibekning faqat ma'lum kitoblarni o'qishi, misrlik arablarning madaniy qiziqishlari va o'qishga bo'lgan yondashuvini aks ettiradi. Uning kitob tanlovi misrliklarning madaniyat va tarixga bo'lgan qiziqishni ko'rsatadi va bu, arab olamida qahramonlik qissalari, sayohatnomalar va tarixiy mavzularga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

G'assan Kanafoniyning "Quyoshdagi odamlar" romanida yaratilgan obrazlar vatanidan quvilgan falastinliklardir. Yozuvchi fantaziyasining bosh qahramonlari his-tuyg'ularimizni hayratda qoldiradigan dahshatli qismatga duch kelishadi.

¹ Идрис Юсуф, Теймур Махмуд "Рассказы арабских писателей" Издательство иностранной литературы М.1955г. С. 10.

² O'sha kitob .S.10.



G'assan Kanafoniyning siyosatini uning qayg'usi, hayot va o'lim o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ontologik va naturalistik darajadagi Falastin masalasiga qaratilishi nuqtayi nazaridan tushunish kerak.

Yoshi o'n oltidan ellikkacha bo'lgan erkaklar boshqacha yashashlari hamda Falastindan quvilganlar hayotiga o'zlarining shaxsiy quvilish tajribalaridan, shuningdek, o'tmishni qanchalik yaxshi eslashlari va o'z taqdiralarini o'tmish bilan qanchalik ko'p bog'lashlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lishlari ko'rsatilgan. Erkaklar, yoshidan tashqari, o'zlarining qishlog'i yoki tug'ilgan makoniga, shuningdek, hozir quvg'inda bo'lgan joyiga qarab ham farqlanadi.

Ular arab dunyosi bo'ylab tarqalib ketishgan hamda faqat qochqinlar lagerlari va vaqtinchalik uylarini tark etishga qaror qilganlaridagina bir toifaga birlashadilar. Asarda ushbu farqlarning har biri "Quyoshdagi odamlar"ning shaxsiyati va o'ziga xosligiga ta'sir qilishi, falastinliklarning identikligi yaxlit bir narsa emasligi ko'rsatilgan. Bu odamlar, ularning tajribalari va shaxsiy individualliklaridan Falastin identikligining o'zi ko'plik va xilma-xillik ekanligini ko'rsatishda foydalaniladi.

G'assan Kanafoniy o'z romanida bunday tuzilishga erishish uchun qo'llaydigan hikoya taktikalaridan biri–bosh qahramonlar haqida umumiy gaplarni aytishdan qochishdir. Aksincha, asar qahramonlari asta-sekin, ularning xotira va harakatlari orqali, turli jihatlardan ochib beriladi. G'assan Kanafoniy o'z personajlarini xiraxandon sharhlarsiz yaratarkan, o'zi boshlovchi rolini o'ynaydi: kitobxoniga o'z qahramonlarini taqdim etadi, ularning xotiralari bilan tanishish, harakatlarini o'z nuqtayi nazaridan tushunish imkonini berib, ularning kimligini tasavvur qilishga chorlaydi. Shunday qilib, asar qahramonlarini kitobxon bilan solishtirish orqali ularni vaziyatning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib shakllanadigan universal qahramonlar sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Biz qahramonlarni ularning o'z hikoyalaridan va romandagi boshqa qahramonlarga munosabatidan bilib olamiz. Bu roman har bir qahramonning qalbi va ongiga bevosita kirish imkonini bergani uchun, Edvard Said tasvirlaganidek, qahramonlarga rollarni taqsimlamaydi, balki ularni harakatga "undaydi"¹.

G'assan Kanafoniy o'z qahramonlari uchun dunyo yaratadi, ularning tarixini bayon etadi va aftidan, vaziyatga qanday munosabatda bo'lishni o'zlariga qo'yib beradi. Kitobxonlar asar qahramonlarini romandagi vaziyatga munosabatidan tanib oladigan ushbu uslub orqali qahramonlar tanishga aylanadi, shu bois ularning ichki kechinmalari o'quvchiga tushunarli bo'ladi (u o'zini ana shu joyda tasavvur qilishi mumkin), biroq ayni vaqtda matnda qahramonlarga alohida shaxslar bo'lish imkoni yaratiladi.

Misol uchun, roman qahramoni Abu Qays arab va musulmon identikligida oila boshlig'i hisoblanadi, lekin u ushbu mavqedagi odamga xos bo'lgan "an'anaviy" hokimiyat yoki hurmatga ega emas. Abu Qaysning do'sti uni Kuvaytga ketishga ko'ndirayotgan sahnada u oilaning "an'anaviy" boshlig'i sifatidagi mavqeyini saqlab qolishga qanchalik urinayotgani va qanday qilib muvaffaqiyatsizlikka uchrangani

¹ Edward W. Said *The Question of Palestine*. Vintage New York. 1992. 122 bet.



ko'rsatilgan. Garchi Abu Qaysning: "Bu juda uzoq yo'l. Men esa keksayib qolganman; sen kabi yurolmayman. Yo'lda o'lib qolishim mumkin"¹, – degan so'zlaridan borishni istamayotgani aniq bo'lsa-da, u do'stining taklifini qat'iy rad eta olmaydi, aks holda do'stining nazarida zaif bo'lib qoladi. Shundan keyin u obro'sini saqlab qolish uchun xotiniga murojaat qiladi. Asarda Abu Qays "bormang, bu juda xavfli", deb aytarmikin, degan xayolda qayta-qayta xotiniga yuzlanadi, lekin u bunday qilmaydi. Garchi uni aqliy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan zaif hisoblashsa-da, xotini uning oiladagi erkaklik maqomini saqlab qolishida yordam berishiga umid qiladi. Holbuki, xotini undan ketmasligini iltimos qilsa, usiz xo'jalikni uddalay olmasligini aytsa bo'ldi edi – u obro'sini saqlab qolardi. Ammo xotini bunday ish tutmadi va shu tariqa uni o'zi istamagan safarga borishga majbur qildi. Ayni vaqtda xotining Abu Qaysga obro'sini saqlab qolishida ko'maklashishdan bosh tortishi arab oilasidagi an'anaviy gender rollar va Abu Qaysning uyidagi bu bilan bog'liq umidlar batamom barbod bo'lganidan dalolat beradi.

G'assan Kanafoniy asarda vatanidan yiroqda yashayotgan falastinliklar hayotining qiyinchiliklari va ma'nosizligini ko'rsata oldi. G'assan Kanafoniy uchun qarshilik ko'rsatish haqidagi badiiy adabiyotni ekzistensialistik va naturalistik nuqtayi nazardan o'qish unga yangi mazmun va maqsad bag'ishlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, o'tgan yuz yil ichida arab xalqi o'z vatanida ham, quvg'inda ham, makon va zamonda kim bo'lganliklari va kim ekanliklari haqida hikoya qiluvchi rivoyatlar, hikoya va romanlarni yaratdi. Bu badiiy asarlar ko'lami, g'oyasi va mavzusi jihatidan turlicha bo'lsa-da, ularning milliy o'zligini aniqlash, shakllantirish va namoyon etishda bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, yozuvchilar arab millatining o'ziga xoslik masalasini o'z asarlari sujeti, asar bosh qahramonining, epizodik qahramonlarning ichki kechinmalari, turmush tarzi, o'sha vaqtga aloqador tarixiy voqea-hodisalar, urfodatlar, vatanga mehr-muhabbatlari, boshqa turli badiiy vositalar yordamida izchil rivojlantirib boradilar. Asar qahramonining xayoliy hayotining o'ziga xosligi ijtimoiy va madaniy me'yorlarga, dunyoqarash g'oyalariga, xulq-atvor stereotiplariga nisbatan pozitsiyasini aniqlash va ularning inson hayotidagi ahamiyati va ma'nosini baholash jarayonida millatning o'ziga xosligi me'yorlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин, Михаил Михайлович. Собрание сочинений: в 7 т. Т. 1: Философская эстетика 1920-х годов / М. М. Бахтин; [ред.: С. Г. Бочаров, Н. И. Николаев]; Рос. акад. наук, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. - Москва: Русские словари: Языки славянских культур, 2003. – С. 612.
2. Идрис Юсуф, Теймур Махмуд "Рассказы арабских писателей" Издательство иностранной литературы. М., 1955. –С. 35.
3. Edward W. Said The Question of Palestine. Vintage New York. 1992. С.122
1. غسان كنفانيظ رجال في الشمس. سنة النشر: 1963. 47 ص

¹ غسان كنفانيظ رجال في الشمس. سنة النشر: 1963. 47 ص.

**SHARAXMETOVA MUXLISA***Katta o'qituvchi, PhD, TDSHU***“Boburnoma”ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ulug' vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning (1483–1530) shoh asari «Boburnoma»ning urdu tiliga qilingan tarjimalari haqida ma'lumot keltirilgan. Ma'lumki, «Boburnoma» dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan, jumladan, urdu tiliga ham to'rtta tarjimasi mavjud. Mazkur tarjimalar turli davrda turli tarjimonlar tomonidan bajarilgan.

«Boburnoma»ni urdu tiliga birinchi marta aslyatdan, ya'ni turkiy-chig'atoydan Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniy tarjima qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, mazkur tarjima 1898-yilda amalga oshirilgan, biroq tarjimani muallifning hayotlik chog'ida nashr etishning imkoni bo'lmagan. Keyinchalik 1926-yilda Ko'ragoniyning farzandlari asarni Dehlida chop ettirganlar. Qo'limizdagi Ko'ragoniyning tarjimasi 1962-yilda Karachi shahrida «Buk-Lend» nashriyotida qayta chop etilgan.

«Boburnoma» Rashid Axtar Nadaviy tomonidan ham tarjima qilingan. Mazkur tarjima dastlab 1965-yilda, keyinroq 1991-yilda Laho'r (Pokiston) shahridagi «Sang-e-meel» nashriyotida chop etilgan va jami 287 betdan iborat. Kitobda tarjimon tomonidan yozilgan salkam to'rt betli so'zboshi va olti betli mundarija berilgan.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini forsiydan hindistonlik professor Yunus Ja'fariy amalga oshirdi va ushbu tarjima Angliyada chop etildi.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983-yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau» nashriyotida chop etilgan. 2010-yili mazkur tarjimaning ikkinchi, to'ldirilgan nashri ham Dehlidagi «Qaumi Council Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» nashriyotida chop etilgan. Unga professor Muhammad Hamidulloh Bhat so'zboshi yozgan.

Yunus Ja'fariy, Rashid Axtar Nadaviy va Muhammad Qosim Siddiqiy tarjimalari bilvosita, ya'ni forsiydan o'g'irilgan tarjima hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari «Boburnoma»da geografik hududlar, adabiy portretlar, kishi ismlari, tabiat manzaralari, cholg'u asboblari, kiyim-kechaklar, shuningdek, hayvonot va nabotot olamini tasvirlashda ko'plab milliy xos so'zlar – realiyalar uchraydi. Mazkur maqolada Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniyning urducha tarjimasida milliy kolorit, milliy xos so'zlar tarjimalari, shuningdek, muallif uslubiga xos jihatlarning tarjimada berilishi qiyosiy tahlil qilinib xulosalar keltirilgan.

Kalit so'z va birikmalar: «Boburnoma», urducha tarjimalar, aslyat, izoh, realiya, qiyosiy tahlil, transliteratsiya, analogiya.

Abstract. This article provides information about the Urdu translations of the masterpiece «Baburnama» by our great compatriot Zahiruddin Muhammad Babur (1483-1530). «Baburnama» is known to have been translated into many languages around the world, including four Urdu translations. These translations were made by different translators at different times.

«Baburnama» was first translated into Urdu from the original, that is, from the Turkic-Chigatai language, by Mirza Nasiruddin Haydar Koragoni. According to information, this



translation was made in 1898, but it was not possible to publish the translation during the author's lifetime. Later, in 1926, Koragoni's children published the work in Delhi. The translation of Koragoni that came into our hands was republished in 1962 by the Book Land publishing house in Karachi.

«Baburnama» was also translated by Rashid Akhtar Nadavi. This translation was first published in 1965 and then in 1991 by Sang-e-meel in Lahore, Pakistan and consists of 287 pages. The book has a four-page preface written by the translator and a six-page table of contents.

Another Urdu translation of «Baburnama» was made from Persian by Indian Professor Yunus Jafari and this translation was published in England.

Another Urdu translation of «Baburnama» was done by Muhammad Qasim Siddiqui. This translation was originally published in Delhi in 1983 by the Taraqqi Urdu Bureau. In 2010, the second, completed edition of this translation was published by Qaumi Council Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban in Delhi. Professor Muhammad Hamidullah Bhat wrote the foreword to it.

The translations by Yunus Jafari, Rashid Akhtar Nadavi and Muhammad Qasim Siddiqui are indirect translations from Persian.

In the masterpiece of Zahiriddin Muhammad Babur «Baburnama» there are many nationally specific words-realities in the description of geographical areas, literary portraits, names of people, natural landscapes, musical instruments, clothing, as well as the world of animals and plants. This article presents a comparative analysis of Mirza Nasiruddin Haydar Koragoni's translation of national color, national characteristic words, as well as the features of the author's style in translation.

Keywords and expressions: «Baburnama», translations into Urdu, original, explanation, reality, comparative analysis, transliteration, analogy.

Аннотация. В данной статье представлена информация о переводах на урду шедевра «Бабур-наме» нашего великого соотечественника Захириддина Мухаммада Бабура (1483-1530). Известно, что «Бабур-наме» переведена на многие языки мира, в том числе существует четыре перевода на урду. Эти переводы были сделаны разными переводчиками в разное время.

«Бабур-наме» впервые была переведена на урду с оригинала, то есть с тюркско-чигатайского языка, Мирза Насиридином Хайдаром Курагани. По сведениям, этот перевод был сделан в 1898 году, но опубликовать перевод при жизни автора не удалось. Позже, в 1926 году, дети Курагани опубликовали работу в Дели. В дальнейшем перевод был переиздан в 1962 году издательством «Book Land» в Карачи.

«Бабур-наме» также перевел Рашид Ахтар Надави. Этот перевод был впервые опубликован в 1965 году, а затем в 1991 году издательством Sang-e-Meel в Лахоре (Пакистан) и состоит из 287 страниц. Книга имеет четырехстраничное предисловие, написанное переводчиком, и шестистраничное оглавление.

Ещё один перевод «Бабур-наме» был выполнен с персидского языка индийским профессором Юнусом Джафаром и этот перевод был опубликован в Англии.

Другой перевод «Бабур-наме» на урду был сделан Мухаммадом Касимом Сиддики. Этот перевод был первоначально опубликован в Дели в 1983 году «Бюро Тараки Урду». В 2010 году второе, законченное издание этого перевода было опубликовано издательством



«*Qaumi Council Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban*» в Дели. Профессор Мухаммад Хамидулла Бхат написал к нему предисловие.

Переводы Юнуса Джафари, Раида Ахтара Надави и Мухаммада Касима Сиддики являются косвенными переводами с персидского языка.

В шедевре Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» содержится множество национально-специфичных реалий в описании географических местностей, литературных портретов, названий людей, природных ландшафтов, музыкальных инструментов, одежды, а также мира животных и растений. В данной статье представлен сравнительный анализ перевода Мирзы Насириддина Хайдара Курагани, передача национального колорита, национально характерных слов, а также особенности авторского стиля в переводе.

Ключевые слова: «Бабур-наме», переводы на урду, оригинал, объяснение, реалия, сравнительный анализ, транслитерация, аналогия.

Kirish «Boburnoma»ning ilmiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. «Boburnoma» qomusiy asar bo'lib, yuz yillar davomida turli xalq va elatlar tomonidan atroflicha, chuqur tadqiq etilishi, dunyoning turli tillariga tarjima qilinishi hamda qayta-qayta nashr etilishi jahon xalqlarining bu asarga qiziqishining tobora ortib borayotganligining sabablaridan biridir.

Dunyo tarjimashunosligida yozma manbalarning xorijiy tillarga qilingan tarjimalarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Ularni leksik-semantik jihatdan o'rganish, realiyalarni tarjima asarlarida o'girish, ulardagi tushunilishi qiyin bo'lgan atamalarining ma'nosini izohlar berish orqali tushuntirish, tarjima asarni asliyatdan bevosita hamda bilvosita tarjima qilishning afzal va murakkab tomonlarini aniqlash kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, asliyat, o'z zamonasining adabiy tilida bo'ladi va har bir tarjima o'z davrining mahsulidir. Tarjima matni, uslubi esa bugungi kun holatini aks ettiradi. Tarjimashunoslar fikriga ko'ra, yuz yil oldin muayyan badiiy asarning o'zbek tiliga qilingan tarjimasi bilan uning keyingi davrlardagi tarjimalari bir-biri bilan qiyoslansa, bundan turli davrlarda yashagan tarjimonlarning asar muallifini tushunish darajasi, ularning mahorati o'rtasida ko'zga yaqqol tashlanadigan tafotvutnigina emas, adabiy tilning turli davrlarda har xil kamolot darajasida bo'lganligini ham ko'rish mumkin.

Maqsad va vazifa: «Boburnoma»ning Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoniy tomonidan urdu tiliga qilingan tarjimasida milliy kolorit, tarixiy shaxslar adabiy portreti, mamlakatlar ta'rifi, hayvonot va nabotot bilan bog'liq milliy xoslangan so'zlarni tarjima qilishda qo'llangan usullarni aniqlash, shuningdek, muallif uslubiga xos jihatlarning tarjimada berilishini qiyosiy tahlil qilish.

Usullar. Maqolani yoritishda tavsiflash, qiyoslash va chog'ishtirish kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. «Boburnoma» urdu tiliga to'rt marta o'girilgan. Mazkur tarjimalar turli davrda turli tarjimonlar tomonidan bajarilgan.«Boburnoma»ni urdu tiliga birinchi marta asliyatdan, ya'ni turkiydan Mirzo Nasiruddin



Haydar Ko'ragoniy tarjima qilgan¹. Ma'lumotlarga qaraganda, mazkur tarjima 1898-yilda amalga oshirilgan, biroq tarjimani muallifning hayotlik chog'ida nashr etishning imkoni bo'lmagan. Keyinchalik 1926-yilda Ko'ragoniyning farzandlari asarni Dehlida chop ettirganlar. Qo'limizdagi Ko'ragoniyning tarjimasi 1962-yilda Karachi shahrida «Buk-Lend» nashriyotida qayta chop etilgan. Sarvaraqda kitobning nomi *ba'arnama* [Ba:barna:ma], uning tagida *ba'ari* [Tuzuke Ba:bari:] deb keltirilgan. Mundarija *ba'ar* [Ba:bar aor Ba:barna:ma] (Bobur va Boburnoma) sarlavhali so'zboshi bo'lib, kitob jami 426 sahifadan iborat. Ubaydulla Quddusiy izohlarni tahrir qilgan, to'ldirgan va so'zboshi yozgan. «So'zboshi» muallifi Ubaydulla Quddusiy tarjimaga juda yuqori baho beradi. «... ترجمہ نہایت صاف شستہ اور صحیح ہے ...». «کوئی چھوڑنے نہیں پایا qolmagan...»). Tarjimada ko'plab izohlar bor: tarjimon ba'zi so'zlar, atamalarni Leyden-Erskin tarjimasi bilan solishtiradi. Masalan, «Sangzor» degan joy nomi haqida mana bunday izoh berilgan: «Jon Leyden» matnda «Sangzor» deb yozadida, bu so'z «Sangroz» va «Sangzor» shakllarida bir necha marta uchraydi, deb izoh beradi. Ikkovidan qaysi biri to'g'riligini aytish qiyin. Forscha tarjimalarda «Sangzor» yozilgan. Ma'nosiga ko'ra ham (ya'ni «toshloq») shu so'z to'g'riga o'xshaydi. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, urdu tili tarjimoni imlo masalasiga jiddiy yondashgan.

«Boburnoma» Rashid Axtar Nadaviy² tomonidan ham tarjima qilingan. U 1918-yil 13-yanvarda Hindistonning Dehli shahrida tavallud topgan. Adabiyotshunos olim, nosir. Ma'lumotlarga qaraganda, adib tarjimonlik faoliyatidan tashqari, «G'arbiy Pokiston tarixi», «Shimoliy Pokiston», «Humoyunnoma», «Avrangzeb» kabi ko'plab kitoblarni yozgan. Mazkur tarjima dastlab 1965-yilda, keyinroq 1991-yilda Laho'r (Pokiston) shahridagi «Sang-e-meel» nashriyotida chop etilgan. «Boburnoma»ning ushbu nashri *ba'ari* [Tuzuke Ba:bari:] deb nomlangan, jami 287 betdan iborat. Kitobda tarjimon tomonidan yozilgan salkam to'rt betlik so'zboshi va olti betlik mundarija berilgan.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini forsiydan hindistonlik professor Yunus Ja'fariy amalga oshirdi³ va ushbu tarjima Angliyada chop etildi. Sayyid Muhammad Yunus Ja'fariy 1930-yil 27-sentabrda Hindistonning Dehli shahrida tavallud topgan. U hindiy, urdu, fors, ingliz tillarida ijod qilgan, ko'plab xalqaro mukofotlar sohibi bo'lgan, shuningdek, tarjimonlik sohasida faoliyat olib borgan mohir tarjimon hamdir. Uning forsiydan ingliz tiliga, urdudan forsiyga va aksincha qilgan tarjima asarlari diqqatga sazovordir.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983-yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau»⁴ nashriyotida chop etilgan. Sarvaraqda kitobning nomi *ba'arnama* [Ba:barna:ma] deb,

¹ تزک بابری ، مرزا نصیر الدین حیدر، یک لیبڈ کراچی، ۱۹۶۲

² تزک بابری ، رشید اختر ندوی، لاہور ۱۹۹۳

³ وقائع بابری ، بیونس جعفری شہر بانو پیلی شیرز کر یکادی ۲۰۰۷

⁴ ابرنامہ (تزک بابری) محمد قاسم صدیقی ، ترقی اردو بیورو، نئی دہلی ۱۹۸۳



uning tagida esa توك باري [Tuzuke Ba:bari:] tarzida keltirilgan va u kitob jami 66 sahifadan iborat. So‘zboshi muallifi professor Fahmida Begum. 2010-yili mazkur tarjimaning ikkinchi, to‘ldirilgan nashri ham Dehliidagi «Qaumi Counsil Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» nashriyotida chop etilgan. Unga professor Muhammad Hamidulloh Bhat so‘zboshi yozgan.

Badiiy asardagi voqealar muayyan makonda, muayyan zamonda, muayyan qahramonlar ishtirokida kechadi va biror xalqqa tegishli sanaladi. Tabiiyki, xalq yashaydigan makonning o‘ziga xos tabiati, iqlimi, ko‘rinishi, bu xalqqa mansub kishilarning qiyofasi, xarakteri va mentaliteti ham bo‘ladi.

Tarjimashunos olimlarning fikricha, milliy kolorit badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisidir. Yoki «Milliy kolorit – badiiy asarda aks etgan u yoki bu xalqqa xos xususiyatlar majmuyi deb, ikkiga ajratib qarash mumkin. Moddiy hayot unsurlari va ma’naviy faoliyat shakllaridan iborat bo‘ladi. Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga olsa, moddiy hayot urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or jihozlari, pazandachilik, cholg‘u asboblari, ismlar va hokazolardan iborat». O.S.Axmanovanning «Lingvistik terminlar lug‘ati»da kolorit badiiy asarning o‘ziga xos xususiyati, personajlarning nutq xarakteristikasi sifatida ta’riflanib, ularning nutqida biron davr tilidan yoki shevalardan olib o‘zlashtirilgan tilning o‘ziga xos belgilari, biron mamlakat yoki joyning xos tushunchalari (realiya) majmuyidan iborat, deb ko‘rsatiladi. Jumladan, Sharq koloriti, Yevropa koloriti va mahalliy koloritga doir so‘z va istilohlar misol tariqasida keltiriladi». M.Soipova mahalliy koloritni quyidagicha izohlaydi: mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishdir. Professor G‘.Salomovning fikriga ko‘ra, «adabiy asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzida, turmush sharoitida, kiyimida, urf-odatlarida, ko‘cha, shahar, san’at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Bularning yig‘indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi asliyatda nutq vositalari orqali bayon etilgan bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tarjimasida juda muhimdir».

Tilning milliy xususiyatlarini anglatadigan birliklarga to‘xtalganda realiya masalasiga ham munosabat bildirish kerak bo‘ladi. «Realiya (lot.: narsaga, buyumga oid). Muayyan millatga xos so‘z va tushunchalar (milliy xos so‘zlar). Realialar xalqning milliy xususiyatini ifodalab, badiiy asarda milliy koloritni yuzaga chiqaradi». Realialar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi. Xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi. Turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi». «Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg‘u asboblari, ro‘zg‘or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me’morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o‘simliklarning nomlari, daraja, tabaqa va boshqa bo‘linishlarni ifodalovchi so‘zlar,



muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi soʻz va iboralar kiradi».

S.Vlaxov va S.Florinlarning yozishicha, «realiya bu – borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi soʻzlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik»dir. Bir soʻz bilan aytganda, realiya muayyan millat til tafakkuriga tom maʼnoda xos soʻz boʻlib, ularni tarjima qilish mumkin emas»¹.

Tarjimashunoslikda milliy xoslangan soʻzlarni tarjima qilishda uch usul qoʻllaniladi:

1. **Transliteratsiya** – bir yozuv sistemasidagi matnni boshqa yozuv sistemasiga oʻtkazish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xoslangan soʻzlarni boshqa til belgilari tomonidan aynan ifodalash. Transliteratsiyadan keyin koʻpincha matn ostida izoh beriladi.

2. **Analogiya** – oʻxshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga oʻxshashlik, yaʼni muqobil tushuncha bilan berish. Q.Aʼzamovning fikricha, analogiya usuli «yaqin tarjima deb ham ataladi», lekin bu termin nomining oʻziyoq asl nusxadagi milliy xoslangan soʻzlarning barcha vazifalarini, maʼno qirralarini toʻliq ifoda etmasligini koʻrsatib turibdi. “Oʻxshash – oʻxshash-da, aynan oʻzi emas!”

3. **Yangi soʻz va soʻz birikmasi yaratish.** Baʼzi tarjimonlar milliy xoslangan soʻz va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilarki, bu hol koʻpincha oʻzini oqlamaydi. Masalan: «pirog»ni «somsa», «kosa»ni «glubokaya tarelka» tarzida².

Quyida Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniyning urducha tarjimasida berilgan milliy-madaniy soʻzlarning tahlilini keltiramiz:

Mirzo Bobur «Boburnoma»da mevalarning xilma-xil turlarini tasvirlashi, tabiat manzaralarini tavsiflab tushuntirishi, koʻplab realiyalar qoʻllangani tufayli milliy kolorit saqlanganini koʻrsatadi. «Boburnoma»ning tarjimasida geografik hududlar, adabiy portretlar, kishi ismlari, tabiat manzaralari, cholgʻu asboblari, shuningdek, hayvonot va nabotot olamini tasvirlashda koʻplab milliy-madaniy xos soʻzlar – realiyalar uchraydi.

«Boburnoma»da 1500 dan ortiq tarixiy shaxslar tilga olingan. Bular hukmdorlar, bek va vazirlar, din peshvolari, harbiy amaldorlar, musiqachi va musavvirlar, shoir va yozuvchilar obrazlaridir. «Boburnoma»da muallif ularning adabiy portretini katta mahorat bilan chizganiga guvoh boʻlish mumkin. Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniy tarjimasida muallif tilga olgan shaxslardan Boburning otasi Umarshayx mirzoning adabiy portreti taʼrifida kiyim-kechakka oid xoslangan soʻzlarning tarjimada berilishiga misol keltirsak: «*Toʻnni bisyor tor kiyar edi*». Mazkur jumlaning urducha talqini quyidagicha: *کپڑے بہت چست پہنا کرتے تھے۔*

¹ Влахов С. ва Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – С. 34.

² Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2014. – Б. 92.



Ushbu jumlada to'n so'zi كپړا [kapRa:], ya'ni kiyim deb tarjima qilingan. To'n o'zbek milliy libosi hisoblanib, urdu tiliga nisbatan milliy xoslangan so'z sanaladi. كپړا urdu tilida umuman kiyimni anglatadi, undan tashqari mato ma'nosida ham qo'llanadi. Shuning uchun bu o'rinda «chopon», «to'n» ma'nosini beradigan چونا [chu:g'a:]ni qo'llash mumkin edi. Tarjimon ushbu realiyani tarjimasini aniq bera olmagan, hech bo'lmaganda, sahifa ostida havola keltirishi lozim edi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimoni umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Transliteratsiya xos so'zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi.

«Boburnoma»da keltirilgan adabiy portretlarning urducha talqinida kishi ismlari, taxallus, laqablarni anglatgan realiyalarning urdu tilida berilishini qiyosiy tahlil qilib ko'rsak: Umarshayx mirzo adabiy portretida: «*Sulton Abusa'id Mirzo avval Kobulni Umarshayx Mirzog'a berib, Boboyi Kobuliyi bek atka qilib, ruxsat berib edi*»¹ jumlasining tarjimasi esa quyidagicha: کو مرزا شیخ عمر اول نے رزا سعید ابو سلطان - Jumalarning qiyosiy tarjimasidan ko'rinadiki, tarjima to'g'ri amalga oshirilgan deyish mumkin, biroq Boboyi Kobuliy ismi urduda بابا کابل [Ba:ba: Ka:bul] «Bobo Kobul» shaklida xato berilgan.

Husayn Boyqaro adabiy portreti ta'rifida muallif quyidagilarni yozadi: «*Badakabegim ham Mirzoning egachisi edi. Qazoqliqlarida Ahmadxon Hoji Tarxoniyg'a berib edi, ikki o'g'li bo'lub edi*».

Badakabegim ismi تھی دی کر سے شیرخان بن خان احمد شادی کی اس تھی بہن چھوٹی کی مرزا جو بیگم بیرکم بن خان احمد [Birkam begam]ga aylanib ketgan, Ahmadxon Hoji Tarxoniy esa احمد شیرخا [Ahmad Xa:n bin Sherxa:n] deb o'girilgan. Mazkur o'rinlarda taxallus va kishi ismlarini asliyatdagidek, transliteratsiya usuli bilan berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bek va vazirlar badiiy tasviri tarjimasida muallif Muhammad Majdiddin haqida quyidagilarni yozadi. «*Ul fursatta Majdiddin Muhammad parvonachi edi, Mirak derlar edi*». Urduha talqini quyidagicha: کہہ میرک کو - اس تھا پروانچی وقت مجد الدین اس Tarjimon ushbu gapda laqab va lavozimni o'girishda transliteratsiya usuliga murojaat qilib, adekvat tarjimaga erishgan پروانچی [parva:nchi:] میرک [Merak]. Milliy xoslangan so'zlarning aksariyat hollarda transliteratsiya usuli orqali tarjimada berilishi xususida H.Hamroyev quyidagilarni yozadi: «Muayyan xalq turmushiga xos tushunchalarni anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib qoladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga

¹ Бобурнома. П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: С. Ҳасанов. – Тошкент: “Шарқ”, 2002.



o‘z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar». Buni Sulton Husayn Boyqaro Mirzoning quyidagi ta‘rifi tarjimasida ko‘rish mumkin:

«Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi». Mazkur jumlada tarjimon Husayn Boyqaro taxallusini urdu tilida *تھا غلص حسین* [Huseyni deb transliteratsiya yo‘li bilan bergan va adekvat tarjimaga erishgan.].

Tarjimada geografik joy nomlarini anglatuvchi realiyalarga oid misollarning tahlili quyidagicha: Bobur Kobul ta‘rifida Kobulga karvonlar qaysi shaharlardan kirib kelishini zikr etadi: «Hinduston bilan Xuroson orasida xushki yo‘ldin ikki bandardur. Bir Kobul, yana bir Qandahor. Koshg‘ar va Farg‘ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin korvon Kobulg‘a kelurlar». *ہیں قافلے آتے میں کابل سے بدخشان اور - حصار بلخ - بخارا - ترکستان، سمرقند - ہار - فرغانہ قند دوسرا کاب ایک*. Mazkur jumlar qiyosidan shuni anglash mumkinki, shaharlar nomi transliteratsiya usuli bilan asliyatdagidek keltirilgan, biroq muallif shaharlarni va bog‘lovchisi yordamida sanab o‘tgan, tarjimada esa tinish belgilari orqali berilgan. Shu jumla davomidagi «Bu tog‘ning ibtidosi Devarin tangisidindur» jumlasini tarjimada quyidagicha berilgan: «Devarin» *ہے۔ ہوتی شروع سے انوارین تنگی پہاڑی یہ* joy nomini bildiruvchi realiya tarjimada o‘zgarib *انوارى [Anva:ri:n] bo‘lib ketgan. Ushbu o‘rinda tog‘ oralig‘idagi joy nomi, bizningcha, transliteratsiya usuli bilan ifodalansa o‘rinli bo‘lardi.*

Umarshayx Mirzo adabiy portreti ta‘rifida Axi shahar nomi *اخشى* [Akhsbi:] shaklida xato keltirilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro adabiy portretlarida muallif Hirotni «Hiri» shaklida qo‘llagan, fikrimizcha, «Hiri»ni Hirotni tarzida emas, asl shaklida qoldirish maqsadga muvofiq bo‘lardi, Hiri esa sahifa ostida izoh berish ma‘qul edi.

بیلمن، نہ جریمہ بیل سولٹن اوسمرقند اور مرزا سعید ابو خراج سے ہرت میں گناہ کس نہیں معلوم Abusa‘id Mirzo Hiri ydin ixroj qildi.

Hinduston hayvonot olamining «Fil» tasvirida muallif fillar ko‘p uchraydigan hududni qayd etadi: «Kurara va Manikpurdin o‘ttuz- Hindistonga oid joy nomini bildiruvchi realiyalarni o‘girishda xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Mazkur hollarda ham transliteratsiya usuliga murojaat qilinsa ma‘qul bo‘lardi.

Asliyatda Mirzo Bobur sozanda va bastakorlar ta‘rifida ular chalgan cholg‘u asboblari haqida so‘z yuritib shunday yozadi: «Yana Shayxiy Noiy edi, udni va g‘ijjakni ham xo‘b cholur ekandur. O‘n ikki o‘n uch yoshidin beri nayni xo‘b cholur ekandur». Urdu tilidagi talqini: *برس تیرہ - بارہ تھا بجاتا خوب غشیراک اور - نمود تھا نائی سچیم ایک* Mazkur jumlada ud va g‘ijjak kabi cholg‘u asboblari tilga olingan. Ushbu so‘zlar urdu tiliga nisbatan realiya hisoblanadi. Tarjimada ud ning *عود [u:d]* deb berilishi to‘g‘ri, ammo g‘ijjak *غشیراک [g‘ashira:k]* deb noto‘g‘ri berilgan. Bizningcha, g‘ijjak so‘zini asliyatdagidek *عجب* deb berib, sahifa ostida izoh berilishi to‘g‘ri edi. Fikrimizcha, bu o‘rinda tarjimon cholg‘u asbobi nomini yangi so‘z yaratish usuli orqali o‘g‘irgan. Binoiy badiiy tasvirida tarjimon savt va naqsh birikmasidagi «savt»ni *صورت [su:rat]* shaklida yozgan: «Bu to‘qquz rangning tunganishi va naqshning yallosi «Rost» tadur». Rost maqom termini bo‘lib, urdu



tiliga tiliga nisbatan milliy xoslangan soʻzdir. Tarjimada ayni soʻz tushirib qoldirilgan. Tarjimada ...mutaqorib bahri birikmasida bahr nomi تقارب [taqa:rib] deb xato yozilgan. Tarjimashunoslarning fikricha, milliy xoslangan soʻzlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa-hodisa haqida oʻquvchi ongida tasavvur hosil qilishdir. Zahiriddin Muhammad Bobur oʻz asarida shahar va qishloqlar tasviri, geografik hududlar, peyzaj chizgilari, voqea-hodisalar tafsiloti va jang-u-jadallarni shunchaki bayon qilmaydi, ularni tasvir vositalari orqali ifodalaydi.

Qush, hayvon va oʻsimlik nomlarini anglatuvchi realiyalarning tarjimasi xususida shuni aytish kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur borgan yerlarida oʻsimlik va gullarni tabiatshunoslarga xos nazar bilan oʻrganib, qimmatli maʼlumotlarni keltiradi. Shu jihatdan Hindiston nabotot olami tasviridan misol keltirsak: «*Baʼzi hindustoniya «gadhal» deydur*». Urducha talqini: «*کریل ہندوستانی بعض کو اس ہیں۔¹ Ushbu*» jumlada asliyatda tilga olingan gul nomi «gadhal» کریل [kareyl] deb berilgan. Muallif tilshunos sifatida Hindistonga xos boʻlgan bu gul nomini hind xalqi qanday talaffuz qilishiga eʼtibor qaratgan. Shu bois tarjimada gul nomi asliyatdagidek «gadhal» kabi berilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi.

Xulosa. «Boburnoma»ning yaratilganidan beri turli xalqlar tomonidan qiziqib oʻrganilishi, tarjima qilinishi va qayta-qayta nashr etilishi, unga bagʻishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarning tashkil etilishi Sharq-u Gʻarbda, jumladan, Pokistonda mazkur asarni oʻrganishga boʻlgan qiziqishning birdek ortib borayotganligi ayni shoh asarning jahon miqyosida tan olinganligini koʻrsatadi.

«Boburnoma» urdu tiliga toʻrt marta oʻgirilgan boʻlib, ular turli davrlarda turli tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan. Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniy tarjimasi asliyatdan, yaʼni turkiydan amalga oshirilgan bevosita tarjimadir. Yunus Jaʼfariy, Rashid Axtar Nadaviy, Muhammad Qosim Siddiqiy tarjimalari forsiydan oʻgirilgan bilvosita tarjimalardir.

«Boburnoma»da realiyalarning koʻplab qoʻllanilganligi asarda milliy koloritning yuqori darajada aks etganligini koʻrsatadi. Bu jihatdan realiyalar matnning pragmatik xususiyatlarini yanada yorqin ochib berilishiga xizmat qiladi. Ular voqealarni real tasvirlashda, shu xalqqa xos rasm-rusum, urf-odatlarini aks ettirishda namoyon boʻladi. Milliy xoslangan soʻzlarning tarjimada berilishiga oid misollar tahlili shuni koʻrsatadiki, tarjimon realiyalarni oʻgirishda, asosan, transliteratsiya va muqobil tushunchalarni berish usullaridan foydalangani maʼlum boʻldi. Ayrim hollarda joy nomlari, kiyim-kechak va maqom nomlari, cholgʻu asboblarini bildiruvchi realiyalar tarjimasida nomuvofiqliklar ham kuzatildi.

Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniy tarjimasi, asliyatdan oʻgirilganligi, urdu tilidagi ilk toʻliq tarjima ekanligi va boburiylar avlodi vakili tomonidan oʻgirilganligi bilan ahamiyatlidir.

¹ تزک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی، ۱۹۶۲



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. تزک بابری ، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی، ۱۹۶۲ (426 p.)
2. بابرنامہ (تزک بابری) محمد قاسم صدیقی، ترقی اردو بیورو، نئی دہلی ۱۹۸۳ (66 p.)
3. تزک بابری، رشید اختر ندوی لاہور ۱۹۹۳ (287 p.)
4. وقائع بابری، یونس جعفری شہر بانو پبلی شپرز کر یکادی، ۲۰۰۴ (396 p.)
5. Влахов С. ва Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980.
6. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2014.
7. Бобурнома. П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: С. Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002.

KABIROVA NARGIZA

Dotsent, PhD, TDSHU

Rahnavard Zaryob asarlarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari

Annotatsiya: *Zamonaviy Afg'oniston dariyazon adabiyoti xususidan, badiiy til va badiiy tasvir vositalari bilan yaratilgan obrazlar Rahnavard Zaryob asarlarining amaliy faoliyati bilan boyib, Afg'oniston dariy hikoyachiligini yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Hayotning rang-barang haqiqatini qiziqarli va haqqoniy aks ettirish uchun har xil badiiy vositalar, ijodiy tajribalar, estetik qarashlarni qo'llash salmoqli asarlar yaratilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Rahnavard Zaryob hikoyalarining qahramonlari hayotda juda ko'p ezilgan, qiynalgan, qalbi armonga to'la taqdir egalari. Bunday yondashuv qahramon tuyg'ularini to'laroq idrok etish, uni chuqur tushunib tadqiq qilish, insonlarning xatti-harakatlarini yashash sharoiti, tayanadigan axloqiy o'rnalaridan kelib chiqib baholash imkonini beradi. Zaryob dariyazon adabiyotida ko'pdan qaror topgan, qahramon ruhiyatini har jihatdan bo'rttirib ko'rsatishga xalaqit beradigan badiiy cheklashlardan voz kecha oladi. Shu sababli ham uning hikoyalari qahramonlari yoqimli yoki yoqimsiz xarakter egasi sifatida tasvirlanishidan qat'i nazar, kitobxonni befarq qoldirmaydi. Kitobxon bu personajlar qismatidan ta'sirlangani, ularga ichdan xayrixohlik tuygani bois ularning ruhiy olamiga ko'chganini sezmay ham qoladi. Bundan ko'rinadiki, Rahnavard Zaryob hikoyalaridagi odamlar qismatining og'ir va ilojsizligi tasviridagi umumiylik obrazlar tasviridagi yaqinlikka sabab bo'lganligida kuzatiladi. Adib hayotdagi shunday odamlarni badiiy obrazga aylantiradiki, ularning tashvishlari, iztirobi, baxtsizligi bir-biridan ayanchli bo'lsa bordir, ammo kam emas. Xususan, yozuvchini hayotdagi shunday insonlar ruhiyati va hayoti tadqiqi qiziqtiradi. Hikoya janrida qahramon xarakteridagi betinim o'zgarishlarni tasvirlash, uni davr bilan bevosita bog'liqlikda aks ettirish boshqa janrdagi asarlarga nisbatan osonroq. Bizga ma'lumki, davrning eng dolzarb muammolarini bevosita badiiy talqin etishda hikoya janri avangard bo'lib kelgan. Hajmning ixchamligi va boshqa ko'plab janr qulayliklari bunga to'la imkoniyat yaratib bergan.*

Kalit so'zlar: *obraz, badiiy tasvir, xarakter, peyzaj, portret, ramz, kompozitsiya, istiora.*



Аннотация: Современная афганская повествовательная литература, в частности, образы, созданные художественным языком и художественной образностью, обогащенные практической деятельностью произведений Рахнаварда Зарёба, вывели афганское повествование на новый качественный уровень. Использование различных художественных средств, творческого опыта и эстетических взглядов для интересного и правдивого отражения красочной реальности жизни является важным фактором создания значительных произведений. Герои рассказов Рахнаварда Зарёба – это судьбы, которые много были угнетены и мучены в жизни, и чьи сердца полны мечтаний. Такой подход позволяет в полной мере воспринимать эмоции героя, изучать их с глубоким пониманием, оценивать поведение людей, исходя из условий их жизни и моральных примеров. Зарёб Даризабан может отказаться от давно установившихся в литературе художественных ограничений, препятствующих преувеличению психики героя во всех аспектах. Именно поэтому его рассказы не оставляют читателя равнодушным, независимо от того, приятными или неприятными персонажами изображены персонажи. Читатель затронут судьбой этих персонажей, испытывает к ним сочувствие и даже не замечает, что переместился в их духовный мир. Видно, что общность изображения трудной и беспомощной судьбы людей в рассказах Рахнаварда Зарёба является причиной близости образа персонажей. Таких людей в жизни писатель превращает в художественный образ, переживания, страдания и несчастья которых могут быть хуже друг друга, но не меньше. В частности, писателя интересует исследование психики и жизни таких людей в жизни. В повествовательном жанре легче описать изменения характера героя, отразить их в непосредственной связи с эпохой, чем в произведениях других жанров. Как известно, жанр повествования оказался авангардом в непосредственной художественной интерпретации наиболее актуальных проблем времени. Компактность размеров и многие другие удобства жанра создали для этого полную возможность.

Ключевые слова: образ, художественный образ, персонаж, пейзаж, портрет, символ, композиция, метафора.

Annotation: Modern Afghan narrative literature, in particular, images created with artistic language and artistic imagery, enriched with the practical work of Rahnavard Zaryob's works, brought Afghan narrative to a new level of quality. The use of various artistic tools, creative experiences, and aesthetic views for an interesting and truthful reflection of the colorful reality of life is an important factor in the creation of significant works. The heroes of Rahnavard Zaryob's stories are destinies who have been oppressed and tormented a lot in life, and whose hearts are full of dreams. This approach allows to fully perceive the emotions of the hero, to study them with deep understanding, to evaluate people's behavior based on their living conditions and moral examples. Zaryob Darizaban can abandon the artistic restrictions that have long been established in literature, which prevent the exaggeration of the hero's psyche in all aspects. That is why his stories do not leave the reader indifferent, regardless of whether the characters are portrayed as pleasant or unpleasant characters. The reader is affected by the fate of these characters, feels sympathy for them, and does not even notice that he has moved to their spiritual world. It can be seen that the commonality in the image of the difficult and helplessness of people's fate in the stories of Rahnavard Zaryob is the reason for the closeness in the image of the characters. The writer turns such people in life into an artistic image, whose



worries, suffering, and unhappiness may be worse than each other's, but not less. In particular, the writer is interested in the study of the psyche and life of such people in life. In the narrative genre, it is easier to describe the changes in the character of the hero, to reflect it in direct connection with the era, compared to works of other genres. As we know, the narrative genre has been the avant-garde in the direct artistic interpretation of the most urgent problems of the time. The compactness of the size and many other conveniences of the genre have created a full opportunity for this.

Key words: image, artistic image, character, landscape, portrait, symbol, composition, metaphor.

Haqiqiy ijodkor badiiy tasvir vositalari yordamida voqelik yoki insonning ayni vaqtdagi ruhiy holatini kitobxon ko'z oldiga keltirishi mumkin. Bunda, albatta, yozuvchining badiiy tasvir vositalarini qo'llash mahoratiga, ulardan to'g'ri foydalana olish salohiyatiga ko'p narsa bog'liq. Adabiyotning sehri ham badiiy tasvir vositalarining o'z o'rnida ishlatilishida. Zamonaviy Afg'oniston daryi hikoyalarning qahramonlari ayni shu vositalar hamohangligi ta'minlanganligi sabab ancha ishonarli, o'z jozibasiga ega qilib tasvirlanmoqda.

“So'zning obrazga aylanishi voqelikni falsafiy-estetik jihatdan baholash, uning yetakchi xususiyatlarini betakror aniqlik va yaxlitlikda ijodkor g'oyaviy maqsadini ifodalashga xizmat qildirishga yo'naltirish orqali amalga oshadi. Bunda so'z o'z ma'nosidan ko'chadi va muayyan narsa yoki hodisaning majoziy, ramziy yoxud istioraviy timsoliga aylanadi.”[1p.37]

Shunga ko'ra, badiiy tasvir vositalari voqelikni badiiy aks ettirish usullari, hissiy-tasviriy vositalar bo'lib, uning jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, antiteza, ramziy va allegorik obrazlar singari ko'rinishlari mavjud. “Tasvir – bayon emas. Demak, ...aks ettirgan narsalar muayyan hissiy mazmuni tashkil etishi aniq; tasvir orqali biz ularning o'z aslini ko'rganday bo'lamiz”, – degan nazariy qarashlar fikrimizga yanada oydinlik kiritadi.[2p.107] Nazariy qarashlarga ko'ra, badiiy tasvirning saviyasi obrazning haqqoniy va ishonarliligini ta'minlaydi. Badiiy tasvirning saviyasi esa, ko'p jihatdan tasvir vositalaridan o'rinli foydalanishga ham bog'liqdir. Shu bilan birga badiiy tasvir vositalari adabiy asarga estetik mohiyat baxsh etuvchi omil hisoblanadi. Chunki badiiy tasvir vositalari badiiy asarni ko'rish, eshitish, sezish va his qilish mumkin bo'lgan manzaralarni yuzaga keltiradi.

Jumladan, bugungi Afg'oniston daryi hikoyachiligi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilganligi bilan xarakterlanadi. Badiiy asarlarda voqea yoki personajlarning quruq tasviri kitobxonni zeriktiradi. Tasvirda badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalanish asarning ta'sir kuchini so'zsiz oshiradi. Shu tariqa yozuvchi qahramonning individual betakror xarakterini yaratadi. Har qanday asar markazida inson xakteri turar ekan, atrofda kechayotgan voqealar tasviriga shu insonning ruhiyatini ochuvchi vosita sifatida qaraladi.



Xususan, Rahnavard Zaryobning deyarli barcha hikoyalari qahramonlarining xarakter xususiyatlarida qandaydir bir ichki yaqinlik, umumiylik borligi ham muayyan badiiy ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, ramz kabi badiiy vositalar orqali hikoya voqealari va obrazlarni jonli tasvirlashga harakat qiladi. R.Zaryob aksariyat hikoyalarda narsa-hodisalarni jonlantirishdan mahorat bilan foydalangan. Adib jonlantirish orqali insonga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga nisbat beradi. Hikoyalarda jonlantirish vositasi shunchaki effekt uchun emas, balki kitobxonga qahramon ichki kechinmalarini anglashda yordam ko'rsatish uchun qo'llangan. Shuning uchun ham «به نظرم می آمد که از پشت گل های ارغوان می خندد.» «می خواهد» پرده خاکستری رنگ را برد.» «خانه های زیبا و استوار زیر برف آرمیده بودند.» «گر بباد های تند، خودشان را به در و دیوار شهر می زدند، می غریبند و به هر سو حمله می بُردند - چون جان ورانی درنده که در قفس «Kulrang parda uni yutib yubormoqchi bo'layotgandek edi»[4p.255], («Chiroyli va muhtasham uylar qor ostida tinch uxlaridi»)[5p.260], («Qattiq shamol o'zini shahar devoriga urar, g'uldurar, xuddi qafasga tushib qolgan jonivordek»)[6p.147] kabi jonlantirishlar obrazlar ruhiy holatini ifoda etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Jonlantirishlar hikoyaning o'qishligini oshirishgagina emas, balki obrazlarning hissiy olamini yaqinroqdan tuyishga ham xizmat qilgan. Asar tasvirini jonli qilib ko'rsatishga erishish badiiylilikning eng zarur sharti hisoblanadi. Adibning «مرغی که مُرد»[7p.] («O'lgan tovuq») hikoyasida esa tovuq jonlantiriladi va muallif nutqi orqali tilga kiradi:

مرغ چشمه‌ایش را باز کرد. دروازه اتاق، نور کم رنگ چراغ روغنی به کفش کن می افتاد و ناله آهسته پیرمرد، از لابه لای این نور کم رنگ، می گذشت و به گوش مرغ می رسید. به نظر مرغ آمد که این ناله آهسته، یک جا با نور کم رنگ، از چراغ روغنی برمی خیزد. به نظرش آمد که نور کم رنگ، یک جا با ناله آهسته، از وجود پیر مرد می برآید. مرغ، با خودش گفت:
- عجب دنیایی!

«Tovuq ko'zlarini ochdi. Xona eshigidan dahlizga moychiroqning xira nuri tushib turar va ayni paytda cholning ohista nolasi tovuqning qulog'iga eshitalardi. Tovuq bu ohista nola moychiroqning xira nuri bilan birga chiqmoqda deb o'yladi. Xira nur ohista nola bilan bir joydan, cholning vujudidan chiqmoqda deb o'yladi. Tovuq o'zicha gapirdi:

- Ajib dunyoda!»[8p.339]

Bu parchada tovuqning nutqi badiiy asarga hissiy jo'shqinlik baxsh etgan. Adib cholning yolg'izligini tovuqning "monologik nutqi"da yaqqol aks ettirishga erishgan. Cholning kundalik turmush tarzi, atrofida qilargalarga munosabati, o'y-xayollari tovuq nutqida aks ettiriladi. Jonlantirishga xos xususiyatlar, uning badiiy asardagi o'rni haqida A.Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" nomli tadqiqotida shunday fikr bildirgan edi: Insondagi darajada tirikligi bo'lmagan narsalarga, jonivorlarga insondag'i tiriklikning hollarini, sufatlarini taqmoqdir. Jonsiz narsalarni jonli ko'rmak, qushlar, jonivorlarni kimsalar o'rinda tushunib, o(n)lar bilan gaplashmak, og'ir qayg'ular, kuchli tuyg'ular, dengiz to'lquni, qon qaynashi zamonlarida bo'laturgan bir ruhiy holatdir[9p.56]. Shu



ma'noda R.Zaryobning hikoyalarida "jonivorlarni kimsalar o'rnida tushunib" yaratgan obrazlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Muallif shunday obrazlar orqali o'zining badiiy niyatini amalga oshiradi.

Shuningdek, adib hikoyalaridagi o'xshatishlar ham bosh qahramon ruhiyatini anglatish jihatidan ahamiyatlidir. Odatda, o'xshatish har bir san'atkorning o'z fikrlarini yaqqol ifodalashda, asar mohiyatini kitobxonga tez va aniq anglatishda, tabiat hodisalarini tasvirlashda, badiiy obraz yaratishda muhim bo'lgan badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. O'xshatish ko'chimlarning sodda turiga kirib, unda biron bir narsaning to'g'ri-dan-to'g'ri o'xshash tomonlarini ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. O'xshatish badiiy asarda obraz va manzaralar yaratish bilan birga, yozuvchining voqelikka bo'lgan munosabatini aniq va yaqqol ifodalaydi. R.Zaryob esa o'xshatishlarni o'z holicha chiroyli va original bo'lgani uchun emas, balki personaj hissiyatini anglatish, uning ko'ngil kechinmalarini moddiylashtirish uchun qo'llashga erishganligi sababli ham asarlarining ta'sir quvvati oshgan. Jumladan:

«ده كده ما، در زمستان ها، چون گربه یی خاکی رنگ که بر توده پنبه خوابیده باشد، میان برف سفید لم می

دهد.» (ده كده ما)

Qish faslida bizning qishlog'imiz bir uyum oppoq paxtaning o'rtasida o'tirgan tuproq rang mushukka o'xshaydi, oppoq qor qishloq o'rtasida bo'ladi. ("Bizning qishloq")[10p.111]

Keltirilgan misolda qishloqning qish faslidagi manzarasi yozuvchi tomonidan bir uyum oppoq paxtaning o'rtasida o'tirgan tuproq rangli mushukka o'xshatilishi tasvirning yanada badiiyligini oshirishga xizmat qilgan.

«به نظرم می آمد که در لابه لای شاخه های ارغوان، عایشه پنهان شده است. از میان شاخه ها، شرنگ

شرنگ چوری هایش را می شنیدم.» (چوری های ارغوان)

(...) go'yoki Oysha arg'uvon daraxtlari orasiga berkingandek edi. Uning shoxlari orasidan bilakuzuklarning jarangini eshitardik. ("Arg'uvon bilakuzuklari")[11p.225]

O'xshatishga misol keltirilgan parchada qahramon arg'uvon daraxtlari orasida berkinib olgandek, daraxt shoxlari orasidan bilakuzuklarning jarangi qahramon xususiyatlariga taqqoslanadi.

«به پایین که رسیدم، همه مردم به سویم حمله کردند. به نظرم آمد که تعداد بی شماری از زنبوران به سویم

حمله مرده اند. خواستم با کاغذهای دستم آنان را پراکنده کنم و فریاد زدم:

- بروید... نور بروید!

ولی آنان نرفتند و پیش تر آمدند. دیدم غلط کرده ام. زنبور نبودند. گرگ بودند. از وحشت، موی بر تنم راست

شد. کاغذها را به سوی شان انداختم و باز هم فریاد کشیدم:

- گرگ ها... گرگ های درنده! «(خواب ترس ناک)

Pastga tushishim bilan hamma menga hamla qildi. Ular son-sanoqsiz arilar singari menga tashlandi. Qo'limdagi qog'ozlar bilan ularni haydashga harakat qildim va baqirdim:

- Keting... Nari keting!



Ammo ular ketishmadi, balki yanada yaqinroq kelishdi. Xato qilganimni tushundim. Ular ari emas, bo'ri edilar. Dahshatdan tuklarim tikka bo'ldi. Qog'ozlarni ular tomonga otdim va yana baqirdim:

- *Bo'rilar... Yovvoyi bo'rilar!* (“Qo'rqinchli tush”)[12p.428]

«همه جا برف بود. پرده خاکستری بود، با خال های سپیدرنگ.» (رقصه)

Hammayoq oppoq qor edi. Tunning qorong'usida chiroqning nuri oq xolli kulrang pardaga o'xshardi. (“Raqqosa”)[13p.240]

«قالین سرخی، کف اتاق را پوشانیده بود که گل های سپید و ریزه ریزه داشت. کف اتاق خالی بود – مانند چمن سرخ رنگ با گل های سپید. به نظر مراد آمد مه از این چمن سرخ رنگ و گل های سپیدش، آواز ساز برمی خیزد. و بعد، بر این چمن، تصویری نمایان شد. زنی که می رقصید. زن، دامنی سبز دارز به تن داشت – سبز روشن. و به پاهایش زنگ بسته بود. با تندی به زمین پای می کوبید. مثل این که می خواست چمن سرخ رنگ و گل های ریزه سپید را لگد کوب کند.» (رقصه)

Xonaning o'rtasiga oq mayda-mayda gulli qizil gilam solingan edi. Xonaning o'rtasi go'yo oq gulli chamanzor edi. Murodning xayolida chamanzorda oq gullar kuylashardi. So'ng chamanzorda raqsga tushayotgan ayol paydo bo'ldi. Ayol uzun yashil ko'ylakda, oyog'iga qo'ng'iroq taqib olgan edi. Go'yo oq mayda gullarni payhon qilmoqchi bo'lgandek, yerga oyog'ini urardi. (“Raqqosa”)[14p.255]

چهره اش سفیدتر شده بود. مثل آن که می درخشید. («بی گل و بی برگ»)

Uning yuzi yashin urgandek oqarib ketgan edi. (“Begul va bebarg”)[15p.420]

دامنه کوه را چوری گرفته است. همه جا انباشته شده بود از چوری های ارغوانی. («چوری های ارغوانی»)

Go'yo tog' etaklari arg'uvoniy bilakuzuklar bilan qoplangan edi. Hamma joyda arg'uvoniy bilakuzuklarning jarangi eshitalardi. (“Arg'uvon bilakuzuklari”)[16p.225]

عکس شراره های آتش، در چشم های آنان پنچ و تان می خورد. («خنجر»)

Gulxan aksi bamisoli ko'zlarida yonardi. (“Xanjar”)[17p.391]

همه چیزم، احساساتم، اندیشه هایم، خیال هایم، دگرگون شدند. در باغ دلم، غنچه نوی شگفت و مرغ نوی به نوا در آمد. («بی گل و بی برگ»)

Butun vujudim, hislarim, andisha va xayollarim boshqacha holatda edi. Xuddi ko'nglim bog'ida yangi g'uncha ochildi va yangi qushning xonishi eshitila boshlandi. (“Begul va bebarg”)[18p.37]

Keltirilgan o'xshatishlar vaziyat va ayni vaziyatda faoliyat ko'rsatayotgan qahramonlar ruhiyatini anglashga yordam berib, hikoyalarning badiiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan. O'xshatilgan narsa-hodisalarga xos barcha xususiyatlar qahramon obrazini ochishda ko'rsatilgan.

Yozuvchi hikoyalarida hayotning bir parchasini tasvirlar ekan, asardagi boshqa voqealar va obrazlarni bir-biriga bog'liq holda ifoda etadi. Shu sababli ba'zan obrazlar tasvirida parallelizm yuzaga keladi. R.Zaryobning ayrim hikoyalaridagi obrazlar ruhiyati va yashash tarzi tasvirida ham o'xshash qirralar ko'zga tashlanadi. «شهرما» (“Arg'uvon bilakuzuklari”), «چوری های ارغوانی», «مدیرمجله» (“Jurnal mudiri”), «فریاد» (“Faryod”), «O'lgan qush» (“O'lgan qush”), «مرغی که مُرد»، «رقصه» (“Raqqosa”), «Bizning shahar» (“Bizning shahar”), «مدیرمجله» (“Jurnal mudiri”), «چوری های ارغوانی» (“Arg'uvon bilakuzuklari”), «فریاد» (“Faryod”), «O'lgan qush» (“O'lgan qush”), «مرغی که مُرد»، «رقصه» (“Raqqosa”), «مدیرمجله» (“Jurnal mudiri”), «چوری های ارغوانی» (“Arg'uvon bilakuzuklari”), «فریاد» (“Faryod”), «O'lgan qush» (“O'lgan qush”), «مرغی که مُرد».



«پاها» (“Oyoqlar”), «شهر طلسم شده» (“Qarg‘ishga uchragan shahar”), «تابوت ساز» (“Tobutsoz”), «خواب ترس ناک» (“Qo‘rqinchli tush”), «معلم رسم» (“Suratkash muallim”), «بی گل و بی برگ» (“Begul va be barg”) singari hikoyalarida bir-biriga yaqin voqea, qahramon va davr manzaralari ko‘zga tashlanadi. “Begul va be barg”dagi Zarminaning onasi, “Arg‘uvon bilakuzuklar”dagi Oyshaning onasi hikoyada tasvirlangan voqealar rivojida sustroq qatnashadi. Ular syujet rivojining kulminatsion nuqtasida ishtirok etmaydilar. Lekin u qahramonlar atrofidagi obrazlar ruhiyatining yaqqolroq ochilishiga xizmat qiladi. Adib davr kishilariga xos xususiyatlarni ko‘rsatishda ana shu epizodik personajlar tasviridan ham o‘rinli foydalanadi. Boshqalarning bu shaxslarga munosabat tarzi ularning asl qiyofalarini ko‘rsatish vositasiga aylanadi.

Shuningdek, hozirgi Afg‘oniston dariy hikoyalarida zamonaviy qahramon ruhiyatini yoritishda oilaviy mojarolar tasviridan ham o‘mi bilan foydalanilmoqda. Oilaviy mojarolar odamni odatiy kundalik hayot qo‘ynida ko‘rsatishi jihatidan qulaylikka ega. Bu hikoyalarda hayotning har bir kichik nuqtasini ham badiiy tadqiq etish asosida personaj ruhiyatini ochish mumkin. Chunki odam ana shunday odatiy, kundalik tashvishlar qurshovida o‘ziga xos jihatlarni yaqqolroq namoyon etadi.

R.Zaryobning «پاها»[19p.] (“Oyoqlar”) hikoyasida tilanchi ayolning hayoti adoqsiz turmush qiyinchiliklari girdobida ko‘rsatiladi. Bu qahramon ichki olamida turli o‘yxayollar girdibodi ufuradi. Tilanchi ayolning hayot tarzi, turmush yo‘sini nihoyatda achinarli va ayanchli. Ayolning ichkilikdan abgor bo‘lgan, tekinxo‘r, oilasini ham, o‘z erlik sha‘nini ham o‘ylamaydigan, ichkilikboz bir er bilan yashashga majburligi katta bir fojea.

Ma‘lumki, Sharq ayollari er qanchalik betayin bo‘lmasin, oilasidan, bolalaridan voz kechib ketolmaydi. Tilanchi ayol unsiz hayotidan nolinadi, ammo oilasini tashlab ketolmaydi. Ichkilikka qullik hamda dangasalik sababli insonlik va erkaklik qiyofasidan mahrum bo‘lgan er obrazi hikoyada shafqatsiz darajadagi haqgo‘ylik bilan yaratilganligi sababli o‘quvchining xotirasiga mixlanib qoladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hikoyada halol va harom, omonat va xiyonat, rost va yolg‘on kabi bir-biriga zid tushunchalar kurashi tasvirlanadi. Jamiyatning negizini tashkil etuvchi, uning ustuni bo‘lgan oila har bir millat tomonidan o‘ziga xos tushuniladi. Sharq xalqlarining oilaga munosabati etnos tayangan ma‘naviy-axloqiy asoslarga mutanosib tarzda shakllangan. Shundan kelib chiqib, oila daxl qilib bo‘lmas muqaddas qadriyat sanalgan. Chunki Sharq xalqlari jamiyatining bugunigina emas, istiqboli ham oilada qaror topgan. Erning xotinga, xotinning erga munosabati, hurmati, bir-birini tushunish va ayashlari oilaning nechog‘lik mustahkam bo‘lishini ta‘minlaydigan omillardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa bugungi Sharq oilasining mustahkamligi, albatta, er va xotinning ma‘naviy-ruhiy olamiga bog‘liqdir. Shu o‘rinda oiladagi erkak va ayolning o‘zaro munosabatlaridagi tub o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelgan ruhiy g‘alayonlarni butun nozikligi va chigalliklari bilan qalamga olgan Rahnavard Zaryobning «پاها» (“Oyoqlar”) hikoyasida ayol va erkakning qalb kechinmalari yangicha yo‘sinda ifoda



etilgan. Adib hikoya mazmun-mohiyatini kuchaytirish maqsadida qarshilantirish tasvir vositasiga murojaat qiladi:

پاهای گوناگون: پاهای کوچک و بزرگ، پاهای برهنه و پوشیده. کوش های کهنه و کوش های نو و جوراب های...

بعضی از پاهای، شتاب زده و باعجله می گذشتند و بعضی دیگر، آهسته راه می پیمودند.
پاهای گوناگون که به راست و چپ می رفتند.

*Turli-tuman oyoqlar: katta va kichik, kiyimli-kiyimsiz. Eski va yangi kavushlar...
Ba'zilar shiitob va zudlik bilan o'tar, ba'zilar esa ohista yo'lida ravona bo'lardi.
O'ng va chap tomonga ketayotgan turli oyoqlar.*[20p.171]

Hikoyada ojizgina ayolning ayovsiz hayot ziddiyatlariga tik boqa olishi shafqatsiz haqqoniylik usulida ifoda etiladi. Yozuvchi ayol timsolini yaratishda sirtidan ilg'ash mumkin bo'lmagan kechinmalar, tuyg'ularni butun ingichkaligi bilan his qilgan holda ish ko'radi. Balki adib hayot ziddiyatlari, zug'umlarining bunday ayovsiz tasviri vositasida Sharq ayolining tunganmas "sabr-bardosh" egasi ekanligini namoyon etmoqchi bo'lgandir. Shunday tragik vaziyatga tushib qolgan odamlar xatti-harakatlari yozuvchi tomonidan katta dard bilan tabiiy tasvir etilgan.

«Faryod» [21p.] («فاریاد») hikoyasida esa rahbar-xodim o'rtasidagi munosabatlar qalamga olinadi. Asar qahramonlarining aksariyati Raisdan manfaat kutib yashaydigan kimsalar. Hikoyadagi boshqa obrazlar Rais obrazi doirasida faoliyat yuritadi va ularning o'zligi Raisga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bu hikoyada voqea va qahramonlar tasviri asosan, antiteza orqali ko'rsatib beriladi. Adabiyotshunoslik ilmida antiteza atamasiga quyidagicha izoh beriladi: A. (Antiteza – N.K.) uslubiy bezak sifatida antik davrlardan boshlab keng qo'llaniladi. A.da qarshilantirish, asosan, antonim so'zlar vositasida voqea bo'ladi, shu sababli ham u doim ochiq ko'zga tashlanadi. A. fikr-tuyg'uni aniq-ravshan, ta'kidlab, emotsional to'yintirib ifodalashga xizmat qiladi.[22p.32]

Demak, antiteza hodisasi asardagi voqea va tushunchalarni bir-biriga qarshi qo'yish vositasida amalga oshiriladi, aynan shunday hodisa yozuvchining «فاریاد» («Faryod») hikoyasida ko'proq kuzatiladi:

بلی، این مادر بی چاره بنده بین مرگ و زنده گی دست و پا می زد.
آن روز، سر کار نرفتم سراسر روز را در حالتی خشم ناک و فرسوده گی گذراندم: در حالی که آن مرحومه در بین مرگ و زنده گی دست و پا می زد. گاهی بی هوش می شد و باز دوباره به هوش می آمد.
راستش این است که او بین مرگ و زنده گی در نوسان بود.
حقیقت این است که بنده بیخی هم بی گناه نیستم: اما گناهام است. خیلی کوچک.
من نمرده ام که زنده شوم.
- ابله، چرا دروغ بگویم. راست می گویم، راست...

«Ha, bu bechora onam o'lim va hayot o'rtasida turardi.»

«O'sha kuni ishga bormadim, onam ikki dunyo o'rtasida turgani uchun kun bo'yi siqilib yurdim. Bir hushidan ketar, bir hushiga kelardi.»

«(...) to'g'risi shuki, u o'lim va tiriklik orasida edi.»



«*Haqiqat shuki, men begunohman, ammo gunohsiz ham emasman.*»

«*Men tirikmidimki yashasam.*»

«*Ablah, nega yolg'on gapirarkanman, rost aytyapman...*» [23p.425]

Hikoyada antitezalar bilan bir qatorda o'xshatishlarga xos tasvirlar ham uchraydi. Masalan: «*perozkanan amidd. dr halı «mıgr ne ba xodro, bl az rah hwa. Arı, dıddm ke sma çon prndehıı, ke be çay bal, dst hay tan ra hrkt mı dadd. hme kf zdın ra shroç krnd. xosh şdnd ke sma amıdd v az prوازtan hme teçbı nkrnd.»*» «*tıtr ık rast be grdn sma xord v sma çon kbotr zخمı br zmn aftadd «(Mashinada emas samolyotda kelardingiz. Ha, qush kabi parvoz qilardingiz. Qanot o'rniga qo'lingizni qimirlatardingiz. Hamma qo'l silkita boshladi. Siz kelganingizga xursand bo'lishdi va uchayotganingizdan hayron bo'lishmadi ham.) (O'q to'ppa-to'g'ri bo'yningizga tegdi, siz yaralangan kabutardek yerga yiqildingiz. Misoli yirik va sergo'sht kabutardek.)*»

Yozuvchining «*معلم رسم*» (“*Suratkash muallim*”) hikoyasida qarshilantirishning murakkab shakli qo'llaniladi. Tiriklik va yo'qlik hayot va o'lim singari jumlar bilan ifodalanadi.

زنده گی، قرضی است که از مرگ گرفته ایم!

زنده گی در دست مرگ است؟

زیرا من فکر می کنم که مرگ، زنده گی را به روز از ما می گیرد.

در برابر اسکلیت، مردی ایستاده بود که با لب خندی مملو از تحقیر و استهزا، دسته گلی را به اسکلیت می داد.

ما که کوچک بودیم، چون از پهلویش می گذشتیم، درازتر معلوم می شد.

Hayot – bu o'limdan olgan qarzimizdir.

Hayot o'limning qo'lidami?

Zero, men o'lim bizdan olib qo'yayotgan hayotni o'ylayman.

Skeletning qarshisida tahqir va istehzodan mamnun bo'lib, jilmayib turgan kishi bir dasta gulni skeletga berardi.

Biz esa hali kichkina edik, muallimning yonidan o'tganimizda u yanada balandroq tuyulardi. [24p.103]

Shuningdek, asarda «*لب خندش، مانند شهابی، درخشید و گم شد.*» (*Uning jilmayishi yorqin yulduzdek bir yarq etdi-yu so'ndi*) [25p.104] singari o'xshatishlardan ham unumli foydalanilgan.

Yozuvchining po'rtanali qalb g'alayonlari aks etgan bu asar ham inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Unda tasvirlanayotgan har bir holat, har bir harakat to'xtovsiz dinamikaga ega. Hikoya markazida hayotda adashgan odam taqdiri turadi. Shu asnoda qahramon ichki dunyosi kengroq tasvirlanadi. Fojeiy voqelikning ochiq tasviri asosida yuzaga kelgan bu hikoya yozuvchi ijodida yangi bosqich hisoblanib, uning hikoyanavisligida o'ziga xos ahamiyatga ega. Asar qahramonining ichki olamida ro'y berayotgan dahshatli qasirg'alar kitobxonni ham tinch qo'ymaydi. Hikoyadagi har bir qahramon tashvishi o'quvchi qalbini larzaga soladi.



«ديوار»[26p.] (“Devor”) hikoyasida devorning o‘zi ramziy ma’noda hayotga, yashashga zid qo‘yilgan qarshilantirish hisoblanadi. Asardagi qahramon nutqida uchraydigan «مى دانى... جهان بسيار بزرگ است: ولى در خانه ما، همه از همين ديوار (Bilasanmi, dunyo juda keng, lekin bizning uyimiz devor sababli juda tor)[27p.29], singari ixcham, lo‘nda fikrlarda falsafiy mushohadago‘ylikning keng ifodasi antiteza vositasida aks ettiriladi. «گل هایش، این جا و آن جا، افتاده اند و خشت هایش دیده می شوند.»کاه» (Necha yildirki, shu yerda yafodor qo‘riqchidek turibdi), «میانہ اش به سوی حویلی ما پیش آمدہ (Devorning o‘rtasi bo‘rtib chiqqan edi, go‘yo qorin qo‘ygandek)[28p.27] kabi o‘xshatishlar esa hikoya mazmundorligini yanada boyitgan. Bu hikoyada yaxshi turmush yo‘lida o‘zini o‘tga-cho‘qqa uradigan, sabru qanoatdan yiroq oilaboshining ruhiy dunyosi favqulodda vaziyatlar tasviri asnosida g‘oyat ta’sirli ko‘rsatib berilgan. Oiladagi turmush muammolarini hal qilish odatda, erkaklar zimmasiga yuklatilgan vazifadir. Shu sabab ham ular oilasi hayotini izga solish uchun har narsaga tayyorlar. Yozuvchi oilasi to‘kislighi uchun o‘zini ayamaydigan erkaklar timsolini ishonarli yoritgan.

«پیرزن و سگش» [29p.] (“Kampir va kuchukchasi”) hikoyasida kampir obrazi ham o‘ziga xos maromda tasvirlangan. Kampirning tabiati tasvirlangan lavhalarda uning e’tiqodi mustahkam shaxs ekanligi ko‘rinadi. U oddiy xalq vakillariga o‘xshab, maydakashlik, hasad, ig‘vo bilan shug‘ullanmaydi. Balki turmush aravasini yolg‘iz o‘zi tortish bilan ovora. Ayni vaqtda, uning o‘z qadrini bilishi, sha’nini saqlashga urinishi tasviri bu obrazning o‘zgacha shaxs ekanligini zimdan ta’kidlashga xizmat qiladi. Hikoyada voqelikni yanada kuchaytirish, bo‘rttirish maqsadida badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalanilgan.

«پیروزی نخواهد بود، فقط شکست. دیر یا زود مهم نیست. او گریه کرد و خندید» (Hech qanday g‘alaba bo‘lmaydi, faqat mag‘lubiyat. Ertami-kechmi ahamiyati yo‘q. U yig‘ladi va kulib yubordi)[30p.463] singari bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Badiiy tasvirdan haqqoniylik ufurib turgani uchun hikoya tezda kitobxonni o‘ziga rom qiladi. Hikoya bosh qahramonining faoliyati, xatti-harakatlarigina emas, balki kampirning o‘tmishini qo‘msab surgan o‘ylari, oldinlari arzimaday tuyulgan va mutlaqo e’tibor bermay o‘tib ketgan holatlardan teran hayotiy ma’nolar chiqarishi kitobxonni ham o‘ziga ergashtirib ketadi. “Kampir va kuchukchasi” hikoyasida hayotdagi zarbalar ta’siridan ko‘p azob chekkan, azob chekkan sari ruhiyatida ulardan chuqur-chuqur izlar qolgan, dildirab turadigan nozik qalb egasining holati butun ayanchliligi bilan aks ettiriladi. Shuningdek, qahramonni «خدایا، چه زود پیر شدم» (Yo Rabbim, men qanchalik tez qaridim)[31p.471] singari og‘ir o‘ylar kunjida ko‘rsatish kitobxonga ayolning ichki iztiroblari darajasini bevosita his qilish imkonini beradi.

«خنجر»[32p.] (“Xanjar”) hikoyasida bir mo‘ysafidning umri davomida saqlab kelayotgan sirli hayoti bayon etiladi. Uning o‘z o‘g‘liga sirini oshkor etishi o‘limdan ham og‘irroq tuyuladi. Mo‘ysafidning o‘limi oldidan aytgan quyidagi gaplari uning ruhiyatini anglatishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etgan: اما، هیچ کس این قصه بی را که من



«به تو گفتم، نمی داند. حالی تو این قصه را نگه دار... این قصه...» «*Lekin hech kim men senga aytgan gaplarni bilmaydi, endi sen ham bu gaplarni sir saqla... sir saqla!*» [33p.394] O'lim to'shagida yotgan odamning bu gaplari timsolning hayotga kulib qaraydigan, o'zi va o'zgalarning kamchiliklarini yaxshi biladigan kishining ma'naviy dunyosiga bir qadar oydinlik kiritishi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, Rahnavard Zaryob sifatlashlar orqali ham kitobxonda nafaqat voqeani butun ko'lami bilan ko'rsatadi, balki obraz ruhiyati haqida ham ma'lum bir tasavvur uyg'otishga erishadi. Hikoyalarida qo'llanilgan sifatlashlar hikoya ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

«روشنی تندی مانند سیل آب از دریچه کلبه به درون (Xanjar) «خنجر» سرازیر می شد و در دیوارهای دودزده فرو می رفت. در میان کلبه ما، آتش می سوخت و روشنایی کم رنگی به اطراف می پراگند.» «خاطره ها زنده شده بودند:» «بلندقد و چار شانه بود. روی گردی داشت و دستار سیاهی به سرش بسته بود. چینش زردرنگ بود و کمرش را با دست مال سرخی بسته بود. چشم های کلان کلان داشت.» «موهایش پریشان بودند.» «با آواز غم ناکی» «بر پیشانی فراخش از داد چین افتاده بود. دستار بر سر نداشت.» «*Yomg'ir sel kabi kulba darchasidan ichkariga oqib, dud bosgan devordan sizib o'tardi. Kulbamiz o'rtasida gulxan yonib turar, atrofga xira yorug'lik taratardi, (Otamning xotiralari jonlanib ketgan edi), (Bo'yi baland, keng yelkali, dumaloq yuzli edi. Choponi sariq rangda, belini bog'lab olgan, ko'zlari katta-katta, keng peshonali edi), (Boshiga og'ir musibat tushganga o'xshardi, sochlari to'zib ketgan, bir ahvolda edi), (Dardli ovozda to'pori ot, dedim)*» [34p.389-394] kabi sifatlashlar hikoyaning badiiy manzarasini yanada yorqin aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Demak, adib hikoyalariga kiritilgan har bir tasvirning aynan shundayligi o'ziga xos badiiy qimmatga ega va shu holda inson hayotning bir parchasini aks ettirishga xizmat qiladi.

Bulardan tashqari, mubolag'ada obrazni bo'rttirib ko'rsatishga va shu yo'l bilan asarning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgani uchun ham Rahnavard Zaryob ba'zi o'rinlarda unga murojaat qilgan. Mubolag'a odatda, biror bir narsa, xususiyat, voqea va belgini haddan ortiq kuchaytirib, bo'rttirib tasvirlash vositasi hisoblanib, unda ijodkor tasvirlanayotgan narsani boshqa narsalar ichidan ajratib ko'rsatishga erishadi. Adib hikoyalarida mubolag'a aksariyat hollarda metafora, jonlantirish, o'xshatish singari badiiy vositalar bilan birgalikda keladi.

Uning «انگنت هایش می لرزیدند. لرزش آن ها (Xanjar) «خنجر» به سراپای من «انگنت هایش می لرزیدند. لرزش آن ها» «آن وقت ها، شنیدن این نام بدن ها را می لرزانید.» «*Barmoqlari qaltirardi, uning qaltirashi hatto mening oyoqlarimni ham qaltirardi, (O'sha paytlarda bu nomni eshitganda odamlarning eti jimirlardi)*» [35p.390] singari mubolag'ali tasvirlarda qahramonning qo'rquvi va ulug'lanishi nihoyatda haqqoniy yoritilgan.

So'z ko'p ma'noli bo'lganligi uchun o'zining asosiy ma'nosidan tashqari yana bir qator ma'no tovlanishlariga ega. So'zning o'z ma'nosiga e'tibor bersak ham, biror



hodisani ta'rif-tavsiflash maqsadida shu so'zni uning ikkinchi ma'nosida ham qo'llash mumkin, bunday ma'no ko'chishini qamrab oladigan asosiy ko'chimlardan biri metafora hisoblanadi. Metafora narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Metafora tufayli badiiy asarning ta'sirchanligi, bo'yqadorligi oshadi.

Shuningdek, yozuvchi asarlarida metaforik tasvirlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. "Xanjar" hikoyasidagi "شور عجیبی در چشم های پدرم می ساخت." "نام او دل های آنان را گرم می ساخت." "درخشید." "نام خوش مراد بیش تر سر زبان ها افتاد." "آواز گام های اسپ را شنیدیم که دور می شد." "اندوه بر «دلم سنگینی می کرد.» (*Uning nomi odamlar yuragidan joy olgandi*), (*Otamning ko'zida ajib bir nur portardi*), (*Xushmurodning nomi yanada yoyildi*), (*Ot tuyoqlarining tovushi uzoqlashib borardi*), (*Yuragimga g'ulg'ula oraladi*) [36p.390-394], "Begul va bebarg" hikoyasidagi «باز دلم تپیدن گرفت.» «دلم فشرده می شد.» «رنجی عمیق و جان گداز.» «من باز هم، رنج می بردم.» «دیدنش دل خوش می کردم.» «کلمه ها را با چشم هایم می خوردم.» «گوش هایم به صدا در آمدند.» «سنگین بود و فشرده می شد، دلم گرفته بود.» «آزارم می داد و جانم را می فرسود.» (*Yana yuragim hapqirardi*), (*Yuragim titrardi*), (*Og'ir qayg'u jonimni o'rtardi*), (*Men yana dardga ko'milardim*), (*Uni ko'rib dilim yayrardi*), (*So'zlarni ko'zlarim bilan yutib yuborardim*), (*Qulog'imga chalinib qoldi*), (*Dardim og'ir edi, yuragim yonardi*), (*Yuragimni teshib borardi*) [37p.37-47], singari metaforalar aynan qahramonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda har bir so'z muayyan bir mustaqil ma'noga ega bo'lib, biror hodisa, harakat va buyumni ifodalab kelgani uchun yozuvchining so'z boyligi, yozuvchi tilining juda ko'p sohalariga aloqadorligi bevosita uning hayot tajribasiga, umumiy va adabiy bilim darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu tarzda ijodkorning badiiy tilni hayotiy tajribalardan, turli manbalardan o'rganishi va o'zlashtirishi natijasida uning so'z boyligi borgan sari oshib boradi.

Jumladan, Rahnavard Zaryob ijodida ham hikoya janrining o'rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning qahramonlari bugungi kun afg'on xalqining dardga muhtalo insonlaridan iborat. Chunki yozuvchi shu bugunning ijodkori, tadqiqotchisi, shu sababli ham u hayotda ko'rgan-kechirganlarini, uchragan-uchratganlarini, aldan-gan-adashganlarni nihoyatda sinchiklab o'rganadi.

Umuman olganda, adabiy asarda esda qoladigan badiiy obraz tinimsiz izlanishlar mahsuli sifatida dunyoga keladi. Yozuvchi hayotni quruq, jonsiz, ehtirossiz tasvirlay olmaydi. U hayotni chuqur his qiladi, jonli va emotsional ravishda o'zlashtiradi va tasvirlaydi. Badiiy tasvir vositalari asardagi obrazlarga emotsiya bag'ishlab, ularni tirik odamga aylantiradi. Shu jihatdan qaraganda tasvir vositalarisiz badiiy asar yaratilmaydi. Aks holda asar keltirilgan hayotiy dalillar bilan chegaralanib, zerikarli va quruq bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саримсоқов Б. Бадийлик моҳияти ва асослари // Бадийлик асослари ва мезонлари. А.С.Аҳмедова Т.: босмах. 2004. –Б.37.
2. Адабиёт назарияси (2 жилдлик) –Т.: «Фан», 1978. 1-жилд. –Б.107.



3. رهنورد زریاب. داستان ها. «چوریهای ارغوانی» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۲۵.
4. رهنورد زریاب. داستان ها. «رقاصه» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۵۵.
5. رهنورد زریاب. داستان ها. «رقاصه» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۶۰.
6. رهنورد زریاب. داستان ها. «شهر طلسم شده» کابل-۱۳۹۵. ص. ۱۴۷.
7. رهنورد زریاب. داستان ها. «مرغی که مُرد» کابل-۱۳۹۵.
8. رهنورد زریاب. داستان ها. «مرغی که مُرد» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۳۹.
9. Фитрат А. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар: Ж. IV. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар (Масъул муҳаррир Б.Қосимов). – Б.56.
 10. رهنورد زریاب. داستان ها. «ده كده ما» کابل-۱۳۹۲. ص. ۱۱۱.
 11. رهنورد زریاب. داستان ها. «چوری های ارغوانی» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۲۵.
 12. رهنورد زریاب. داستان ها. «خواب ترس ناک» کابل-۱۳۹۲. ص. ۴۴۸.
 13. رهنورد زریاب. داستان ها. «رقاصه» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۶۰.
 14. رهنورد زریاب. داستان ها. «رقاصه» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۵۵.
 15. رهنورد زریاب. داستان ها. «بی گل و بی برگ» کابل-۱۳۹۲. ص. ۴۲.
 16. رهنورد زریاب. داستان ها. «چوری های ارغوانی» کابل-۱۳۹۵. ص. ۲۲۵.
 17. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۹۱.
 18. رهنورد زریاب. داستان ها. «بی گل و بی برگ» کابل-۱۳۹۲. ص. ۳۷.
 19. رهنورد زریاب. داستان ها. «پاها» - کابل. ۱۳۹۵. ص. ۱۸۵/۱۸۴.
 20. رهنورد زریاب. داستان ها. «پاها» کابل. ۱۳۹۵. ص. ۱۸۱.
 21. رهنورد زریاب. داستان ها. «فریاد» کابل. ۱۳۹۲. ص. ۴۲۹-۴۲۵.
22. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademyashr. -2010. –Б.32.
 23. رهنورد زریاب. داستان ها. «فریاد» کابل. ۱۳۹۲. ص. ۴۲۵.
 24. رهنورد زریاب. داستان ها. «معلم رسم» - کابل. ۱۳۹۲. ص. ۱۰۳.
 25. رهنورد زریاب. داستان ها. «معلم رسم» - کابل. ۱۳۹۲. ص. ۱۰۴.
 26. رهنورد زریاب. داستان ها. «دیوار» کابل. ۱۳۹۲. ص. ۳۰-۲۷.
 27. رهنورد زریاب. داستان ها. «دیوار» کابل. ۱۳۹۲. ص. ۲۹.
 28. رهنورد زریاب. داستان ها. «دیوار» کابل. ۱۳۹۲. ص. ۲۷.
 29. رهنورد زریاب. داستان ها. «پیرزن و سگش» کابل - ۱۳۹۲ ص ۴۷۲-۴۶۳
 30. رهنورد زریاب. داستان ها. «پیرزن و سگش» کابل - ۱۳۹۲ ص ۴۶۳
 31. رهنورد زریاب. داستان ها. «پیرزن و سگش» کابل - ۱۳۹۲ ص ۴۷۱
 32. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۸۹-۳۹۴.
 33. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۹۴.
 34. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۸۹-۳۹۴.
 35. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۹۰.
 36. رهنورد زریاب. داستان ها. «خنجر» کابل-۱۳۹۵. ص. ۳۹۴-۳۹۰.
 37. رهنورد زریاب. داستان ها. «بی گل و بی برگ» کابل-۱۳۹۲. ص. ۴۸-۳۸.



TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
 ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
 LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

SODIQOV QOSIMJON

Professor, f.f.d., TDSHU

Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari

Annotatsiya. Til bilimi sohasida ilk o'rta asrlarning Sharq, xususan, turkiy tilshunosligi Yevropa ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. O'sha davr tilshunosligida til bilimi atamalari tizimi tugal bir ko'rinishda ishlab chiqilgan bo'lib, qoraxoniylar davri asarlarida ularning ma'lum bo'lagi tamg'alanib qolgan.

Hozirgi an'anaviy tilshunoslikda atamaga (terminga) nisbatan belgilangan o'lchovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan to'g'ri kelavermaydi. Ular ba'zan ko'panglamlik xususiyatiga ham ega. Turkiy so'zlarning atamaga aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Eski turkiy yozma yodgorliklarda ishlatilgan atamalar tizimi ilk o'rta asrlarda turkiy jamoada, xususan, bilginlar va o'qimishlilar doirasida tilshunoslik, lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy so'zlardan iborat. Til bilimi atamalari tizimining muqim bir tartibga kelishi va takomillashuvida o'sha davr tilshunos olimlari, tarixchilari va adabiyot ahlining xizmati ulug'dir.

Ushbu maqolada qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamalari, ularning matndagi ma'nolari va atamaga aylanish jarayoni ochiqlab berilgan.

Kalit so'z va birikmalar: turkiy tilshunoslik tarixi, Qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, til, so'z, nutq, yozuv, yozma til.

Abstract. As scientific sources testify, early and medieval eastern, in particular, Turkic linguistics were significantly ahead in their development of the level of linguistic knowledge in Europe. This is evidenced by the fact that by this period an integral system of linguistic terms had already been formed in the East, a significant part of which was preserved in written monuments of the Karakhanid period. And what is especially noteworthy is that many of them are of Turkic origin. And in this regard, the merit of linguists, historians and literary figures of this period is invaluable.

The lion's share of linguistic terms and requirements for them are inherited by modern Eastern linguistics. However, over time, they nevertheless underwent changes, which affected, first of all, their semantics. In particular, they developed polysemy.

This article is devoted to the study of the history of the formation and development of Turkic linguistic terms of the Karakhanid period.

Keywords and expressions: history of Turkic linguistics, written and literary language of the Karakhanid period, language, word, speech, writing, written language.



Аннотация. Как свидетельствуют научные источники, раннее и средневековое восточное, в частности, тюркское языкознание, существенно опережало европейскую лингвистику в своём развитии. Об этом свидетельствует тот факт, что к этому периоду на Востоке уже сформировалась цельная система лингвистических терминов, значительная часть которой сохранилась в письменных памятниках караханидского периода. Примечательно, что многие из этих терминов имеют тюркское происхождение. И в этом плане неоценима заслуга лингвистов, историков и деятелей литературы этого периода.

Значительная часть лингвистических терминов и требований к ним была унаследована современным восточным языкознанием. Однако со временем они все же претерпели изменения, которые коснулись, прежде всего, их семантики. В частности, они развили многозначность.

Данная статья посвящена изучению истории формирования и развития тюркских лингвистических терминов караханидского периода.

Ключевые слова: история тюркского языкознания, письменно-литературный язык караханидского периода, язык, слово, речь, письменность, письменный язык.

So‘zboshi

Fan sohasining tarixi tilda o‘sha sohaga tegishli atamalar, ya’ni terminlar tizimining shakllanishidan boshlanadi. Til bilimining yuzaga kelishi va taraqqiyoti bilan bir paytda, uning atamalari ham yaratila boshlaydi. Ayni o‘lchovga tayanadigan bo‘lsak, turkiy tillarda til bilimining yuzaga kelish tarixi ilk o‘rta asrlardan boshlanganiga guvoh bo‘lamiz (*qarang*: Содиқов 2020, 171–189).

Tilshunoslik atamalarining to‘liqligi, keng qamrovliligi, o‘z navbatida, o‘sha davr tilshunosligining yuqori bosqichda ekanini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi; til bilimining nechog‘liq rivojlanganini shundan ham bilsa bo‘ladi.

O‘rta asrlar Sharq ilmida, xususan, turkiy tilshunoslik tarixida bilim va uning tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lgan butun boshli atamalar tizimi puxta, tugal bir ko‘rinishda ishlab chiqilgan edi. Bularning bari o‘sha chog‘larda yaratilgan adabiy, tarixiy, ilmiy asarlarda tamg‘alanib qolgan.

Qoraxoniylar davri turkiy yozma adabiy tilining atalishi

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘otit-turk» asarida qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini «turkcha» (تُرْكِي ٚ) atamasi bilan bir qatorda «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*) deb ham atagan edi. U o‘z davri yetakchi dialektlarini (sharqiy dialektlarni) umumlashtirib «turk tili», qolganlarini esa o‘z otlari (*o‘g‘uzcha, qipchoqcha* va b.) bilan atagan. Muhimi shundaki, ana shu «turk tili» atamasining o‘rnida «xoqoniya tili», «xoqoniya turkchasi» otini ham qo‘llagan: «Shahar o‘rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida (بالتُرْكِي ٚ الخاقَانِيَّة) so‘zlaydilar» deb yozadi u (ТСД.40). Mahmud Koshg‘ariy ushbu atama ostida o‘z davri turkiy yozma adabiy tilini ko‘zda tutgan.



Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarida «turkiy til, turkcha til» ma’nosida *türkcä* (تورکچا), *türk luyatı* (ترک لوغتی) atamalarini ishlatgan. Mana misoli:

*Muñar meñzätü keldi türkcä maşal,
Oqıyıl muni sen, köñül ögkä al.*

«Bunga o‘xshaydigan turkcha maqol bor,
Sen bu maqolni uqqin, ko‘ngilga va miyangga joyla» (QBN.18b,5);

Yoki:

Maşriq vilāyatida, qamuy Türkistān elindä buyraxan tilinčä, türk luyatıča bu kitābtün yaxşırağ hargiz kim ersä taşnıf qılmay turur. – «Mashriq viloyatida, butun Turkiston elida bug‘raxon tilincha, turk lug‘aticha hech kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» (QBH.1b,13–2a,2).

Yusuf Xos Hojib *buyraxan tili* (بغراخان تیلی), *xan tili* (خان تیلی) atamalarini ham qo‘llagan. Buning bilan Tavg‘ach ulug‘ Bug‘raxon zamonidagi turkiy yozma adabiy til ko‘zda tutiladi. «Qutadg‘u bilig»ning muqaddimasida shunday jumlani o‘qiyimiz: *Türkistān ellärindä buyraxan tilinčä bu kitābdin yaxşırağ hargez kim ersä taşnıf qılmadi.* – «Turkiston ellarida bug‘raxon tilida biror kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» (QBQ.1b,10–11).

Yoki:

*Bu Buyraxan vaqtı ičrä anı,
Yemä xan tilinčä bu aytmiş muni.*

«Bu Bug‘raxon vaqtida uni (yozib),
Yana buni xon tilida aytibdi» (QBQ.2b,14).

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»ning so‘nggi bobida o‘z kitobi *türkcä* (ترکچه) ~ *türki* (ترکی) da bitilganini ta’kidlaydi: *Anın uş çiqardım bu türkcä kitāb* («Shuning uchun ham bu turkcha kitobni yozdim») deya bitadi muallif (YugB.49,11).

Arslon Xo‘ja tarxonning «Hibatu-l-haqoyiq»qa ilova qilingan she’rida yozilishicha, asar *kāşyarı til* (کاشغری تیل) ~ *kāşyar tili* (کاشغر تیلی) da bitilgan. Mana uning yozganlari:

*Tamāmi erür kāşyarı til bilä,
Ayitmiş Adīb rıqqatı til bilä.*

*Agar bilsä kāşyar tilin har kişi,
Bilür ol Adıbnuñ nekim aymışı.*

«Asar *kāşyarı til* bilan yozib tugatildi,



Adib uni adabiy til bilan aytmishdir.

Agar har kishi *kāšyar tilini* bilsa,
Adibning nima aytganlarini bilib oladi» (YugA.119,6–120,3).

Anglashiladiki, yuqorida tilga olingan *türkcä, türki, türk luyati* va ularning oʻrnida qoʻllangan «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*), *buyraxan tili, xan tili, kāšyarî til ~ kāšyar tili* atamaları qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini anglatgan.

Til, soʻz, yozuv bilan bogʻliq tushuncha va atamalar

Kishilik oʻtmishida lingvistik bilimlar tarixi «til»ni anglashdan, u haqdagi tushuncha-qarashlarning yuzaga kelishidan boshlangan. Shuning uchun ham *til* soʻzini lingvistik tushunchalarning birinchisi, lisoniy qarashlarning tayanch nuqtasi desa boʻladi.

til atamasi boshlangʻich davrda, harqalay, «jamiyatdagi aloqa vositasi» maʼnosida ishlatilgan, «kishi nutqi» maʼnosi esa keyinchalik shakllangan boʻlishi kerak.

Yana *til* soʻzi «nutq aʼzosi»ni ham bildiradi. «Nutq aʼzosi» anglamidagi *til* soʻzining talaffuzi «aloqa vositasi» va «kishi nutqi» angamlaridagi *til* dan farq qilgan koʻrinadi. Sababi shundaki, «Qutadgʻu bilig»ning arab yozuvli Namangan nusxasida *تل* soʻzi «nutq aʼzosi» anglamida kelganida, unga tushum kelishigi qoʻshimchasining *gaynli* yoʻgʻon varianti qoʻshilgan (تليغ). Shuning uchun uni *tilyi* deb oʻqilgani toʻgʻri. Mana oʻsha bayt:

*Tilyi keḍ köḍäzgil, köḍäzildi baš,
Sözünü qisurʻil, uzatildi yaš.*

«Tilni juda ehtiyot qilgin, bosh saqlanadi,
Soʻzni qisqa qilgin, yoshing uzayadi» (QBN.13b,9).

Ayrim oʻrinlarda *تيل* soʻzi «nutq aʼzosi» anglamida kelganida ham, unga tushum kelishigi qoʻshimchasining *kāf* li ingichka varianti qoʻshilgan (تيليك). Shuning uchun uni *tilig* deb oʻqiladi. Mana oʻsha bayt:

*Öküš sözläsä, yañšadi ter tilig,
Yana sözlämäsä, ayin ter tilig.
«Koʻp soʻzlasa, tilni ezmalandi deyiladi,
Soʻzlamasa-chi, tilni soqov deyiladi» (QBN.13b,7).*

Anglashiladiki, «nutq aʼzosi» bilan «jamiyatning aloqa vositasi» boʻlgan *til*, kelib chiqishiga koʻra, boshqa-boshqa soʻzlardir. Tarixan ularning birinchisi yoʻgʻon oʻzakli, keyingisi esa ingichka oʻzakli soʻz boʻlgan: *til* va *til*. Keyinchalik, bu soʻzlar talaffuzda farqlanmay qoʻygan.



Basharti shunday ekan, olimlarning *til* soʻzi «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti*-feʼlidan yasalgan (*ti+l>til*), degan fikriga (*qarang*: Насилов 1974,22) qoʻshilish qiyin. Shunday boʻlganida, bu soʻz «Qutadgʻu bilig»da *til* shaklida yoʻgʻon unli bilan talaffuz qilinmagan boʻlar edi. Demak, u «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti*-feʼliga emas, boshqa soʻzlarga bogʻlanadi.

Endi *til* soʻzining yozma yodgorliklardagi maʼnolarini koʻrib chiqamiz.

Mahmud Koshgʻariyga koʻra:

til – «til» (اللسان). Maqolda (shunday kelgan): *Erdäm başi – til*. Maʼnosi: «Eng yaxshi xulqning boshi tildir».

til – «til» (اللفه). Chunonchi, *uygur tili* – «uygʻur tili»; *xitay tili* – «xitoy tili» kabi.

til – «soʻz» (الكلام); *ol begkä til tegürdi* – «u bekka soʻz tegizdi; haqoratomuz soʻz soʻzladi».

til – «josus»; *yayïdïn til tutti* – «yov josusini tutib oldi» (ТСД.588).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» masnaviysida:

til (تيل) – *anat.* «til»:

Biligsiz tilî tutçi berklig keräk,

Biliglig kişi tilqa erklig keräk.

«Bilimsizning tili doim berk boʻlishi kerak,

Bilimlining tili soʻzga erkin boʻlishi kerak» (QBN.41a,13);

Biliglig bilig berdi tilqa pishi. – «Bilimli [yaʼni Tangri taolo] tilga pishiq bilim berdi» (QBN.13b,1).

til dan yasalgan soʻzlar:

tilday (تيلداغ) – «yolgʻon»:

Sen aymiş bu söz barča anday turur,

Haqiqat körü barča tilday turur.

«Sen aytgan bu soʻz barchasi oʻshandaydir [yaʼni toʻgʻridir],

Haqiqat koʻzi bilan qaralsa, (bularning barchasi) yolgʻondir» (QBQ.101b,3).

tilmaç (تيلماچ) – «tilmoch, tarjimon»: *Uquşqa, biligkä bu tilmaçi til.* – «Uquvga, bilimga tilmoch – bu tildir» (QBN.13a,8).

til (تيل) – (1) «til; jamiyat tili»; ijtimoiy hodisa: *Qamuy til bilir ersä, açsa tilig.* – «(Elchi) barcha tilni [yaʼni, borgan mamlakatidagi xalq tilini] bilsa, tilini soʻzga ochsa [yaʼni, oʻsha tilda soʻzlasa]» (QBN.99a,8).

(2) «nutq; kishi nutqi»:

Birisi bitigçi, xaṭi belgülig,

Birisi yalawaç, tili ülgülig.



«Biri xati belgili [ya'ni, ravon, tushunarli] kotib,
Biri nutqi o'lchovli [ya'ni, fikrlab, me'yorl bilan so'zlovchi] elchi»
(QBN.102b,1).

«Hibatu-l-haqoyiq»da shunday to'rtlik bor:

*Eshitkil, biliglig negü dep ayur:
Adablar başi til, ködäzmäk turur.
Tiliñ bektä tutyil, tişin sinmasun,
Xali çiqsa bektin, tişinni siyur* (YugC.13,7–10).

Ushbu to'rtlikdagi *bek-* «mahkam, mustahkam» degani, lekin bu o'rinda ko'chma ma'noda «qafas»dir.

To'rtlikda *adablar başi til* deyilganda, *til* – «kishining nutqi»; *tiliñ bektä tutyil* deyilgandagi *til* – «nutq a'zosi»ni anglatadi.

She'rning ma'nosi shunday bo'ladi:

«Eshitgil, bilimli kishi [ya'ni, donishmand] nima deb aytadi:
Adablarning boshi til (dir, uni) saqlamoq kerak.
Tilingni berkda [ya'ni, qafasda] tutg'il, tishing sinmasin,
Agar berkdan [ya'ni, qafasdan] chiqqudek bo'lsa, tishingni sindiradi».

(3) «sir»:

*Qatiylanyu, aşnu til alyu keräk,
Bu tildin yayi qilqi bilgü keräk.*

«Mustahkamlanib, so'ng (sir biluvchilar yordamida) til olish kerak,
Bu tildan [ya'ni, sirdan] yov qilg'ini bilish kerak» (QBN.89b,4).

(4) «so'z, gap; og'zaki so'z»: *Sözünü tilin ay, tilini eşit.* – «So'zingni til bilan ayt [ya'ni, og'zaki ayt], tilini [ya'ni, so'zini] eshit» (QBQ.155b,2).

(5) «istak, xohish»:

*Biligligkä sözlädim uşbu sözüüm,
Biligsiz tilini bilümäz özüm.*

«Ushbu so'zimni bilimliga so'zladim,
Bilimsiz tilini [ya'ni, istagini] o'zim tushuna olmadim» (QBN.14b,7).

til so'zidan yangi so'zlar va iboralar ham yasalgan:

til aç- (تیل اچ) – «til och-»: *Muni körsä kezlär, til açmaz, tuyur.* – «Nuqsonini ko'rsa berkitadi, til ochmaydi, yashiradi» (QBQ.147b,16).



til al- (تيل ال) – «til ol-; sir bil-»: *Qatïylanıy, ašnu til alyu keräk.* – «Mustahkamlanib, so‘ng (sir biluvchilar yordamida) til olish kerak» (QBN.89b,4).

tilin ay- (تيلين اي) – «tilda ayt-, til bilan ayt-, og‘zaki ayt-»; elchiga maslahat: *Sözünıni tilin ay, tilini eşit.* – «So‘zingni til bilan ayt [ya‘ni, og‘zaki ayt], tilini [ya‘ni, so‘zini] eshit» (QBQ.155b,2).

tilin kön- (تيلين كون) – «tilda iqror bo‘l»; e‘tiqodga nisbatan:

*Ani qodti, tutti könilik yolın,
Kirür-men könilikkä, köndüm tilin.*

«U (avvalgi niyatini) qo‘ydi, to‘g‘rilik yo‘lini tutdi,
Men to‘g‘rilik (yo‘li)ga rozi bo‘laman, tilimda iqror bo‘ldim» (QBQ.156b,14).

til (تيل) – *anat.* «til; inson tili»: *Tilim, tınma, öggil yaratıylını.* – «Tilim, tinma, maqta yaratuvchini» [ya‘ni, Tangri taoloni] (QBN.20b,9).

(2) «molning tili; shifobaxsh et» sifatida:

*Öz inçlik tiläsä eräzi uzun
«Til» atlıy etig ye, tiril ey tüzün.*

«Vujudning farog‘ati uzoq osoyishtaligini istasang,
«Til» deb ataluvchi etni yeb tur, ey sarishta» (QBN.168a,12).

Bu so‘zdan yasalgan **tilçi** (تيل جي) – «vositachi»:

*Yalawaç tedüküm bu tilçi turur,
Bu tilçi sözin aysa, ölmäz, qalur.*
«Elchi deganim, bu – vositachidir,

Bu vositachi so‘zlarini aytsa, o‘lmaydi, qoladi [ya‘ni, elchiga o‘lim yo‘q]» (QBN.139a,8).

Eng muhimi, Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan sof turkiy tilshunoslik atamaları o‘zining ko‘pma‘noligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi an‘anaviy tilshunoslikda atama, ya‘ni terminga nisbatan qat‘iy qoida ishlaydi: u bir ma‘noli bo‘lmog‘i kerak, degan talab qo‘yiladi. Lekin bu talabni turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan qo‘llash u qadar to‘g‘ri emas, nazarimizda. Turkiy so‘zlarning atamaga (terminga) aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Ya‘ni ular ko‘pma‘nolilik xususiyatiga ega.

Muhimi shundaki, turkiy yozma yodgorliklar tilida so‘zlarning soni emas, ularda qancha ma‘no ifoda etilgani ahamiyatli. Tilning boyligi so‘z ma‘nolarining ko‘pligi bilan o‘lchanadi.

Alisher Navoiy o‘zining «Muhokamatu-l-lug‘atayn» asarida turkiy so‘zlarda ko‘pma‘nolilik xususiyati ustun ekanligini ko‘rsatib o‘tgan edi. U *tüš, yan, yaq*



soʻzlarida uch xil maʼno; *bar* soʻzida toʻrt maʼno; *sayin* soʻzida besh maʼno, shuningdek, *tüz* soʻzining ham bir qancha maʼnolari borligini taʼkidlaydi.

U yana yozadi: *Bu navʼ alfāz ham-ki, üç maʼnā-vu tört maʼnā va artuyraq-kim, irāda qilsa bolyay, köp bar-ki, fārsi alfāzda andaq yoqtur* (MJL.37,65-66).

Lugʻat tarkibining semantik takomili ilmiy atamalar tizimida ham aks etgan.

Buni misollarda koʻrib chiqamiz.

Shulardan biri *söz* (سوز) atamasi boʻlib, u ilkin maʼnoda «muayyan tushuncha»ni anglatgan. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqatda uning vazifasi kengayib, «gap», hatto «nutq»ni ham anglatga boshlagan. Masalan, *sözlädi* deganda «soʻzni aytdi, talaffuz qildi» emas, «gapirdi; fikrini bildirdi; xabar berdi» anglashiladi.

Rasmiy muloqatda *söz* «yurt egasining buyrugʻi, elga qarata aytgan soʻzi»ni anglatgan. Yozuv yuzaga kelmasdan ancha burun, oʻzaro rasmiy muomaladan boshlab yurt egasining elga murojaati ham, jamoa orasidagi oʻzaro kelishuv munosabatlati ham *söz* dan boshlangan. Yurt egasi qoʻl ostidagi kishilarga, elga oʻz soʻzini, yaʼni buyrugʻini aytgan.

Yozma hujjatchilik yuzaga kelgandan keyin ham *söz* kalimasi rasmiy bitiglarda ayni vazifada ishlatila boshladi. Jumladan, ilk va oʻrta asrlarda yaratilgan yorliqlarning unvonlarida *sözüm* kalimasi qoʻllangan. U «bu mening farmonim, yorligʻim» degan maʼnoni anglatadi (Содиқов 2020,501–502). Masalan, Shohruh Mirzoning Talxan ota mozorining mujovuri nomiga bergan yorligʻi *Šāhruh bahadur sözüm devānlaryā*; Sulton Umarshayxning Margʻilon ulugʻlaridan Mir Sayid Ahmad nomiga bergan yorligʻi *Sultān ʻUmar-šayx bahadur sözüm devānlaryā*; Sulton Abu Saidning turk sultoni Hasan begga yoʻllagan bitigi *Sultān Abu Saʻid kārägān sözüm* deb boshlangan (Содиқов 2016,144–158). Endi bu oʻrinda *söz* ilmiy atamaga aylandi.

söz ning qoraxoniylar davri yodgorliklarida qoʻllangan maʼnolari quyidagicha:

(1) «soʻz, tushuncha» maʼnosida keladi:

*Keyik tayi kördüm bu türkçä sözüg,
Ani aqru tuttum, yaqurdum ara.*

«Bu turkcha soʻzni togʻ kiyugidek koʻrdim,
Uni ohista tutdim, avrab (oʻzimga) yaqinlashtirdim [yaʼni, oʻrgatdim]» (QBH.92b,30).

*Uquş körki til-ol, bu til körki – söz,
Kişi körki yüz-ol, bu yüz körki – köz.*

«Zakovatning koʻrki tildir, bu til koʻrki – soʻz,
Kishining koʻrki yuzdir, bu yuz koʻrki – koʻz» (QBH.10a,23).

(2) «Kishining nutqi»ni anglatadi:



*Bilip sözläsä söz, biligkä sanur,
Biligsiz sözi öz başını yeyür.*

«Soʻzni bilib soʻzlasa, donolik sanaladi,
Bilimsizning soʻzi oʻz boshini yeydi» (QBN.13b,3).

(3) «Soʻz, muomala»ni bildiradi:

*Kitāblar oqir ham bilir ersä söz,
Uqar ersä šeʼr ham qoşar ersä öz.*

«(Elchi) kitoblar oʻqisa hamda soʻzni [yaʼni, muomalani] biladigan boʻlsa,
Sheʼrni uqadigan boʻlsa hamda oʻzi ham toʻqiydigan [yaʼni, sheʼr yozadigan]
boʻlsa» (QBQ.76b,2).

(4) «aytilgan fikr, mulohaza»: *Bayat atı birlä sözüg başladı.* – «Xudo nomi bilan [yaʼni, bismilloh bilan] soʻzini boshladi» (QBN.118b,2).

(5) «yorliq, farmon, buyruq»:

*Neçä ma bilig bilsä beglär özi,
Bitigçi keräk-ök bitisä sözi.*

«Beglarning oʻzi qanchalik bilimli boʻlmasin,
Yorliq (yoki xabar) yozgudek boʻlsa, albatta, kotib kerakdir» (QBN.100b,2).

(6) «oʻgit, pand-nasihat, ibratli soʻz»:

*Señä sözlädım men sözüüm, ey oğul,
Señä berdi bu pand özüm, ey oğul.*

«Senga soʻzimni soʻzladim, ey oʻgʻil,
Senga pand-nasihat qildim, ey oʻgʻil» (QBN.14a,5).

*Bu sözkä tanuyi maşal keldi, söz,
Bu söz işkä tutyil, sözüñ munda uz.*

«Bu soʻzga isbot uchun maqol, soʻz bor,
Bu soʻzni [maqolni] ishga tutgin, soʻzingni shu yerda uz» (QBH.8b,23).

«Hibatu-l-haqoyiq»da:



*Adīb Ahmad atim, adab-pand sōzūm,
Sōzūm munda qalur, barur bu ōzūm.*

«Adib Ahmad otim, adab-pand so‘zim,
So‘zim bu (dunyo)da qoladi, o‘zim esa o‘tib boraman» (YugB.49,7–8).

(7) «sir, yashirin so‘z»:
Bu iki kishidā bolur barča sōz. – «Barcha so‘z [ya‘ni, barcha sir] ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] bo‘ladi» (QBN.100b,9).

(8) «ta‘lim»:

*Qamuγ nāngā ōṅdi-tōrū bar, sōzi,
Tōrū tūz yuritsa, yarur er yūzi.*

«Hamma narsaning tartib-qoidasi, ta‘limi bor,
Tartibini to‘g‘ri tutsa, kishining yuzi yorug‘ bo‘ladi» (QBN.167a,2).
(9) «maslahat, ko‘rsatma»:

*Nekū ter ešitkil otačī sōzi,
Munuṅ ma‘nisī uq, tirilgil qozī.*

«(Bu to‘g‘rida) tabib so‘zini [ya‘ni, ko‘rsatmasini] eshitgin, nima deydi,
Buning ma‘nisini uq, yashagin (ey) qo‘zi» (QBN.167b,14–15).

(10) «ta‘rif, bayon»:
Tügāl boldī emdi aš-ičgū sōzi. – «Endi osh-ichimlik(lar) ta‘rifi tugal bo‘ldi (QBN.169a,3).

(11) «va‘da»:

*Tilin sōzlānmiš sōzdān yanmaz erān,
Sōzindān yanīyli išālār sanī.*

«Til bilan so‘zlangan so‘zdan er kishilar qaytmaydi,
So‘zidan [ya‘ni, va‘dasidan] qaytuvchi (kishi) xotinlar qatoridir» (QBQ.159b,7).

(12) «ma‘lumot; xabar»:

*Yana čiqti oylan, ayitti sōzin,
Qayun kelmišin ham tilākin, ōzin.*

«O‘g‘lon yana chiqdi, so‘zini [ya‘ni, ma‘lumot, xabarlarini] so‘radi,
Qayerdan kelganini hamda maqsadini, o‘zini (so‘radi)» (QBN.214a,2).



(13) Söz «badiiy asar; kitob» ma'nosida ishlatilgan:

*Yil altmış iki erdi tört yüz bilä,
Bu söz sözlädim men tutup jan serä.*

*Tügäl on sekiz ayda aydım bu söz,
Ödürdüm, adırtđım, söz ewdip terä.*

«To'rt yuz oltmish ikkinchi yil edi,
Men jonni koyitib ushbu so'zni so'zladim [ya'ni, asarni yozdim].

Bu so'zni [ya'ni, asarni] o'n sakkiz oyda tugal aytib bo'ldim,
Tanladim, farqladim, so'z(lar)ni yig'ib terdim» (QBH.93a,3–4).

(14) «oyat»ni bildiradi:

Yaşıl kökdin indi yayız yerkä söz. – «So'z moviy ko'kdan qo'ng'ir yerga tushdi [ya'ni, ikki narsaga: (a) oyatlarga; (b) so'zning ulug' va qutlug' ekaniga ishora]» (QBN.14b,15).

(15) «Hadis»:

Yusuf Xos Hojib asarning na't bo'limida yozadi:

*Köñül badım emdi anıñ yoliña,
Sewip sözi tuttum bütüp qavliña.*

«Endi ko'ngilni Uning [ya'ni, Muhammad alayhi-s-salomning] yo'liga bog'ladim,

Qavliga inonib, sevib Uning so'z(lar)iga [ya'ni hadislariga] amal qildim» (QBN.9a,4).

Eski turkiy tilda *söz* dan yangi so'zlar va iboralar ham yasalgan. Bular:

söz aç- (سوز اچ) – (1) «so'z och-»:

*Yanut berdi Ögdülmiş, aydi: Özüm
Tiläk birlä keldi, açayın sözüm.*

«Javob berdi O'gdulmish, aytdi: O'zim
Tilak bilan keldim, ochayin so'zim» (QBQ.149a,12).

(2) «sir och-, sir ayt-»:

*Bu iki kişikä söz açyu keräk,
Söz açsa, awaylari yüdgü keräk.*



«Bu ikki kishiga so‘z ochish [ya’ni sir aytish] kerak,
So‘z ochsa [ya’ni sir ochsa], (ularning) injiqliklarini ko‘tarish kerak»
(QBN.100b,8).

söz açmaq (سوز اچماق) – «so‘z ochmoq; sir aytmoq»:

*Birisi – bitig‘ci, birisi – vazir,
Bu ikki kişikā söz açmaq tegir.*

«Birisi – kotib, birisi – vazir,
Bu ikki kishiga so‘z ochmoqqa [ya’ni, sir aytmoqqa] to‘g‘ri keladi»
(QBN.100b,7).

söz ay- (سوز ای) – «so‘z ayt-»: *Şakarda süçügräk söz aydım senä.* – «Senga shakardan shirinroq so‘z(lar) aytdim» (QBN.142b,3).

söz ayit- (سوز اییت) – «so‘z so‘ra-»:

*Ayit söz ularqa yemä bütmä terk,
Biligli bayat-ol, munī tutyu berk.*

«Ulardan so‘z so‘ra, shuningdek, darrov ishona qolma,
(Tugal) biluvchi xudodir, buni qattiq tutish kerak» (QBN.159a,2).

söz başi (سوز باشی) – «so‘zbashi»: *Söz başi. Küntuydi elig ‘adl şifatini (ayur).* – «So‘zbası. Kuntug‘di elig adl sifatini aytadi» (QBQ.4b,13).

söz bilig (سوز بیلک) – *adab.* «adabiyot; adab ilmi; so‘z ilmi»:

*Muñar meñzätü sözlamiş söz bilig,
Bu söz işkâ tutyil, ey qilqi silig.*

«So‘z ilmida bunga moslab so‘z aytilgan,
Bu so‘zga amal qilgin, ey xulqi muloyim» (QBN.152b,11).

söz çiqar- (سوز چیقار) – «so‘z chiqar-, sir ayt-»:

*Bitig‘ci-ilimya bolunsa özün,
Köñül sirri bek tut, çiqarma sözüñ.*

«O‘zing maktub bituvchi bosh kotib bo‘lsang,
Ko‘ngil sirini yashirin tut, so‘zingni chiqarma» (QBQ.126b,11).

söz kes- (سوز کس) – «so‘z kes-, so‘z tugat-»:

Sözin kesti Ögdülmiş, aydi: Qadaş,



Bu yanliq turur 'am yoriqi, adash.

«O'gdulmish so'zini tugatdi, aytdi: (Ey) qarindosh,
Avomning fe'l-atvori bu yanglig' bo'ladi, ey jora» (QBN.165b,3).

söz qat- (سوز قات) – «so'z so'ra»:

*Qachan söz qatar ersä beglär seña,
Uzatma söziñni, ey ersig toña.*

«Beglär sendan qachon so'z so'raydigan bo'lsa,
So'zingni cho'zma, ey javonmard bahodir» (QBQ.126a,8).

söz qiy- (سوز قیى) – «so'zni buz; va'dani buz»:

*Yana-oq bütürdi, ayur: Ey qadaş,
Söziñ qiyma, kelgil, ey köñli tüdäş.*

«Yana qayta ta'kidladi, aytdi: Ey qarindosh,
So'zingni buzma, kelgin, ey ko'ngli yaqin» (QBQ.157a,15).

söz sözlä- (سوز سوزلا) – «so'z so'zla, so'z ayt, gapir»: *Öküş sözlämä söz, birär sözlä, az.* – «So'zni ko'p so'zlama, bir-bir so'zla, oz (so'zla)» (QBN.13b,5).

söz suwi (سوز سقى) – «so'z suvi», ya'ni «ta'siri»:

*Öküş sözlämä söz, serin, til ködäz,
Öküş sözlämiş söz suwi qaldı az.*

«So'zni ko'p so'zlama, o'yla, tilni saqla,
Ko'p so'zlagan so'zning suvi [ya'ni ta'siri] oz qoladi» (QBN.156b,7).

söz tut- (سوز توت) – «so'z tut; sir saqla»:

*Bu iki kişidä bolur barça söz,
Bu söz tutmasa, öz işin buzdi öz.*

«Barcha so'z [ya'ni, barcha sir] ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] bo'ladi,
Ular so'z saqlamasa [ya'ni, sir saqlamasa], o'z ishini o'zi buzadi» (QBN.100b,9).

söz uzat- (سوز اوزات) – «so'zni choz»:

Qachan söz qatar ersä beglär seña,



Uzatma sözüñni, ey ersig toña.

«Beglar sendan qachon so‘z so‘raydigan bo‘lsa,
So‘zingni cho‘zma, ey javonmard bahodir» (QBQ.126a,8).

söznüñ içi (سوزنونك ايجى) – *tilsh.* «so‘zning ichi, ma‘nosi»: *Yana bilsä söznüñ içi ham taši.* – «Yana (elchi) so‘zning ichini [ya‘ni ma‘nosini] hamda tashini [ya‘ni shaklini] (yaxshi) bilsa» (QBQ.75a,14).

söznüñ taši (سوزنونك تاشى) – *tilsh.* «so‘zning tashi, ko‘rinishi, shakli» (QBQ.75a,14).

sözçi (سوزجى) – «so‘zchi, vakil»:

*Qatıy arzuladı seni körgükä,
Meni sözçi idti oqıp eltgükä.*

«Seni ko‘rishni qattiq orzuladı,
Chaqirib, olib borishga meni vakil qilib yubordi» (QBQ.149a,14).

sözlä- (سوزلا) – (1) «so‘zla-, gapir-»: *Öküš sözläsä, yañsadi ter tilig.* – «Ortiqcha so‘zlasa, tilni ezma(landi) deyiladi» (QBN.13b,7).

(2) «ig‘vo qil-»: *Bodun tili yawlaq, seni sözlägäy.* – «Xalqning tili yomon, seni ig‘vo qiladi [so‘zma-so‘z. so‘zlaydi]» (QBN.13a,14).

sözlämäk (سوزلاماك) – «so‘zlamak»:

Sözlämäkmü yegräk azy šük turmaqmu? – «So‘zlamak yaxshiroqmi yoki jim turmoq?» (QBQ.5a,6).

ič söz (ايچ سوز) – «sir, yashirin so‘z»ni anglatadi:

*Bitigçikä ayıy keräk iç sözin,
Ködäzsä bitigçi öküş ya azin.*

*Bu iç söz tutuylı bütün-çin keräk,
Bütünlökkä artuq bütün dın keräk.*

«(Hukmdor) kotibga ich so‘zni [ya‘ni, sirni] aytsa bo‘ladi,
(Qachonki) kotib (ich so‘zning) ko‘p yoki ozini saqlay olsa.

Bu ich so‘z [ya‘ni, sir] tutuvchi chin so‘zli, ishonchli bo‘lishi kerak,
Bunga qo‘shimcha yana iymoni but bo‘lishi kerak» (QBQ.78a,2–3).

Eski turkiy tilda keng ko‘lamda va turli ma‘nolarda ishlatilgan so‘zlardan yana biri *bitigdir*. Bu atama «yoz-, bit-» anglamidagi *biti-* fe‘lidan yasalgan; -g – ot yasovchi qo‘shimcha. Endi buning ma‘nolarini ko‘rib chiqaylik.

Mahmud Koshg‘ariyga ko‘ra:



bitig – «kitob».

bitig – «yozuv; yozmoq». Bu ayni chogʻda masdardir; *aniy bitigi belgölüg* – «uning yozuvi maʼlum, belgili».

bitig – «tumor» (oguzcha) (ТСД,247).

«Qutadgʻu bilig» asarida *bitig* soʻzi quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

bitig (بتیک) – (1) *tilsh*. «yozuv»:

Qamuy eđgü sözlär bitigdä bolur,

Bitinmiş üçün söz unıtmas qalur.

«Barcha ezgu soʻzlar yozuvda boʻladi,

Yozilgan boʻlgani uchun soʻz unutilmaydi, (mangu) qoladi» (QBN.101a,10) .

(2) *adab*. «kitob; asar»: *Sözüm sözlädım men, bitidım bitig*. – «Men soʻzimni soʻzladım, kitob yozdim» (QBN.19b,8).

(3) «Qonun kitoblari»:

Tetiglik bilä bilsä türlüg bitig,

Bitig bilsä, ötrü bolur er tetig.

«(Elchi) tetiklik bilan turli bitiglarni [yaʼni, qonun kitoblarini] bilsa,

Bitig [yaʼni, qonun kitoblarini] bilsa, soʻng kishi tetik boʻladi» (QBQ.76a,15–16).

(4) «Xat, maktub»:

Davāt quldı, kāyid, bitidi bitig,

Bitig birlä etti işinkä etig.

«Davot va qogʻoz soʻradi, maktub yozdi,

Maktub bilan ishiga zamin hozirladi» (QBN.118b,1).

(5) «hujjat»:

Bilir bolsa tegmä bu türlüg bitig,

Anın saqlasa, ötrü qılsa etig.

«(Hisobchi) har turli hujjatlarni biladigan boʻlsa,

Shu bilan ziyraklansa, song ish qılsa» (QBN.104a,5).

(6) «xotura»:

Ölürin bilip qılmış özkä etig



Bitip qodmish atin tirigka bitig.

«O'lishini bilib o'ziga hozirlik ko'rgan (kishi)
Otini tiriklar uchun xotira qilib yozib qoldiradi» (QBN.16b,5).

(7) «o'git, nasihat»:

*Bu bitig oqiyil, nekü ter esit,
Bilig birlä başlap, özünkä eş et.*

«Bu o'gitni o'qigin, nima deyilgan, eshit,
Bilim bilan boshlab, o'zingga esh qil» (QBQ.76a,11).

(8) «tumor»: *Bu aymish: bitig tutsa, yeklar yirar.* – «Bu [ya'ni azayimxon] aytadi: tumor tutsa, jinlar qochadi» (QBN.158a,3).

bitig dan yangi so'zlar ham yasalgan:

bitigchi (بتیک جی) – (1) «kotib»:

*Bitigchi nekü-teg kerak ey tetig,
Ajar beg inänip bitisä bitig.*

«Kotib qanday bo'lmog'i kerak, ey zehnlı,
(Toki) beg unga ishonib, xat yoza olsa» (QBN.100b,12).

(2) hisob-kitobni daftarlarga yozib boruvchi; hujjat ishini olib boruvchi: *Bitigchi kerak uz, qamuy xat bilir.* – «Bitigchi [ya'ni, hisob-kitobni qayd etuvchi] mohir, hamma xat-hujjatni biladigan bo'lishi kerak» (QBN.103b,13).

bitigchi-ilimya (بتیک جی ایلیمغا) – *bitigchi* – umumiy ma'noda «kotib, xat bituvchi»; *bitigchi-ilimya* esa «xonning xat va yorliqlarini bituvchi kotib»dir: *Ögdulmiş eligkä bitigchi-ilimya nekü-teg keräkin aytur.* – «O'gdulmiş eligka xat bituvchi kotib qanday bo'lmog'i kerakligini aytadi» (QBN.100a,14).

Mahmud Koshg'ariyga ko'ra: *ilimya* – shoh maktublarini «turk xati» (خط التركیه) bilan yozuvchi kotib (ТСД.119).

Yodgorliklarda «yozma til» va «nutq»ni anglatuvchi atamalar

Qadimgi va eski turkiy yozma yodgorliklarda tilshunoslik atamalarining ba'ziları birikma shaklida ham ishlatilgan.

bitig söz (بتیک سوز) – (1) yozma so'z; matn; eligning yorlig'i:

*Neçä ma özüm sözläsä söz tilin,
Elig yarlıyi – bu bitig söz adin.*

«Men tilda qancha so'z so'zlaganim bilan,



Elig yorlig‘i – bu yozma so‘z boshqadir» (QBQ.95b,2–3).

(2) *tilsh.* yozma nutq; yozma adabiy til:

Balāyat bilā xat teñāšsā qalī
Eđi eđgü til bu bitig söz tili.

«Agar fasohat bilan (chiroyli) xat tenglashsa,
Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo‘ladi» (QBN.101a,8).

bitig söz yañī (بنيك سوز ينيكي) – *tilsh.* «yozma nutq usuli»: Eđi eđgü yañ bu bitig söz yañī. – «Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir» (QBN.101a,9).

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»da «nutq» ma‘nosida *til söz* (تيل سوز) atamasini ishlatgan. Mana uning misoli:

Xiradliq-mu bolur tili boš kiši?!
Telim bašni yedi bu til söz boši (YugC.14,4–5).

Keltirilgan misoldagi *til söz boši* birikmasini R.R. Arat turkcha o‘girmada *boş-boğazlık ve ağız gevşekliği* deb bergan:

Boş-boğaz adam akıllı olur mu?;
bu boş-boğazlık ve ağız gevşekliği çok başları yedi (Arat 1992,87).

Adib Ahmadning bu so‘zlari qozoqcha o‘girmasida shunday:

Тілін тартпаған кісіні ақылды деуге бола ма?
Тіл мен сөздің бостығы талай басты жеді (Йүгінеки,53).

Vaholanki, ushbu birikmadagi *til söz* – «til va so‘z» emas, balki «nutq» degani; *til söz boši* esa «nutqqa erk berish», ya‘ni «tilga erk berish» anglamidadir. Shunga ko‘ra, Adib Ahmad so‘zini shunday o‘girish mumkin:

«(Hech bir zamonda) tili bo‘sh [ya‘ni, tiliga erk beruvchi] kishi aqlli bo‘larmidi?!

Bu nutqning bo‘shi [ya‘ni, nutqqa, tilga erk berish] ko‘p kishining boshini yedi».

til söz atamasini «nutq; og‘zaki so‘z» anglamida Yusuf Xos Hojib ham ishlatgan:

Kişi köñli bilgü tanuq erdi til söz,
Köñül til ala boldi, kimkä bütäyi.



«Nutq kishi ko‘nglini bilish uchun belgi edi,
Ko‘ngil (bilan) til ola bo‘ldi [ya‘ni, bir-biriga teskari bo‘ldi], kimga
ishonayin» (QBQ.193a,16).

Yusuf Xos Hojib «og‘zaki so‘z, nutq» anglamida **tilin söz** (تيلين سوز) atamasini ham qo‘llagan:

*Yoq ersä bitig bu kişilär ara,
Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä.*

«Bu kishilar orasida yozuv bo‘lmaganida
Og‘zaki so‘zga kim ham ishongan bo‘lardi, ko‘rgin-a» (QBN.101a,13).

Yana Adib Ahmad «nutq»ni **ayiz til** (اغيز تيل) ham degan. Mana uning misoli:

*Ayiz til bezägi köni söz durur,
Köni sözlä sözni, tiliḡni bezä* (YugC.16,5–6).

R.R. Arat *ayiz til bezägi* birikmasini turkcha o‘girmada *ağzın ve dilin ziyneti* deb bergan:

Ağzın ve dilin ziyneti doğru sözdür;
sözü doğru söyle, dilini süsle (Arat 1992,88).

Adib Ahmadning bu so‘zlari qozoqcha o‘girmasida shunday:

Тіл мен жақтың көрки – шын сөз,
Шын сөйле, әңгіменді тартымды ет (Йүгінеки,53).

Vaholanki, bu birikmadagi *ayiz til* – «og‘iz va til» emas, balki «nutq»; *ayiz til bezägi* esa «nutqning bezagi»dir. Shuningdek, *tiliḡni bezä* deganda ham, *til* – «nutq»ni anglatadi; «nutqningni beza» degani. Shunga ko‘ra, Adib Ahmad aytgan o‘gitning ma‘nosi shunday bo‘ladi:

«Nutqning bezagi to‘g‘ri so‘z turur,
So‘zni to‘g‘ri so‘zla, tilingni [ya‘ni, nutqningni] beza».

Xotima

Til bilimi sohasida ilk va o‘rta asrlarning Sharq, xususan, turkiy tilshunosligi Yevropa ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. Ilk o‘rta asrlar tilshunosligida til bilimi atamalari tizimi tugal bir ko‘rinishda ishlab chiqilgan bo‘lib, Qoraxoniylar davri asarlarida ularning katta bo‘lagi tamg‘alanib qolgan.



Qoraxoniylar davri yozma adabiy tili o'sha davr manbalarida *türkçä, türki, türk luyati* atamallari bilan bir qatorda «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xāqāniyya*), *buyraxan tili, xan tili, kāšyarî til ~ kāšyar tili* deb ham atalgan.

Temuriylar davridagi *čiyatay tili ~ čayataj lafzi*, ko'p jihatdan, Qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, yozma adabiyoti va yozuv madaniyati an'alarini tutdi. *Čiyatay tili* qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining davomidir.

Hozirgi an'anaviy tilshunoslikda atamaga (terminga) nisbatan belgilangan o'lchovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan to'g'ri kelavermaydi. Turkiy so'zlarning atamaga (terminga) aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Turkologlar qadimgi turkiy so'zlarning atamaga aylanish qonuniyatiga tayanib, turkiy atamashunoslik o'lchovlarini yangidan ishlab chiqmog'i kerak.

Eski turkiy yozma yodgorliklarda ishlatilgan atamalar tizimi ilk o'rta asrlarda tilshunoslik, turk jamiyatida, xususan, olimlar va o'qimishlilar doirasida lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy so'zlardan iborat. Til bilimi atamallari tizimining muqim bir holga kelishi va takomillashuvida o'sha davr tilshunoslari, tarixchilar va adabiyot ahlining xizmati ulug'dir.

Havola etilayotgan yozma manbalar:

ТСД – Махмуд Кошгарий. Туркий сўзлар девони [Dīvānu luyāti-t-türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Истанбул, 2021.

Yug – Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqoyiq» asari: Arat 1992: A – asarning 1444-yili Samarqandda ko'chirilgan uyg'ur yozuvli nusxasi: S. I–LXII; B – asarning 1480-yili Istanbulda uyg'ur yozuvida yozilib, tagma-tag arab xatida izohlab chiqilgan nusxasi: S. LXIII–CXVII; C – asarning XVI yuzyilda arab xatida ko'chirilgan nusxasi: S. CXVIII–CLXVI.

Йўғинеки – Ахмед Йўғинеки. Ақиқат сыйы. Тўпнұсқаның фотокөшірмесі, транскрипциясы, прозалық және поэтикалық аудармасы. Баспаға дайындағандар: Ә. Құрышжанов, Б. Сағындықов. – Алматы, 1985.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» masnaviysi: H – Vena (Hiro) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Радлов В.В.* Кутадку-Билик. Факсимиле уйғурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig*. A. Viyana Nüshası (Türkibasım). – Ankara, 2015; N – Namangan (Farg'ona) nusxasi: O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, 1809 ko'rsatkichli qo'lyozma. *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig*. B. Fergana Nüshası (Türkibasım). – Ankara, 2015; Q – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- ko'rsatkichli qo'lyozma: *Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig*. C. Kahire Nüshası (Türkibasım). – Ankara, 2015.

МЛ – Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. – Тошкент, 2017.

Ilmiy asarlar:

Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki. Atebetü'l-Hakayık. R.R. Arat. – Ankara, 1992.



Насилов 1974 – Насилов В.М. Язык тюркских памятников уйгурского письма XI–XV вв. – Москва, 1974.

Sodiqov 2016 – Sodiqov Q. Ilk va oʻrta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar. – Toshkent, 2016.

Sodiqov 2020 – Sodiqov Q. Eski oʻzbek yozma adabiy tili. – Toshkent, 2020.

UMAROVA MOHIRA

Katta oʻqituvchi, PhD, TDSHU

YAKUBOVA SHAHNOZA

Katta oʻqituvchi, TDSHU

Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari

Annotatsiya. *Tarjimashunoslik fani uzoq yillik oʻtmishga borib taqalsada, u aniq bir fan sifatida rivojlanayotganiga u qadar koʻp vaqt boʻlmagan boʻlsa-da, ammo tarjimashunoslik boʻyicha nazariy qarashlar, dalillar fikr va mulohazalar ancha oldin ham mavjud edi.*

Mazkur maqolada ham tarjimashunoslik fanining ajralmas boʻladi, hozirgi davrdagi eng dolzarb mavzulardan biri boʻlgan “milliy kolorit” tushunchasi va unga turli davrlarda yashab ijod qilgan hamda hozirgi kunda ham aynan mazkur mavzuda tadqiqot olib borayotgan mashhur tilshunos hamda tarjimashunos olimlar tomonidan keltirilgan taʼriflar, qarashlar haqida soʻz boradi. Yaʼni, olimlar milliylik deganda oʻzi umuman, nima tushunilishi lozim ekanligini taʼkidlaydilar.

Ushbu maqola orqali mazkur mavzu uzoq yillar avval ham dolzarb boʻlgani va oʻsha davrlarda ham olimlar milliylik borasida tadqiqot qilgani aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda, oʻzbek, boshqa Sharq va Gʻarb tarjimashos hamda tilshunos olimlarining mazkur mavzuga bagʻishlagan tadqiqot ishlaridan milliy koloritga berilgan taʼriflar keltiriladi.

Bundan tashqari, ushbu maqolada milliy koloritning ajralmas boʻladi, uning eng asosiy tarkibiy qismi boʻlgan “tarixiy kolorit” tushunchasi haqida ham maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, olimlar tomonidan keltirilgan taʼrif va qarashlar orqali asoslanadi.

Kalit soʻz va birikmalar: *Tarjimashunoslik, milliy kolorit, milliylik, tadqiqot, tarixiy kolorit, Gʻarb olimlari, Sharq olimlari, frazeologizm.*

Abstract. *Although the history of the science of translation goes back to the past, the development of special disciplinary measures began not so long ago, but theoretical views, arguments, opinions and reasoning about translations existed before.*

This article contains a reference to a part of translation studies - the concept of “national color”, one of the most pressing topics of our time, and the interpretation promoting it by famous linguists and translation scientists, living and working in different eras; the views of scientists are mentioned, and are currently implementing . research on this topic. The fact that there are scientists should be understood under the term nationality.



The article establishes that this topic was relevant many years ago and already at the time when scientific research was carried out on issues of nationality.

In addition, this article is based on definitions and data presented by scientists about the understanding of “historical color,” which is a consistent part of the national color, and is its main component.

Keywords and expressions: Translation studies, national color, nationality, research, historical color, Western scientists, Eastern scientists, phraseology.

Аннотация. Хотя история науки о переводоведении уходит корнями в далекое прошлое, как отдельная дисциплина она начала формироваться сравнительно недавно, но теоретические взгляды, аргументы, мнения и рассуждения по поводу переводоведения существовали и раньше.

В данной статье рассматривается неотъемлемая часть переводоведения – концепция понятия «национальный колорит», одной из наиболее актуальных тем современности, и трактовка, данная ему известными лингвистами и учеными-переводчиками, жившими и творившими в разных эпохах. Приводятся взгляды исследователей, которые продолжают заниматься изучением данной темы и в настоящее время. Также рассматривается, что учёные вкладывают в понятие национального колорита.

В статье установлено, что эта тема была актуальна много лет назад, и уже в те времена ученые проводили исследования по вопросам национальности.

Кроме того, в данной статье на основе определений и представлений ученых дана информация о понятии «исторический колорит», которое является неотъемлемой частью национального колорита, и является его основным компонентом.

Ключевые слова: переводоведение, национальный колорит, национальность, исследование, исторический колорит, западные учёные, восточные учёные, фразеологизм.

Har bir badiiy asar mazkur asar yozgan ijodkorning mehnat mahsuli, u yaratgan bebaho ma'naviy boylik sanaladi. U muayyan millat vakili sifatida o'z xalqi va barcha mavjud millatlar uchun asar yaratadi. Jahonga asarni tarjima tanitar ekan, bu–tarjimonga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Sababi, asliyatdagi asar o'sha mamlakat ruhini, mentalitetini, o'ziga xosligini o'zida namoyon etadi. Tarjimon biron-bir asarni tarjima qilishga kirishar ekan, u kitobxonlarga mazkur asarda keltirilgan asosiy g'oyani, qahramonlar obrazini, turmush sharoiti, madaniyati, milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri, sodda tilda tushuntirib, yetkazib bera olishi lozim. Bu esa tarjimondan juda katta bilim, mahorat va ko'nikma, tajriba va eng asosiysi, har ikki tilni yaxshi bilishni taqozo etadi. Shu o'rinda o'zbek tarjimashunoslik maktabi asoschisi – G'.Salomovning quyidagi jumllarini keltirish mumkin: “Badiiy asarlar tarjimasi xususiyati shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirishga, did paydo qilishga va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi”, degan edi. Darhaqiqat, bu tarjimonlar uchun juda muhim. Tarjimon u yoki bu asarni tarjima qilishga kirishar ekan, avvalo, shu asar yozilgan tilni, o'sha tilning mamlakatidagi milliy an'ana va qadriyatlarini, udumlari, umuman, milliyligini ifoda etuvchi jihatlarini o'rganishi lozim.



Milliylik, madaniyat haqida G'arb tarjimashunoslik va tilshunoslik maktabida ham tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M. Larson, P. Nyumark, M. Beyker, K. Klaudi, Y. Gambe, Z. Vallo, A. Vermes, P. Heltay, D. Tellinglar bu borada salmoqli ishlar qilishgan. Ular milliylikni madaniyat orqali o'rganishgan. Bu borada o'z fikr va mulohazalarini keltirganlar. Jumladan, M. Larson madaniyat va unga oid so'zlarning tarjimasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Madaniyat – bir guruh vakillari tomonidan qo'llaniladigan e'tiqodlar, qarashlar, qadriyatlar va qoidalar to'plami. Tarjimon mana shu e'tiqodlarni, munosabatlarni yaxshi tushunishi va uni tarjimada boshqa e'tiqodlar, qarashlar, qadriyatlar va qoidalarga amal qiluvchi shaxslarga adekvat yetkazib berishi kerak"¹.

Yana bir ingliz olimi P. Nyumark frazeologizm va maqollarni xalqning madaniyati, milliy o'ziga xosligini yuzaga chiqaruvchi asosiy unsur sifatida ta'kidlaydi va u madaniyat so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Madaniyat – ma'lum bir tilni ifoda (aloqa) vositasi sifatida qo'llaydigan jamoaga xos bo'lgan hayot tarzi va uning namoyon bo'lish usullaridir"², – deb yozadi.

Pokistonlik olimlar ham bu mavzuni G'arb olimlariga ergashgan holda o'rganganlar: Sana Mansur, Abdul Bari Xan, Sundas Zuhra, Sundas Kamran, Zara Arif lar ham milliylik va madaniyatni tarjimada aks ettirish usullarini ko'rib chiqqanlar. Ular asosan, ingliz va urdu tillarini o'zaro chog'ishtirgan holda madaniyat bilan bog'liq jumalarni tahlil qilganlar va bu borada G'arb tarjima-shunoslarining keltirgan ta'riflariga tayanganlar.

Rus tilshunoslik maktabida milliy kolorit, o'ziga xoslik, milliylik haqidagi nazariy qarashlar talaygina. Ko'plab olimlar ushbu mavzuda o'z ilmiy qarashlarini ilgari surganlar.

Jumladan, K. Chukovskiy tarjimada eng muhim omil so'z tanlay bilish ekanligini alohida e'tirof etadi. Milliy koloritni, milliy bo'yoqdorlikni kitobxonga to'g'ri yetkazib berishga xizmat qiluvchi eng katta omil – sinonimlar ekanligi, asosiy e'tiborni sinonimlarga qaratish lozimligi, ulardan eng mosini tanlab olish kerakligi va bu tarjimonning mahoratini ko'rsatib berishini ta'kidlaydi³.

Shu bilan birga, K. Chukovskiy G'arblarning nutqidagi muhim bir jumlaning ham misol qilib keltirib o'tadi: "Tarjima qilishning ikki asosiy tamoyili mavjud: birinchisi chet ellik muallifning bizga ko'chib o'tishi bo'lib, biz unda o'z vatandoshimizni ko'raylik, ikkinchisi – aksincha, bizning o'zimiz begona joyga ko'chib o'tib, o'sha yerning sharoiti, tili va o'ziga xosliklariga moslashishimizni taqozo etadi"⁴. Chukovskiy ushbu fikrlari orqali tarjimon asarni tarjima qilish jarayonida shu millat vakiliga aylanishi kerakligini ilgari suradi. Buning uchun

¹ Larson M. *Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence*. – Lanham and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.

² Newmark P. *A Text Book of Translation*. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.

³ Чуковский К. *Высокое искусство*. – М., 1968. – С. 115.

⁴ Ўша асар, Б. 169.



esa, eng avvalo, tarjimon o'sha millatning ruhi, o'ziga xosliklari, mentalitetini to'laqonli his qilishi lozim.

Tarjimada milliy kolorit masalasiga rus tarjimashunoslik maktabining yana bir vakili, tarjimon V. Rossels katta ahamiyat qaratgan va bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan. U bir maqolasida insonning har qanday adabiy faoliyat turi mahsuli – ana shu inson mansub bo'lgan millatning, xalqning o'ziga xosligi ekanligini aytib o'tadi. Xoh adabiyotda bo'lsin, xoh ijodning boshqa turlarida, masalan, haykaltaroshlik, rassomchilik, raqs yoki kundalik hayotda u muomala madaniyati, etika va estetikasi bo'lsin, u yoki bu xalqning milliy koloritini o'zida jamlashini aytib o'tadi¹.

A.Fedorov rus shoiri Pushkin ham o'z she'rlarida milliylikka alohida e'tibor qaratganini ta'kidlaydi va bunga quyidagicha izoh beradi: “Pushkin buni imkoni bor deb o'ylab, asliyatdagi milliy-adabiy o'ziga xoslikni o'zida saqlab qolgan tarjimani talab qilar edi”². A.Fedorovning fikricha, asardagi milliy o'ziga xoslikni tarjima jarayonida to'liqligicha saqlab qolish juda mushkul ekanligini anglash mumkin, shu bilan birga, u milliy kolorit masalasiga to'xtalib o'tgan va uni ma'lum bir asarni tarjima qilish jarayonidagi eng ahamiyatga molik jihat sifatida qayd etgan. Bundan tashqari, olim tarjimaga qo'yiladigan eng katta vazifa – bu asliyatdagi o'ziga xoslikni saqlab qolish ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Milliy kolorit haqida so'z borganda P.Tabaxyaning tadqiqot ishini ham qayd etish lozim. U nomzodlik dissertatsiyasida rus tilidan nemis tiliga qilingan tarjimada milliy koloritning ifodalanishini tadqiq etadi va asosan, realiyalar, taxallus hamda laqablar tarjimasiga alohida urg'u beradi. Bunday so'zlarni tarjima qilish usullarini, tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan yutuq va kamchiliklarini tahlilga tortadi.

Milliylik, madaniyat va milliy o'ziga xoslik shu mamlakat, xalq va millatning milliy koloritini tashkil etadi. “Milliy kolorit”, “tarixiy kolorit” va uning tarkibiy qismlari mavzusi o'zbek tarjimashunosligida ham, G'arb tilshunosligida ham atroflicha o'rganilgan. O'zbek tarjimashunoslaridan G'.Salomov³, N.Komilov⁴, R.Fayzullayeva⁵, Q.Musayev⁶, X.Hamroyev⁷, M.Soipova⁸, M.Javbo'riyev⁹, E.Ochilov¹, X.Hamidov², R.Sharipov³, Sh.Ibohimova⁴,

1 Россельс В. Перевод и национальное своеобразие подлинника // Вопросы художественного перевода. М.: Писатель, 1955. – С.172.

2 Федоров А. Основы общей теории перевода, – М., 1966. – С.62.

3 Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. – 218 б.

4 Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент: Адабий мерос, 2000. – 182 б.

5 Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1972. – 217 б.

6 Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан”, 2005. – 89 б.

7 Хамраев Х. Воссоздание национального колорита и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.

8 Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент: 1991. – 72 б.

9 Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш: Филол. фан номз. ... дисс. автореф. – Ташкент, 1991. – 20 б.



N.Xodjaye⁵, B.Bo‘ronova⁶, N.Ismatullaye⁷ va boshqalar milliy kolorit, xos so‘zlar va ularni tarjimada berish usullari, undagi muammolar, tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida tadqiqot olib borganlar.

Milliylik, milliy o‘ziga xoslik deganda faqatgina biron xalqning, millatning o‘zigagina tegishli bo‘lgan jihatlar sanaladi.

Izohli lug‘atda milliy so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Milliy: 1. Millatga oid; bir millatdagi kishilarga xos bo‘lgan; 2. Biror millatning, xalqning o‘ziga xos bo‘lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi; 3. Biror mamlakatga, davlat va uning aholisiga oid”⁸. Demak, bir millatgagina tegishli bo‘lgan har qanday unsur, udum, an’ana; maishiy kundalik hayotda qo‘llaniluvchi narsalar milliylikni tashkil etadi.

G‘.Salomov asarlarda, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda milliy o‘ziga xoslik katta o‘rin egallashini, u har qanday ijod mahsulining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi va shunday ta’rif keltiradi: “Milliy o‘ziga xoslik – adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamaları tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi”⁹.

E.Ochilov milliylik atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Milliylik – adabiyotshunoslik muammosi. Biroq bir milliy adabiyotga mansub san’at asarini boshqa tilga tarjima qilganda bu muammo tamomila yangilik, “originallik” kasb etadi. Adabiy til, uslub, she’riyat va boshqa juda ko‘p masalalar xususida ham shuni aytish kerak”¹⁰. Har bir mamlakat o‘zining tarixiy shakllangan qadriyatlariga, azaldan rioya qilib keladigan udum va an’analariga ega. Ushbu an’analar xalqning ajralmas qismi, uning o‘ziga xosliklarini ifodalovchi omildir.

“Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

¹ Очиллов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. – 250 б.

² Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадиийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. док. (DSc) ... диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 235 б.

³ Шарипов Р. Бадиий таржима. – Тошкент, 2021. – 123 б.

⁴ Иброҳимова Ш. О.Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши: Филол. фан номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 190 б.

⁵ Ходжаева Н. Бадиий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.

⁶ Буранова Б. Бадиий таржимада тарихий-миллий колоритни сақлаш принциплари (“Юлдузли тунлар” романининг туркман тилидаги намунаси асосида): Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 124 б.

⁷ Исмаатуллаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лақналар (Монография). – Тошкент, 2021. – 144 б.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981. – 464 б.

⁹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983. – Б.101.

¹⁰ Очиллов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. – Б. 33.



Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, pazandachilik, ismlar kabilardan iborat”¹.

E.Ochilovning milliy kolorit, uning tarkibiy qismlari haqida keltirgan fikrlari tarjimashunoslikda mazkur mavzuni yoritishga xizmat qiladi.

Badiiy asarni tarjima qilish jarayonida milliy koloritni, milliylikni ifodalovchi birliklarni o‘g‘irish azal-azaldan tarjimashunoslikning eng muammoli masalalaridan sanaladi.

O‘zbek tarjimashunosligida “milliy kolorit” haqidagi tadqiqotlardan yana biri R.Fayzullayevaning “К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе” nomli dissertatsiyasidir. Ushbu tadqiqotda milliylik leksik birliklarda, ularni guruhlariga ajratgan holda o‘zbek, rus va nemis tillariga o‘g‘irmalari chog‘ishtirib o‘rganilgan. Bundan tashqari, frazeologizmlar tarjimasiga ham ahamiyat qaratilgan. Tadqiqot ishida rus olimlarining qarashlari haqida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Pushkin, Gogol, Belinskiy, Dobrolyubov, Chernishevskiylarning milliy koloritga nisbatan qarashlari mos tushar edi. Ularning fikricha, asarda milliy dunyoqarashni, fikrlashni, ya’ni milliy koloritni yetkazib berish – tarjima amaliyotining muhim masalalaridan biridir. Milliy koloritni ifodalashda ular quyidagi qoidalarni keltirib o‘tadilar: 1) shakl va tarkibning o‘zaro yaqin aloqasi; 2) asliyat ruhini qayta tiklashda til unsurlari (parallel)ning muhim o‘rin egallashi; 3) so‘zma-so‘z tarjimaning noto‘g‘riligi; 4) bo‘shliqlar yoki qo‘shimchalarni erkin, o‘z-o‘zidan qo‘yishga yo‘l qo‘ymaslik”². R.Fayzullaeva o‘z tadqiqotida asosan, rus tarjimashunoslik maktabiga tayanadi. Milliy o‘ziga xoslikning leksik birliklarda ifodalanishi, milliylikni ko‘proq yuzaga chiqarishi, lekin, faqat tarjimaga berilib ketmagan holda, millat ruhini, mentalitetini ham unutilib qo‘ymaslik lozimligi haqida yozadi. U “milliy kolorit”ni ikki kategoriyaga ajratgan holda o‘rganadi:

1. Xalqning milliy turmush tarzi bilan bog‘liq so‘z va tushunchalar. Bular – toponimlar, onomastika, realiyalar – milliy taom, kiyim-kechak, musiqiy asboblardan, hayvonlar, o‘simliklar va boshqa atrof-muhit bilan bog‘liq so‘zlar; qavmqarindoshlik aloqalarini bildiruvchi, milliy va diniy udumlarni anglatuvchi, davrni (zamonni) aks ettiruvchi so‘zlar va b.

2. Til strukturasi o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq milliy koloritning tarkibiy qismlari – idiomalar, maqol va matallar, vulgarizmlar, jargonizmlar, dialektizmlar va boshqalar.

Shu bilan birga, R.Fayzullayeva milliy kolorit xususida so‘z yuritayotib, “milliy kolorit”, “mahalliy kolorit” va “davr koloriti” tushunchalarini ajratib olish lozim”³, – degan fikrni bildiradi. R.Fayzullayeva nazarda tutgan “davr koloriti” tushunchasi, bevosita “tarixiy kolorit” termini bilan ham bog‘liq. Har qanday davr yillar o‘tib tarixga aylanadi va qarashlar, o‘ziga xosliklar ham u

¹ O‘sha asar, B. – 86.

² Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1972. – С. 35.

³ O‘sha asar. – B. 35.



bilan birga yangilanaveradi. Sababi, milliy kolorit asrlar, zamonlar osha shakllanib kelgan qadriyatlar majmuyini tashkil etadiki, bunda tarixiy bo‘yoqdorlikning, tarixiy koloritning, vaqt, makon va zamon omillarining o‘rni kattadir. “Mahalliy kolorit” tushunchasi “milliy kolorit”ga nisbatan torroq tushuncha. Masalan, “milliy kolorit” butun bir mamlakatga nisbatan qo‘llaniladigan termin bo‘lsa, “mahalliy kolorit” mana shu mamlakatdagi biron qishloq, ko‘cha, tuman yoki kichik-kichik guruhlarga tegishli bo‘lgan so‘zlarga aytiladi. Ko‘p olimlar bu ikki tushunchani o‘zaro bog‘lab o‘rganadilar.

“Mahalliy kolorit” tushunchasi haqida o‘zbek tarjimashunolari N.Vladimirova, E.Ochilov va rus tarjimashunosi P.Chernishevlar o‘z ishlarida ma‘lumot keltirib o‘tganlar, ular milliy kolorit va mahalliy koloritni o‘zaro bir-biriga yaqin holda o‘rganganlar.

N.Vladimirova “milliy kolorit” terminiga quyidagicha ta’rif beradi: “Asliyatning milliy shakli” yoki “asliyatning milliy o‘ziga xosligi” termini ortida biz milliy til, u yoki bu xalqning kundalik turmush tarzidagi o‘ziga xosliklar, uning madaniyati, kiyimlari, uy anjomlari hamda realiyalarni tushunamiz. Qaysidir asar qahramoni ham o‘z xatti-harakati, xayollari, nutqi, maqollarni qo‘llashi, qilayotgan hazillari orqali o‘ziga xos fe‘l-atvorini ko‘rsatadi va bularning barchasi birga asarning milliy o‘ziga xosligini yaratadi”¹. N.Vladimirovaning fikrida ham asarda milliylikni ifodalashda so‘zlar ham, milliy mentalitet, xalqning turmush tarzi ham muhim o‘rin egallashi nazarda tutiladi.

G.Gafurovaning ² tadqiqot ishida ham tarjimada milliylikni aks ettirish, asliyatdagi ma’noni saqlab qolishga katta e’tibor qaratiladi. U o‘z ishida o‘zbek tilidan rus tiliga qilingan tarjimalarni tahlil qiladi hamda tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga to‘xtalib o‘tadi. Olima maqol, matal, idiomalar, realiyalar va personaj nutqi tarjimada o‘ziga xoslikni ifodalashi haqida yozib o‘tadi hamda milliy va tarixiy koloritga doir so‘zlarni tarjima qilishda tarjimon ehtiyotkor bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlaydi.

Hozirgi zamonaviy tarjimashunos olimlar tomonidan tarjimada milliylikni saqlash, asliyatdagi “milliy xos so‘zlar”ni tarjimada berish usullari, yo‘llari haqida juda salmoqli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Q.Musayev milliy koloritni yuzaga chiqaruvchi xos so‘zlar haqida quyidagi jummalarni yozadi: “Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so‘zlar, deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Demak, har qanday badiiy-g‘oyaviy barkamol

¹ Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент, 1957. – С. 66–67.

² Гафурова Г. К проблеме взаимосвязей узбекской и русской литератур (Вопросы художественного перевода с узбекского на русский язык): Автореф. дисс... канд.филол. наук. – Ташкент, 1967. – С. 18.



asar o‘zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi”¹.

M. Soipova “milliy kolorit” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Milliy kolorit deb badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig‘indisiga aytiladi. Kolorit lotincha “color” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma’nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibliigi tushuniladi”².

Xulosa qilib aytganda, milliylik, milliy kolorit va uning tarkibiy qismlari haqida dunyo tilshunos va tarjimashunos olimlarining ko‘p qismi tadqiqot olib borgan yoki o‘z ishlarida bu haqida to‘xtalib o‘tgan va o‘z nuqtayi nazarini keltirgan va asoslagan.

Asar milliy koloritini tarjimada aks ettirish uchun tarjimon nafaqat u asarni yaxshilab o‘rganishi, balki asar yaratilgan millat, xalqning tarixini, udumlarini, an’analarini, mentalitetini atroflicha o‘rganib, tanishib chiqishi lozim. Sababi birgina milliylikni ifoda etuvchi so‘z noto‘g‘ri tarjima qilinsa, butun asarning ma’nosi, voqealar rivoji ham o‘zgarib ketish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Kitobxonlarda u yoki bu millat haqida tushuncha hosil qilishiga xizmat qiluvchi unsurlardan biri–bu tarjima asari sanaladi. Aynan tarjima asari orqali millat va xalq, uning ruhiyati, o‘ziga xosliklari haqida inson ongida tasavvur hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, milliy kolorit tushunchasi faqat badiiy adabiyotga, tarjimashunoslikka xos tushuncha. Uni boshqa ilmiy, tibbiy yoki texnikaviy adabiyotlarda uchratib bo‘lmaydi.

Yuqoridagi ismlari keltirilgan o‘zbek, rus va jahon olimlarining milliy kolorit, milliylik tushunchalari haqidagi qarashlari va fikrlari deyarli bir xil shakl va mazmunga egadir, ya’ni qaysidir millatning, xalqning milliyligini ifoda etuvchi, madaniyatini yuzaga chiqaruvchi har qanday omil ushbu millatning milliy koloritini tashkil etishi va u boshqa mamlakat koloritidan ajralib turashi ta’kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. – 202 б.
2. Larson M. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. – Lanham and New York: University Press of America, 1984. – 600 p.
3. Newmark P. A Text Book of Translation. – New York and London: Prentice Hall, 1988. – 200 p.
4. Чуковский К. Искусство перевода. – М., 1968. – 115 с.
5. Россельс В. Перевод и национальное своеобразие подлинника. Вопросы художественного перевода. – М., 1955. – 172 с.
6. Федоров А.. Основы общей теории перевода, М., 1966. – 62 с.
7. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. – 218 б.
8. Комилов Н. Бу қадимий санъат. – Тошкент, “Адабий мерос”, 2000. – 182 б.

¹ Мусаев К. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, “Фан”, 2005. – Б.89.

² Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. – Б.72.



9. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1972. – 217 б.
10. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан”, 2005. – 89 б.
11. Хамраев Х. Воссоздание национального колорита и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.
12. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. – 72 б.
13. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Т., 2014. – 250 б.
14. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романларининг туркча таржималарида миллийлик, бадийлик ва лисоний адекватлик масалалари: Филол. фан. док. (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 235 б.
15. Шарипов Р. Бадиий таржима. – Тошкент, 2021. – 123 б.
16. Ходжаева Н. Бадиий таржиманинг лексик-стилистик муаммолари: Филол. фан. номз. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 124 б.
17. Исмагуллаева Н. Хитой ва ўзбек тилларида лақналар (Монография). – Тошкент, 2021. – 144 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – М.: Рус тили, 1981. – 464 б.
19. Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык: дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1958. – 184 с.
20. Гафурова Г. К проблеме взаимосвязей узбекской и русской литератур (Вопросы художественного перевода с узбекского на русский язык). Автореф. канд.дисс., Ташкент, 1967. – 18 с.
21. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: “Фан”, 2005. – 89 б.
22. Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш // Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. – 72 б.

JUMANIYAZOV MANSUR

Tayanch doktorant, TDSHU

**«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-unmuzaj»
asarining qiyosiy tadqiqi**

Annotatsiya. Arab tili grammatikasida mashhur asarlardan Mahmud az-Zamaxshariyning o'z asari “Mufasssal”ga yozgan “Unmuzaj” sharhini alohida ta'kidlash lozim. Tadqiqotimiz asosi hisoblangan Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari “Unmuzaj”ning sharhi deyilgan ba'zi qarashlarga qo'shilmagan holda, bu mustaqil asar ekanligini dalillash uchun, ensiklopedik asarlarga murojaat qilindi. Asar haqida berilgan ma'lumotlar o'rganildi, G'arb va Sharq olimlarining bu boradagi fikrlari solishtirildi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, G'arb olimlari “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari “Unmuzaj”ning sharhi ekanligini qayd etishgan. Biroq eronlik olim Og'a Buzruk bu asarni mustaqil asar ekanligini ta'kidlab, uni ko'rganini aytadi. Alloma Hoji Xalifa bu asarni bir qavlda «Al-Unmuzaj»



sharhi kabi desa, boshqa joyda uning sharhining uslubida yozilgan deb ta'kidlaydi. Hoji Xalifa bu asarni to'liq sharh yoki mutlaq mustaqil asar deb keltirmagan. Biz Eron kutubxonalaridan olingan ba'zi qo'lyozmalarning birinchi sahifasida "Bu asar "Unmuzaj" sharhining uslubida yozilgan" degan ma'lumotlarni topdik hamda ikki asarni bir-biriga solishtirdik. Mavzularni ko'rib chiqqanimizda ko'plab o'xshashliklarning guvohi bo'ldik. Ishni davom ettirib, qiyosiy tahlil vazifasiga boshqa nahv kitoblarni ham qo'shdik. Boshqa asarlarda ham bu fikrga yaqin holatlar uchradi, o'sha davr nahv kitoblari barcha xususiyatlarida o'zaro o'xshashligi kuzatildi. Bundan ko'rinadiki, ikki asardagi o'xshashlik tabiiy bo'lib, asarda berilgan turli xil mavzulardagi qoidalarining ta'rifi, misollar, ketma-ketlik, ifoda usullarida ayrim farqlar ham mavjud ekan. Bu farqlanishlar asarning mutlaqo boshqa yo'nalishdagi kitob ekanligini anglatmasa-da, asar muallifining har bir mavzuda o'z qarashiga ega ekanligini bildiradi. Kitobning "Ergashuvchilar mavzusi"da grammatik istilohlarning mutloq xilof tarzda ifodalanishi asarning shaxsiy uslubga ega mustaqil asar ekanidan dalolatdir. Unda an'anaga ko'ra "Unmuzaj"ning matni keltirilmagani va biror mavzuni yoritishda muallif ustozining fikrlarini zikr qilmaganligini inobatga olib, qo'lyozmalardagi qaydlarni e'tirozsiz qabul qilinsa, bu mustaqil asar ekanligini shak-shubhasiz tan olish lozim bo'ladi.

Kalit so'z va birikmalar: Ot so'z turkimi, fleksiya, bosh kelishikdagi so'zlar, tushim kelishigidagi so'zlar, qaratqich kelishigidagi so'zlar, to'ldiruvchilar, moslashmagan aniqllovchi, fe'l so'z turkumlari.

Abstract. One of the famous works about the grammar of the Arabic language is Makhmud az-Zamakhshari's commentary "Unmuzaj" written on his work "Mufassal". The work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" by Ziyaviddin Makki Khorezmi, which is considered the basis of our research, being disagree with some views of the that the work is the commentary of "Unmuzaj", and proves that "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" is an independent work, referring to encyclopedic works and about it. In the course of the research, it was found that Western scholars noted that the work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" is a commentary of "Unmuzaj". However, the Iranian scientist Agha Buzruk says that he has seen this work, emphasizing that it is an independent work. Allama Haji Khalifa states that this work is written in the style of his commentary, while in one work it is called Unmuzaj's commentary. Haji Khalifa did not refer to this work as a complete commentary or a completely independent work. We found information on the first page of some manuscripts taken from Iranian libraries that "this work is written in the style of the "Unmuzaj" commentary" and we compared these two works. When we looked at the topics, we saw many similarities. Continuing the work, we added other grammar books to the task of comparative analysis. In other works, there were cases close to this idea, and it was observed that the Nahv books of that time were similar in all their features. It can be seen that the similarities between the two works are natural, and there are some differences in the definition, examples, sequence, and methods of expression of the rules on various topics given in the work. Although these differences do not mean that the work is a book of a completely different direction, it means that the author of the work has his own view on each topic. The chapter of the book "Expression of revolutions in the theme of complex sentences in an absolutely contradictory way" is evidence that this is an independent work with a personal style. Taking into account that according to the tradition, the text of "Unmuzaj" was not cited and the author did not mention the



opinions of his mentor when explaining a topic, if the notes in the manuscripts are accepted without objection, it should be recognized without a doubt that this is an independent work.

Keywords and expressions: *noun word category, Inflection, words in the nominative case, words in the accusative case, words in the genitive case, complements, non-agreeing modifier, verb word categories.*

Аннотация. *Одной из известных работ по грамматике арабского языка является комментарий Махмуда аз-Замахшари «Унмузадж», написанный на его произведение «Муфассал». Произведение Зиявиддина Макки Хоразми «Кифаяту-н-нахв фи илми-ле'раб» является основным объектом нашего исследования, и, с целью доказать, что оно является самостоятельным произведением, а не комментарием к произведению «Унмузай», мы обратились к энциклопедическим произведениям. Были изучены сведения о работе, сопоставлены мнения западных и восточных ученых.*

В ходе исследования было установлено, что западные учёные назвали произведение «Кифаяту-н-нахв фи илми-ле-эраб» комментарием к «Унмузадж». Однако иранский ученый Ага Бузрук утверждает, что видел эту работу, подчеркивает, что это самостоятельная работа. Алама Хаджи Халифа считает, что эта работа написана в стиле комментария «Унмузадж», а в другом месте называет его комментарием. Хаджи Халифа не называл эту работу полным комментарием или полностью независимой работой. На первой странице некоторых рукописей, взятых из иранских библиотек, мы нашли информацию о том, что «это произведение написано в стиле комментария Унмузаджа», и сравнили два произведения. В процессе рассмотрения тем, мы нашли много общего. Очевидно, сходство между двумя работами существуют, но имеются некоторые различия в определении, примерах, последовательности и способах выражения правил по различным темам, приведенных в работе. Хотя эти различия не означают, что произведение представляет собой книгу совершенно иного направления, это означает, что автор произведения имеет свой взгляд на каждую тему. Грамматические выражения в книге «Тема последователей» выражены совершенно по-иному, что свидетельствует о том, что произведение является самостоятельным произведением с индивидуальным стилем. По традиции текст «Унмузаджа» не цитируется, и автор не упоминает мнения своего наставника при разъяснении темы. Если примечания в рукописях принять без возражений то, без сомнения, можно признать, что это самостоятельное произведение.

Ключевые слова: *существительное, флексия, слова в именительном падеже, слова в винительном падеже, слова в родительном падеже, дополнения, несогласованное определение, глагол.*

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari XII asrda yaratilgan nahvga oid kitoblarning orasida eng mashhur asarlardan hisoblanadi. Chunki bu asar o'sha davrdagi nahv kitoblarining uslubida yozilgan va zamonasining mashhur tilshunos ulamolar asarlarning yo'nalishida ta'lif qilingan edi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining qismlarga bo'linishi, mavzular ketma-ketligi, ustoz Mahmud Zamaxshariyning uslubida grammatik qoidalar so'z turkumlari – ism, fe'l va harflar bo'yicha ko'rib chiqilgan. Fonetika haqida ustoz kabi alohida qism ajratmagan, balki o'rni



kelgan mavzular orasida qisman aytib o'tgan. Asarning ichki tuzilishi boshqa asarlardan ba'zi qarashlarda o'xshashlik, bir xillik, ba'zi qoidalarni dalillashda farqlilik va ba'zisida mutloq o'zgachalikni ko'rish mumkin. Shunga qaramay, ayrim olimlar bu asarni Mahmud Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarining sharhi deb qaraydilar. Muhimi shundaki, bu fikrlarga ergashuvchilar ham talaygina bo'lib, ular ushbu g'oyalarni qo'llab uni yozishgan yoki shunga ishora qilishgan. Jumladan, nemis sharqshunosi Karl Brokkelman o'zining «Arab adabiyoti tarixi» nomli fundamental asarida shunday deydi:

شروح: مختصر من المفصل الكتاب الثالث هو كتاب صغير في النحو

1. شرح لمحمد بن عبد الغني الأربيل

2. حدائق الحقائق لسعد الدين البردي

3. شرح المجهول

4. شرح للشواهد

5. كفاية النحو في علم الإعراب لتلميذه ضياء الدين المكي

Uchinchi kitob «Al-Unmuzaj» arab grammatikasiga oid mo'jaz kitob bo'lib, «Al-Mufassal»ning kichraytirilgan shaklidir. Uning sharhlari: 1. Muhammad ibn Abdulg'aniy al-Ardabiliyning sharhi. 2. Sa'duddin al-Barda'iyning «Nafosat gulshani» sharhi. 3. Muallifi noma'lum sharh. 4. Dalillarni sharhlash kitobi. 5. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» o'zining shogirdi bo'lgan Ziyovuddiy Makkiyning sharhi. Bundan ko'rinib turibdiki, olim mazkur asarni «Al-Unmuzaj» sharhlarining qatorida qo'yib, beshinchi o'rinda zikr qilgan¹. Olim asarni sharh sifatida qo'shimcha qilgan bo'lsa-da, uni sharh emas, balki mustaqil asar sifatida ko'radigan olimlar ham bor. Eronlik mashhur faqih, tarixchi Shayx Og'a Buzruk At-Tahroniy o'zining 25 jildli «Al-Zari'a» nomli fundamental ensiklopediyasida shunday deydi: الكفاية في النحو مجرى شرح المفصل الزمخشري مرتب على ثلاثة أقسام: الأسماء و الأفعال و الحروف رأيت في خزانة شيخنا الحاج محمد حسن كبة.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» Zamaxshariyning «Mufassal» asari sharhining uslubi va tartibida yozilib, 3 qism: ismlar, fe'llar, harflar so'z turkumlariga bo'lingan. Men uni shayximiz Hoji Muhammad Hasan Kubbaning kutibxonasida ko'rdim, – deydi olim. «Mufassal» asari sharhi deyilganda, Mahmud az-Zamashariyning «Mufassal» kitobining ixchamlashtirilgan sharhi «Al-Unmuzaj» kitobi nazarda tutilgan. Olim asarni sharh emas, balki «Unmuzaj»ning usul yo'nalishida mavzular ketma-ketligi bir xil yozilganligini ta'kidlaydi².

Shayx Molik Almahmudiy Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Al-Manoqib» kitobini tahqiq qilgan ekan, muallifning asarlari haqida gap ketganda «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini zikr qiladi. Ikkita olimning Shayx al-Amiyniy va Sayyid Muhammad Rido al-Xurosonning ma'lumotlariga tayanib quydagi iqtibosni keltiradi. الكفاية النحو في: « على نهج المفصل للزمخشري في الأسماء و الأفعال و الحروف « كتاب «علم الإعراب

¹ كارل بروكلمان. تاريخ الأدب العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975. ص. 238

² الشيخ محمد محسن بن علي بن محمد رضا الطهراني النجفي. كتاب الذريعة الى تصانيف الشيعة الجزء الثامن عشر. دار الأضواء. بيروت. 1983. صحيفة 97



Fe'llar va Harflar ko'rinishida Zamaxshariyning «Mufassal» asarining uslubida» deb keltiradi kitobda¹.

Hoji Xalifa «Kashfu-z-Zunun» asarida «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari haqida ikkita o'rinda toxtaladi. Birinchi: شرح الكفاية في علم الإعراب جرى فيه مجرى شرح «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari «Unmuzaj»ning sharhi uslubida yozilib, u Mahmud Zamaxshariyning shogirdi Ziyovuddin Makkiyga tegishli», deydi². Ikkinchi kitobda «Al-Unmuzaj» asari haqida ma'lumot berilib uning sharhlariga o'tiladi. «Unmuzaj»ga ko'plab sharhlar yozilganligini ta'kidlab, sharh qiluvchilarning ism va yashagan davrlari haqida ma'lumot beradi, biroq sharhlovchilar qatorida Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyni zikr qilmagan. Gapni qaytadan boshlab, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari haqida quyidagilarni yozgan. جعل تلميذ المصنف ضياء الدين المكي كتابا كالشرح و سماه الكفاية. «Muallif shogirdi Ziyovuddin Makkiy «Unmuzaj»ga sharh kabi kitob qildi va uni «Kifaya» deb nomladi»³.

Birinchi fikr tarafdorlari ushbu asarni «Unmuzaj»ning sharhi deb qaraganda umumiy xususiyatlarni nazarda tutgan. Sababi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» kitobining qolipida yozilgan. Undagi mavzular ketma-ketligi va qoidalarining yoritilishi Zamaxshariyning «Unmuzaj»iga yaqin turadi. Bu asarning sharhi degani emas. Asarning umumiy o'xshash xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

1. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining mundarijasi «Al-Unmuzaj» mundarijasiga yaqin turadi.
2. Muallif ba'zi qoidalar va misollarni Zamaxshariyning «Mufassal» asaridan keltirgan.
3. Nahvga oid istilohlarning ko'p joylarida bir xillik ko'zga tashlanadi.

Masalan: «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining kirish qismi, ya'ni birinchi kalamning bayoni fasli «Kalima va kalomning bayoni fasli»da, kalimaning ta'rifini quyidagicha beradi. العلم أن الكلمة : هي اللفظة الدالة على معنى مفرد. Bilginki, arab tilida yagona ma'noga dalolat qiluvchi so'z, lafz kalima deyiladi ya'ni til ahlining vaziyatini nazarda tutayotgan»⁴. Zamaxshariy «Al-Unmuzaj» asarida esa mana bunday ta'riflagan: الكلمة مفرد و هي إما «Kalima bitta so'z, u kishi so'zi kabi ism ham hisoblanadi». «Al-Mufassal» asarida «Yagona ma'noga dalolat qiluvchi so'z, lafz kalima deyiladi»⁶. Uchta holat qiyoslanadigan bo'lsa

¹ ضياء الدين المكي الخوارزمي. المناقب. تحقيق الشيخ مالك المحمودي. مؤسسة النشر الإسلامي بقم المشرفة. ربيع الثاني 1414هـ. ص 23.

² العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص 1498

³ العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص 185

⁴ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 3a.

⁵ شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغني. حققه و علق عليه دكتور حسني عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 4

⁶ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدرة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 32



«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida kalimaning ta'rifi Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asaridagi ta'rifdan mutlaqo farq qiladi, ammo «Al-Mufassal»dagi ta'rifga juda o'xshab ketadi, faqat أهل اللغة: وضع أعي: til ahlining vaziyatini nazarda tutyapman, degan izoh yo'q. Olim kalima so'ziga ta'rif berishda Zamaxshariyning «Mufassal» asaridagi ta'rifini qabul qilgan. Kalom esa «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida: «الكلام: ما تركب من كلمتين مستغنياً بالإفادة عن غيره، ولا يكون ذلك إلا من المركب» asarida: «Kalom tugallangan ma'noni ifoda qiluvchi ikkita kalimadan tarkib topgan birikma. O'shanda u ikkisining biri boshqasi haqidagi so'z bo'lgan ikki ismdan tarkib topgan bo'ladi»¹. «Unmuzaj»da unga ta'rif quyidagicha berilgan: «الكلام مؤلف من اسمين أسند أحدهما إلى الآخر»². «Mufassal»da ham xuddi «Unmuzaj»dagi kabi bir xil berilgan. Demak, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kalomga ikki usulda o'zgacha ta'rif bergan. «Al-Unmuzaj»da kalom ikkita ismdan iborat bo'ladi, deyilgan bo'lsa, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida ikkita kalima va ikkita ismdan iborat bo'lishi tushuntiriladi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning ta'rifi ham qisqa, ham biri ikkinchisini to'ldiradi.

Yuqorida asarning birinchi qismi «الاسماء» «Ismlar» deb nomlangani zikr qilindi. Mana shu ismlarning birlik shakli hisoblangan ism so'zining ma'nosini tahlilga tortsak. Ism so'zi o'zbek tilida jonli va jonsiz narsalarni bir-biridan ajratib turadigan nom ma'nosini beradi. Arab tilida esa mazkur tadqiqotning manbasi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asariga murojaat qilamiz. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ismga quyidagicha ta'rif beradi. «الاسم: ما دل على معنى في نفسه غير مقترن بزمان مخصوص»

«Ism, ma'lum bir zamonga taalluqli bo'lmagan mustaqil ma'noga dalolat qiladigan lafzdir»³. Endi «Al-Unmuzaj» kitobida ismga ta'rif berilmasdan Ism bobining boshidan uning xususiyatlari yoritilgan. «Ism u haqida gapirish to'g'ri bo'ladi», deb misollar keltirgan muallif. Biroq Zamaxshariy «Al-Unmuzaj» kitobida ismga ta'rif bermasa-da, «Al-Mufassal»da uni boshqacha ta'riflaydi: «الاسم: ما دل على معنى في نفسه دلالة مجردة عن الإقتران»⁴. deb bog'lanishdan holi bo'lib, mustaqil ma'noga ega bo'lgan lafzga aytiladi»⁴.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ismga ta'rif berishda tilshunos Qozi nomi bilan mashhur Al-Sarafiyy (284–368-hijriy) yo'nalishidan borgan. Chunonchi, Sarafiyy shunday deydi: «الاسم: ما دل على معنى في نفسه غير مقترن بزمان محصل»⁵. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu ta'rif Ibn Hojibning «Al-Kofiya»

¹Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 3a.

² شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 6

³ O'sha asar, 4a.

⁴ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 33

⁵ العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص 25



«Foil bu – fe’l ish-harakatni bajaruvchidan oldin kelib u haqida gapirishidir. Masalan; Zayd chiqdi, Umar turmadi, yaxshi bo’ldi»¹. Xuddi shu foilga berilgan ta’rifni Abu Bakr bin as-Sirojning (316h) «Al-Usul fi an-Nahv» kitobida kuzatish mumkin: «جعل الفعل حديثاً»². «Foil bu – fe’l undan oldin kelib u haqida gapirishi»². Zamaxshariy «Unmuzaj»da foilga ta’rif keltirmay, unga misollar keltirgan. الفاعل «Foil ikki xil bo’ladi: 1. Ochiq – Zayd urdi. 2. Yashiringan–Zaydni urdim»³. «Mufassal»da esa foil quydagicha tushuntiriladi: «الفاعل هو ما كان المسند إليه الفعل و شبهه و مقدا عليه أبداً»⁴. «Foil deb fe’l va shibhi fe’l doim oldin kelib, unga suyanadigan lafzdir». Masalan: «ضرب زيد و زيد ضارب غلامه و حسن وجهه»⁴. Alloma ibn Hojibning «Mufassal»ga yozgan sharhida foil mavzusida shunday deydi: Zamaxshariy «الفاعل اسم كان و نائب الفاعل»⁵ vaqtincha ega vazifasini bajaruvchi va noqis fe’llardan biri bo’lgan «كان» fe’lining ismi egasini zikr qilmaganini ta’kidlaydi. «أنه لم يذكره في المرفوعات»⁵. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham noibi foil xususida to’xtalmagan va «Unmuzaj»da ham zikr qilinmagan. Ammo «Ar-Rido ala al-Kofiya» kitobi mullifi foil xususida Zamaxshariyning qarashi qanday ekanligini aytib o’tadi: «إن نائب الفاعل عند عبد القادر و الزمخشري فاعل إستلحا»⁶ deydi kitobda. Bundan ko’rinadiki, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham noibi foilni foil hisoblab, ustoz kabi uni alohida bob yoki faslda zikr qilmagan. Bu ham olimning ustozining uslubidan chetga chiqmaganligiga dalolat beradi. Lekin bu bobdagi ba’zi ta’riflarda fikrlarni dalillashda boshqa mutaxassis Abu Bakr bin as-Sirojning (316-h) ta’rifini qabul qilganini ko’rish mumkin. Bu esa olimning o’ziga xos yo’nalishga egaligini ko’rsatadi. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida foil ta’rifi «Mufassal»dagi foil ta’rifidan biroz farq qiladi. Zamaxshariy «المسند إليه» foilni fe’l unga suyanadigan iborasi bilan izohlaydi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa «حديثاً عنه» fe’l u haqida gapiradigan lafz iborasini qo’llaydi. Foil haqidagi ta’riflar va misollar turli xil, ammo bir-biriga mazmun jihatidan hammasi bir xil xususiyatga ega.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida foilni 5 qismga ajratadi:

1. «المبتدأ» ot kesimli gapda ega vazifasida keluvchi»;

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» qo’lyozmalar fondi qo’lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi. sahifa21b

² أبو بكر محمد بن السراج النحوى البغدادي، الأصول فى النحو، مؤسسة الرسالة ببيروت، 1996م، ص72

³ شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيللى جمال الدين محمد بن عبد لغنى، حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف، مكتبة الآداب - بالقاهرة، 1999، صفحة26

⁴ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق فخر صالح قدارة، المفصل فى علم العربية دار عمار -الأردن، 2003، صفحة 44

⁵ عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري، الإنصاف فى المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين، -القاهرة، مطبعة السعادة، 1961، الجزء الأول، صفحة 159

⁶ محمد بن الحسن الإستراباذي السمنائي النجفي، شرح الرضى على الكافية، سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م، ص85



2. الخبر «ot kesimli gapda kesim vazifasida keluvchi»;
 3. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»;
 4. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkorni ifoda qiluvchi لا ning kesimi»;
 5. «yo'q emas ma'nosidagi لا اسم ما و لا بمعنى ليس»¹.
- «Al-Unmuzaj»da ham foil 5 qismga ajratiladi:

1. الخبر «ot kesimli gapda ega vazifasida keluvchi» «ot kesimli gapda kesim vazifasida keluvchi»;

2. اسم كان «noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismi egasi»;
3. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»;
4. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkorni ifoda qiluvchi لا ning kesimi»;
5. «yo'q emas ma'nosidagi لا اسم ما و لا بمعنى ليس»².

Zamaxshariyning shogirdlaridan yana biri «Nahv ilmining imomi» nomini olgan Nasr ibn Abu-s-Said Mutarriziy (1144–1213) o'zining «Al-Misbah» kitobida «bosh kelishiklardagi ismlar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi asl va aslga o'xshash turga bo'lib, foilni 5 qismga ajratadi. خبر إن و خبر إن و خبره، خبر كان، خبر إن و خبره، خبر لا لنفي الجنس اسم لا بمعنى ليس إن ning ismi، خبر إن و خبره، خبر لا لنفي الجنس اسم لا بمعنى ليس إن va uning o'xshashlari، mutloq inkor emas، yo'q ma'nosidagi inkor harflarning ismi»³.

Ibn Hojibning «Kofiya» asarida المرفوعات «bosh kelishiklardagi ismlar»ni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi ikki turga bo'lmasdan, undan farqli ravishda to'g'ri 7 qismga ajratadi: 1. الفاعل «fe'l kesimli gapda ega»; 2. مفعول مالم يسم فاعله «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 3–4. الخبر و المبتدأ «ega va kesim»; 5. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 6. خبر لا لنفي الجنس «mutloq inkor ma'nosidagi لا ning kesimi»; 7. اسم ما و لا المشبهتين بليس «yo'q ma'nosidagi ikkita o'xshash لا va ما ning kesimi». Zamaxshariy «Mufassal»da foilni 4 turga bo'ladi: 1. الخبر و المبتدأ «ega va kesim»; 2. أخواته «egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning kesimi»; 3. لا التي لنفي الجنس «mutloq inkor ma'nosidagi لا ning kesimi»; 4. اسم ما و لا المشبهتين بليس بليس «emas yo'q ma'nosidagi ikkita o'xshash لا va ما ning kesimi». Mashhur nahv kitoblaridan biri hisoblangan o'tmishda ham, hozir ham arab va ajam talabarlari orasida mashhur bo'lgan «Ajrumiya»ning sharhida المرفوعات «bosh kelishiklardagi ismlar»ni 7 turga bo'ladi. المرفوعات سبعة «bosh kelishikdagi ismlar 7 tadir» deydi sohibul kitob⁴. Abu Hayyon «Hidayatun-Nahv» kitobida المرفوعات «bosh kelishikdagi ismlar»ni 8 turga bo'ladi. الأسماء المرفوعة ثمانية أقسام «raf holatdagi ismlar 8 qismdir» deb bayon qiladi⁵. Zamonaviy nahv kitoblaridan biri Mustafa G'olayoniyning «Jaamiu-d-Durusu-l-Arabiya» asarida المرفوعات «bosh kelishiklardagi ismlar»ni 9 turga bo'ladi. المرفوعات

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 21.

² شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 26

³ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص 146.

⁴ أبو أنس مالك بن سالم بن مطر المهذري. الممتع في شرح الأجرومية. مكتبة دار الحديث بصنعاء. 1435هـ. ص 84.

⁵ جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشرى بكراتش باكستان. 2011م. ص 30.



تسعة»raf holatdagi ismlar 9 tadir» deb, ularning navlarini keltirgan¹. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «المرفوعات» «bosh kelishiklardagi ismlar» mavzusidagi ta'rif va sharh misollarni mavzuga doir istilohlarni va ularning mazmuni ma'nosi va boshqa xususiyatlarini mutaqqaddim olimlarning kitoblaridagi va salaf ulamolarning asarlaridagi qarashlarini qiyoslaydigan bo'lsak ba'zi farqli o'xshash jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «bosh kelishiklardagi ismlar» «المرفوعات» ni ikki turga asl va aslga o'xshash turga bo'lib o'rganyapti. Bu shaklni «Al-Unmuzaj» kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Demak, bu qarashda ikkita kitobda bir xillikni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, foil mavzusida «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida foilni asl «bosh kelishiklardagi ismlar» turkumiga kiritadi. Zamaxshariy ham «Al-Unmuzaj» va «Mufassal» kitoblarida foilni asl «bosh kelishikdagi ismlar»dan deb tushuntiradi. Bu qarashlarda ham ikkita olimning fikr va yondashuvlari bir ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Ammo foilning qismlarga bo'linishida ba'zi o'rin almashishlar kuzatiladi. Masalan, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy foilni besh qismga ajratadi (ularning ketma-ketligini yuqorida zikr qilindi). «Al-Unmuzaj» asarida foilning adadi ham besh qismga ajratilgan. Bu holatni bir xil deb o'ylash mumkin, lekin unday emas. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy muftado va xabarni alohida qismga ajratib, birinchi va ikkinchi qismda beradi. Zamaxshariy esa «Al-Unmuzaj»da muftado va xabarni bitta qismga kiritadi. Bunda qismlarga bo'lishdagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismini foil qismlari qatoriga kiritmaydi. Ammo Zamaxshariy «Al-Unmuzaj»da كان fe'lining ismini foil qismlari qatorida ko'rsatib o'tadi, uni muftado va xabardan keyin ikkinchi qismga qo'yadi. Bu jihatdan ham ikkita kitobdagi farqlanishlarni ochiq-oydin kuzatish mumkin. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy noqis fe'llardan biri bo'lgan كان fe'lining ismini foilning turlari qatorida ta'kidlamaganligi, uning bu qismini o'rganmagan yoki uni boshqa turga kiritgan, degan xulosaga kelinmaydi. U faqat كان fe'lining ismini fe'l so'z turkumlari qismida noqis fe'llar bobida keltiradi. Bu esa uning mazkur yo'nalishdagi o'zga-chaligini ifodalaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, foilning adadi borasida olimlarda turli xil qarashlar va ko'p hollarda o'xshash jihatlar mavjud. Zamaxshariyning shogirdi Mutarziy ham «Misbah» kitobida foilni besh qismga ajratgan. Bu taqsimlash va mavzular ketma-ketligi Zamaxshariyning «Unmuzaj»idagi adad va mavzular ketma-ketligi bir xil. Bu o'sha davr nahv kitoblarini yozish uslubining o'zaro o'xshash bo'lganligidan dalolatdir. Boshqa zamonaviy ulamolarning foil bobidagi qarashlarini qiyoslaydigan bo'lsak, Mustafu G'olayoniy raf ismlarni yakdil to'qqiz turga bo'ladi. Ibn Hojib esa bosh kelishikdagi ismlarni etti turga va Ibn Hishom ham «Ajrumiya» kitobida yetti, Abu Hayyon «Hidayatu-n-Nahv» kitobida sakkiz turga bo'ladi. Mumtoz olimlarning bosh kelishikdagi ismlarni qismlarga taqsimlashida o'zaro yaqinlik bor. Biroq zamonaviy nahvshunoslardan biri Mustafu G'olayoniy tomonidan

¹ الشيخ مصطفى الغاليني. جامع الدروس العربية. مؤسسة الرسالة ناشرون ببيروت. 2010م. ص393.



bosh kelishikdagi ismlar taqsimlanishida mutlaqo o'zgachalik mavjud. Unda bosh kelishikdagi ismlar adadi boshqa olimlar keltirgan adaddan ko'p. Chunki u bosh kelishikdagi ismlarni bir yo'nalishda o'rgatishni ma'qul ko'rgan bo'lsa, boshqalar bosh kelishikdagi ismlarning ayrim turlarini o'ziga yaqin bo'lgan boshqa mavzular ichida o'rganishni afzal bilishgan. Biroq umumiy bosh kelishikdagi ismlarning soni barcha kitoblarda bir xil, lekin har xil mavzularda yoritilgan. Ya'ni, har bir davrga xos asarning yozilishida o'sha davr an'anasi, ruhi sezilib turadi. Bunga misol: Sibavayh bosh kelishikdagi ismlar mavzusida muftadoni asl bosh kelishikdagi ismlar toifasiga kiritgan (I, 40), bunday hol o'sha davrning boshqa nahvshunoslarida ham kuzatilgan. Lekin oradan vaqt o'tib, keyingi nahvshunoslar unga zid ravishda foilni asl bosh kelishikdagi ismlar deb qarab, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur qismlarga bo'lib o'rganishgan. Ba'zi farqlanishlarni hisobga olmasa, bunday masalalarning mazmun-mohiyati barcha olimlar nazdida bir xildir, faqat asarni ta'lif qilish, uni fasl va boblarga bo'lishda hamda mavzu nomlari qo'yishda o'z uslublariga ega.

Muftado bobini ikki kitob misolida kuzatilsa, olimning qarashlari, yo'nalishlarini ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida muftadoga quydagicha ta'rif beriladi. «المبتدأ كل اسم جرد من العوامل اللفظية لتسند إليه الخبر نحو زيد منطلق والله غفور رحيم، زيد مجرد من العوامل اللفظية التي هي نحو إن و كان غير كالحروف و الأفعال التي تعمل في الأسماء»¹ muftado kesim unga ega-kesimlik munosabatida bo'lishi uchun lafziy omillardan xoli bo'lgan har bir ismdir, masalan: Zayd ketuvchidir, Alloh sevimli va rahmlidir, bu yerda Zayd muftado, ya'ni gapning egasi bo'lib, egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar hisoblamoq manosi-dagi fe'llar, fe'l manosi-dagi ismlar va old ko'makchilar kabi lafziy omillardan xoli hisoblanadi»¹. Muallif muftadoga ta'rif berib, unga misollar keltiradi. «Unmuzaj»da muftado haqidagi mavzuga to'xtaladigan bo'lsak, unda muftadoga ta'rif va misol bermasdan uning shartlari sharhiga o'tib ketilgan. «Mufassal»da quydagicha ta'rif va misollar keltiriladi. «هما الاسمان المجردان للإسناد، نحو زيد منطلق و المراد بالتجريد إخلاها من العوامل التي إن و كان حسب و أخواته إذا لم يخلوا منها تلعبت بهما muftado va xabar ega-kesimlik uchun mustaqil ikkita ismdir. Masalan: Zayd ketuvchidir va mustaqildan murod uning egaga ta'sir qiluvchi yuklamalar va hisoblamoq, gumon qilmoq fellari va uning o'xshashlari kabi omillardan xoli bo'lishidir»². Agar ulardan xoli bo'lmasa, muftado va xabar bilan munosabatga kirishadi hamda bosh kelishikda kelishiga to'sqinlik qiladi». Sibavayh o'zgacharoq ta'rifni keltiradi «المسند و المسند إليه هما لا يعنى واحد منهما عن الآخر»² «musnad va musnad ilayhi, ya'ni ega va kesim u ikkisidan biri boshqasidan ehtiyojsiz bo'lmaydi». Mutaqaddim ulamolardan Sibavayh muftado mavzusini alohida mavzuga ajratib ko'rsatmasdan, ega va kesim haqida umumiy ta'rif berib, misollarni ham bir-biriga bog'lab tushuntiradi. Sibavayhning izdoshlaridan Zamaxshariy ham muftadoni alohida vasf qilmasdan, bir yo'la muftado va xabarga

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 23a.

² أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 47



umumiy tushuncha berib, muftado va xabarga ta'sir qiluvchi omillarni sanab, agar bu omillar bo'lsa, muftado va xabar raflik alomatini yo'qotishini tushuntiradi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa muftado istilohini alohida istiloh sifatida o'rganib, muftadoga alohida tushuncha beradi. Ta'rifning o'zidan misollarsiz muftadoni tushunib olish mumkin, chunki ta'rifda muftado ega va kesimlik munosabatiga kirishishi uchun turli xil muftadoga ta'sir qiluvchi omillardan xoli bo'lishini ta'kidlaydi va gapda ega bo'lgan zayd misolida uning omillardan xoli ekanligini va shu sababdan muftado bo'layotganligini grammatik tahlil qiladi. Sibavayh bilan Zamaxshariyning bu mavzudagi qarashlari o'xshash bo'lib, u ikkisi muftado va xabar, musnad va musnad ilayhi bilan bitta ta'rif berib, umumiy tushuntiradi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ulardan farqli ravishda muftado terminiga alohida e'tibor qaratib, muftado u **الاسم** ism deb, uni xabarsiz zikr qiladi. Biroq ta'rifning oxirida xabarni ifodalaydigan **لتسند اليه** «unga suyanish» fe'lini qo'llaydi. Zamaxshariy esa muftado va xabarni umumiy tarzda **الاسمان** ikkita ism deb tushuntiradi. Sibavayhning uslubiga e'tibor bersak, u ham Zamaxshariy kabi muftado va xabarni birgalikda ifodalab, muftado bir ism yoki muftado va xabar ikkita ism ko'rinishida emas, balki muftadoni musnad, xabarni musnad ilayhi deb majhul nisbat sifatdosh ko'rinishidagi itilohdan foydalangan. Ta'riflarda iboralarning ishlatilishi har xil ko'rinishda berilgan, lekin barcha ta'riflardan ko'zlangan mazmun yagonadir. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy boshqa uslubda qisqa va jamlovchi ta'riflar bilan ifodalaydiki, muftado ta'rifida xabarni ham tushunib olish mumkin. Ammo mazmun bir xilligini unutmash kerak.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy «Tushum kelishigidagi ismlar»ni ikki turga bo'lib o'rganadi: asl va aslga o'xshash tushum kelishigidagi ismlar. Ular asosan to'ldiruvchilardir.

1. **المفعول المطلق** «Mutlaq Masdar».
2. **المفعول به** «Vositasiz to'ldiruvchi».
3. **المفعول فيه** «O'rin va payt hollari».
4. **المفعول معه** «Birgalikni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi».
5. **المفعول له** «Maqsad va sababni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi».

Aslga o'xshash **المنصوبات** tushum kelishigidagi ismlar yetti turga bo'linib, ularni ham alohida boblarda bayon qiladi:

1. **الحال** «Hol».
2. **التمييز** «Cheklov aniqlashtiruvchi».
3. **المستثنى بلا** «Istisnolikni ifoda qiluvchi».
4. **الخبر في باب كان** «Noqis fe'llarning xabari».
5. **الاسم في باب إن** «Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning egasi».
6. **اسم لنفي الجنس** «Mutloq inkor yuklamaning ismi».
7. **خبر ما و لا بمعنى ليس** «Yo'q va emas ma'nosidagi ma ning va la ning xabari».¹

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 5b.



Zamaxshariy «Unmuzaj» asarida ham tushim kelishigidagi ismlarni xuddi shu tarzda taqsimlagan. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy aslga o'xshash المنصوبات tushum kelishigidagi ismlarning to'rttasini ismlar qismida keltirmagan.

1. الخبر في باب كان. «noqis fe'llarning xabari»ni bu mavzuning fe'l qismida.

2. الاسم في باب إن «Egaga ta'sir qiluvchi yuklamalarning egasi» bu mavzuning harflar qismida;

3. اسم لنفى الجنس. «Mutloq inkor yuklamaning ismi» bu mavzuning harflar bo'limida;

4. خبر ما و لا بمعنى ليس. «Laysa ma'nosidagi ma ning va la ning xabari» bu mavzuning inkorni ifoda qiluvchi harflar bobida o'rganadi.

«Tushum kelishigidagi ismlar» turlarga bo'linish jihatidan qiyoslanadigan bo'lsa, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida va «Unmuzaj»da turlarning soni bir xil ekanligini ko'rish mumkin. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarni «Ism», «Fe'l» va «Harf» qismlariga bo'lganini e'tiborga olib, shu qoidaga qat'iy amal qilgan holda, otlarni to'liq «Ism» qismida, har bir fe'lga bog'liq bo'lgan mavzuni «Fe'l» qismida, harflarni faqat «Harf» qismida zikr qiladi. Garchi unda ism va fe'l mavzulariga bog'liq umumiy jihatlar bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga bag'ishlangan qismda yoritib berilgan.

Uchta: bosh kelishik, tushum va qaratqich kelishiklari mavzulariga bog'liq bo'lgan har bir kelishik bobining oxirida zikr qilinadigan mavzulardan biri التوابع – «kelishiklar bilan o'zgarishda o'zidan oldingi so'zga moslashuvchi turkum» mavzusi hisoblanadi. Tobelar jummalarda uchta kelishikdan biri bilan moslashib, ularning kelishigiga ergashadi.

Mahmud Zamaxshariy التوابع – «kelishiklarda o'zgarishda o'zidan oldingi so'zga moslashuvchi turkum» mavzusida التأكيد ta'kidlovchi – izohlovchi haqida so'z yuritib, uni ikki qismga ajratadi 1. تأكيد صريح aniq izohlovchi ta'kid; 2. تأكيد غير صريح – noaniq izohlovchi ta'kid¹.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham التأكيد ta'kidlovchi – izohlovchini ustoz kabi ikki qismga ajratadi. Lekin 1. التأكيد اللفظي lafziy izohlovchi ta'kid;

2. التأكيد المعنوي ma'naviy izohlovchi ta'kid deb nomlaydi².

Buyuk tilshunos Ibn Hojib o'zining «Kofiya» kitobida التأكيد ta'kidlovchi – izohlovchini Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy kabi ikki qismga bo'ladi. U ham اللفظي lafziy va ma'naviy ta'kidlovchi deb nomlaydi³.

Mahmud Zamaxshariyning shogirdi Mutarziy ham التأكيد ta'kidlovchi – izohlovchini zikr qilib, uni ikki turga bo'ladi: 1. «u bilan lafziy izohlovchi ta'kid iroda qilinadi»; 2. «u bilan ma'naviy izohlovchi ta'kid iroda qilinadi» deya, misollar keltiradi⁴. Nahvshunoslarning

¹ أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003.صفحة 114

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 83b.

³ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 105

⁴ أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة.ص134.



tobelar mavzusida qo‘llagan istilohlari bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa-da, ba’zida bir-biriga xiloflikni kuzatish mumkin. Chunonchi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy va Mutarziy ikkisi ham Mahmud Zamaxshariyning shogirdi ekanligiga qaramasdan, ustoziga aks tarzda tobelar mavzusida تأكيد صريح aniq izohlovchi ta’kid va صريح لفظي و معنوي noaniq izohlovchi ta’kid turlari o‘rniga لفظي va ma’naviy ta’kidlovchi istiloh bo‘linishini qo‘llaydi. Darhaqiqat, xuddi shu istilohlarni Ibn Hojib va boshqa nahvshunoslarning kitoblarida ham uchratish mumkin.

Izofa bobida ham ba’zi farqli jihatlar ko‘rinadi. Mahmud Zamaxshariy «Unmuzaj»da izofani ikki turga ajratadi. 1. الإضافة المعنوية «ma’naviy izofa»; 2. الإضافة اللفظية «lafziy izofa». Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ham izofani ikki navga ajratadi. Biroq, ma’naviy izofani haqiqiy izofa deb, lafziy izofani haqiqiy bo‘lmagan izofa deb, qo‘llaydi. Undan tashqari, lavziy izofani gapda izofadan ajralgan ma’noda bo‘lishini ta’kidlab, «Unmuzaj» va «Mufassal»da ishlatilmagan انفصال «ajralish» so‘zini qo‘llaydi.

Kitobning ikkinchi asosiy qismi hisoblangan fe’l so‘z turkumini ikki kitob – Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» va Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarlarini chog‘ishtirilsa, ba’zi xulosa va fikrlarni keltirish mumkin. Ikkinchi qism – fe’l so‘z turkumi qismi birinchi – ism so‘z turkumi qismidan ancha qisqa bo‘lib, 10 bob 34 fasldan iborat. «Al-Unmuzaj» kitobi boblarga ajratilmagan, balki 8 ta sinf bo‘lib, fe’l qismini bob deb ataydi. «Mufassal» kitobida ikkinchi qism 20 ta sinfdan iborat. Quyida undagi mavzularni yoritish tamoyillari tahlilga tortiladi.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida fe’l qismi hech qanday mavzu qo‘ymasdan yoki bob va fasl ajratmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri fe’lning ta’rifiga o‘tib ketiladi. Fe’lga quyidagicha ta’rif beriladi. ما دل على معنى فى نفسه مقترن بزمان مخصوص bog‘liq bo‘lib, mustaqil ma’noga dalolat qiluvchi so‘z turkumiga fe’l deyiladi». Muallif fe’l ta’rifidan keyin uning alomatlarini zikr qilib, misollar yordamida ba’zi xususiyatlarni tushuntiradi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida esa fe’lga ta’rif berilmasdan, uning xususiyatlari aniqlangan. Muallif asardagi fe’l qismini quyidagi so‘zlar bilan boshlaydi: و حروف الاستقبال "قد" و هو ما صح أن يدخله "قد" و الجوازم و اتصل به ضمير المرفوع و تاء التانيث الساكنة «Kelasi zamondagi ishharakatning amalga oshish ehtimolini bildiruvchi, yaqin hamda uzoq kelajakni ifodalash, yuklamalar, shaxs-son qo‘shimchalari va ayol kishiga dalolat qiluvchi sukunli تاء harflarni qabul qilish fe’lning alomatlari hisoblanadi»¹. Fe’lning alomatlari haqidagi ma’lumot va ba’zi misollaridan so‘ng uning sinflari tasniflanadi. «Mufassal»da esa «Al-Unmuzaj»dan farqli ravishda fe’lga ta’rif berib, keyin uning xossalari o‘tilgan. Kitobda fe’l ta’rifi quyidagicha keladi: ما دل على إقتران حدث بزمان

¹ شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأرببلى جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسن عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 134



qiladigan soʻz turkumi feʼl deyiladi»¹. Feʼlga taʼrif berib, unga misol va sharhlar keltiriladi. Yana bir nahvshunos alloma Ibn Hojib feʼl haqida shunday deydi: **الفعل: Uchta zamondan biriga bogʻlanib mustaqil maʼnoga dalolat qiluvchi soʻz turkumi feʼl deyiladi»**². Feʼllarning xususiyatlari zikr qilingach, uning turlari xususida fikr yuritiladi. «Hidayatu-n-Nahv» kitobida unga quydagicha taʼrif beradi. **الفعل: كلمة تدل على معنى في نفسها دلالة**. «Oʻz maʼnosida biror zamonga bogʻliq boʻlib, mustaqil maʼnoga dalolat qiluvchi kalima feʼl deyiladi»³. Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhida feʼlga quydagicha taʼrif beradi: **فأما الفعل فكل كلمة تدل على معنى في نفسها مقترنة**. «Zamon bilan bogʻliq boʻlib, mustaqil maʼnoga dalolat qiluvchi kalima feʼl deyiladi»⁴. Zujajiy feʼlga quydagicha taʼrif beradi: **الفعل كل لفظة دلت على معنى مقترن**: «Muayyan zamonga bogʻliq boʻlgan maʼnoga dalolat qiluvchi har bir lafz feʼl deyiladi» (D, N, 95). Ibn Aqiyl esa feʼlga oʻzgacharoq yondashadi. **الاسم** «Ism zamon bilan bogʻlansa, u feʼl»⁵.

Kitobning asosiy qismi boʻlgan feʼl qismidagi taʼrif va uning misollarini kuzatilar ekan, boshqa nahvshunoslarning kitobida mazkur mavzudagi yondashuvlar uncha katta farq qilmaydi. Masalan: Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb» asarida feʼl taʼrifi Ibn Yaishning va Zujajiyning feʼlga bergan taʼrifi bilan bir xil, faqat baʼzi maʼnoga taʼsir qilmaydigan darajada birlikdagi soʻzlarda farqlanish bor. Ibn Yaish «Mufasssal»ning sharhidagi Zamaxshariyning feʼlga bergan taʼrifini odatdagiday toʻgʻridan toʻgʻri sharh qilmasdan feʼlga alohida taʼrif bergan. Chunki Ibn Yaish faqat bogʻlanish feʼlga dalolat qilmasligini aytib, taʼrifning boshiga kalima yoki lafz soʻzini qoʻyish afzal boʻlishini taʼkidlaydi. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa kalima va lafz soʻziga dalolat qiluvchi nisbiy olmosh bilan ifodalaydi. Ibn Hojib va Zamaxshariyning taʼriflaridagi yagona farq – Zamaxshariyning taʼriflarida **حدث** voqea-hodisa soʻzining borligida. Biroq Ibn Aqil boshqa yoʻldan borib, feʼlni uning sharti bilan taʼriflaydi, yaʼni feʼl unga dalolat qiluvchi shartga ega boʻlsa, feʼl boʻla olishini taʼkidlaydi. Umuman olganda, tilshunoslar orasida bu yoʻnalishda ixtiloflar deyarli mavjud emas. Demak, asar yozishda ularni mavzularga boʻlish va yuqoridagi feʼl taʼrifi koʻrinishidagi uslublar bir manhajga dalolat qiladi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida feʼlning taʼrifi berilmagani kuzatildi, chunki fikrimizcha, bu asar «Mufasssal»ning ixchamlashtirilgan sharhi hisoblanadi, muallif mavzuga taʼrif bermasdan, birdaniga misollarga oʻtib ketgan, shu sababli asar qisqa uslubga asoslangan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb» asaridagi feʼl taʼrifi uchta nahvshunos olimning taʼriflariga yaqin turishi bilan umumiy qamrovchi taʼrif degan xulosaga kelish mumkin. Feʼlning alomatlarini bir tur qatorida ifodalamasdan, alohida-alohida zikr qilinadi.

¹أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق فخر صالح قدادة، المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن، 2003، صفحة 243

²العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو، مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161

³جماعة من العلماء البارعين، هداية النحو، مكتبة البشرى بكراتش باكستان، 2011م، ص 10.

⁴العلامة ابن يعيش، شرح المفصل في صنعة الإعراب، إدارة الطباعة المنيرية، بمصر، ص 912

⁵صلاح الدين الزعلاوي، الدراسات في النحو، المكتبة الشاملة، ص 95



Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida fe'l turlarini o'rganib chiqib, Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'llarning turlarini taqqoslangach, ikkita asardagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rish mumkin. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida muallif fe'llarni 10 turga ajratadi:

1. الماضى – «O'tgan zamon fe'li».
2. المضارع – «Hozirgi-kelasi zamon fe'li».
3. الأمر – «Buyruq mayli».
4. المتعدي وغير المتعدي – «O'timli va o'timsiz fe'llar».
5. المبني للمفعول – «Majhul fe'llar».
6. أفعال القلوب – «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar».
7. الأفعال الناقصة – «Noqis yordamchi fe'llar».
8. أفعال المقاربة – «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fellar».
9. فعلى المدح و الذم – «Maqtov va tahqir fe'llari».
10. فعلى التعجب – «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar»¹.

Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'llarni «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridan farqli ravishda 11 turga bo'ladi²:

1. الماضى – «O'tgan zamon fe'li».
2. باب المضارع – «Hozirgi-kelasi zamon fe'li».
3. الأمر – «Buyruq mayli».
4. المتعدي – «O'timli fe'llar».
5. غير المتعد – «O'timsiz fe'llar».
6. المبني للمفعول – «Majhul fe'llar».
7. الأفعال الناقصة – «Noqis yordamchi fe'llar».
8. أفعال القلوب – «Taxmin, gumon, hisoblash ma'nosidagi fe'llar».
9. باب أفعال المقاربة – «Ish-harakatning yaqinligini ifoda qiluvchi fellar».
10. باب فعلى المدح و الذم – «Maqtov va tahqir fe'llari».
11. باب فعلى التعجب – «Taajjubni ifoda qiluvchi fe'llar».

«Mufassal»da fe'llarning turi 12 qismga ajratiladi. Fe'llar turining ketma-ketligi «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi bilan bir xil berilgan. Faqat «Mufassal»da fe'llarning turi ko'proq berilgan, ikki fe'l turini «Uch o'zakli fe'llar», «foili zikr qilinmagan fe'l» deb keltiriladi. Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj» asarida fe'l turini 11ta deyilgan bo'lsa ham, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan bir xil desa bo'ladi. Chunki «Unmuzaj»da «O'timli va o'timsiz fe'llar»ni alohida zikr qiladi, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa ularni bitta mavzu qilib o'rganadi. Asarlardagi

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, sahifa 169b.

² شرح الأنموذج فى النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى، حققه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999، صفحة 134

³ العلامة ابن الحاجب الكافية فى النحو. مكتبة ماوراءالنهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 161-188



fe'llarning turlari va ketma-ketligi nomlanishida juda katta farq topilmadi. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi adad bilan «Unmuzaj»da asar bir xil deyilsa, undan boshqa asarlarda ham mana shu izchillikni kuzatish mumkin. «Kofīya» asarida kuzatilgani kabi fe'l turlari va ularning ketma-ketlik xususiyati «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Unmuzaj»dagi bilan bir xil. Demak, fe'l turlarini tahlil qilar ekanmiz, kitoblardagi nahv masalalarning yoritilishida mutlaq o'zgachalikni topish mushkul.

Xulosa. Qadim zamonlardan buyon ilmiy izlanishda keng qo'llanib kelyotgan usullardan biri asarlarni sharhlash orqali tushuntirish uslubi hisoblanadi. Olimlar boshqa mualliflar asarlarini o'rganuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ularni har xil usullar bilan sharhlashgan. Ba'zida mualliflar o'z asarlarini talabalarga o'rgatishda murakkablikka duch kelishgan, shuning uchun asarni sharhlab qaytadan yozishgan. Asar matnini sharhlash va izohlash jarayonida notanish so'zlarning ma'nolari, boshqa so'zlarning ko'chma ma'nolari yoki bir so'zning bir necha ma'nolari va boshqa xususiyatlari alohida-alohida tushuntirilgan. Sharh tayanch matndagi tugunni yechish vazifasini bajargan. Arab tili gammatikasida mana shunday sharhlardan biri Mahmud Zamaxshariyning o'z asari bo'lmish «Mufassal»ga yozgan «Al-Unmuzaj» sharhidir. Tadqiqotimiz asosi hisoblangan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari «Unmuzaj»ning sharhi degan ba'zi qarashlarga qo'shilmasdan, bu asar mustaqil asar ekanligini ko'rsatuvchi ayrim xulosalarimizni taqdim qilamiz:

Birinchidan, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida «Al-Unmuzaj» kitobining tayanch matni keltirilmagan. Odatda, biror asar sharhlanadigan bo'lsa, avval har bir mavzuning tayanch matni yoki uning ma'lum bir qismi keltirilib, sharh bilan asl matni ajratib turadigan chiziq qo'yiladi yoki boshqa alomatlar bilan ajratiladi. Tayanch matn berilib, undagi murakkab so'z va iboralar, ta'rif va misollar sharhlovchi tomonidan yengil va kengroq uslubda tushuntiriladi. Hamma tushuna oladigan tarzda hech bir so'zni e'tibordan chetda qoldirmasdan tafsir qilinadi va bu orqali asarni ommalashtirishni maqsad qilinadi. «Al-Unmuzaj» kitobining Ardabiliy sharhi huddi shu qonuniyat asosida tartiblangan. Unda asl matn keltirilib, keyin o'z tilidan unga sharh bitilgan. Zamaxshariyning boshqa asarlariga yozilgan sharhlar ham xuddi shu ko'rinishda tafsir qilingan. Biz «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida sharhning belgilaridan bo'lgan yuqoridagi alomatlarni topmadik. Yoki Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarining biror joyida «Al-Unmuzaj» muallifi shunday deydi, men bunday deyman, deb ta'rif yoki izoh bermagan. Bundan xulosa qilinadiki, olim o'z ilmiy qarashlariga ega bo'lib, uni mustaqil bayon qilgan.

Ikkinchidan, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini mashhur Sharq olimi eronlik Shayx Og'a Buzruk «Unmuzaj»ning uslubida yozilganini ta'kidlaydi. Hoji Xalifa esa bu mustaqil asar ekanligini bildirmagan bo'lsa-da, uning sharh ekanligini ham qat'iy ta'kidlamagan. Karl Brokkelman «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarini «Al-Unmuzaj» asarining sharhlari qatorida zikr qilganligi, bu asar bevosita unga bog'liq bo'lganidan va Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asar muqad-



dimasida «Mufassal» va «Unmuzaj»ni zikr qilganligidan dalolatdir. Bundan tashqari, muallifning Zamaxshariyning shogirdi bo'lganidan yoki Hoji Xalifaning sharhga o'xshash degan so'zlarining inobatidan bu asarni sharhlar qatorida aytib o'tgan bo'lishi mumkin. Boshqa tilshunoslar ham Karl Brokkelmaning fikriga tayangan. Asar qiyosiy o'rganilib, dalil va xulosalar bilan sharh ekanligi isbot qilinmagan. Agar aniq sharh bo'lganida tilshunoslar o'rtasida ixtilof bo'lmas edi. Yana ko'plab mashhur nahv kitoblari orasidan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari tanlab olinib, Eron madrasalarining o'rta bosqichdagi talabalariga yaqin-yaqingacha o'rgatilgani va Eronda Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy asarlari keng o'rganilganini inobatga olsak, qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib, bu asar mustaqil asar deyishimiz mumkin. G'arb olimlarining fikridan ko'ra, Sharq olimlarining fikri bizga yaqinroqdir.

Uchinchidan, ikkita asar mundarijada bir xilligi istilohlarda, so'z turkumlarida va bir necha ta'rif va yondashuvlarda juda yaqinligi bu asar sharh ekanligini anglatmaydi. Bunday holat boshqa nahv kitoblariga ham tegishli bo'lib, bu tabiiy holat. Endi ko'pgina ma'noga ta'sir qilmaydigan farqlanishlarni inobatga olsak, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy o'zining shaxsiy qarashlariga ega ekanligiga ishora qiladi. Bu farqlanishlar asarning mutlaqo boshqa manhajdagi asar ekanligini anglatmasa-da, uning «Al-Unmuzaj» va «Mufassal»ga nisbatan tushuntirishda va grammatik tahlil qilishda yengil va sodda, o'rta usulda yozilganligining shohidi bo'lish mumkin. Asardagi «tobelar» mavzusidagi mutloq xiloflik va biz zikr qilgan boshqa farqlanishlar «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarining mustaqil asar ekanligini namoyon etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu kitob mustaqil asar ekanligi bilan bir qatorda boshqa nahvshunoslarning fikr va qarashlaridan farqli bo'lmagan holda yozilgan bo'lib, muallifning e'tirofi bo'yicha barcha usullarni jamlovchi asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdujabbor Qahhorov, Malika Nosirova. Gap sintaksisi arab tilshunoslari talqinida. – Toshkent, 2013. – 163-b.
2. Malika Nosirova. O'rta asr arab nahvidan namunalar. – Toshkent, 2004. – 71-b.
3. Qosimova, S.S. Klassik arab nahvidan ma'lumotlar. – Toshkent, 2011. – 88-b.
4. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.
5. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دارعمار -الأردن. 2003.صفحة 565
6. الشيخ محمد محسن بن علي بن محمد رضا الطهراني النجفي. كتاب الذريعة الى تصانيف الشيعة الجزء الثامن عشر. دار الأضواء. بيروت. 1983 صحيفة 441
7. شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأردبيلي جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حقه و علق عليه دكتور حسنى عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999.صفحة 230
8. عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. - القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 880.



9. العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 217
10. القرآن الكريم. بالرسم العثماني. الخطاط عثمان طاه. دار الهلال طشقند. -2020
11. كارل بروكلمان. تاريخ الأدب العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975. ص. 315.
12. العلامة حاجي خليفة كشف الظنون عن أسامي الكتب و الفنون. بيروت 1981. ص. 470.
13. العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صنعة الإعراب. إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص. 132
14. أبو بكر محمد بن السراج النحوي البغدادي. الأصول في النحو. مؤسسة الرسالة ببيروت. 1996م. ص 436
15. أبو عمرو عثمان بن عمر المعروف بابن الحاجب النحوي. شرح المفصل. إحياء التراث الإسلامي بالعراق. 1982م. ص. 719.
16. محمد بن الحسن الإستراباذي السمنائي النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية. 1996م. ص. 1222.
17. أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطرزي. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة. ص. 159.
18. أبو أنس مالك بن سالم بن مطر المهذري. الممتع في شرح الأجرومية. مكتبة دار الحديث بصنعاء 1435هـ. ص. 219.
19. جماعة من العلماء البارعين. هداية النحو. مكتبة البشرى بكراتش باكستان. 2011م. ص. 160.
20. الشيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. مؤسسة الرسالة ناشرون ببيروت. 2010م. ص. 789.
21. أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه في النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص. 439.
22. صلاح الدين الزعلاوي. الدراسات في النحو. المكتبة الشاملة. ص. 288.
23. ضياء الدين المكي الخوارزمي. المناقب. تحقيق الشيخ مالك المحمودي. مؤسسة النشر الإسلامي بقم المشرفة. ربيع الثاني 1414هـ. ص. 406.

ABDURAHMONOVA MUHAYYO

Dotsent, f.f.n., TDSHU

Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi

Annotatsiya. Maqolada butun dunyoda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini axborotlash-tirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik bazani takomillash-tirish, shuningdek, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish uchun mazkur zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish xususida so'z boradi. Informatsion texnologiyalar rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi eng e'tiborli jihatlardan biri bo'lib, bu ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, informatsion virtual ta'lim ta'lim jarayonining sifat xususiyatini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Maqoladagi asosiy vazifa – Hindiston universitetlarida virtual-ta'lim texnologiyasi zamirida qo'llanilayotgan ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'llarini yoritishdir.

Kalit so'z va birikmalar: multimedia texnologiyalari, o'quv jarayonini axborotlash-tirish, dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik baza, zamonaviy axborot texnologiyalari, infor-



matsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni samaradorligi, informatsion virtual ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullari.

Abstract. *The article deals with multimedia technologies, which are one of the promising areas of informatization of the educational process in the world, and the successful implementation of these modern information technologies in education makes it possible to use software and methods, improve the material and technical base, as well as improve the qualifications of professors and teachers. Information technology is one of the most important aspects of the educational system of developed countries, which greatly contributes to the effectiveness of their educational process. In particular, information virtual education plays a special role in ensuring the quality of the educational process. The main objective of the article is to analyze advanced educational technologies used in Indian universities and evaluate lessons based on virtual educational technologies, the use of information and communication technologies in the educational process, the latest achievements of modern methods of organizing the educational process, professional competence and creativity of the teacher, the global Internet, multimedia systems and methods of teaching new knowledge, skills and competencies.*

Keywords and expressions: *multimedia technologies, informatization of the educational process, software and methodological support, material and technical base, modern information technologies, information technologies, efficiency of the educational process, informative virtual education, information and communication technologies, professional competence and creativity of the teacher, global Network Internet, multimedia systems, distance learning methods.*

Аннотация. *В статье речь идет о мультимедийных технологиях, которые являются одним из перспективных направлений информатизации образовательного процесса в мире, и успешное внедрение этих технологий способствует развитию программно-методического обеспечения, улучшению материально-технической базы, а также повышению квалификации профессорско-преподавательского состава. Информационные технологии – один из важнейших аспектов образовательной системы развитых стран, который во многом способствует эффективности их образовательного процесса. В частности, информационное виртуальное образование играет особую роль в обеспечении качества образовательного процесса. Основная задача статьи – проведение анализа передовых образовательных технологий, используемых в университетах Индии, оценка методов преподавания, основанных на виртуальных образовательных технологиях, использовании информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе, новейших достижениях современных методов организации учебного процесса, профессиональной компетентности и креативности педагога, глобальной сети Интернет, мультимедийные системы и способы обучения новым знаниям, навыкам и компетенциям.*

Ключевые слова: *мультимедийные технологии, информатизация образовательного процесса, программно-методическое обеспечение, материально-техническая база, современные информационные технологии, информационные технологии, эффективность образовательного процесса, информативное виртуальное образование, информационно-коммуникационные технологии, профессиональная компетентность и креативность педагога, глобальная Сеть Интернет, мультимедийные системы, методы дистанционного обучения.*



Ta'lim va tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida e'tirof etilar ekan, har birimizning zimmamizga ilm-u ma'rifatli kelajak avlodni tarbiyalashdek katta mas'uliyatni yuklaydi. Binobarin yurt-boshimiz ilgari surayotgan tashabbuslar, amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlar pirovardida ilmu ma'rifatli barkamol avlod bilan yurtimiz ravnaqining jahonga yuz tutib, o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror chet tili ta'lim berish tizimini yuksaltirish, yosh avlodni zamon talablariga javob beradigan yetuk va tajribali mutaxassis qilib tarbiyalashdek ezgu maqsadga yo'naltirilgan. Unda ta'lim tizimining jamiki jabhalarida chet tilini uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, zamonaviy o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlash evaziga o'qituvchilar malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va metodlaridan iste'foda qilgan holda o'qitishning ilg'or zamonaviy uslublarini tatbiq etish, yoshlarning chet tillariga bo'lgan qiziqish va intilishlarini yanada kuchaytirish va boz ustiga, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish masalalari ko'tarilgan.

"Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori¹, "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni², "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori³ jamiyat hayotining barcha jabhalari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini keyingi yuqori bosqichga olib chiqish uchun muhim qadam hisoblanadi.

Ilm-fan texnologiyalari takomillashgani sayin chet tillarini o'qitishning yangi imkoniyatlari va vositalari paydo bo'lmoqda. Butun dunyoda oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ilm-fan taraqqiyoti bilan hamqadam bo'lishga harakat qilmoqda, zero, talabalarni o'qitish usullariga yangicha qarash kun tartibidan tushmay kelmoqda.

Zamonaviy o'qitish nazariyasi va amaliyotining asosiy vazifasi talabalarning yangi bilimga ega bo'lishi va kelajakda ulardan amaliy faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Binobarin 6 darsda

¹Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 10.12.2012 йилдаги "Чет тилларни ўрганиш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-1875-сон қарори.

²Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 12.06.2015 йилдаги "Олий таълим муассасаларининг раҳбар ҳамда педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4732-сон Фармони.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.04.2017 йилдаги "Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сон қарори.



interfaol usullardan yetarlicha foydalanish imkoniyatlari kengayib borishi buning isbotidir.

Chet tili, xususan, Sharq tillarini o'qitishning asosiy maqsadini anglagan holda o'qituvchi talabalarni o'zi o'rganayotgan tilda muloqotga jalb qilishi, guruhda rosmana til muhitiga kirish jarayonini tashkil qilishi kerak.

Sharq tillarini o'qitishning zamonaviy amaliyotida interfaol o'qitish usullari deganda, o'quvchilarning kognitiv va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning alohida shaklini nazarda tutish darkor. Bunday o'qitish usullari erkin muloqot qilish, tegishli qaror qabul qilib, uni amalga oshirish qobiliyatiga ega ijtimoiy harakatchan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

O'qitishda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi uzoq vaqtdan beri o'rganilib, isbotlangan. Ma'lumki, interaktiv vositalar materialni o'zlashtirish darajasini 90% gacha oshirishga imkon beradi. Zamonaviy multimedia uskunalardan foydalangan holda interfaol ta'lim usuli ko'proq bilim berish va talabalar e'tiborining zarur yo'nalishini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda butun dunyoda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturiy-metodik ta'minlash, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, shuningdek, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish majburiyati zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish istiqbolini ko'rsatmoqda.

Informatsion texnologiyalar rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidagi eng e'tiborli jihatlardan biri bo'lib, bu ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, informatsion virtual ta'lim-ta'lim jarayonining sifat xususiyatini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Avvalo, virtual ta'lim texnologiyasi zamirida ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Jahon miqyosida nazar solinsa, kompyuter grafikasi va dizayn juda keng darajada rivojlangan. Ular amalda allaqachon qo'llanilmoqda.

Binobarin, Hindiston va Pokistonning (bu davlatlarda urdu tili rasmiy til hisoblanadi) oily o'quv yurtlarida ham virtual ta'lim muhiti juda shakllangan.

Biz urdushunoslar kovid davrida va undan keyin ham on-line muhitida 3D texnologiyalari asosida qator xalqaro vebinarlarda ishtirok etdik. Bu mamlakatlarda o'quv jarayonini tashkillashtirish ham mobil ta'lim texnologiyalari Internet, ochiq ta'lim resurslari orqali yo'lga qoyilgan. Universitetlarda virtual ta'lim tizimi bevosita multemedia vositalari bilan chambarchas bog'liq. Bunda o'quv materiallari o'quvchilarga informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida yetkazib beriladi. Multimedia talaba va o'rganuvchiga juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib



beradi. Bunda talaba chekkada turib, sust kuzatuvchi rolini bajarmaydi, balki u bu hodisalarda faol ishtirok etadi. Muloqot talaba uchun zarur tilda, birinchi navbatda, tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi.

Men Haydarobodning MANUU (Mavloni Ozod nomli Milliy Urdu Universiteti)da 1 oy mobaynida ilmiy-tadqiqot ishida qatnashdim. U yerdagi o‘qituvchilar darslarini kuzatdim. Avvalo, Wi-Fi tarmog‘i sifati haqida. U kecha-yu kunduz to‘xtovsiz ishlaydi. Darslar kompyuterda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek, to‘laqonli videokliplar, hatto videofilmlar namoyishi bilan uyg‘unlashgan.

Ayniqsa, til darslarida multimediyadan foydalanish o‘quvchi ko‘z o‘ngida asarning jonli gavdalanishiga va xotirada tez va oson qolishiga yordam beradi. Darslarning multimedia imkoniyatlaridan foydalantib o‘tilishi o‘qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi va mavzuni yaxshi o‘zlashtirilishiga turtki bo‘ladi. Chunki shu fanga mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prezentatsiyalar), multiplikatsiya ko‘rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar bir tomondan, o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ta‘lim oluvchilar uchun qiziqarli va diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Turli-tuman ko‘rinishdagi katta hajmdagi axborotni bitta diskda saqlash imkoniyati mavjud. Bunda bir necha bobli matnlarni, minglab yuqori sifatli tasvirlarni bir necha soatga cho‘zilgan film va rolidlarni hamda tovushli axborotlarni sifati saqlangan holda foydalanish mumkin.

Multimedia – zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta‘minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o‘zaro ta‘siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Hindistonning qator universitetlarida multimediali o‘qitish texnologiyalari o‘qitishning texnik vositalari va didaktik o‘qitish vositalari – axborot tashuvchilaridan keng foydalaniladi. “Multimedia texnik vositalari axborotni (tovush va tasvirni) saqlash va qayta ishlash maqsadida analog, ya‘ni uzluksiz, raqamli (diskret) shaklga o‘tkazishni, shuningdek, ushbu ma‘lumotni adekvat idrok etishi uchun teskari konvertatsiya qilishni ta‘minlaydi”¹. Texnik multimedia o‘quv qo‘llanmalari ham keng qo‘llaniladi, sababi ular “stereo ovoz kartasi, DVD / CD-ROM drayveri, stereo dinamiklar, mikrofon, video karta bilan jihozlangan multimedia kompyuter; televizion va radiodasturlarni qabul qilish imkonini beruvchi teletyunerlar va radiotyunerlar (televideniye va radio qabul qiluvchi moslamalar); raqamlashtirish uchun kompyuterga video tasvirlarni kiritish qurilmalari; videoregistrator yoki videokamera bilan ishlash uchun taxta; videokameralar va raqamli kameralar; telekonferentsiya va vizual aloqa uchun WEB-kameralar; turli

¹Nimavathi, V., & Gnanadevan, R. Effectiveness of multimedia programme in teaching science. Edutracks. New Delhi. Neelkamal. 2008. P. 27–29.



xil ekranlar moslashuvchanlik, interaktivlik, multimedia ta'lim axborotlarining har xil turlarini birlashtirish kabi fazilatlarga ega "¹.

Shuning uchun multimediani juda foydali va samarali ta'lim texnologiyasi deb aytishimiz mumkin.

Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: rangli grafika, animatsiya, tovush, gipermatnlardan foydalanishga imkon beradi. "Ushbu dasturiy muhitdan o'quv jarayonida foydalanish o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, talabalarda qiziqish uyg'otadi, shuningdek, kompyuter grafikasi va dasturlash sohasida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi"².

Tadqiqotchi olimlarning fikricha, ushbu texnologiyani o'quv materiallarini loyihalash uchun vosita sifatida tavsiya qilish doimiy yangilanish va unda interaktiv veb-elementlarni, masalan, testlarni joylashtirish imkonini beradi.

Multimedia texnologiyalaridan yana biri – Macromedia Flash texnologiyasi bo'lib, u so'nggi paytlarda juda mashhur bo'ldi. "Ushbu dasturiy muhitdan o'quv jarayonida foydalanish o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, talabalarda qiziqish uyg'otadi, shuningdek, kompyuter grafikasi va dasturlash sohasida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyani o'quv materiallarini loyihalash uchun vosita sifatida tavsiya qilish imkonini beradigan xususiyatlar juda turli-tumandir"³.

Flash texnologiyasi – vektor animatsiya texnologiyasi, ya'ni ekrandagi har bir obyektning sof matematik tavsifi, rastrli grafiklardan farqli o'laroq, ijro etish uchun resurslarga juda oddiy, juda kam joy egallaydi va masshtablash va aylantirishda buzilmaydi. Flash dastlab chop etishga emas, ekranni ko'rishga qaratilgan va bu rasm sifatini fotografiyaga yaqinlashtiradi⁴.

Ta'limdagi multimediya ma'lumotlarining 70% dan ortig'ini ko'rish orqali, 30% dan kamini esa eshitish orqali idrok etganimiz sababli insonga ma'lumotni maksimal idrok etish imkonini beradi. Multimedia matn va grafik ma'lumotlar, video, audio, ovoz balandligini modellashtirish imkoniyatlari va interfaol vositalardan foydalangan holda ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun axborotga boy muhitni yaratish imkonini beradi. Bunda o'qituvchilar turli xil o'qitish usullarini qo'llash uchun deyarli cheksiz imkoniyatlarga ega: o'quvchilarni guruhlarga bo'lish, jamoada ishlash, aqliy hujum, interaktiv test va so'rovnomalar, videokliplar, taqdimotlar, Internet materiallari va boshqalar. Shu bilan birga, o'quv jarayonida qo'llaniladigan materiallarni saqlash va ko'paytirish, qayta ishlatish, shu jumladan masofadan turib foydalanish oson. Sinov natijalari va

¹.Paul Kawachi, Ramesh Sharma, Sanjaya Mishra.Developing Materials and Choosing Media. Tamilnadu, India.2005. P.17.

²Sahni, M., & Sharma, A. Multimedia compared to Text for Online Learning in India. Asian Journal of Distance Education, 10(1). 2012. P.35–44.

³Paul Kawachi, Ramesh Sharma, Sanjaya Mishra.Developing Materials and Choosing Media. Tamilnadu, India.2005. P.19.

⁴Praveena, K.B., & Srinivasa, K.S. Interactive multimedia : A technological wave in education. Edutracks, vol.10. 2011. P.6–8.



bilim bo'laklari bir zumda qayta ishlanadi, saqlanadi va efirga uzatiladi. Keyinchalik foydalanish yoki onlayn translatsiyalar uchun ma'ruzalarni videoyozuvga olish imkoni mavjud bo'ladi.

“Biologiya darslarida multimedia taqdimotlaridan foydalanish dars maqsadlarini amalga oshirishda maksimal samaraga erishishga yordam beradi. Multimedia taqdimotlarini yaratish orqali har bir o'qituvchi o'z darsini ijodiy rejala-shtirish imkoniyatiga ega va undan darsda foydalanish matn, interfaol xaritalar, jadvallar, diagrammalar, video yoki audio fragmentlar kabi taqdimotning turli shakllarida ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi¹.

“Multimedia kommunikatsiya texnologiyalari boyicha kelgusi o'n yilliklarda ishlash uslubimizni tubdan o'zgartiramiz. Qayerga borsangiz ham sizning virtual ish joyingiz kompyuter integratsiyasi, telefon modemlari, faks (statsionar va portativ), mobil telefonlar, konferensiya qo'ng'iroqlari va video konferensiya qo'ng'iroq'ini qabul qilish imkonini beradi”.

Multimedia kurslari, shuningdek, olingan bilimlarni nazorat qilish uchun interfaol xususiyatlarga ega individual masofaviy ta'lim uchun ham, guruhli o'qitish uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini boyitadi, o'quv ma'lumotlarini idrok etish jarayonida o'quvchining aksariyat hissiy komponentlarini jalb qilgan holda o'rganishni yanada samarali qiladi. Multimedia texnologiyalari tufayli og'zaki nutq statikdan dinamikaga aylandi, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'rganilayotgan jarayonlarni kuzatish mumkin bo'ldi.

Multimedia va gipermedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular birinchi navbatda axborot va aloqani o'z ichiga olgan asosiy vakolatlarni shakllantirish va namoyon qilish uchun muhitni ta'minlashi mumkin. Multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalari umumta'lim tizimida prinsipial jihatdan yangi uslubiy yondashuvlarni ochadi².

Yuqorida sanab o'tilgan qulayliklardan tashqari, yana ko'pgina imkoniyatlar mavjud. Hozirda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va madaniy turmush kabi barcha sohalarda o'zgarishlar hamda islohotlar amalga oshirilayotgan paytda O'zbekistonda chegaralarning tan olinishi va daxlsizligi, mustahkam va chinakam tinchlik uchun shart-sharoit yaratish jarayoni kechayotgan yurtimizda xorijiy davlatlarning ko'plab oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil etib, ularning o'quv jarayoni bilan bog'liq ilg'or zamonaviy usullari ta'lim sohasiga tatbiq etilmoqda. Xorijning ta'lim jarayonidagi o'qitish usullari, yangi pedagogik ta'lim texnologiyasidan foydalanib, ularning tajribasiga tayanilmoqda. Haqli ravishda ta'kidlash joyizki,

¹ Singh, Y.G. A study of effectiveness of multimedia programme in teaching biology. International Research Journal, 2010 . P.21.

26 Multimedia Applications in Pakistani Education Dr. Ahsan Akhtar Naz• Dr. Rafaqat Ali Akbar••. Journal of Elementary Education, Lahore – Pakistan Vol. 19(1-2)2009. P. 51–60.

² M. Natarajan. Use of online technology for multimedia education. National Institute of Science Communication and Information Resources (NISCAIR – CSIR), 14, Satsang Vihar . New Delhi, India. 2006. P. 250.



ta'lim sohasidagi islohotlarning amalga oshishida xorij investitsiyalarining alohida o'rni bor. Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Buning samarasi o'laroq o'quv jarayoniga ta'lim texnologiyasini tatbiq etish ijobiy natija bermoqda. Zero, o'quv yurtlarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarining o'qilitishi – davr talabi bo'lib qolishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dr. Ahsan Akhtar Naz• Dr. Rafaqat Ali Akbar••.Multimedia Applications in Pakistani Education Journal of Elementary Education, Lahore – Pakistan Vol. 19(1-2)2009
2. Natarajan M. Use of online technology for multimedia education. National Institute of Science Communication and Information Resources (NISCAIR – CSIR), 14, Satsang Vihar . New Delhi, India. 2006.
3. Nimavathi, V., & Gnanadevan, R. Effectiveness of multimedia programme in teaching science. Edutracks. New Delhi.Neelkamal. 2008.
4. Paul Kawachi, Ramesh Sharma, Sanjaya Mishra.Developing Materials and Choosing Media. Tamilnadu, India. 2005.
5. Praveena, K.B., & Srinivasa, K.S. Interactive multimedia : A technological wave in education. Edutracks, vol.10. 2011.
6. Sahni, M., & Sharma, A. Multimedia compared to Text for Online Learning in India. Asian Journal of Distance Education, 10(1). 2012.
7. Singh, Y.G. A study of effectiveness of multimedia programme in teaching biology. International Research Journal, 2010.

G'YOSOV BOBUR

Tayanch doktorant, TDSHU

Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi

Annotatsiya. Modallik til sistemasining turli darajadagi birliklarining har birida mavjud. Morfologik tizim turli darajadagi birliklarning bir qismidir. Modallik esa bu gapning turli vositalar bilan ifodalangan funksional-semantik kategoriyasidir. Mayl kategoriyasi (tobelanish) fe'lining morfologik kategoriyasi bo'lib, modallikni ifodalovchi vositalardan biri. Lingvistikada modallik tushunchasi fe'lining mayl kengroq hisoblanadi.

Mayl kategoriyasi modal ma'nolarni ifodalashning alohida fe'lining morfologik kategoriyasi bo'lib, modallikni ifodalovchi vositalardan biri. Lingvistikada modallik tushunchasi fe'lining mayl kategoriyasidan kengroq hisoblanadi. Bu funksional-semantik kategoriya bo'lib, u ikkita kichik tip bilan ifodalanadi: voqelik modalligi va reallik modalligi.



Buyruq maylining shakli semantik jihatdan tinglovchini harakatga chaqiruv, undashini ifodalaydi. Bundan tashqari, imperativ kayfiyat nafaqat buyruq gap tipidagi shakllarni, balki taklif tipidagi gaplar shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Indikativ maylning shakli semantik jihatdan keng: uning o'ziga xos ma'nolari faqat muayyan kontekstual sharoitlarda turli leksik-sintaktik muhitlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, ushbu shaklning yetakchi modal ma'nosi so'zlashuv mazmunining so'zlovchi tomonidan o'rnatilgan voqelikka mos kelishidir.

Modallik (lot. modalis – modal, lot. modus – o'lchov, usul so'zidan) so'zlovchining o'z gapi mazmuniga munosabatini, nutqning maqsad qo'yishini, gap mazmunining munosabatini ifodalovchi semantik kategoriyadir.

Modallik ishonitirish nutq taktikasining tarkibiy qismidir. Adresatni ishonitirishda adresant epistemik va optativ usullardan ham foydalanishi mumkin. Modallikni tanlash ma'ruzachi tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish samaradorligida namoyon bo'ladi - suhbatdoshga ta'sir qilish va uni bayon qilingan nuqtayi nazarni qabul qilishga ishonitirish.

Tilshunoslikda rag'batlantiruvchi modallikka ega bo'lgan jumalarning turli semantik tasniflari mavjud va ularning hech biri buyruq konstruksiyalarining barcha turlarini hisobga olmaydi. Gapning shakllanishida na lug'at, na grammatika ustunlik qila olmaydi. Ular birgalikda gapning maqsadi va mazmunini yoritib bera oladi.

Kalit so'z va birikmalar: ta'lim shiorlari, struktura, semantika, leksika.

Abstract. Modality exists in each of the different levels of units of the language system. The morphological system is a part of units of different levels. Modality is a functional-semantic category of this sentence expressed by different means. The category of inclination (subordination) is a morphological category of the verb and is one of the means of expressing modality. In linguistics, the concept of modality is broader than that of the verb.

The category of inclination is a morphological category of a separate verb for expressing modal meanings, and is one of the means of expressing modality. In linguistics, the concept of modality is broader than the category of the mood of the verb. This is a functional-semantic category, which is represented by two subtypes: reality modality and reality modality.

The imperative form semantically expresses a call to action, an urge to the listener. In addition, the imperative mood includes not only imperative sentence forms, but also propositional sentence forms.

The form of the indicative mood is semantically wide: its specific meanings are realized only in certain contextual conditions through different lexical-syntactic environments. At the same time, it should be noted that the leading modal meaning of this form is the correspondence of the content of the speech to the reality established by the speaker.

Modality (from Latin modalis - modal, from Latin modus - measure, method) is a semantic category that expresses the attitude of the speaker to the content of his speech, the goal setting of the speech, the relationship of the content of the speech.

Modality is a component of persuasive speech tactics. In persuading the addressee, the addressee can use both epistemic and optative methods. The choice of modality is reflected in the effectiveness of achieving the goal set by the speaker - to influence the interlocutor and convince him to accept the stated point of view.



In linguistics, there are different semantic classifications of sentences with stimulus modality, and none of them takes into account all types of command constructions. Neither vocabulary nor grammar can prevail in the formation of a sentence. Together, they can clarify the purpose and meaning of the sentence.

Keywords and expressions: *educational slogans, structure, semantics, lexicon.*

Аннотация. *Модальность существует на каждом из различных уровней единицы языковой системы. Морфологическая система является частью языковых единиц различных уровней. Модальность – это функционально-семантическая категория данного предложения, выраженная разными средствами. Категория наклонения (подчинения) является морфологической категорией глагола и является одним из средств выражения модальности. В лингвистике понятие модальности шире, чем понятие глагола.*

Категория наклонения представляет собой морфологическую категорию отдельного глагола для выражения модальных значений и является одним из средств выражения модальности. В лингвистике понятие модальности шире категории наклонения глагола. Это функционально-семантическая категория, которая представлена двумя подтипами: модальность реальности и модальность ирреальности.

Повелительное наклонение выражает призыв к действию, побуждение к выполнению определённого действия. Кроме того, повелительное наклонение включает в себя не только повелительные формы предложения, но и пропозициональные формы предложения.

Форма изъявительного наклонения семантически широка: его конкретные значения реализуются только в определенных контекстуальных условиях через разные лексико-синтаксические среды. При этом следует отметить, что ведущим модальным значением этой формы является соответствие содержания речи действительности, установленной говорящим.

Модальность (от лат. modalis - модальный, от лат. modus - мера, способ) - смысловая категория, выражающая отношение говорящего к содержанию его речи, целеполагание речи, взаимосвязь содержания речи.

Модальность – это составляющая тактики убеждающей речи. В убеждении адресата адресат может использовать как эпистемические, так и оптативные методы. Выбор модальности влияет на эффективность убеждения собеседника и принятие им изложенной точки зрения.

В лингвистике существуют различные семантические классификации предложений со стимульной модальностью, и ни одна из них не учитывает все виды командных конструкций. Ни лексические, ни грамматические средства не могут доминировать при формировании предложения. Вместе они могут прояснить цель и смысл предложения.

Ключевые слова: *учебные лозунги, структура, семантика, лексика.*

Kirish. *Tahlilda shiorning lingvistik ahamiyatga ega bo‘lgan qismi va shiorlarning xususiyatlarini aniq tavsiflovchi ulardagi imperativning turlari aniqlanadi. Shiorlarda motivatsiya holatlari pragmatik kontekstda xilma-xil bo‘lganligi sababli, ta’lim shiorlarida qo‘llanilgan imperativ konstruksiyalarni tahlil qilganda ijti-*



moiy xususiyatlar, leksik-grammatik va sintaktik konstruksiyalar shior semantikasini yana ham chuqur tushunishga imkon ochib beradi. Pedagogik nutq doirasida qoʻllaniladigan taʼlim shiorlaridagi strategiyalar kabi omillarga alohida eʼtibor qaratib, ularning motivi semantikasini ham hisobga olish kerak.

Zamonaviy tilshunoslikda siyosiy nutqning modalligi juda yaxshi tahlil etib chiqilgan, bu har qanday jamoat arbobi uchun nutqni samarali tashkil etishning amaliy ahamiyatini tushunish bilan bogʻliq. Ilmiy va sud ishlarida fikrlash usullarini oʻrganishga urinishlar ham amalga oshirildi. Biroq, taʼlim muassasalari tomonidan oʻquvchilarni shiorlar yordamida ishontirish, daʼvat modalligini oʻrganish, shuningdek, pedagog nutqida ishontirishning modal xususiyatlarini oʻrganish yetarli darajada emas. Modallikning zamonaviy lingvistik tushunchalari fransuz tilshunosi Sh. Balli tomonidan taklif qilingan nazariyaga asoslanadi. Uning fikricha, har qanday bayonotda ikkita komponent mavjud: dictum – asosiy mazmun va modus – modal komponent, yaʼni, soʻzlovchining soʻz haqidagi ixtiyoriy, aqliy yoki hissiy mulohazasi¹.

Rus tilshunosligida modallik tushunchasini birinchi marta V.V. Vinogradov ilgari surgan. Akademikning fikricha, modallik gap mazmuni bilan voqelik oʻrtasidagi munosabatni aks ettiruvchi, soʻzlovchi nuqtayi nazaridan oʻrnatilgan semantik kategoriyadir².

O.S. Axmanova modallikni soʻzlovchining gapga munosabati va ifodalanganing voqelikka munosabati maʼnosiga ega konseptual kategoriya sifatida belgilaydi³. V. V. Vinogradov, G. V. Kolshanskiy, I. B. Xlebnikovalar modallikni semantik kategoriya deb hisoblaydilar, chunki modal maʼno turli lingvistik vositalar bilan ifodalanishi mumkin. Bularga grammatik (morfologik), leksik (modal soʻzlar), leksik-grammatik (modal feʼllar) va intonatsion vositalar kiradi⁴.

Modallik tushunchasini tushunishning kengligi uning tarkibiga kiradigan maʼnolar tizimini tartibga solish va farqlash zaruriyatiga olib keladi. Hozirgi vaqtda koʻpchilik tilshunoslar modal munosabatlarning ikki jihatini taʼkidlaydigan tasnifni qabul qilishadi:

¹ Панфилов В.З. Категория модальности и ее роль в конструировании структуры предложения и суждения / В. З. Панфилов. – М., 1977. – С. 40–41. // Panfilov V.3. Modallik kategoriyasi va uning gap va hukm tuzilishini qurishdagi roli / V.Z. Panfilov. – М., 1977. – В. 40-41.

² Виноградов В. В. О категории модальности и модальных словах в русском языке / В. В. Виноградов // Избранные труды. Исследование по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – С. 56. // Vinogradov V. V. Rus tilidagi modallik va modal soʻzlar kategoriyasi haqida / V. V. Vinogradov // Tanlangan asarlar. Rus tili grammatikasi boʻyicha tadqiqotlar. – М.: “Nauka”, 1975. – В. 56.

³ Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов / О. С. Ахманова. – Изд. 2-е. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с. – С. 237. // Axmanova O. S. Tilshunoslik terminlari lugʻati / O. S. Axmanova. – Ed. 2. – М.: “Sovet Entsiklopediyasi”, 1969. – 608 b. – В. 237.

⁴ Алсынбаева Р.Г. Логическая и лингвистическая сущность категории модальности / Р.Г. Алсынбаева // Вестник Башкирского университета. – 2013. – Т. 18, No1. – С. 181–184. // Alsinbayeva R.G. Modallik kategoriyasining mantiqiy va lingvistik mohiyati / R.G. Alsinboeva // Boshqird universitetining xabarnomasi. 2013. – Т. 18, No1. – В. 181–184.



Soʻzlovchining gap mazmuni bilan voqelik oʻrtasida *voqelik/reallik* nuqtayi nazaridan oʻrnatadigan munosabati obyektiv modallikdir;

Soʻzlovchining gap mazmuniga munosabati subyektiv modallikdir;

Obyektiv modallik har qanday gapning majburiy belgisi va predikativ birlik – gapni tashkil etuvchi kategoriyalardan biri. U tilda feʼning maxsus kategoriyasi – mayl (koʻrsatkich, buyruq, toʻldiruvchi) yordamida ifodalanadi.

Indikativ kayfiyatning shakllari gapni real kategoriyaga bogʻlaydi, subyunktiv (shartli, kerakli, ragʻbatlantiruvchi, majburiy) mayl esa gapni kerakli, talab yoki zaruriy tekislikka bildiradi.

Maqsad va vazifa. Tadqiqotning maqsadi Xitoy taʼlim muassasalari tomonidan tuzilgan taʼlim shiorlarini leksik-semantik tasnif etishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Tanlab olingan daʼvat etuvchi taʼlim shiorlaridagi feʼllarning mayllik kategoriyasi turlarini aniqlash.

2. Olib borilgan tahlilga koʻra taʼlim muassasalari tomonidan tuzilgan daʼvat etuvchi taʼlim shiorlaridagi feʼllarning mayllik kategoriyasi modallikni ifodalovchi grammatik kategoriyalar foiz koʻrsatkichini aniqlash;

3. Olib borilgan tahlil natijalariga koʻra ilmiy xulosa berish.

Usullar. Toʻplangan materiallarning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib struktur tahlil, leksik-semantik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Erishilgan natijalar. Feʼning mayllik kategoriyasi modallikni ifodalovchi grammatik kategoriyadir. Quyidagi mayllik turlari mavjud:

1. *Indikativ* (lot. *modus indicativus*) – bunda feʼl pozitsiyasi reallikni ifoda etgan holda, ish-harakat oʻtgan zamonda yoki hozirgi zamonda yuz beradi va bu qolgan mayl shakllarga qarama-qarshi hisoblanib, obyektiv modallikni bayon etib keladi.

奋笔疾书，改写人生篇章

挑灯夜读，铸造金色辉煌

[fèn bǐ jíshū, gǎixiě rénshēng piānzhāng
tiǎodēng yè dú, zhùzào jīnsè huīhuáng]

Yozishga intiling, hayot

boblarini qayta yozing, tunda

*oʻqish uchun chiroq yoqing, toki u
oltin nur sochsini.*

Bu shiorda bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart boʻlgan harakat va holatni bildirgan feʼl shakli yaʼni shart mayli shakli mavjud. Bu taʼlim shiori ham daʼvat etuvchi shiorlar guruhiga mansub boʻlib, feʼning orttirma nisbat, buyruq-istak mayl, II shaxs-son shaklida tuzilgan.

滴水穿石战高考，如歌岁月应无悔，
乘风破浪展雄才，折桂蟾宫当有时！

[Dīshuǐchuānshí zhàn gāokǎo, rú gē
suìyuè yīng wú huǐ, chéngfēngpòlàng
zhǎnxióng cái, zhé guì chángōng dāng
yǒushí].

Toshga tomchilayotgan suv toshni

tomchi-tomchi yemirgani kabi,

universitetga kirish imtihoniga

*tayyorlanayotgan oʻquvchi ham asta-
astalik bilan bu kurashlarda oʻz
qoʻrquvini yengib oʻtadi!*



Morfologik mayl shakllarining har biri umumiy va xususiy ma'noga ega. Indikativ - bu sodir bo'lgan, sodir bo'layotgan yoki sodir bo'ladigan ish-harakatni real, deb ifodalash.

1) *tasdiqlovchi yoki inkor real modallik;*

把握现在就是创造未来

[bǎwò xiànzài jiùshì

chuàngzào wèilái]

高三高考高目标 苦学善学上好
学 [gāosān gāokǎo gāo mùbiāo kǔxué
shàn xué shàng hàoxué]

Hozirgi zamonni anglash kelajakni yaratish demakdir.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlaridan ko'zlangan yuksak maqsad – astoydil va qunt bilan o'qishdir.

2) *gapda modal so'zlar, ayrim bog'lovchi va ergash gaplar ishtirok etganda ifodalanadigan subyektiv-baho modallik;*

命运是选避者的階口，

运气是奋斗者的嫌群

[mìngyùn shì xuǎn bì zhě de jiē

kǒu, yùnqì shì fèndòu zhě de xián qún]

Taqdir – qochishni tanlaganlar toifasi, omad – intilganlar sinfidir.

辛苦三年，幸福一生
[xīnkǔ sān nián, xìngfú yīshēng]

Uch yillik mashaqqatli mehnat va kelajakda baxtli hayot.

2. *Subyunktiv* – bunda fe'l shakli noreal pozitsiyada bo'lib, fe'ning indikativ shakliga opponent bo'ladi va ish-harakat kelasi zamonda bajariladi va uning semantik kategoriyasi subyektiv modallikka mansub hisoblanadi.

Subyunktiv (lot. *modus conjunctivus* yoki *modus subjunctivus*) subyektiv munosabat orqali mumkin bo'lgan, taxminiy, orzu qilingan yoki tavsiflangan narsalarni ifodalaydi. Subyunktiv *ergash* gapni bosh gapga bog'lovchilardan bo'lib, so'zlovchining harakatga munosabatini bildiradi. U mumkin bo'lgan, taxmin qilingan, orzu qilingan yoki tasvirlangan hodisani ifodalaydi.

Subyunktiv–bu zamon emas, balki fe'ning kayfiyati. O'z munosabatini, his-tuyg'ularini, shubhalarini, istaklarini va imkoniyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi; ishonch va faktlar bayoni bundan mustasno – bu holda u endi subjunktiv emas, balki *indikativ* bo'ladi. O'z ma'nosiga ko'ra, buyruq mayli va kelasi zamon ko'rsatkichiga yaqin bo'ladi. U so'zlovchining irodasini, ko'pincha talabini ifodalashi bilan orzu qilingandan farq qiladi, orzu esa faqat uning xohishini ifodalaydi. Ko'mak mayli buyruq maylidan, amalga oshirilishi muayyan holatlarga bog'liq bo'lgan niyatni ifodalashi va kelasi zamonning ko'rsatkich maylidan asosan so'zlovchining niyatini, irodasini bildirishi bilan farqlanadi.

走过高考，前面是一片新天地

Universitetga kirish imtihonlarini topshirgandan so'ng, oldinda yangi



[zǒuguò gāokǎo, qián miàn
shì yīpiàn xīn tiān dì]

saboqlar kutmoqda.

Kelasi zamonning indikativ mayli asosan ish-harakatning bashoratligini ifodalaydi. Biroq, ba'zan to'ldiruvchi mayl kelasi zamonning ko'rsatkich mayli ma'nosida ham bo'lishi mumkin.

做一题会一题，一题决定命运
[zuò yī tí huì yī tí, yī tí juéding
mìngyùn]

*Bitta test savolini yecha, sen yana
bir karra bilim orttirasan, chunki bitta
savol ham sening taqdiringni hal etishi
mumkin.*

Shunga ko'ra, subyunktiv maylning ikki turi farqlanadi: iroda yoki istak subyunktiv mayli (*modus conjunctivus volitivus*) va oldindan ko'ra bilishning subyunktiv mayli (*modus conjunctivus prospectivus*). Birinchisi, aftidan, buyruq mayli kabi, birinchi navbatda, faqat ijobiy gaplarda ishlatilgan.

3. *Konditsionalis* – shartli kayfiyat (lot. *modus conditionalis*) – ma'lum bir sharoitda orzu qilingan harakatlarni bildiruvchi kayfiyat, vaziyatga qarab taklif yoki mumkin bo'lgan harakatni ifodalaydi.

拼一分高一分，
一分成就终生
[pīn yī fēn gāo yī fēn,
yī fēn chéngjiù zhōngshēng].

*Agar siz bir ball uchun ham
kurashsangiz, bir ball sizning
orzularingizga yana bir qadam olib
borar.*

不赢高考非英雄，
挥泪洒血誓成功
[bù yíng gāokǎo fēi yīngxióng,
huī lèi sǎ xuè shì chénggōng]

*Agar siz kollejga kirish imtihonida
g'olib bo'lmasangiz, siz qahramon
emassiz, ko'z yosh va qon to'kib
muvaffaqiyatga qasamyod qilasiz.*

4. *Optativ* (lot. *modus optativus*) – so'zlovchining (ozmi-ko'pmi qat'iy) istagining ifodasi sifati; optativ semantika baholash va noreallik ma'nolarini birlashtiriladi; bu istakning semantik zonasi bo'lib, u ma'lum ma'noda markaziy modal ma'nodir.

愿我们的梦想永不落空!
[yuàn wǒmen de mèngxiǎng
yǒng bù luòkōng]

Orzularimiz doimo amalga oshsin!



Optativ kayfiyatda turgan fe'l majburiyat va imkoniyatdan farqli ravishda istakni vaziyatning predmetiga ham "istaydi" ham, so'zlovchiga ham "istayman" nisbat berish mumkin; ikkinchi holda, biz odatda, grammatiklashuvning kuchayishi sifatida qaraladigan "loktiv bo'lmagan" modallikdan "lokatsiyaviy"ga o'tadi. Niyat ko'rsatkichlari, shuningdek, istak ko'rsatkichlari o'z semantikasida noreal va real soha o'rtasida oraliq bo'lib, bu xususiyat Xitoy ta'lim shiorlarida ham qo'llaniladi.

5. *Imperativ* (lot. *modus imperativus*) – irodani (buyruq, iltimos yoki maslahat) ifodalovchi fe'lning kayfiyat shakli. Agar optativ so'zlovchining xohish-istagini, ta'bir joiz bo'lsa, sof shaklda ifodalasa, buyruq gap istak ifodasini induksiya ifodasi bilan birlashtiradi: buyruq so'z shaklini talaffuz qilishning o'zi so'zlovchining murojaat etuvchini o'ziga jalb qilishga urinishidir.

Imperativ – lingvistik iboraning talaffuzi ma'lumotni yetkazishdan tashqari, qandaydir boshqa vazifaga ega bo'lishining bir misolidir; boshqacha aytganda, bu holda lisoniy ifodaning aytilishi (noverbal) harakatga teng. Ushbu turdagi lingvistik hodisalar tilni o'rganishga "pragmatik davr" boshlangandan so'ng, A. Jeykobson va A. Benveniste ishlari bilan ajralib turadigan tilshunoslar orasida qiziqish uyg'otdi. Motivlardan tashqari (istak modalligini ifodalash bilan bog'liq) va'dalar, bayonotlar bo'lgan nutqiy harakatlar mavjud.

Motivatsiyani ifodalashning rasmiy va g'ayratli vositasi sifatida imperativ doirasida ko'plab kichik turlar mavjud. Motivatsiya turlari, birinchidan, so'zlovchining so'rov, maslahat, taklif, talab yoki biror harakatni amalga oshirish uchun ruxsat berishi va hokazolarga qarab kategoriyalilik darajasida farqlanadi. Ko'pgina tillarda bu ma'nolar turli morfologik ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin. Prototip imperativi A harakatning kelajakdagi bajaruvchisi so'zlovchining bevosita adresati, ya'ni ikkinchi shaxs ekanligini taxmin qiladi. Biroq, har xil turdagi "aralash" (yoki noto'g'ri) motivlar ham mumkin, ular birinchi yoki uchinchi shaxsga qaratilgan.

两眼一睁，开始竞争
[liǎng yǎn yī zhēng,
kǎi shǐ jìng zhēng]

*Ko'zlaringizni oching va raqobatni
boshlang.*

Bu ta'lim shiori da'vat etuvchi shiorlar guruhiga mansub bo'lib, fe'lning orttirma nisbat, buyruq-istak mayl, II shaxs-son shaklida tuzilingan. Shiordan maqsad A — o'quvchilarni B – ta'lim olishga targ'ib, ya'ni shior orqali da'vat etish matni shakllantirilgan.

脚踏实地，心无旁骛，珍惜分分秒秒

Osmonlarda uchmay, diqqatni



[jiǎotàshídì, xīnwúpángwù,
zhēnxī fēn fēn miǎo miǎo]

*jamlang va har bir soniyani
qadrlang.*

Bu ta'lim shiori ham da'vat etuvchi shiorlar guruhiga mansub bo'lib, fe'lining orttirma nisbat, buyruq-istak mayl, II shaxs-son shaklida tuzilgan. Ushbu misolda, "jamlang", "qadrlang" imperativ shaklda bo'lib, subyektni ma'lum bir harakatga chorlamoqda, bu konstruksiyada harakatni da'vat etuvchi va harakatni bajaruvchi obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabat shaklini ko'rish mumkin. 珍惜分分秒秒 birikmasi da'vat etuvchi semantikani ifodalaydi. II shaxs-son birlik inkor fe'lining ko'rsatkichi shaklida yasalishi. hozirg kelasi zamon 心无旁骛 birikmasi esa ish-harakatni taqiqlash semantikasini o'z ichiga oladi.

遇难心不慌， 寓易心更细
[yùnnàn xīn bù huāng, yù yì xīn gèng xì]

*Qiyinchiliklardan aslo qo'rqmang,
doimo shay holatda bo'ling.*

Bu ta'lim shiori ham da'vat etuvchi shiorlar guruhiga mansub bo'lib, kirish imtihonlariga qaratilgandir. Bu yerda shiorning asosiy vazifasi shaylikka va imtihonlardan qo'rqmaslikka da'vat etish, shiorda ikki fe'l buyruq-istak mayl, II shaxs-son shaklida kelgan bo'lib, buyruq gap shaklida kelgan. 寓易心更细 birikmasi da'vat etuvchi semantikani ifodalaydi.

别骂了， 别骂了我们一定上重本
! [Bié màle, bié màle
wǒmen yīdìng shàng zhòng běn].

*Urishma, hech ham noshud bo'lma,
asosiy masalaga e'tibor qarat!*

Adresat tomonidan kelasi zamon birligining II shaxs-son va 别– inkor operator bilan birgalikda qo'llash orqali imperativ tUSDagi shior hosil bo'lmoqda. Kontekstdan kelib chiqqan holda, o'zingni urishib, noshud bo'lma, diqqatingni kirish imtihoniga qarat, degan ma'no hosil bo'lmoqda. II shaxs-son birlik inkor fe'lining ko'rsatkichi shaklida yasalishi. hozirgi kelasi zamon 别骂了 ish-harakatni taqiqlash semantikasini o'z ichiga oladi.

今日学习不努力明日村口卖洋芋!
[Jīnrì xuéxí bù nǔlì míngri cūnkǒu mài
yángyù]

*Bugun o'qimasang,
ertaga qishlog'ingda shirin
kartoshka sotasan!*

Bu shiorda bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni bildirgan fe'l shakli, ya'ni shart mayli shakli, kelasi zamon birligining II shaxs-son shakli mavjud. Kontekstdan kelib chiqqan holda,



bu yerda 学习不努力 birikmasi orqali diqqatingni kirish imtihoniga qarat degan ma'no hosil bo'lmoqda.

十年一搏六月梦，
赢得寒窗锦绣程
[shí nián yī bó liù yuè mèng,
yíngdé hánchuāng jǐnxiù chéng].

*O'n yillik saboqlardan so'ng, kirish
imtihonlarida talaba bo'lmoq uchun
harakat qiling va kelajak sari olg'a
yuring.*

Bu ta'lim shiori ham da'vat etuvchi shiorlar guruhiga mansub bo'lib, fe'ning ortirma nisbat, buyruq-istak mayl, II shaxs-son shaklida tuzilgan. Ushbu misolda, "harakat qiling", "olg'a yuring" birikmalari fe'ning imperativ shaklida bo'lib, subyekt obyektini ma'lum bir harakatga chorlamoqda, bu konstruksiyada harakat istak-mayl shaklda amalga oshirilmogda. 赢得寒窗锦绣程 II shaxs-son birlik fe'lining ko'rsatkichi shaklida h. kelasi zamon birikmasi sifatida da'vat etuvchi shior ko'rinishida yasalmogda.

6. *Yussiv* (nem. *Jussive*) – III shaxsga qaratilgan motivatsiyaning bilvosita shaklini (buyurtma, so'rov) ifodalovchi fe'ning kayfiyati. Bu buyruq gapdan II emas, balki III shaxsga qaratilganligi bilan farq qiladi.

放飞你的心灵，播撒你的希望！
[Fàngfēi nǐ de xīnlíng,
bōsǎ nǐ de xīwàng]

*Yosh qalbingiz parvoz
qilsin, umid urug'larini seping!*

勇往直前无悔青春
[yǒng wǎng zhíqián
wú huǐ qīngchūn]

*Afsuslarsiz o'quvchi
paytingiz o'tsin.*

7. *Gortativ* (ingliz. *hortative*, lot. *hortatus*, ragbatlantirish, ma'qullash fe'lidan olingan qism) – fe'l kayfiyatning bir turi, buyruq fe'li paradigmasining a'zosi. Gortativ so'zlovchi tomonidan ma'lum bir vaziyatni amalga oshirish istagini bildirish uchun ishlatiladi, bu vaziyatni anglash jarayonida so'zlovchi va qabul qiluvchining bevosita ishtirokini anglatadi. Bu ma'noni ifodalash uchun gortativ, qo'shimcha ma'nolardan ham foydalanish mumkin (ba'zan ularga boshqa qo'shni ma'nolar ham qo'shiladi). Modallik tadqiqotchilarining ishlarida "gortativ" atamasidan foydalanishning bir necha xil usullari mavjud. J.Saddok va A.Zviki buyruq gapning I va III shaxslarini gortativ deb atashadi. J. Baybi imperativ va gortativni turli kategoriyalar deb hisoblaydi va birlik / ko'plik bilan bog'laydi. Eng o'ziga xos tizimdan keyin V.A. Plungyan turadi, u buyruq yasovchi konstruksiyalarni ifodalash uchun 3 xil atamani qo'llaydi: I shaxs uchun "gortativ", II shaxs uchun to'g'ri "imperativ" va III shaxs uchun "yussiv".



奋战一百天，必过本科关
[Fènzhàn yībǎi tiān, bìguò běnkē
guān]

*Yuz kun davomidagi
mashaqqatlardan so‘ng, biz talabalik
maqomiga erishamiz.*

血拼一百天 杀进重点线
[xuè pīn yībǎi tiān shā
jìn zhòngdiǎn xiàn]

*Asosiy maqsadga erishish uchun
100 kun davomida mashq qilamiz.*

8. *Inyunktiv* – “*buyruq*” – bu kayfiyat, masalan, sanskrit kabi qadimgi hind-evropa tillarida, unda ikkilamchi shaxs tugunlari mavjud va shakllanishi fe’l zamonlariga o‘xshash – aorist va nomukammal. Biroq buyruq gapda ko‘paytiruvchi bo‘lmagan uchun u o‘tgan zamon qiymatiga ega emas. Funktsional jihatdan subyunktiv (tobe) va imperativ (buyruq) bilan solishtiriladi.

年少心气冲九州 矢志百日起扶摇
! [niánshào xīnqì chōng
jiǔzhōu shǐzhì bǎi rì qǐ fúyáo]

*Talaba bo‘lish ishtiyoqi ila har kun
erta barvaqt turib, bilim olishga va‘da
beraman!*

天空飘来五个字，高考不是事！
[tiānkōng piāo lái wǔ gè zì,
gāokǎo bùshì shì].

*Beshta so‘z: “men kirish
imtixonidan a‘lo o‘taman”!*

9. *Prohibitiv* (lot. prohibitiō, *taqiqlash*) inkor qilingan buyruq maylining belgilanishi bo‘lib, uning pragmatik ma‘nosi taqiqlash, “*salbiy buyruq*” ifodasida yotadi. Shunga ko‘ra, tabiiy tillardagi imperativning og‘zaki paradigmasining tuzilishi harakatga taklif ko‘rsatkichlari (gortativlar) va bilvosita motivatsiya ko‘rsatkichlari (yussiv) buyruqning o‘zi asosida morfologik shakllangan deb talqin qilinishiga qarab farqlanadi. Ifodasi jihatidan taqiqlovchining morfologik (affiks) va nomorfologik (analitik) ko‘rsatkichlari farqlanadi.

不像角马一样落后，
就像野狗一样战斗！
[bù xiàng jiǎo mǎ yīyàng luòhòu,
jiù xiàng yě gǒu yīyàng zhàndòu]

*O‘z maqsading sari olg‘a davvom
yur, hech ham ortda qolib nadomatga
uchrama!*

遇难心不慌，遇易心更细！
[yùnnàn xīn bù huāng,
yù yì xīn gèng xì]

*Ko‘p ham vahilanma lekin
qiyinchilikka duch kela hushyorlikni
unutma!*

Xitoy ta‘lim muassasalari tomonidan o‘quvchilarni ma‘lum bir maqsad sari da‘vat etish uslubi hozirda sermahsul hisoblanadi. Biz ushbu maqolamizda Xitoy ta‘lim



muassasalari tomonidan tuzilgan shiorlarga tayangan holda ba'zi da'vat etuvchi ta'lim shiorlarini tanlab oldik va ularning struktur xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Xitoy ta'lim shiorlarini struktur tahlil etishning ikki xil usuli mavjud bo'lib, birisi shiorlardagi so'z birikmalarini sintaktik tahlil etish bilan bo'lsa, ikkinchi usul undan farqli o'laroq, shiorlardagi har bir ieroglifni morfologik tahlil etish bilan amalga oshiriladi. Agar biz ikkinchi usul bilan Xitoy ta'lim shiorlarini tadqiq etadigan bo'lsak, pastdagi misol kabi amalga oshiriladi.

So'z birikmasining mohiyatini sintaktik nuqtai nazardan talqin qilish o'zining qadimiy traditsiyasiga ega. Sintaktik nazariyalarning rivojlanishi protsessida bu yo'nalishning nazariy asoslari asta-sekin o'z mavqeyini mustahkamlamoqda va qaror toptirmoqda. So'z birikmasini gap tuzilishidan, kommunikativ jarayondan ajratib qarash uning funksiyasini noto'g'ri tushuntirishga olib kelishi mumkin. Chunki har bir so'z birikmasi fikrning to'g'ri amalga oshirilishi va aloqa aktining kommunikativ situatsiyasiga mos bo'lishi uchun faqat o'sha gap tarkibidagina mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham so'z birikmalarini tilning nominativ birligi hisoblangan so'z bilan bir qatorga qo'yib, gapdan tashqarida ham mavjud bo'ldi deyish, so'z birikmasining tabiatiga unchalik mos kelmaydi.

Xitoy ta'lim shiorlarini struktur tahlil etishning ikki xil usuli mavjud bo'lib, birisi shiorlardagi so'z birikmalarini sintaktik tahlil etish bilan bo'lsa, ikkinchi usul undan farqli o'laroq shiorlardagi har bir ieroglifni morfologik tahlil etish bilan amalga oshiriladi. Agar biz ikkinchi usul bilan Xitoy ta'lim shiorlarini tadqiq etadigan bo'lsak, pastdagi misol kabi amalga oshiriladi.

不学习，如何养活你的众多女人？ [Bù xuéxí, rúhé yǎnghuo nǐ de zhòngduō nǚrén] O'qimay, qanday boqasan o'z yaqinlaringni?



¹ A uch B to'rt: A va B yana va yana bo'lishini ko'rsatadi.

² A uch B to'rt: iteratsiya – lingvistik kategoriya sanalib, u so'zlarni yagona kommunikativ birlikka bog'lash imkonini beradi.



养活 *yǎng huó*; soʻz yasalishi (ikki oʻzakli qoʻshma soʻz): 养 boqmoq + 活 yashamoq;

Polisemantik soʻz 1) taʻmin-q (oila) 2) asramoq (hay.) 3) boqmoq (bola);

Omofon - 炀火 yáng huǒ; 羊甌 yáng huò; 羊祸 yáng huò;

活 (yordamchi-bogʻlangan morfema) sifat – jonli; feʻl – yash-q; ot – hayot;

养 (oʻzak-erkin morfema) feʻl – boqmoq, tugʻmoq, tarbiyalamoq; ot – ozuqa;

bu ieroglif yana 养 – yarim affiksial morfema sifatida ham ishlatiladi, bunda soʻz yasashda hayvon va turkum morfemalar bilan qoʻshilib, biror narsani koʻpaytirish boʻyicha mutaxassis yoki mutaxassislikni bildiruvchi qoʻshma otlar yasaydi: 养+马+家= otboqar; Demak, 养活 ifoda etilishiga koʻra, ikki komponentdan tashkil topgan, maʼno jihatiga koʻra erkin va bogʻlangan ikki morfemadan iborat soʻz.

学习 *xuéxí*; Soʻz yasalishi (ikkita bogʻlangan morfema): 学 oʻqimoq + 习 mashq q-q;

feʻl) oʻrganmoq; ot) taʻlim

Omofon - 雪溪 xuě xī; 穴隙 xué xì; 血洗 xuèxǐ

习 (yordamchi-bogʻlangan morfema) feʻl) mashq q-q; ot) odat;

学 (bogʻlangan morfema) feʻl) boqmoq, tugʻmoq, tarbiyalamoq; ot) ozuqa;

bu komponent ham yarim affiksial morfema sifatida ishlatiladi, ot soʻz turkumiga mansub soʻzlarga qoʻshilib, fan nomlarini (数学 shùxué - matematika, 物理学 wùlixué - fizika...) yasaydi va -logiya boʻlib qoʻshilib, (社会学 shèhuìxué – sotsiologiya, 心理学 xīnlǐxué - psixologiya...) kabi soʻzlarni ham yasaydi.

Xulosa. Feʻlning mayllik kategoriyasi modallikni ifodalovchi grammatik kategoriyadir. Quyidagi mayllik turlari mavjud:

1. Indikativ;

– tasdiqlovchi yoki inkor real modallik;

– gapda modal soʻzlar, zarrachalar, ayrim bogʻlovchi va ergash gaplar;

– ishtirok etganda ifodalanadigan subyektiv-baho modallik.

2. Subyunktiv; 3. Konditsionalis; 4. Optativ; 5. Imperativ; 6. Yussiv;

7. Gortativ; 8. Inyunktiv; 9. Proxibitiv.



Ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan da'vat etuvchi ta'lim shiorlarining modallik foizi ko'rsatkichi

| <i>Ta'lim shiorlar</i> | <i>Indikativ</i> | <i>Sub-yunktiv</i> | <i>Kondit-sionalis</i> | <i>Optativ</i> | <i>Imperativ</i> | <i>Yussiv</i> | <i>Gortativ</i> | <i>Inyunktiv</i> | <i>Proxibitiv</i> |
|------------------------|------------------|--------------------|------------------------|----------------|------------------|---------------|-----------------|------------------|-------------------|
| <i>Soni</i> | 26 | 2 | 3 | 2 | 48 | 6 | 4 | 6 | 4 |
| <i>Foiz</i> | 26% | 2% | 3% | 2% | 48% | 6% | 4% | 6% | 4% |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov, A. A. (2022). The Problem of The Grammatical Category of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 226–229.
2. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 76–81.
3. Каримов А.А. Выявление исконных и приобретенных значений иероглифов 念, 讀, 看 (сравнительный анализ японского и китайского языков). // *Материалы международной конференции по японоведению. Цукуба.Ташкент.*, 2020
4. Панфилов В.З. Категория модальности и ее роль в конструировании структуры предложения и суждения / В. З. Панфилов. – М., 1977. – С. 40–41. // Panfilov V.3. Modallik kategoriyasi va uning gap va hukm tuzilishining qurishdagi roli / V.Z. Panfilov. – М., 1977. – В. 40–41.
5. Виноградов В. В. О категории модальности и модальных словах в русском языке / В. В. Виноградов // *Избранные труды. Исследование по русской грамматике.* – М.: “Наука”, 1975. – С. 56. // Vinogradov V. V. Rus tilidagi modallik va modal so'zlar kategoriyasi haqida / V. V. Vinogradov // *Tanlangan asarlar. Rus tili grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar.* – М.: “Nauka”, 1975.
6. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов / О. С. Ахманова. – Изд. 2-е. – М.: “Советская энциклопедия”, 1969. – 608 с. – С. 237. // Axmanova O. S. Tilshunoslik terminlari lug'ati / O. S. Axmanova. – Ed. 2. – М.: Sovet Entsiklopediyasi, 1969. – 608 b. – В. 237.
7. Алсынбаева Р.Г. Логическая и лингвистическая сущность категории модальности / Р.Г. Алсынбаева // *Вестник Башкирского университета.* – 2013. – Т. 18, No1. – С. 181–184. // Alsinbayeva R.G. Modallik kategoriyasining mantiqiy va lingvistik mohiyati / R.G. Alsinboeva // *Boshqird universitetining xabarnomasi.* – 2013. Т. 18, No1. – S. 181–184.



MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //
 ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ТЕКСТОЛОГИЯ //
 SOURCE STUDY AND TEXTOLOGY

KARIMOV AKRAMJON

Professor, f.f.n., TDSHU

Xitoyning amaliy san'ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari

Annotatsiya. *Shu vaqtgacha dzyandji san'at turi haqida O'zbekistonda xech qanaqa ma'lumot taqdim etilmagan va tadqiq ishlari ham o'tkazilmagan. Maqolamizning maqsadi aynan shu kamchilikni bataraf etishga qaratilgan. Bu san'at turining kelib chiqishi insonlarni o'z yashaydigan joylarni bezash va bayramona kayfiyat o'yg'otish ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lishi kerak.*

Dzyandji san'ati—bu an'anaviy qog'oz kesish san'ati, u mashhur qadimgi xalq hunarmandchiliklaridan biri, shuningdek, Xitoyning eng o'ziga xos san'at turi hisoblanadi.

Kalit so'z va birikmalar: *Xitoyning amaliy san'ati, dzyandji – xitoyning amaliy san'at turlaridan biri, qog'ozdan ornament qirg'ish san'ati, shimoliy Xitoy xududlari, deraza, eshik va devorlarga yopishtiriladigan dzyandjilar.*

Abstract. *The article by Professor Akramdzhon Karimov, "Features of the applied art of China - Jiangzhi," considers the spread of Jiangzhi art in the northern provinces of the PRC. It must be admitted that, unlike the traditional arts of guohua, porcelain making, earthenware and embroidery, we are very poorly informed about the art of jiangzhi. Current article reveals the features of the art of cutting out various ornaments, mythical heroes and beneficial hieroglyphs from paper in the northern provinces of China.*

The author describes in detail what these features are and how they differ from each other. At the end, the author makes a conclusion and points out the need for further study of the Jiangzhi art of the southern regions of China. The article is written in Uzbek.

Keywords and expressions: *applied art of China, jiangzhi - the art of cutting on paper, northern provinces of China. window, door and wall ornaments.*

Аннотация. *Статья профессора Акрамджана Каримова "Особенности прикладного искусства Китая – цзянчжи" рассматривает распространение искусства цзянчжи в северных провинциях КНР. Надо признать, что в отличие от традиционных искусств гуогуа, изготовления фарфора, фаянсовых изделий и вышивки, об искусстве цзянчжи мы осведомлены очень плохо. Данная статья раскрывает особенности искусства вырезания из бумаги различных орнаментов, мифических героев и благоприятных иероглифов в северных провинциях Китая. Автор подробно описывает уникальные черты этого искусства, а также их отличия друг от друга. В заключительной части статьи автор подчеркивает необходимость дальнейшего изучения искусства цзянчжи в южных районах Китая. Статья написана на узбекском языке.*



Ключевые слова: прикладное искусство Китая, цзянчжи – искусство вырезания на бумаге, северные провинции Китая. оконные, дверные и стенные орнаменты.

Kirish. O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosobatlarning rivojlanishida ikki xalq madaniyatini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Shu sababli har safar davlat rahbarlari tashrif buyurishdan avval madaniyat kunlari o‘tkaziladi. Bunda nafaqat shu xalqlarning ashula va raqslari, balki adabiyot va o‘ziga xos san‘at turlari namoyon etiladi. Xitoy millatining o‘ziga xos san‘at turlaridan biri–bu dzyandji san‘atidir. 剪纸 (dzyandji) – qog‘oz kesish bo‘yicha Xitoyning an‘anaviy xalq amaliy san‘ati hisoblanadi va YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi nafaqat qadimgi tarix egasi, balki amaliy san‘atning bir qancha turlariga ega. Shularning ichida tasviriy san‘at – guoxua, farfor buyumlarini ishlab chiqarish san‘ati, shoyi matolarda kashtachilik san‘ati va shu kabilar haqida O‘zbekistonda ma‘lumot bor. Biroq, yana bitta Xitoy amaliy san‘atining ko‘zga tashlanuvchi, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan nafis turlaridan biri bu 剪纸 (dzyandji) – qog‘oz kesish san‘atidir. O‘zbek mutaxassislari bu san‘at turi haqida juda kam ma‘lumotga egadirlar. Shu sababli dzyandji san‘ati haqida bosqichma–bosqich ma‘lumot berish dolzarb masalalardan biridir.

Dzyandji san‘atiga doir ilmiy adabiyotlar uncha ko‘p emas. Asosan xitoy tilida, shulardan Mao I ning “Dzyandji” (2012) kitobi¹. U umumiy ma‘lumot berishga qaratilgan bo‘lib, o‘z ichiga dzyandji san‘atining qisqacha kelib chiqish tarixi, turlari va hozirgi rivojlanish yo‘nalishlari haqida ma‘lumot beradi.

Dzin Xelinning “Men bilgan, Xitoyning an‘anaviy qog‘ozdan qirqish san‘ati” maqolasi² ham informatsion shaklda yozilgan bo‘lib o‘ziga xos ma‘lumotlarni berishi mumkin. Bundan tashqari Van An kan, An Nivarlarning maqolalari ham dzyandji san‘ati tarixiga, arxeologik topilmalariga va folklardagi o‘rniga bag‘ishlagan ma‘lumotlarni beradi. U Li-xua hamda Li Syao-yanlarning maqolalari dzyandji namunalari rining shakli, turlari va estetik nuqtayi nazardan yozilgan maqolalar bo‘lib, dzyandji san‘ati haqida umumiy tasavvur hosil qilishga qaratilgan.

Maqsad va vazifalar. Maqolaning asosiy maqsadi Xitoy Xalq Respublikasining an‘anaviy amaliy san‘at turlaridan biri dzyandji haqida umumiy ma‘lumot berish, xususan, uning rivojlanishi qichqacha tarixi va shimoliy hududlarda tarqalishi. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi bir necha vazifalarni yoritishga harakat qilamiz:

- Dzyandji qanday san‘at turi.
- Dzyandjining qisqacha tarixi.
- Shimoliy hududlarda tarqalishi.

Tadqiqot usullari. Maqolani tayyorlash jarayonida biz oldimizga qo‘ygan vazifalarni bajarish uchun quyidagi uslublardan foydalandik. Masalaning qisqacha tarixini

¹ 茅翊. 剪纸. 合肥: 黄山书社, 2012 年

² Цзинь, Хэлинь. Традиционное китайское искусство вырезания из бумаги, которое я знаю / Цзинь Хэлинь // Научно-техническая информация. – 2009. – № 22. – С. 581–590.



o'rganish niyatida, biz **qiyosiy-tarixiy** yondashuv orqali kerakli ma'lumotlarni yig'dik. Ma'lumotlar o'zbek tilida bo'lmaganligi uchun biz xitoy, rus va ingliz tilidagi manbalarni ko'rib chiqishga majbur bo'ldik, shu sababli **tarjima** qilish uslubidan keng foydalandik. Boshqa vazifalarni va masalalarni yoritishda **tahliliy** va **tavsifiy** uslublardan unumli foydalanishga harakat qildik.

Natijalar va mulohazalar. Xitoyliklar qadim zamonlardan beri turli bayramlarda va marosimlarda o'z uylari yoki ish joylarini bezatish maqsadida qog'ozdan turli shakllar kesadilar. Ammo bu geometrik shakl yoki barchamizga ma'lum bo'lgan qor parchasi kabi narsalar emas. Ular oddiy qog'ozdan san'at darajasiga chiqa olgan turli hayvon yoki gul ko'rinishlarini va hatto, iyerogliflarni ham kesishgan.

An'anaviy dzyandji (qog'oz kesish) san'ati – keng tarqagan qadimigi xalq hunarmandchilik sohasidir, shuningdek, Xitoyning eng o'ziga xos san'at turi hisoblanadi. Odamlar ushbu san'at turi bilan eramizdan oldingi IV asrdan boshlab shug'ullanib kelishgan¹.

Qog'oz kesish san'ati dastlab uch sohada keng qo'llanilgan: tasviriy san'atda, dekorativ bezashda va dinlarda. Badiiy qirqimlar kundalik hayotda haliyam keng qo'llaniladi: ularning nafaqat arzonligi va yaxshi ta'sirchanligi, xususan, qishloq sharoitida yashovchi ko'plab ayollarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tqazishiga va o'zi istiqomat qilayotgan sharoitni go'zallashtirishiga sabab bo'layotgani ushbu qirqimlarni yanada mashhur qilib kelgan. Qadimgi Xitoy jamiyati ta'siri ostida qog'oz kesish san'ati har bir qiz o'zlashtirishi lozim bo'lgan hunarmandchilik turi, shuningdek, kelinlar uchun standart talabga aylangan². Shu nuqtayi nazardan, qog'oz kesish san'ati Xitoy folklor san'atining eng o'ziga xos turi hisoblanadi. Haqiqatan ham, qog'oz kesish san'ati xitoy tili va madaniyatiga kuchli hamda uzoq muddatli ta'sir ko'rsatdi: birinchidan, u Xitoy xalqining estetikaga bo'lgan psixologik ehtiyojlarini qondirdi, ikkinchidan, an'anaviy-ma'naviy madaniyatga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, qog'oz kesish xalq san'ati turli shakl va predmetlarni birlashtirib, ideal va betakror tasvirlar yaratishi bilan ham mashhurdir.

Xitoyning qog'oz kesish san'ati tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi va ko'p asrlik tarixga ega. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi yodgorliklar Sinjong-Uyg'ur avtonom rayonining Turfon shahrida topilgan va eramizning 460–yillariga oid deb tahmin qilinadi, ularning tarixi o'z ichiga kamida 1500-yilni oladi³. Ushbu qog'oz parchalari zig'ir qog'ozidan qilingan va qabr buyumlari sifatida ishlatilgan va qurbonlik sifatida xizmat qilgan. Odatda, dafn qilish marosimida ajur texnikasidan foydalangan holda, diametri taxminan 24 sm bo'lgan beshta taxlangan

¹ Цзинь, Хэлинь. Традиционное китайское искусство вырезания из бумаги, которое я знаю / Цзинь Хэлинь // Научно-техническая информация. – 2009. – № 22. – С. 581–590.

² Ван, Анькан. Эстетические особенности фольклорного искусства с точки зрения стиля и форм, вырезанных из бумаги узоров / Ван Анькан // Красота и современность. – 2005. – № 3. – С. 43–44.

³ Ань, Нивар. Обзор вырезок из бумаги, найденных в г. Турфане / Ань Нивар // Синьцзянские региональные хроники. – 2010. – № 3. – С. 59–61.



qog'ozdan qiyilgan qirqimlarni ishlatishgan. Ularda gul va zoomorfik bezaklar ustunlik qilgan, masalan : “Juft kiyik”, “Juft maymunlar», “Xrizantema” va boshqalar.

Ko'pgina qishloq joylarda qog'oz kesish an'anaviy xalq san'ati odamlar uchun juda ko'p ajoyib xotiralarni qoldirgan, ammo jahon iqtisodiy taraqqiyoti va zamonaviy Xitoyning jadal sur'atlarda rivojlanishi oddiy xalq hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'lgan. Qog'oz kesish san'ati shaharlarga kirib borganiidan so'ng, zamon talablari folklor, madaniyat va unga xos bo'lgan xalq hunarmandchiligi san'ati shakllarining rivojlanishi va tarqalishiga to'sqinlik qila boshladi: qirqimlar stili o'ta noziklikka intila boshladi. Vaqt o'tgan sari, odamlarning turmush tarzi va estetik idroki o'zgarib borishi bilan, xalq amaliy san'ati turlari zamon bilan hamnafas bo'la olmay, insonlarning real talablariga javob bera olmadi, ularning o'rni yangi paydo bo'layotgan hodisalar egallay boshladi; shu tariqa zamonaviy qog'oz kesish san'ati dunyoga keldi. Ifoda qilish usullari, madaniy mazmuni, qog'oz kesish xalq san'atining ajoyib g'oyaviy timsoli Xitoy xalqining estetik idrokini aks ettirdi, bu esa, o'z navbatida, zamonaviy tasvir dizaynerlarining e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Bugungi kunga kelib, qog'oz kesish san'ati namunalari zamonaviy dizaynda keng qo'llaniladi: keramika bezashda, interyer dizaynida, dekorativ san'atda, emblema va logotiplar dizaynida, arxitekturada, landshaft dizaynida, qandillar dizaynida, reklamalarda, pochta markalarida va h.k. Badiiy qog'oz qirqimlarini bosma vinetkalarda, komikslarda, dekoratsion atributlarda, kino va televideniye animatsiyalarida ko'plab uchratish mumkin¹.

Qog'oz kesish xalq hunarmandchilik san'ati zamonaviy grafik dizayn sohasi uchun ilhom manbalaridan biri edi va bevosita zamonaviy asarlar yaratishda keng qo'llaniladi. Qog'oz kesish san'at namunalari zamonaviy dizayndagi asarlarga madaniy mazmun baxsh etib, ularga chuqur ma'no yuklaydi, shu bilan birga insonlarga o'z assosiasiyalariga tayangan holda samimiy his-tuyg'ularini his qilishga imkon beradi, fantaziya qilishga undaydi. Qog'oz kesish san'ati nafaqat grafik dizayn ishlarining madaniy ma'nosini boyitadi, balki insonlarning milliy idrokini shakllantirishda ham yordam beradi. Dzyandji namunalari yordamida yaratilgan turli vizual effektlar grafik dizayn asarlarining madaniy ma'nosini boyitadi va ularga o'zgacha mazmun baxsh etadi. Masalan, Xitoy Milliy universiteti (人民大学) tashkil etilganligining 75 yilligi emblemasi (1-rasm) o'zida qog'oz kesish san'ati namunasi bo'lgan naqsh va ba'zi ma'noli elementlarni mujassam etgan: universitet emblemasi, magnoliya gullari va “uzoq umr” ma'nosini anglatuvchi “寿” iyeroglifidan tashkil topgan.

Mahsulot dizayni sohasida ham ko'pincha dzyandjilari-ning asl tasvirlaridan foydalaniladi, masalan, oshxona anjomlarida: oq fonga qizil



¹ У, Лихуа. Применение искусства вырезания из бумаги в дизайне предметов обихода / У Лихуа // Искусство и дизайн (теория). – 2010. – № 10. – С. 174–176.



rangli qog'oz qirqimlari surati tushiriladi va bu holat darhol ko'zga tashlanib, beqiyos vizual ta'sirot qoldiradi.

An'anaviy oshxona anjomlari – kuaydze (ovqat yeydigon cho'plarga 筷子) badiiy ornament bezaklari qo'shilgach, oddiy, ko'rimsiz oshxona anjomlari yangi chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi, ularda madaniy kolorit aks ettirib, ergonomik dizayn effektiga erishiladi.

Dzyandji an'analari kiyim va aksessuarlar dizaynida keng qo'llaniladi. Masalan, yoshlar poyabzali dizaynida – krossovkalar qog'ozdan kesilgan elementlardan foydalaniladi, dastlab oq poyabzalga estetik jihatdan chiroyli bo'lgan qog'oz qirqimlari tasvirlari tushirilgach, ushbu oyoq kiyimlar individual va original dizaynga ega bo'ladi; bezash texnikasi esa an'anaviy san'at jozibasini va milliylikni o'zida jozib qilib, hech qachon urfdan qolmaydi.

Qog'oz kesish san'ati o'z milliy xususiyatlari bilan bizga nafaqat boy yangi badiiy dizayn texnikasini berishi va grafik dizaynni sezilarli darajada boyitishi balki undan ham ko'proq grafik dizaynga asoslangan asarga o'zining jozibador ta'sir kuchini to'liq namoyon etishga, zamonaviy standartlarni oshirishga yordam berishi mumkin. Masalan, dunyoga mashhur Makdonalds brendi uchun xitoylik rassom Li Sin o'ziga xos ekologik paket dizaynini taqdim etgan. Bunda rassom eng oddiy va an'anaviy qirqim tasvirlarini ekologik paketlarga tushirgan. Ushbu usul orqali o'ziga xos marketing strategiyasi ham ishlab chiqilgan: ya'ni bu bilan insonlar Makdonalds mahsulotlarini yaxshi ko'rishlari va o'z milliy qadriyatlarini hurmat qilishlarini o'ziga xos original usul bilan ko'rsatib berishlari mumkin edi. Fikrlash usullarini shakllantirish va grafik dizaynda qabul qilingan texnikalar bevosita an'anaviy san'atning davomi bo'layotgani, albatta, ushbu san'atni sevuvchi qatlamni xursand qiladi.

Xitoyning ko'plab xilma-xil san'at turlari orasida qog'oz kesish xalq hunarmandchilik san'ati ko'p jabhalarda xalq milliy madaniyatining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Qog'oz qirqimlarining o'ziga xos texnik shakllari va tasviriy boyligi zamonaviy dizaynerlar uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai va qo'llanma vazifasini bajaradi. Dizaynerlar ushbu san'at turini puxta o'rganib, o'z asarlarida qog'oz qirqimlariga xos milliy va madaniy mazmunni, ularga xos tasviriy shakl va stilni aks ettirmoqdalar. Zamonaviy qog'oz kesish san'atining rivojlanishidagi asosiy yo'nalish – badiiy qog'oz kesishning an'anaviy shakllarini zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish; an'anaviy uslub xususiyatlarining uzluksizligi va zamonaviy jamiyatning badiiy ehtiyojlariga javob beradigan yangi zamonaviy dizayn uslubini yaratishdir. Xitoy madaniyati ruhi singdirilgan an'anaviy qog'oz kesish san'ati dizayni, uning obrazlari va tasviriy uslublari Xitoy zamonaviy grafik dizayn sohasida keng qo'llaniladi, xususan, poligrafiya, chinni va sopol buyumlar dekoratsiyasi, oyoq kiyim, kiyim-kechak va aksessuarlar dizayni va ko'rgazma san'at obektlari bularga misol bo'la oladi.

Dzyandji san'ati xitoy tarixiy sulolalari kesimida ko'radigan bo'lsak, quyidagilarni aytish mumkin.

Xan sulolasi paytida ipak va qog'oz bir xil maqomga ega bo'lgan, xususan, qadimgi manbalarda quyidagi jumla keladi: 用缣帛者谓之纸 yong jian bo zhi wei zhi



zhi, ya'ni "yupqa ipakdan foydalanadiganlar uni qog'oz deb atashardi" (Fan Yening "Keyingi Xan sulolasi kitobi: Kay Lunning tarixi"), O'sha paytda qog'oz va ipak mato tushunchalari unchalik aniq ajratilmagan edi, chunki oqartirilgan ipak parchalarini ishlab chiqarish o'z takomiliga yetmaguncha Kay Lunda ularni yozish uchun qog'oz sifatida ishlatilgan. Qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasiga kelsak, Dzin sulolasi vakili Gan Bao tomonidan tuzilgan "Sou Shen risolasi" da yozilgan bir afsona bor: Xan sulolasi imperatori Vuning Li xonim ismli juda sevimli kanizagi bor edi, afsuski, Li xonim erta vafot etdi. Xan sulolasi imperatori U juda xafa edi va uni cheksiz sog'inar edi. Li Shao-veng ismli shandunlik olim bor edi, u Li xonimning ruhini qaytarish niyatini qildi. Kyechari janob Li qog'ozdan Li xonimning suratini kesib chiqardi va pardadagi chiroq ustunini yoqdi. U Xan sulolasi imperatori Udan pardaning orqasiga o'tirishni so'radi. Xan sulolasi imperatori U uzoqdan bo'lsa-da, xuddi Li xonimga o'xshagan go'zal ayolni chodirada ko'rdi, lekin unga yaqinlasha olmasdi, bu esa uni yanada qayg'uga soldi va quyidagi she'riy satrlarni yozdi: 是耶非耶, 立面望之, 偏何姗姗其来迟 shi ye fei ye, li mian wang zhi, pian he shanshan qi lai chi. "Ham bor ham, yo'q, oldidan ko'rinar, yondan borsang asta yo'q bo'lar".

Odam shaklini qog'ozdan kesib olish, nafaqat qog'oz kesishning yana bir yo'nalishining kelib chiqishi, balki soya qo'g'irchoq teatrining kelib chiqishi ham deyish mumkin. Garchi bu Tang sulolasining Li Shang-in yozgan "Odamlar xayoti" she'ridagi tarixiy bir afsona bo'lsa-da, taxmin qilish mumkinki, qog'oz kesish Dzin sulolasida paydo bo'lgan

Dzyandji – qog'oz kesish san'ati namunalari avval Xitoyning shimoliy provinsiyalari aholisi orasida paydo bo'lgani haqida xitoy manbalarida ma'lumotlar uchraydi. Shimolda qog'oz kesish san'ati qanday rivojlanganini bilish maqsadida Xebey provinsiyasiga xos ornamentlarga e'tibor berish kerak. Xebey provinsiyasi qog'oz kesmalari turli xil texnikalarning uyg'un kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Chiziqlar mutanosib va ehtiyotkorlik bilan ishlangan, elementlar (masalan, soch va soqol) iloji boricha real tarzda tasvirlangan. Ushbu ornamentlar ularga yanada jozibadorlik baxsh etuvchi tabiiy va yorqin ranglarga bo'yalgan.

Xebey provinsiyasining kesilgan rasmlarini Yuysan okrugining qog'oz bezaklari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu okrug Xebey va Shansi provinsiyalari chegarasida joylashgan bo'lib, to'rt tomondan tog'lar bilan o'ralgan, shuning uchun bu yerda transport kommunikatsiyalari ancha sust rivojlangan. Tashqi dunyo bilan nisbatan kam aloqalar tufayli, Yuysan dzyandji namunalari o'ziga xos uslubni saqlab qolgan. Tumanning qog'oz bezaklari ikki turga bo'linadi: rangli va monoxrom qizil dzyandjilar. Ikkala nav ham derazalardagi stikerlar uchun ishlatiladi.

Yuysan okrugida qog'ozli kesmalarning paydo bo'lishining aniq vaqti noma'lum, ammo ma'lumotlarga ko'ra, Sing sulolasi hukmronligining dastlabki davrlarida (1644–1912) derazalarga yopishtirish uchun qog'oz kesmalarni yasagan hunarmandlar bo'lgan. Yuysan qirqimlarining uslubi o'ziga xosdir va ularni yaratish usuli ham tengsizdir: syuancheng qog'oziga chizilgan nozik rasmlar o'tkir qaychi bilan ehtiyotkorlik bilan kesilgan, shundan so'ng u yorqin ranglarga bo'yalgan. Kesimni yaratishning asosiy algoritmi quyidagicha: tasvirni ishlab chiqish, kuydirish orqali qorong'i



fon yaratish, rasmni kesish va bo'yash. Rang berish eng muhim bosqich bo'lib, unda Yuysan bezaklarining o'ziga xosligi yotadi. Har bir qirqim sharob bilan bo'yalgan o'nlab va hatto yuzlab nozik va yumshoq syuan-cheng qog'ozlaridan iborat. Qo'llaniladigan bo'yoq har bir varaqni to'yindiradi, bu tasvirga o'ziga xos nafasot bag'ishlaydi, shuning uchun ham "o'ttiz foiz ish, yetmish foiz rang" degan naql bor.

Yuysan dzyandjilari juda xilma-xil mavzulari bilan ajralib turadi. Ularda xitoylik opera qahramonlari, gullar va qushlar, hasharotlar va baliqlar, omad keltiradigan ramzlar tasvirlanishi mumkin. Rasmlar shimoliy Xitoy aholisining estetik afzalliklariga mos keladigan dinamik va jozibali xarakter bilan ajralib turadi. Vang Laoshan (1890–1951) ni ko'plab ustalar orasida ajratib ko'rsatish mumkin¹. U Yuysyan qirqish maktabining asoschisi, mingga yaqin asarlar muallifi, ular orasida teatr arboblari obrazlari alohida o'rin tutadi. Muallif qahramonlarning sahnadagi eng ifodali harakati va pozalarini, ularning plastikasini, xarakteri va hissiyotlarini mahorat bilan yetkazgan. Bundan tashqari, Van Laoshan ranglarni mohirlik bilan tanlagan, ochiq va quyuyq ranglarni yonma-yon joylashtirish, rang kontrastlarini yaratish texnikasini mukammal egallagan, bu esa kompozitsiyaning yaxlitligi va ranglar palitrasining boyligini bergan. O'ymakorlik texnikasini yaxshilash uchun Vang Laoshan o'zi an'anaviy pichoqlarni yaxshilagan holda ko'plab chisellar yasadi, shuning uchun uning ba'zi pichoqlari juda g'alati shaklga ega edi. U qog'oz kesish san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va xarakterli Yuysan bezaklarini ishlab chiqarishning asoschisi bo'ldi. Hozirgi vaqtda Yuysan qirqishlari AQSH, Yaponiya, Kanada, Singapur va boshqa mamlakatlarga keng eksport qilinmoqda va Xitoyda ham, undan tashqarida ham katta talabga ega². 2006 yil 20 mayda Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Yuysan dzyandji namunalarini milliy ahamiyatga ega bo'lgan 1-toifali nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritdi.

Shansi provinsiyasining xalq hunarmandchiligi, xususan, qog'oz kesish san'ati odamlarning turmush tarzidan ajralmas bo'lib, bayramlar, to'ylar, dafn marosimlari va boshqa xalq urf-odatlari va an'analari bilan uzviy bog'liqdir, ular hayotni tasdiqlovchi kuchli ta'sirga ega va odamlarning kundalik hayotini yanada rang-barang qiladi. Shansi dzyandji namunalarining ifodaliligiga viloyat aholisining zukko va quvnoq tabiati ta'sir ko'rsatgan; umuman olganda, ularning uslubiga qahramonlik, ixchamlik va soddalik xosdir. Biroq, turli mintaqalar aholisining tabiiy sharoiti, urf-odatlari va estetik qarashlari turlicha bo'lganligi sababli, viloyatdagi qog'oz bezaklari biroz farq qiladi. Shansi provinsiyasining shimoliy qismidagi qog'oz kesish san'ati namunalariga ehtiyotkorlik va mahorat, janubiy qismida detallarning silliqligi va puxta ishlab chiqilishi, markaziy qismida chiziqlarning yumaloqligi va aniqligi xosdir. Lyulyang okrugi uchun ifodalilik va soddalik, Yanbey mintaqasida esa nafasot va

¹ Djing Vang. Xebey provinsiyasidagi Yuysyan parchalarining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish // Ommaviy san'at va adabiyot. 2016. №5. 135–136-b.

² Dju Keke. Shimoliy va Janubiy Xitoyning qog'oz parchalari o'rtasidagi farqlarni taqqoslash (Yueching va Yuysan okruglari qog'oz parchalari misolida) // Sibiu Piguet. 2020. № 4. 92-b.



ulug'vorlik xarakterlidir. Aytish mumkinki, Shansi qog'oz qirqimlarining durdona asarlari "Xitoy xalq san'atining noyob hunarmandchiligi namunasi" sifatida tanilgan¹.

Guanglinging okrugida 剪纸 san'ati namunalari kashtachilik san'atidan kelib chiqqan. Ular keng mavzular, chuqur mazmun, jonli kompozitsiya, giperbolik tasvir va mahoratli dizayn bilan ajralib turadi. Kesish va bo'yash texnikasi juda original. Har bir ornament rejasini ishlab chiqish, namlash, presslash, quritish, kesish, bo'yash, o'rash, yopishtirish va boshqa shu kabi 38 bosqichdan o'tadi². Oq syuancheng qog'ozi kesish materiali sifatida ishlatiladi. Ish qismiga ko'ra naqsh kesiladi, so'ngra tayyor mahsulot bo'yaladi. Rang berish – kesishni yaratish jarayonida juda muhim bosqich. Bo'yoqni qo'llash jarayonida yuqori sifatli "kaolyan" aroq va oz miqdorda oq vitriol aralashmasi ishlatiladi. Bo'yalgan ish yorqin ranglarga ega bo'ladi va qo'shimcha ravishda uzoqroq saqlanadi.³ 2008 yilda Guanglingingning rangli dzyandjilari ikkinchi guruhning milliy ahamiyatga ega bo'lgan nomoddiy-madaniy merosi ro'yxatiga, 2009 yilda esa YUNESKONing Butunjahon nomoddiy-madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Shensi provinsiyasi qadimgi davrlarda qadimgi Xitoyning Yundjou va Lyandjou kabi hududlarida joylashgan. Bu joylarda afsonaviy Yandi imperatori tug'ilgan va ko'plab Xitoy imperatorlari dafn etilgan. Bu– Xitoy xalqining beshiklaridan biri, qadim zamonlardan beri u Xitoy xalqining siyosiy va madaniy faoliyati markazi bo'lib kelgan, shuning uchun viloyat o'zining yorqin madaniy merosi bilan mashhur. Shensi provinsiyasidan olingan ornamentlar "qadimiy tarix va madaniyat yodgorliklari" deb ataladi, chunki ularda qadimiy bezaklar deyarli buzilmagan holda saqlanib qolgan. Shensi qog'oz kesish san'ati asarlari "Jahon madaniy merosi ob'yekti va Xitoy xalqining xazinasini", "Xitoy san'ati durdonasi" sifatida YUNESKONing Butunjahon nomoddiy-madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan hamda Xitoy tasviriy san'atida muhim o'rin tutadi⁴.

Shensi provinsiyasida dzyandji san'atining tarqalish maydoni juda keng. Qog'oz kesish san'ati namunalari viloyatning janubidagi Xandjung okrugida, Shensi markazidagi Sanyuan, Fuping, Fengsyang tumanlarida, Shensi shimolidagi Dingbyan, Yulin, Midzi, Yan'an, ayniqsa, Sinchuan okrugidagi Loyess platosi va Babaylida ko'rish mumkin. Shensi kesmalari ijro texnikasi jihatidan nihoyatda xilma-xildir: ular orasida monoxromli kesmalar, rangli kollajlar, nuqtali bo'yash texnikasi bilan kesilgan, bo'yoq singdirilgan kesmalar mavjud. Qirqimlardan foydalanish ham juda xilma-xildir: naqshlar derazalarga, fonarlariga, yostiqlarga, poyabzallarga, osilgan pardalarga yopishtiriladi, eshiklarga yopishtiriladigan bezak dekorativ devor ornamentlari sifatida ishlatiladi. Va bu to'liq ro'yxat emas. Dzyandji kesmalari orasida derazalar

¹ Van Syaotsin. Shansi provinsiyasi, Guanglinging okrugidagi xalq qog'oz kesish san'ati namunalari rivojlanishi va badiiy xususiyatlari // Xattotlik, haykaltaroshlik va fotografiya. 2011. № 2., 56–57-b.

² Liang Tang. Shansi provinsiyasi Guanglinging okrugidagi qog'oz parchalarining badiiy o'ziga xosligini o'rganish // Dizayn san'ati. 2012. № 1. 21-b.

³ Vang Fangyuan. Guanglinging okrugidagi kesish san'atining tilshunoslik tadqiqi va qo'llanilishi // Ommaviy san'at va adabiyot. 2019. №2. 77-b.

⁴ Van Syanzi. Shensi provinsiyasi adabiyoti va san'atida qirqishlarning ma'nosi // San'at nazariyasi. 2006. № 1. 52-b.



uchun maxsus stikerlar (naqshlar) eng keng tarqalganlaridandir. Shensi provinsiyasi Loyess platosida joylashgan boʻlib, u yerda togʻlar etagida oʻziga xos binolar qurilgan – kunduzi yorugʻlik uchun maxsus juda katta derazalari boʻlgan yaodung gʻorlaridagi uylardir. Yangi yil va boshqa bayramlarni nishonlash paytida odamlar bu derazalarga oq qogʻoz, juda koʻp rang-barang qogʻoz parchalarini yopishtiradilar, ular quyosh yorugʻligida chiroyli koʻrinadi va bayramona muhit yaratadi.

Yana shuni aytish mumkinki, Shensi dzyandjilari oʻzining chuqur mazmuni bilan ajralib turadi: gullar, qushlar, hasharotlar va baliqlar, xalq afsonalari va boshqalar mavzusidagi anʼanaviy syujetlardan tashqari, bu yerda siz xalqning hayotini aks ettiruvchi xalq anʼanalariga, markaziy Xitoy tekisligi madaniyatiga xos boʻlgan oʻziga xos urf-odatlariga ega mahalliy aholining turmush tarziga oid syujetlarni topishingiz mumkin.

Sun-i okrugida kollaj parchalarini yasaydigan Ku Shulan zamonaviy Shensi hunarmandlarining koʻzga koʻringan vakili hisoblanadi. Ku Shulan – Shensi provinsiyasi madaniyat departamenti tomonidan tan olingan taniqli qogʻoz kesuvchi hunarmand-rassom. Uning asarlari tasvirning soddaligi, ranglarning yorqinligi bilan ajralib turadi. Rangni qoʻllash yopishtirish texnikasi bilan birlashtirilgan, ranglar toʻyinganlik va keskin kontrastda farqlanadi. Ku Shulanning asarlari juda xilma-xil, yorqin va quvnoq.

Ustaning keyingi asarlarida koʻpincha "qogʻoz qirqimlari maʼbudasi" qiyofasini koʻrish mumkin, u toʻliq yuzli, tekis qirqilgan sochli, qalam qoshli, katta koʻzlari, yurak shaklidagi burni, yarim oy shaklidagi ogʻziga ega. Maʼbudaning qiyofasi mahalliy aholining estetik idealini toʻliq ochib beradi. 1996 yilda Ku Shulanga "Xitoy xalq amaliy sanʼati ustasi" unvoni berildi.

Shandong provinsiyasi Xitoy xalq dzyandji sanʼati beshiklaridan biri hisoblanadi, shuning uchun bu joylar soddaligi, yorqinligi, taniqli mahalliy uslub kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Viloyatda dehqonchilik madaniyati yaxshi rivojlangan. Qadimda bu yerda Davenkou madaniyati mavjud boʻlib, bu mintaqa madaniyatiga kuchli badiiy taʼsir koʻrsatdi, konfutsiylik ham muhim rol oʻynagan. Shandong provinsiyasida dzyandji kesmalarini qoʻllash doirasi juda keng: toʻy gullari, derazalar uchun qogʻoz naqshlari, kashtadoʻzlik naqshlari va boshqalarga qoʻshimcha ravishda, yorqin mahalliy jozibasiga ega boʻlgan "doughua gullari musobaqasi" odati mavjud¹. "Gullar musobaqasida" qogʻoz kesish sanʼati uchun maxsus qogʻoz – djidou ishlatiladi. Ular bayramona kiyimlar, oziq-ovqat, idishlar va boshqa uy-roʻzgʻor buyumlarini bezashda ishlatiladi. Djidoudan foydalanish hududi, ayniqsa, Dzyaodung yarim orolida keng. "Gullar musobaqasi" ning qirqish mavzulari va turlari xilma-xildir. Uslubga kelsak, baʼzi qirqishlar soddaligi va badiiyligi bilan ajralib turadi, boshqalari esa chuqur mazmun va shaklning murakkabligi bilan ajralib turadi. Shandong provinsiyasining eng diqqatga sazovor joylari Bindjou okrugi, Dzyaodung yarim orolining Gaomi okrugidan olingan parchalardir. Gaoming kesiklari "betakror" deb ataladi. 1993-yilda Madaniyat vazirligi Gaomi okrugiga "Xitoy xalq qogʻoz kesish sanʼati-

¹ Shan Man. Qogʻoz kesish odati.// Ommaviy sanʼat va adabiyot. 2002. № 6. 26-b.



ning vatani" unvonini berdi. Umuman olganda, soddaligiga qaramay, Gaomi qirqimlari mahorat, bajarilishning nozikligi, chiziqning elastikligi va yengilligi, chuqur mahoratli dizayni va ko'plab detallardan xoli emas, bu ularni Xitoyning boshqa mintaqalaridagi dzyandjilaridan ajratib turadi.

Hunan provinsiyasida dzyandjilari hamma joyda uchraydi. Bu yerda har doim va ayniqsa, XX asrning boshlarida qog'oz qirqimlarini yaratishda ko'plab hunarmandlar qatnashgan. Viloyat Xitoyning eng markazida joylashgan bo'lib, asosiy transport arteriyasi shimoldan janubga o'tadi. Viloyat uzoq tarixga ega, bu hududda madaniy rivojlanish ancha oldin boshlangan. Qog'oz ixtiro qilinishidan oldin ham Hunan provinsiyasida o'yib ishlangan bezaklar mavjud bo'lib, ularni qog'oz kesmalarining peshqadamlari deb hisoblash mumkin. Changsha Uli shahrida G'arbiy Xan sulolasi davridan (miloddan avvalgi 206 miloddan avvalgi 9 yillar) qabrni qazish paytida oltin barg bilan bezatilgan loklangan quti topilgan. Kesish texnikasi va bezakning badiiy uslubiga ko'ra, ushbu mahsulotni qog'oz kesish san'atining prototipi deb hisoblash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xitoyning shimoliy provinsiyalari: Xebey, Shansi, Shensi, Shandun – qog'oz kesish san'atining vatani. Ularning asarlari soddaligi, ixchamligi bilan ajralib turadi, ularda qadimiy bezaklar, kundalik hayotdagi an'anaviy funksiyalar va marosimlar (derazalarga yopishtirish, kiyim-kechak, idishlarni bezash) saqlanib qolgan. Ular ishlab chiqarish texnikasi va qo'llaniladigan asboblari, shuningdek, oq va rangli qog'ozdan monoxromli kesmalar va kollaj kesimlari bilan birga mavjud bo'lgan rang berish usullari (bo'yoq bilan singdirish, nuqta bo'yash, yorqin ranglarda bo'yash) jihatidan xilma-xildir. Yakunlab shuni takidlash kerakki, Xitoyning janubiy viloyatlarida ham dzyandji san'ati rivojlangandir, shu sababli bu masalani alohida yoritish kerakdir.

FAROMARZI FAYZULLO

Kichik ilmiy xodim, O'zR FASHI

VOHIDOVA MALOHAT

Erkin tadqiqotchi

Mirzo Muhammad Rahimbek va uning "Esdaliklar" asari

Annotatsiya. Maqolada Buxoro tarixnavislik maktabining taniqli vakili Mirzo Salimbekning (1848–1930) o'g'li Mirzo Muhammad Rahimbek (1902–1977) qalamiga mansub "Esdaliklar" kitobi tarixiy manba sifatida tahlil qilingan. Asardagi ma'lumotlar Mirzo Rahimbekning hayot faoliyati, u yashagan davr voqealari hamda Mirzo Salimbek hayotining so'nggi yillari to'g'risidagi ayrim noaniqliklarga oydinlik kiritadi. Xossatan, Mirzo Rahimbekning tarjimai holi ilk marotaba to'liq fonda yoritildi. Mirzo Salimbekning 1920-yildan to vafotiga qadar boshdan o'tkazgan kechinmalari va vafoti tarixi borasidagi noaniqligicha qolayotgan masalalarga "Esdaliklar" asosida aniqlik kiritildi. Shuningdek, asarda keltirilgan o'tgan



asrning 1920–1960 yillaridagi sobiq Buxoro amirligi hududlari va qisman Toshkent tarixiga tutash voqealar muallifning hayotiy kechinmalari bilan bog‘liq holda bayon qilindi.

Maqolada mavzu doirasidagi tadqiqotlar ham yordamchi manba sifatida jalb qilinib, “Esdaliklar”ning manbaviy ahamiyati yoritib berildi. Mazkur asar ilk bora manbashunoslik nuqtai nazaridan tavsif qilindi va uning mazmunidan kelib chiqqan holda mundarijasi tuzib chiqildi. “Esdaliklar”da keltirilgan ma’lumotlar tahlili natijasida, Sharq tarixnavisligi, xususan, tarixga doir bilimlar rivojida “Esdaliklar” ruknida yozilgan asarlarning ham o‘rni katta ekanligi ochib berildi.

Kalit so‘z va birikmalar: Mirzo Rahimbek, Mirzo Salimbek, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad, Amir Olimxon, Ostonaqulbiy, mirzo, mirshabboshi, bek, devonbegi, Buxoro, Boysun, Chorju, Angren.

Abstract. The article analyzes the book “Memories” written by Mirzo Muhammad Rahimbek (1902-1977), son of Mirzo Salimbek (1848-1930), a famous representative of Bukhara historiography, as a historical source. The information in the work sheds light on some ambiguities in the life of Mirzo Rahimbek, the events of the time he lived, and the last years of Mirzo Salimbek’s life. In particular, the biography of Mirza Rahimbek is covered in detail for the first time. Based on the “Memories”, unclear questions regarding the Mirzo Salimbek’s experiences from 1920 to his death and the history of death are clarified. Also, in connection with the author’s life experience, the events of the former Bukhara Emirate of the 20-60s of the last century and partially related to the history of Tashkent were described.

In the work, research on the topic was used as an auxiliary source, and the source significance of “Memories” was emphasized. This work is described for the first time from the point of view of source studies and a table of contents has been compiled based on its contents. As a result of the analysis of the information presented in the “Memoirs”, it turned out that the works written in the “Memoirs” section have a large role in the development of Eastern historiography, in particular, knowledge about history.

Keywords and expressions: Mirza Rakhimbek, Mirza Salimbek, Emir Muzaffar, Emir Abdulahad, Emir Olimkhan, Astanakulbi, mirza, mirshabbashi, bek, divanbegi, Bukhara, Baysun, Charju, Angren.

Аннотация. В статье как исторический источник анализируется книга «Воспоминания», написанная Мирзо Мухаммадом Рахимбеком (1902-1977), сыном Мирзо Салимбека (1848-1930), известного представителя бухарской историографии. Информация в работе проливает свет на некоторые неясности в жизни Мирзо Рахимбека, события того времени, когда он жил, и последних лет жизни Мирзо Салимбека. В частности, впервые подробно освещена биография Мирзы Рахимбека. На основе «Воспоминаний» выяснены обстоятельства жизни Мирзо Салимбека с 1920 года до его смерти и неясные вопросы, связанные с историей его смерти. Также в связи с жизненным опытом автора были описаны события бывшего Бухарского эмирата 20-60-х годов прошлого века и частично связанные с историей Ташкента.

В исследовании «Воспоминания» рассматриваются как ценный исторический источник, а также используются дополнительные исследования по данной теме. Эта работа впервые рассматривается с точки зрения источниковедения и на основании его содержания составлено оглавление. В результате анализа информации, представлен-



ной в «Воспоминании», выяснилось, что произведения мемуарного жанра играют значительную роль в развитии восточной историографии, в частности, в изучении истории.

Ключевые слова: Мирза Рахимбек, Мирза Салимбек, эмир Музаффар, эмир Абдулахад, эмир Олимхан, Астанакулби, мирза, мириаббоши, бек, диванбеги, Бухара, Байсун, Чарджу, Ангрен.

Kirish. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Buxoro amirligi tarixi (1756–1920) bilan bog'liq voqeliklar mahalliy va xorijiy tarixnavislar tomonidan qayd etib borilgan. Shakllanib kelgan an'analarga muvofiq, bu davr tarixnavisligining o'ziga xos namunalari, asosan, fors-tojik va o'zbek tillarida yozilgan. Ularda XVIII–XX asrlar tarixining turli jabhalari o'z aksini topgan. Muhammad Vafo Karminagiyning (1685–1769) “Tuhfat ul-xoniy” (yoki “Tarixi Rahimxoniy”), Mulla Ibodullo va Mulla Muhammad Sharifning (XVIII–XIX asrlar) “Tarixi amir Haydar”, Mir Olim Buxoriyning (XIX asr) “Fathnoma Sultoni”, Ahmad Donishning (1827–1897) “Navodir ul-vaqoye” va “Tarjimai holi amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad”, Mirzo Abdulazim Somiyning (1838–1914) “Tufayi shohiy”, “Tarixi salotini Mang'itiya”, Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning (1848–1930) “Tarixi Salimiy” kabi asarlari shular jumlasidan¹. Mazkur tarixnomalar Buxoro amrligi tarixidan so'zlovchi manbalardan bo'lib, ular yuzasidan salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Shu bilan birga bugungi kunda Buxoro amirligi va Markaziy Osiyoning 1920-yildan keyingi tarixi borasida o'rganilishi kerak bo'lgan mavzular va bizga noma'lum manbalar ham ko'p. Tariximiz haqida ma'lumot beruvchi bu kabi manbalar xorijga olib chiqib ketilgan, ba'zilar turli sabablar bilan yo'q bo'lib ketgan. Mahalliy aholimiz qo'lida saqlanib qolgan ba'zi manbalar izlanishlar jarayonida ilmiy muomalaga kiritib borilmoqda. Xususan, M.Vohidova tomonidan o'z ajdodlari tarixini o'rganish uchun Buxoroga qilgan safari vaqtida (2022-yil. yanvar) Mirzo Salimbekning toshkentlik xotini uning beshinchi bobosi Abdurazzoq otaning qizi bo'lganligi aniqlandi. Surishtiruvlar yakunida Mirzo Salimbekning o'g'li Mirzo Muhammad Rahimbek (1899–1977) qalamiga mansub “Esdaliklar” kitobi borligi ma'lum bo'ldi. Asar hozirda uning o'g'li Ismoil Salimov shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda. I.Salimov mazkur kitobni bizga tadqiqot va nashr uchun taqdim qilgan edilar (2022-yil). Asarda tarixiy voqealar muallifning shaxsiy hayoti va kechinmalari asosida yoritilgan. Lekin unda tarixiy jarayonlarga aniqlik kirituvchi ma'lumotlar ham mavjud.

Mirzo Muhammad Rahimbek. Muhammad Rahimbek ibn Muhammad Salimbekning tarjimai holi o'z “Esdaliklar”i, qisman otasi Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asari hamda o'g'li I.Salimovning “Mirzo Salimbek”² nomli risolasi orqali ma'lum. Uning taxallusi “Qoribek” bo'lib, Salimbekning toshkentlik ayolidan dunyoga kelgan. U 1319-yilning zulqa'da oyida (1902-yil. 8 fevral. – 9-mart) otasi Mirzo

¹ Qarang: Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан, История [Sobiranie vostochnix rukopisey akadeimii nauk Respubliki Uzbekistan]. Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент, 1998. –С. 176, 222, 223–224, 232, 246; Ахмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари [O'zbekiston tarixi manbalari]. Toshkent, 2001. –В. 236–244.

² Qarang: Ismoil Salimov. Mirzo Salimbek. Buxoro, 2011. –20 b.



Salimbek Boysun bekligida hokim bo'lib turgan chog'ida (1902–1905) mazkur shaharda tug'ilgan¹. Mirzo Rahimbekning tavallud topgan vaqti "Esdaliklar"larda keltirilgan bo'lib, bu sana qamariy 1319-yilning zulqa'da oyi, shamsiy 1273-yilning mezon oyi va milodiy 1899-yil sifatida qayd etilgan. Lekin qamariy 1319-yilning zulqa'da oyi milodiy sanada 1902-yilning 8-fevral – 9-mart oralig'iga, hijriy-shamsiy hisobda esa, 1280-yilga to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, muallif tomonidan keltirilgan sanalar bir-biriga mos emas. O'sha davrda hijriy qamariy taqvimning rasmiy muomalada bo'lganligi inobatga olinsa, mazkur 1319-yil (1902-yil) sanasini Rahimbekning tug'ilgan vaqtiga nisbatan aniqroq sana deb qabul qilish mumkin. Zero, Mirzo Salimbek ham ayni 1902-yilda Boysunga bek sifatida tayinlangan. U o'zining "Tarixi Salimiy" asarida ham o'g'lining aynan shu yilda tug'ilganiga ishora qilgan².

Rahimbekning otasi Mirzo Salimbek 1878-yilda mulla Abdurazzoq³ ismli toshkentlik savdogarning qiziga uylanib, undan 5 nafar qiz va 3 nafar o'g'il farzand ko'rgan⁴. Ular Saida, Muhammadqulibek, Azimqulibek, Davrona, Rahimqulibek, Muborak va yana ikki nafar qiz bo'lib, ularning ismlari "Tarixi Salimiy"da ham "Esdaliklar"da ham qayd etilmagan.

Mirzo Salimbekning boshqa ayollaridan Homidqulibek⁵, Avliyoqulbek⁶, Qilichbek⁷, Allomaxon, Abdulfattoh kabi o'ndan ortiq farzandlari ham bo'lgan. Mirzo Rahimbekning aytishicha, ularning oilasida yoshligidan o'zbek tilida so'zlashilgan, sababi onasi 43 yil mobaynida Buxoroda yashagan bo'lsa-da, fors tilini to'liq bilmagan. Qolaversa, otasi ham oilada o'zbek tilida gaplashish tarafdori bo'lgan⁸.

Mirzo Rahimbek "Esadaliklar"da qayd etishicha, 10 oylik paytida oyog'idan yara chiqib, jarrohlik yo'li bilan davolagandan so'ng bir oyog'i cho'loq bo'lib qolgan⁹. Uning go'daklik davri 3 yoshiga qadar Boysun bekligida o'tgan. Otasi 1905-yilda Sherobod beki etib tayinlangach, 1909-yilga qadar oilasi bilan birga o'sha yerda yashagan. Ilk ta'limni 5 yoshida Sherobod bekligida boysunlik Mullo Orif ismli shaxsdan olgan¹⁰. 1910-yilda otasi Shahrisabzga hokim etib tayinlangach esa, o'sha yerdagi eski maktabda ta'limni davom ettiradi¹¹.

Rahimbekning ta'kidlashicha, u 8 yoshda bo'lgan vaqtida (taxm. 1910-yil) Shahrisabz taraqqiyparvarlari Samarqanddan Avliyoqul ismli bir muallimni olib kelib, yangi usul maktabini ochishgan. Bu xabarni eshitgan Mirzo Salimbek mazkur maktabni Qo'rg'on dahasiga olib kelib ochishlarini va maktab muallimining kunlik maoshi

¹ Qarang: Mirzo Muhammad Rahimbek. Esdaliklar. M.Vohidovanning shaxsiy kutubxonasiga tegishli qo'lyozma. –B. 22.

² Mirza Salimbek. Tarixi Salimiy. O'zR FA SHI. Qo'lyozma № 2016, 113b-varaq.

³ Mulla Abdurazzoqning Abdulkarim va Abdulqodir ismli ikki o'g'li va to'rt nafar qizlari bo'lgan. Maqola mualliflaridan biri M.Vohidova Abdulkarim otaning avlodi hisoblanadi.

⁴ Esdaliklar. 27-bet

⁵ Mirzo Salimbekning birinchi buxololik ayolidan tug'ilgan katta farzandi.

⁶ Poshqurtlik ayolidan tug'ilgan. Yoshligida vafot etgan.

⁷ Qilichbek Salimbekning shahrisabzlik ayolidan tug'ilgan. Qarang: Tarixi Salimiy. 123a-varaq.

⁸ Esdaliklar. 179- bet.

⁹ O'sha asar. 23–24.-betlar

¹⁰ O'sha asar. 178–179 –betlar.

¹¹ O'sha asar. 25-bet.



hamda boshqa ehtiyojlarini o'zi ta'minlashini aytgan. Shu tariqa mazur maktabni Qo'rg'on dahasiga ko'chirib, unda 20–25 o'quvchi tahsil olgan. Ular orasida Rahimbek va uning akasi Azimqulibek ham bo'lgan¹. 1914–yilda esa otasi yangi mansabga tayinlangach, butun oila Buxoroga qaytgan.

Rahibekning qayd etishicha, otasi uni yoshligidan murattab qori bo'lishini istagan. Shu sababdan unga “Qoribek” deb murojaat qilgan. Shahrisabzdan Buxoroga qaytib kelgach, arab tilini o'qishni davom ettirib, buxorolik ustozi Mullo Homid tavsiyasi bilan fiqhga oid “Muxtasar ul-viqoya” kitobidan ham tahsil olgan. Muftiy Domulla Yusuf sudur qo'lida 26 qismni o'z ichiga olgan fiqhiy kitobning birinchi qismini xatm qilgan. Sarf va nahvni Domulla Xudoydod Qaroteginiy va Qori Mulla Muhammadjon Ho'qandiy qo'lida o'rgangan. Shuningdek, husnixat va imloni ham kamoliga yetkazgan². U voyaga yetib, ma'lum darajadagi ilm va tajribaga ega bo'lgach, o'z otasining qo'l ostida turli vazifalarda ishlay boshlagan. 1919-yilning fevral oyida Amir Olimxon tomonidan unga qorovulbegi³ lavozimi berilib, yorliq va sarpolar ham taqdim qilingan⁴.

1920-yili mart oyida Mirzo Salimbek Chorjo'yga hokim etib tayinlangan. Rahimbek ham o'sha vaqtda otasining xizmati uchun u tomonga yo'lga chiqadi. Avgust oyi oxirida qizil askarlarning Chorjo'yga hujumi natijasida ularning qo'lga tushib, Chorjo'y viloyatining Devonbegi guzaridagi Devonabog' zindonida hibsga olinadi. O'sha vaqtda Chorjo'y shahri hech qanday ziddiyat va qarshiliksiz qizil askarlar tomonidan egallangan edi. Hibsga olinganlar orasida viloyat hokimi bo'lgan otasi Mirzo Salimbek, Chorjo'yning katta qozisi, raisi, zakotchisi va boshqa amaldorlar ham bo'lib, ular Toshkentdagi qamoqxonaga yuborilgan. 1920-yilning 2-sentabrida sho'ro hukumati tomonidan Buxoro davlati butunlay ishg'ol etildi. Amir hukumati barham topib, uning o'rniga Buxoro xalq sovet jumhuriyati tashkil qilingan⁵.

Birozdan so'ng qo'lga olinganlarning bir qismi ozod etiladi, shu tariqa Mirzo Rahimbek ham kichik jussali va biroz ozg'inroq bo'lganidan juda yosh ko'ringanligi sabab jazodan qutulib qoladi hamda onasining oldiga Buxoroga qaytadi. Buxoro inqilobidan so'ng, Mirzo Salimbek hibsga olinib, uning barcha mol-mulklari yangi hukumat tomonidan musodora qilingan. Natijada uning oilasi tang ahvolda qoladi, barcha xizmatkorlari-yu, yor-u birodarlari ulardan yuz o'giradilar. Uning oilasi o'zlariga ijaraga uy olib yashashga majbur bo'ladilar.

Rahimbek otasi kabi ilmi shaxs bo'lganligi bois, Amirlik hukumatining so'nggi yillarida turli hududlarda mirzolik ham qilgan. O'tgan asrning 30-yillarida ham Buxoroning bir necha qishloq sovetlarida (xususan, Kogonda) bosh kotiblik lavozimida faoliyat yuritgan. U inqilobdan avval Buxoroning Shayx Jalol guzaridan bo'lgan 14 yoshli Mukarram ismli qizga uylangan. Biroq undan farzand ko'rmagan⁶.

¹ O'sha asar. 27-bet.

² O'sha asar. 28-bet.

³ Qorovulbegi – harbiy qorovul qism boshlig'i.

⁴ Qarang: Tarixi Salimiy. 208a varaq.

⁵ Qarang: Esdaliklar. –B. 32-33.

⁶ Qarang: Esdaliklar. 30-bet.



1918-yilda Mahmud Ahmadov ismli kishi o'z onasi va ikki singlisi bilan Shahrisabz hokimining qo'lidan qochib, Buxoroga keladi. Rahimbekning akasi Azimqulibek ularga yordam berish maqsadida Mahmudni o'z xizmatiga olib, uning katta singlisi Hidoyatxonni o'z nikohiga olgan edi. Azimqulibek vafot etgach, Rahimbek otasining xohishi bilan uning ayolini ham o'z nikohiga olib, undan Zaynab va Abdulaziz ismli ikki farzand ko'rgan¹. Mirzo Rahimbek salkam 10 yil davomida mazkur Mahmud ismli shaxsning oilasining barcha xarajatlarini ta'minlaydi. Mahmud Toshkentda ta'lim olib, 1928-yilda Chiroqchi tumaniga prokuror bo'lib qaytadi. Mirzo Rahimbekni Amirlik amaldorlaridan ekanligi sabab o'z mansabidan xavotirlanib, uning xotini bo'lmish o'z singlisini ikki farzandi bilan aldab chaqirib oladi hamda Chiroqchi tuman sud raisiga turmushga beradi. Shu tariqa uning fazandlari tirik yetim bo'lib, o'g'li bir yarim yoshda, qizi esa 26 yoshda 1950-yilda vafot etgan².

Rahimbek 1938-yilda Hoji Bad' ismli kishining qizini nikohiga olib, undan Naimjon ismli bir o'g'il ko'radi, ammo u ikki yoshida betob bo'lib olamdan o'tadi. 1941-yilda esa mazkur ayolidan Ibrohimjon, 1946-yilda Ismoiljon ismli ikki o'g'li dunyoga kelgan. Ismoiljon aka hozirda hayotlar, u kishi otalarining ko'pgina kitoblari va shaxsiy buyumlarini saqlab kelmoqdalar.

Rahimbek idoraviy va hujjat ishlarida ham yetarli tajribaga ega bo'lgan. Zero, u 1930-yilda Kogon tumanining Mallabo'sh guzaridagi Kalinin nomli qishlog'ida, 1935-yilda esa Sovet nomli qishloqda bosh kotib vazifasida faoliyat yuritgan. Shu orada u ikki marta qattiq betob bo'lib, xizmat vazifasidan ariza yozib bo'shab ketishga majbur bo'lgan³. Mazkur yillarda har bir kishi o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport) olishi to'g'risida farmon chiqarilgan edi. U kotiblikdan bo'shab ishsiz yurgan kezlarda, hujjat ishlarini yaxshi tushunganligi bois Buxoroning Guzarikom idorasida odamlarga anketalarini to'ldirishga yordam berish ishlari bilan mashg'ul bo'lib tirikchilik o'tkaza boshlaydi. Undan so'ng Toqi tepakdo'zon bozorida bir kichik idora ochib, aholining turli masalalardagi ariza va so'rovnoma kabi hujjatlarini yozib berish ishlari bilan shug'ullandi. 1936-yilda "Kovushdo'zlar arteli"da hisobchi bo'lib ishga kiradi va shu orada xorazmlik Sayd Nazar ismli hunarmanddan do'ppido'zlik, Usto Lutfillo ismli shaxsdan esa tunukasozlik hunarlarini ham o'rgangan. Do'ppido'zlik sohasida u "Mehnatkash", "Krasniy shturmovik", "Invalid torg" kabi bir qancha tikuvchilik artellarida faoliyat yuritgan.

1941-yilning iyun oyda Ikkinchi jahon urushi boshlanadi. Mirzo Rahimbek mazkur oyda Jo'ybor guzaridan bir kichkina hovlini 2000 so'mga sotib olib, u yerga ko'chib o'tadi. 1942-yillarda Ikkinchi jahon urushi shiddat bilan davom etib turgan bir mahalda, bir qancha ishlab chiqarish korxonolari qatorida Rahimbek ishlab turgan sex ham yopilib, u ishsiz qoladi va tikuvchilikni uyida davom ettirib kun kechirishga majbur bo'ladi. Boz ustiga mazkur yilda yana bir bor qattiq betob bo'lib yotib qoladi, shunday og'ir vaziyatda hatto yor-u birodarlari ham undan uzoqlashadi. Shuningdek, uyida faoliyat yuritayotgani uchun soliqchilar unga katta miqdorda jarima solishadi va uni

¹ Esdaliklar. 53–54-betlar.

² Qarang: Esdaliklar. 14–18-betlar.

³ Qarang: Esdaliklar. 70-bet



to'lash uchun yaqin do'stlaridan biridan qarz olishga majbur bo'ladi. Do'sti esa qarzni foiz evaziga beradi. Jarimadan tashqari uyidagi tikuv moshinalari va asbob-anjomlari ham musodara qilingan edi.

Rahimbek qarzlaridan qutulish uchun uyidagi ro'zg'or buyumlarini sotib yuboradi, o'zi keyinchalik "Invalid torg" korxonasiga ishga kirib, oddiy ishchidan to sex mudiri lavozimiga qadar ishlarda faoliyat yuritadi. Undan so'ng Buxorodagi sartarosh-xonalardan biri va fotografiya markazida hisobchi, qulf-kalit yasash sexida mudir, Kolxoz bozorida pul teruvchi (1943-yilda), maktabda xo'jalik mudiri, "Telman" artelida tabelchi (1946-yil) lavozimlarida ishlagan.

Rahimbek 1946 yildan o'z jiyani Rahimaning turmush o'rtog'i bo'lgan Fayzullo Sayfulloyev ismli kishining qo'lida omborxonada mudiri lavozimida ishlay boshlagan. Sodda va ishonuvchan inson bo'lganligidan ko'p kirim-chiqim hujjatlariga kuyovining aldovlariga ishonib imzo qo'yadi, buning oqibatida 24 ming kamomad hisobiga shu yili sud qilinib, 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. U "jazo muddatini" Angren (1951-yilga qadar), Bekobod (8 oy), Toshturna va Jizzax (1952–1953) hamda Chirchiq (1954) hibsonalarida o'taydi. U tikuvchilik hunari tufayli qamoqxonada ham obro' qozonib, mahbuslar va nozirlarning kiyimlarini tikib berar va shu yo'l bilan pul ham ishlab olar edi. 1953-yil mart oyida Stalinning vafotidan so'ng mahbuslarning ko'pchiligiga amnitsiya e'lon qilinadi. 25 besh yilga qamalganlar orasida yoshi 60 dan oshganmi ozodlikka chiqariladi. Biroq, Rahimbekning yoshi 60 ga yetmagani sabab, uning "muddati" yarmiga kamaytiriladi, xolos. Amnitsiya natijasida 1000 ta mahbusdan 120 tasi qoladi va ular avvaliga Jizzaxdagi boshqa bir qamoqxonaga, 3 oydan so'ng Toshturnaga, bir muddat o'tgach esa Chirchiqqa ko'chiriladi.

Rahimbek nihoyat 8 yildan so'ng, 1954 yilgi amnitsiya hukmiga ko'ra, 19-avgust kungi sud qarori bilan Chirchiq qamoqxonasidan ozodlikka chiqadi. U yerdan Toshkentga, so'ngra Buxoroga, pochchasi Nurullohbekning uyiga boradi. Buxoroga qaytganidan so'ng, o'g'illari Ismoiljon va Ibrohimjonlar otasining oldiga kelib yashashaydilar. Mirzo Rahimbek avvaliga jiyani Rahima (O'sha Sayfulloyev Fayzulloning ayoli) bilan do'ppido'zlik ishini davom ettiradi. So'ngra, Usmonxon Baqoyev ismli do'ppifurushning taklifiga ko'ra u va Jumaniyozov ismli bir do'ppido'z bilan hamkorlikda yangi ish boshlaydi. Uzoq muddat turli joylarda ikki o'g'li bilan ijarada yashaydi. 1954-yilning 14-oktabrida Bobojon Yahyoyev ismli eski qadrdonlaridan birining yordami bilan "Molotov" arteliga ishga kiradi. Uning rahbari Robiya Rahmatova unga o'zi hamda farzandlariga kiyim-kechak sotib olishlari uchun 200 so'm miqdorda yordam puli ham ajratadi. Va nihoyat, u 1964-yilda pasport bo'yicha 65 yoshida pensiyaga chiqadi¹. Demak, u 1902-yilda tug'ilgan bo'lsa-da, tavallud sanasi hujjatda 1899-yil sifatida qayd qilingan. U umumiy hisobda 19 yillik staj bilan nafaqaga chiqib, unga 33 so'm-u 13 tiyin pensiya tayin qilingan edi².

Mirzo Rahimbek 1955-yil avgust oyida Muborakxon ismli bir ayolni o'z nikohiga oladi, bu uning to'rtinchi turmushi edi. Muborakxon mehnatkash va oilaparvar bo'l-

¹ Esdaliklar. –B. 169–170.

² O'sha joyga qarang.



ganligi bois, o'gay farzandlar tez orada unga mehr qo'yadilar. Shu tariqa u to'rt yillik ijaradan ijaraga ko'chish hayotidan so'ng, 1959-yilda Buxoro shahrining Samarqand ko'chasidan Gorkomxoz tomonidan davlat ishchilariga beriladigan ijara uylaridan biriga ega bo'lib, may oyida u yerga ko'chib o'tadi. "Esdaliklar"da keltirilishicha, 1962 va 1967-yillarda mazkur uy Komxoz tomonidan ta'mirlab ham berilgan¹.

Rahimbek ko'p mashaqqatlar chekib bo'lsa-da, ikki farzandining ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan. Katta o'g'li Ibrohimjon 1961-yilda harbiy xizmatga chaqiriladi va xizmat vazifasini avval Moskvada, so'ng Kuba Respublikasida ado etib qaytadi. Buxoroga kelgach, 1965-yilda uylanib, shu yerda o'z mehnat faoliyatini boshlaydi. Ismoiljon esa 3 yil Buxoro Politexnika bilim yurtida va yana 3 yil Toshkent politexnika institutida tahsil oladi. So'ng harbiy ta'lim tayyorgarligini o'tab, 1969-yillarda Ukrainaga leytenant-injiner bo'lib xizmatga boradi.

Mirzo Rahimbekdan "Esdaliklar" asaridan tashqari, bir qancha mashhur kitoblarni o'z xatida ko'chirgan daftarlari ham saqlanib qolgan. Ular orasida madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Chahor kitob"dan ko'chirgan qo'lyozmasi yaxshi holatda yetib kelgan. Ular ayni damda I.Salimovning shaxsiy fondida saqlanmoqda.

Mirzo Rahimbekning tarjimai holidan ko'rdikki uning butun umri tahlikali davrlarning mashaqqatli ijtimoiy hayoti bilan hamohang kechgan. Shu boisdan u otasi kabi komil ilm va yuqori lavozim egasi bo'la olmagan bo'lsa-da, ziyoli oilaning farzandi sifatida o'z davrining sanoqli xat-savod egalaridan biri bo'lgan. U 1977-yilda hujjat bo'yicha 78 (aslida 75) yoshida vafot etadi.

Mirzo Salimbek. Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahim o'z davrining yirik ma'rifatparvar va ilmi kishilaridan bir bo'lib, 1948-yilda Buxoroning Jo'ybor mavzesining Chaqar guzarida amaldor oilasida tug'ilgan. U Amir Muzaffar (1860–1885) davrida mirzolik va parvonachilik lavozimlarida, Amir Abdulahad (1885–1910) davrida Buxoro shahri mirshabboshisi (1888–1893), Yakkabog' (1893–1898), Nurota (1898–1902), Boysun (1902–1905) va Sherobod (1905–1909) viloyatlari hokimi va Amir Olimxon davrida (1910–1920) Shahrisabz² (1910–1914) va Chorjo'y (1920) hokimi hamda zakotchi, devonbegi mansablarida ishlagan edi³. Salimbek Buxoro mirshabboshisi vazifasida ishlab yurgan chog'ida shaharning Masjidi baland guzarida o'z mablag'lari hisobidan pishiq g'ishtdan bir qavatli madrasa ham qurdiradi. Mazkur 13 hujrali madrasaga ko'p miqdordagi yer-suv va do'konlardan iborat mulklarni vaqf qilib, darslik kitoblari bilan ham ta'minlaydi⁴. Shuningdek, Nurotadagi Shayx

¹ Esdaliklar. –B. 163–164.

² Mirzo Salimbekni Shahrisabz hokimligiga 1910-yilda amir Abdulahadxon tayinlagan edi.

³ Норкулов Н. "Тарихи Салими" – ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860–1920) ["Tarixi Salimi" tsenniyy istochnik po istorii Buxarskogo emirata (1860-1920)]. Автореферат дисс... к.и.н. Ташкент, 1968. –С. 6–7; Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) [Tarix-i Salimi (Istochnik po istorii Buxarskogo emirata)] / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: к.и.н. Н.К.Норкулов. Ташкент, "Akademiya". 2009. –С. 13–14.

⁴ Qarang: Tarixi Salimiy. № 2016. 98b–99a varaqlar.



Abdulhasan Nuriy maqbarasini¹ va Sherobodagi Imom Termiziy maqbarasi yonidagi masjidni ta'mirlatadi va ularga vaqf mulklari tayinlaydi².

Mirzo Salimbekning amirlik davridagi hayoti va ilmiy faoliyati tadqiqotlar orqali ma'lum³. Lekin uning 1920-yildan keyingi taqdiri noaniqligicha qolmoqda edi. Mirzo Rahimbekning "Esdaliklar"i topilgach esa, bu masala birmuncha oydinlashdi. Zero, muallif unda o'z otasi hayotining so'nggi kunlari haqida yetarli darajada ma'lumotlar qoldirgan. Unda keltirilishicha, Mirzo Salimbek 1920-yil 29-avgustda qizil qo'shinlar tomonidan Chorjo'yda qo'lga olingach, amirlik amaldorlari qatorida avval Toshkentdagi qamoqxonaga olib ketilgan. So'ngra u yerdan qahraton qish kelayotganligiga qaramay Rossiyaga yuborilgan. Nihoyat 4 oylik sargardonlikdan so'ng mahbuslarni ortga qaytarish haqida buyruq bo'lib, ular yana Toshkentdagi qamoqxonaga keltirilgan. Shu orada vagonlari sobiq amirlik amaldorlariga to'la poyezd Rossiya hududidagi temiryo'l stansiyalaridan birida qahraton qishning baland qorli mahalida bir necha kun to'xtab qoladi. Mahbuslar esa ta'minotsiz qolib ketishadi. Ular orasidan Mirzo Salimbek va Mirzo Abdusalomlar ko'mak izlab bekatga yaqin aholi punkti tomon yo'lga chiqadilar, 3 chaqirim masofani piyoda kechib, nihoyat inqilobiy hukumat idorasidan oziq-ovqat ko'magi hamda ortga qaytish farmoniga ega bo'lishga erishadilar. Biroq, mazkur sovuqda Mirzo Salimbekning bir ko'zi qattiq shamollab xasta bo'lib qolgan edi. Ozodlikka chiqqanidan so'ng Toshkent va Samarqandda uzoq muddat davolanish va hatto jarrohlik amaliyoti ham foyda bermay, uning bir ko'zi ko'rmay qoladi⁴.

Mirzo Rahimbekning yozishicha, otasi va boshqa mahbuslarning Toshkentdan Buxoroga olib kelinganligi haqida, u 1921-yil bahor kunlarining birida xabar topgan. Mirzo Salimbek Sitorayi Mohi Xossadagi zindondan Abdurauf Fitrat va boshqa jadid ma'rifatparvarlari ko'magi bilan ozodlikka chiqariladi. Zero, Mirzo Salimbek kabi ziyoli, xat-savodli, kishi yangi tuzum uchun ham suv va havodek zarur edi. Ismoil Salimovning qayd etishicha, Kolesov hujumidan keyin tuzilgan sulh shartlaridan birida ocharchilik hukm surayotgan Rossiyaga Buxoro donini yetkazib berishga o'zaro kelishib olingan. Sulhning asosiy bandi aynan Mirzo Salimbek tomonidan ilgari surilganligi bois ham sho'rolar hukumatining boshlig'i shaxsan Vladimir Ulyanov (Lenin) tomonidan uning ilgarigi "gunohlari" kechirilib, ozodlik marhamat qilinadi⁵.

Ozodlikka chiqqan Mirzo Salimbek yangi tuzilgan davlat sharoitida endi faqat ilmiy va ijodiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydi. U dastlab Abdurauf Fitrat rahbarligidagi "Anjumani tarix" jamiyatida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur jamiyat a'zolari Mir Arab madrasasidan joy olib, Buxoro arki va madrasalarda saqlanayotgan kitoblarga sharh yozish bilan shug'ullanadilar⁶. Salimbek yangi hukumat davrida Buxoroning

¹ Tarixi Salimiy. 114a-114b.

² Tarixi Salimiy. 111b varaq.

³ Qarang: Норкулов Н. "Та'рихи Салими" – ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860–1920) ["Tarixi Salimi" tsenniy istochnik po istorii Buxarskogo emirata (1860-1920)]. Автореферат дисс... к.и.н. Ташкент, 1968. –С. 6-7; Бухорий А.П. Рахимов К. Мирзо Салимбек қолдирган мерос [Mirzo Salimbek qoldirgan meros] // Мозийдан садо, 2006. №. 4. –С.43.

⁴ Qarang: Esdaliklar. –B. 36–38.

⁵ Ismoil Salimov. Mirzo Salimbek. Buxoro, 2011. –B. 10.

⁶ Esdaliklar. –B. 46–48.



qadimiy san'at va tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan Buxoro Ark tarixini tuzishda ishtirok etgan. Shuningdek, soliq boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, so'ngra vaqf daromadlari bilan shug'ullanuvchi idorada qadimiy qo'lyozmalar kutubxonasiga ham rahbarlik qilgan.

Inqilobga qadar Mirzo Salimbekning Buxoroda 14 ta katta hovlisi bo'lgan, inqilobdan so'ng esa bu uylarning bari bor boyliklari bilan birga ruslar tomonidan tortib olingan edi. Mirzo Salimbek ozodlikka chiqqanidan so'ng yangi hukumat uning Jo'y-bor guzaridagi dala hovlisini kerakli jihozlari bilan yashash uchun qaytarib bergan. Shuningdek, 2 ta chorbog' va bir nechta dala hovlilari ham dehqonchilik qilib hukumatga mahsulot yetkazib berish uchun qaytarilgan.

“Esdaliklar”da keltirilishicha, 1922-yilda Moliya nazorati huzurida Soliq qo'mitasi tashkil etiladi. Mirzo Salimbek mazkur soliq idorasiga ishga kiradi. Undan so'ng ushbu idoraning Buxoroda tashkil etilgan zakot ishlari bo'limiga mudir bo'lgan Ostonaqulbiyning (1860–1923) muovini etib tayinlanadi. O'sha vaqtda hukumat “Moliya nazorati” idoralariga eski tajribali amaldorlarni ishga tayinlay boshlagan edi. Mirzo Salimbek undan so'ng vaqf kutubxonasiga ishga kiradi va bir muddat shu yerda ishlaydi¹. Shu o'rinda Mirzo Rahimbekning qayd etishicha, otasi “Tarixi Salimiy” asarini mazkur kutubxonadan bo'shagan vaqtlarida yoza boshlagan (taxminan 1923-yilda)². 1924-yilning aprel oyida (Ramazon oyi) sobiq amirlikning barcha amaldorlarini qamoqqa olish haqida farmon chiqariladi. Natijada bir nechta hukumat odamlari Mirzo Salimbekning uyiga kelib, uning hovlisida taftish o'tkazadilar va o'zini esa hibsga oladilar. Mahbuslar Toshkentga olib borilib, ularning har biriga birin-ketin jazo tayinlanadi. Ular orasida faqat qarib qolgan 4 kishinigina to'rt oydan keyin ozod qilib, javob beradilar. Shulardan biri 74 yoshli Mirzo Salimbek edi³. Mirzo Salimbek 1925-yilda 75 yoshida yana bir o'g'il farzand ko'radi va unga Nosiriddin (o'sha Abdulfattoh) deb ism qo'yadi⁴.

Mirza Salimbek 1930-yilga kelib qattiq betob bo'lib qoladi. Mirzo Rahimbekning yozishicha, otasi o'sha paytda nafas qisishi (astma) kasaliga duchor bo'lgan va mazkur yilning mart oyida vafot etgan. Mirzo Salimbekning jasadi Hazrati Imom mozoridagi 40 yil oldin o'z avlodlari uchun atab qurdigan maxsus joyda dafn qilinadi⁵.

Mirzo Rahimbekning onasining tavallud sanasi ma'lum emas, u 1921-yilda vafot etgan. Uning janozasi Bolo Hovuz masjidida o'qilib, mayiti o'sha Hazrati Imom mozoridagi oilaviy xilxonalarida dafn qilingan⁶. Mirzo Rahimbek onasining vafotidan keyin ham toshkentlik qarindoshlari bilan bordi-keldi qilib turgan. Zero, bu haqda “Esdaliklar”da qaydlar mavjud⁷. Shuningdek, uning 1924-yilda tog'avachchalari mullo Abdusattor va mullo Abdulfattohlarga yozgan maktubi ham mavjud⁸.

¹ Esdaliklar. –B. 48.

² Qarang: Esdaliklar. –B. 51.

³ Esdaliklar. –B. 63.

⁴ Esdaliklar. –B. 62.

⁵ Qarang: Esdaliklar. –B. 68-69.

⁶ Esdaliklar. –B. 27, 39.

⁷ Qarang: Esdaliklar. –B. 190.

⁸ Mazkur maktub ayni damda M.Vohidovanning shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda.



“Esdaliklar” asari. Ushbu asar Mirzo Rahimbekning hayoti davomidagi shaxsiy xotiralari asosida fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, unda Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligining so‘nggi davrlari bilan bog‘liq voqealar va mazkur hududlarda keyinchalik tashkil etilgan siyosiy birliklar, xususan, 1918- yilgi Buxoro inqilobi, Buxoro amirligining tugatilishi, BXSРning tashkil etilishi, bolsheviklar hukumati va sobiq Sovet Ittifoqining salkam yarim asrlik tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jarayonlar o‘z aksini topgan. Mirzo Rahimbek garchi otasi kabi yirik tarixchi sifatida katta hajmdagi tarixiy asar yozishni rejalashtirmagan bo‘lsa-da, uning “Esdaliklar”ida keltirilgan xotiralari, mamlakatimiz o‘tmishining 1902–1970 yillar tarixi bilan bog‘liq jarayonlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Zero, unda, tarix fani uchun hanuzgacha noma‘lumligicha qolayotgan Buxoro amirligining oxirgi tarixchisi Mirzo Salimbek hayotining so‘nggi yillari, xususan, vafot etgan sanasi yoritilgan.

Asarda shuningdek, inqilobchilar tomonidan qo‘lga olingan amirlik amaldorlarining keyingi taqdiri, oilalarining sarson-sargardonlikdagi hayoti, Markaziy Osiyo aholisining mustamlaka siyosatidan chekkan zahmatlari haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Shu qatorda “Esdaliklar”da 1929–1933-yillargi jahon iqtisodiy inqirozining Buxoro bozorlari va aholi turmush sharoitiga ta‘siri, oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlarining narx-navosi hamda ishlab chiqarish korxonalarining holati haqida ham birmuncha qaydlar mavjud. Buxoro va uning atrofidagi shaharlar aholisining, xususan, hunarmand va savdogarlarning birinchi jahon urushidan keyingi davrdagi ahvoli ham qisman yoritilgan. Zero muallif mazkur yillarda turmush qiyinchiliklari sabab, o‘ndan ortiq tikuv sexlarida va bozorlarda faoliyat yuritgan edi. Asarda, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRdagi ijtimoiy ahvol va o‘tgan asrimizning 50-yillarida mavjud ayrim hibsonalar hayoti borasida ham birmuncha ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Mirzo Rahimbekning “Esdaliklar” asari salkam bir asrlik tarixiy jarayonlarni to‘ldiruvchi ma‘lumotlarga ega. Biroq, uning maxsus tarixiy asar sifatida yozilmaganligi muallif tomonidan bir necha o‘rinda eslatib o‘tiladi. Bu masala, ayniqsa, asarning mazmuni bilan tanishib chiqish asnosida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, muallif uni yozish chog‘ida xronologik va mazmuniy ketma-ketlik prinsiplariga amal qilmagan. Shuningdek, uni ma‘lum bir mundarija asosida shakllantirmagan. Faqatgina ba‘zi o‘rinlarda matnlar maxsus sarlavha bilan boshlangan, xolos. Ayniqsa, o‘z tarjimayi holiga doir mavzular, xususan, yoshlik davriga doir ma‘lumotlar kitobning avvalgi fasllarida qisman kelitirilib, so‘nggi fasllarni yozish chog‘ida yana shu mavzuga qo‘shimcha qilinadi. Shunday bo‘lsa-da, kitob bilan tanishib chiqish asnosida, unda keltirilgan mavzularning mazmuniga qarab fasllarga ajratish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda Mirzo Muhammad Rahimbekning “Esdaliklar” asariga 40 banddan iborat quyidagi mundarija shakllantirildi:

1. [Do‘stlik va birodarlik haqida] – 10 b.
2. O‘zimning yaqin do‘stim va tengdoshim haqida yana bir hikoya – 14 b.
3. Muxtasar tarjimayi holim va sarguzashtlarim – 22 b.
4. [Mirzo Ahmadi rishxo‘r hikoyasi] – 32 b.
5. [Volidamning qisqacha tarjimayi hollari] – 39 b.
6. [1922-yilda Buxoroda ro‘y bergan voqealar bayoni] – 45 b.



7. [O‘zim haqimda qisqacha] – 47 b.
8. [Ibn Sino nomidagi madrasa kutubxonasi haqida] – 47 b.
9. [Otamning “Tarixi Salimiy” kitobi haqida] – 51 b.
10. [Yana o‘zim haqimda qisqacha] – 53 b.
11. [Bir sayohat hikoyasi] – 59 b.
12. [O‘gay onam va rahmatli otam hayotlarining so‘nggi kunlari hikoyasi] – 62 b.
13. [Bosh kotiblik vazifasida ishlaganim va undan keyin Buxoroga qaytganim hikoyasi] – 70 b.
14. [Birinchi marta tif kasaliga chalinganim hikoyasi] – 72 b.
15. [Ikkinchi marta tif kasaliga chalinganim hikoyasi] – 74 b.
16. [Mirzolik faoliyatim hikoyasi] – 77 b.
17. [1929–1935-yillardagi oziq-ovqat mahsulotlarining kartochka tizimiga o‘tkazilishi hamda bozorlardagi o‘g‘rilik va qallobliklar hikoyasi] – 78 b.
18. [Kovushdo‘zlik va do‘ppido‘zlik sexlaridagi faoliyatim hamda ustozim Said Nazar aka hikoyasi] – 77 b.
19. [Yana o‘z tarjimayi holim haqida] – 84 b.
20. [1942-yilda bemor bo‘lganim va mahallamiz raisi bilan sodir bo‘lgan voqealar bayoni] – 86 b.
21. [Invalid torg sexidagi faoliyatim va undan keyingi ishlarim hikoyasi] – 90 b.
22. [Hovli almashtirish va o‘g‘lim Ibrohimjon bilan sodir bo‘lgan voqealar hikoyasi] – 92 b.
23. [O‘g‘lim Ismoilbekning tug‘ilishi va u bilan bog‘liq voqealar] – 95 b.
24. [Telman artelidagi faoliyatim va jarrohlik amaliyotini boshdan o‘tkazganim hikoyasi] – 98b.
25. [Sayfulloyev kuyovimizning firibgarligi sabab sudlanganim bayoni] – 99 b.
26. [Angren turmasiga jo‘natilganim va u yerdagi ba‘zi voqealar bayoni] – 112 b.
27. [Angren shahrining ob-havosi] – 114 b.
28. [Angren turmasining yopilishi, undan keyingi Bekobod va Jizzax qamoqxonalari voqealari bayoni] – 135 b.
29. [1953-yilgi amnitsiya, Toshurma va Chirchiq qamoqxonalari bilan bog‘liq voqeasi bayoni] – 139 b.
30. [Turmadagi hayotimning keyingi voqealari bayoni] – 145 b.
31. [1954-yilgi farmon tufayli ozodlikka chiqishim va Buxoroga qaytish bilan bog‘liq voqealar bayoni] – 148 b.
32. [Sayfulloyev Fayzulloning qilmishlari hikoyasi] – 151 b.
33. [Jiyanim Rahima bilan hamkorlikdagi tikuvchilik faoliyatim haqida] – 155 b.
34. [Farzandlarim bilan ko‘rishganim va undan keyingi oilaviy hayotim hamda mehnat faoliyatimga doir hikoyalari] – 156 b.
35. [Bir qancha do‘st-u birodarlarim haqida] – 173 b.
36. [Allohdan menga yetgan ne‘matlar shukronasi haqida] – 174 b.
37. [Nevaram Muhammadjonning xatna to‘yi haqida] – 175 b.
38. [Yana tarjimayi holimga ilovalar] – 178 b.



39. Voqealardagi bir hikoya (Otamning toshkentlik do'sti Jo'raboy aka haqida) – 187 b.

40. Turli voqealar – 194 b.

41. Xotira – 199 b.

42. [Hadislar, hikmatli so'zlar va she'riy parchalar] – oxirgi farzasda.

Mirzo Rahimbekning “Esdaliklar”i fors-tojik tilining XX asr Buxoro shevasida fabrika qog'ozida yozilgan qo'lyozmadir. Asarning 195 betda qayd qilinishicha unda keltirilgan voqealar muallifning musavvadasi (qoralama qaydlari) asosida 1972-yilning aprel oyida ko'chirib tugatilgan. Biroq, asar 1970- yilning 26-oktabrida o'tkazilgan Mirzo Rahimbekning nevarasi Muhammadjonning xatna to'yiga bog'liq voqealar bilan tugatilgan. Kitobga yashil rangda hoshiya chizilgan bo'lib, asosiy matn siyoh rangda, sarlavhalar va sahifalar qizilda va ayrim muhim o'rinlar yashil va qizil ranglarda yozilgan.

Kitobning umumiy hajmi 200 sahifa (100 varaq) bo'lib, asosiy matn 10-sahifadan boshlanadi¹. Muallif asarning ayrim joylarida o'z davridagi Buxoro shevasiga xos so'zlar va rus tilidan kirib kelgan terminlarni ham qo'llagan. *Yavg'on ovqati, zaborni non, ukaz, statya, zaklucheni, turma, banderol, ariston, stansa* kabi so'zlar va rus amaldorlari ism sharifining arab yozuvida yozilgan varianti shular jumlasidandir. Zero, fors tilidagi matn orasida bunday so'zlarning duch kelishi ularni to'g'ri o'qish jarayonini biroz qiyinlashtiradi. Shuningdek, asarda Qur'oni karim oyatlari, Hadisi sharif, hikmatli so'z va iboralar arab tilida keltirilgan². Muallif matn mazmuniga muvofiq ravishda Shayx Sa'diy Sheroziy (1210–1292) va Xoja Hofiz Sheroziy (1325–1389) kabi klassik fors-tojik shariyati namoyandalarining nazmiy parchalaridan ham unumli foydalangan³. Shu bilan birga, o'zi tomonidan yozilgan she'rlardan namunalar ham keltirib o'tgan⁴. Kitob hoshiyasida faqat bir-ikki o'rinda qaydlar mavjud⁵. Umuman olganda, “Esdaliklar” yaxshi holatda saqlangan.

Xulosa. O'tmish tarixiga doir biz bilgan manbalar, moziyning turli jabhalarini o'zida aks ettirgan. Biroq tarix daftarining bizga noma'lum bo'sh varaqlari ham ko'p. Bu oq sahifalar vaqtning zayli bilan so'nggi paytlarda aniqlanayotgan yangi manbalar va izlanishlar natijasida yuzaga chiqayotgan ilmiy xulosalar bilan to'ldirib borilmoqda. Shu jumladan Mirzo Muhammad Rahimbekning “Esdaliklar”ining topilishi ilmiy tadqiqotlar uchun manbaviy asosning ko'payishiga sabab bo'ldi. Zero uning XX asrning salkam 70 yillik tarixini to'ldiruvchi qo'shimcha ma'lumotlarga ega ekanligi mazkur tadqiqot orqali qisman tahlil qilindi. Mazkur tadqiqot ishning mavzusi va hajmini inobatga olgan holda “Esdaliklar” va uning muallifi haqidagi ayrim ma'lumotlar tahlil qilindi, xolos. Unda keltirilgan boshqa mavzular keyingi ishlar orqali e'lon qilinadi. Umuman olganda, Mirzo Rahimbekning

¹ Qarang: Esdaliklar. –B. 1.

² Qarang: Esdaliklar. –B. 20, 39, 132.

³ Qarang: Esdaliklar. –B. 18, farzas varaqlar.

⁴ Qarang: Esdaliklar. –B. 166-169.

⁵ Qarang: Esdaliklar. –B. 127, 128, 137.




“Esdaliklar” asari XX asr tarixiga doir kelgusidagi tadqiqotlarga manba vasifani bajara oladi.





1. Mirzo Salimbek va uning o‘g‘li Mirzo Muhammad Rahimbek.



2. Mirzo Salimbek Romanovlar sulolasining 300 yilligini nishonlash tadbirida (yuqori qatorda o‘ngdan uchinchi).



3. Mirzo Muhammad Rahimbek "Esdaliklar" asarining boshlanish va oxirgi qismlari



4. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asari. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti №2016 ashyo raqamli qo‘lyozmasining boshlanish va oxirgi varaqlari.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Б. Аҳмедов Ўзбекистон тарихи манбалари [O‘zbekiston tarixi manbalari]. Тошкент, 2001. –350 б.
2. А.Р. Вухорiy, Rahimov K. Mirzo Salimbek qoldirgan meros // Moziydan sado. 2006, №4. –В.43.
3. Исмоил Салимов. Мирзо Салимбек [Mirzo Salimbek]. Бухоро, 2011. –20 б.
4. Mirzo Muhammad Rahimbek. Esdaliklar. Vohidova Malohat Abduvahhob qizining shaxsiy kutubxonasidan. –100 varaq (200 бет).
5. Mirzo Salimbek. Tarixi Salimiy. O‘zR FA SHI qo‘lyozmasi, № 2016. –230 varaq.
6. Норкулов Н. “Та‘рихи Салими” – ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860–1920). Автореферат дисс... кан. ист. наук. Ташкент, 1968. –22 с.
7. Норкулов Н. “Тарихи Салими” как исторический источник //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1966, №4. –Б. 57-59.
8. Норкулов Н. Мирза Салимбек о Бухарских событиях 1918 года Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1966, №4. –Б. 59-61.
9. Норкулов Н. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, ввводная статья и примечания: к.и.н. Н.К.Норкулов. Ташкент, “Академиya”. 2009. –330 с.
10. Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан, История [Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. Ташкент, 1998. –534 с.

XUBBALIYEVA MAXPURAT*Tayanch doktorant, TDSHU***“Du Huanning borgan joylari xotirasi” sayohatnomasida
Markaziy Osiyo**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Du Huan va uning sayohatnomasi haqida so‘z boradi. Du Huan sayohatnomasida tashrif buyurgan joylari taxminan Sharqdan G‘arbga yo‘nalishda yozilgan. Maqolada Shosh podsholidan Djendju (Norin) daryosidan o‘tib Qang‘ davlatiga, so‘ngra Buxorodan Amudaryoni kesib o‘tib, uning janubiy qirg‘og‘idan Muguo (穆国) nomi bilan ham tanilgan Marvga (hozirgi Turkmanistondagi Mari shimolida) yetib borgan Du Huanning sayohat yo‘nalishi va o‘zi guvohi bo‘lgan voqea hodisalari haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, ushbu maqolada arablar va Tang sulolasi o‘rtasidagi Talas daryosi bo‘yida sodir bo‘lgan mashhur jangda ishtirok etgan Du Huanning taassurotlari batafsil bayon qilinadi. Du Huan bundan tashqari, Samarqand shahridagi qog‘oz ishlab chiqarish haqidagi ma‘lumotni yozadi. Du Huan sayohatnomasida Markaziy Osiyo to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, shaharlar hayoti, aholi yashash tarzi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy holati aks ettiriladi. Maqolada Du Huan sayohatnomasida keltirilgan davlatlar nomining izohlari keltiriladi. Du Huan g‘arbiy mintaqaning ko‘plab joylariga borib, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Osiyo, O‘rta dengiz sohillari hamda Afrikaga sayohat qilgan buyuk tadqiqotchi bo‘lgan. Buni uning “Sayohatnoma” asari tasdiqlaydi. Maqolada Du Huanning Abbosiylar davlati poytaxtiga hamda



Misir, Nubiya va Efiopiyaga tashrif buyurgani va aholining mashg'ulotlari haqidagi fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Du Huaning 762-yilda Fors ko'rfaziga qaytib, Shri-Lankaga tashrif buyurishi va 763-yilda savdo kemasida Guangjouga qaytib kelishi to'g'risida o'rganilib, maqolada bu yo'nalish bo'yicha fikr va xulosalar keltirildi.

Kalit so'z va birikmalar: Markaziy Osiyo, Talas jangi, Turk xoqonligi, Tang sulolasi, Abbosiylar sulolasi, Shosh mamlakati, Suyob, Marv davlati.

Abstract. This article is about Du Huan and his travel stories. Du Huan's guidebook lists the places he visited roughly from east to west. The article shows the route of Du Huan, who traveled from the kingdom of Shosh through the Jenju (Norin) river to the state of Kang, then crossed the Amu Darya from Bukhara and reached Marw, also known as Mugo (穆国) on its southern bank (north of modern Mari in Turkmenistan) and gives information about the events he witnessed. This article also details Du Huan's impressions of the famous Battle of the Talas River between the Arabs and the Tang Dynasty. Du Huan also writes information about paper production in the city of Samarkand. Du Huan's travelogue contains valuable information about Central Asia and reflects the life of cities, the way of living of the population, political, social and economic situation. The article provides explanations of the names of the countries mentioned in Du Huan's travelogue. Du Huan was a great explorer who visited many places in the western region and traveled to Central Asia, West Asia, the Mediterranean coast and Africa. This is confirmed by his work "Travel". The article analyzes Du Huan's visit to the capital of the Abbasid state and Egypt, Nubia and Ethiopia, as well as the opinions of residents about his teaching. This article examines Du Huan's return to the Persian Gulf in 762 to visit Sri Lanka, as well as his return to Guangzhou on a merchant ship in 763, and provides some thoughts and conclusions along these lines.

Keywords and expressions: Central Asia, Battle of Talas, Turkic Khanate, Tang Dynasty, Abbasid Dynasty, State of Shosh, Suyob, State of Marv.

Аннотация. В данной статье рассказывается о Ду Хуане и его описаниях путешествий. В путеводителе Ду Хуаня места, которые он посетил, перечислены примерно с востока на запад. В статье прослеживается маршрут Ду Хуаня из царства Шаи через реку Дженджу (Норин) в государство Канг, затем переправился через Амударью из Бухары и достиг Марва, известного также как Муго (穆国) на его южном берегу (к северу от современного Мари в Туркменистане) и дает сведения о событиях, свидетелем которых он был. В статье также подробно описаны впечатления Ду Хуаня от знаменитой битвы при Таласе между Арабским Халифатом и династии Тан. Ду Хуан также упоминает о производстве бумаги в Самарканде. Путеводитель Ду Хуаня содержит ценные сведения о Центральной Азии и отражает жизнь городов, образ жизни населения, политическую, социальную и экономическую ситуацию. В статье даются пояснения названий стран, упомянутых в путеводителе Ду Хуаня. Ду Хуан был великим исследователем, который посетил многие регионы западных земель и путешествовал по Центральной и Западной Азии, побережью Средиземного моря и Африке. Это подтверждает его работа «Путешествие». В статье проанализировано посещение Ду Хуаном столицы государства Аббасидов и Египта, Нубии и Эфиопии, а также мнения жителей о его обучении. В статье также исследуются возвращение Ду Хуаня в Персидский залив в 762 году с целью посетить Шри-Ланку, а еще его возвращение




в Гуанчжоу на торговом корабле в 763 году и приводятся некоторые выводы и размышления по этому поводу.

Ключевые слова: Средняя Азия, Битва при Таласе, Тюркское ханство, Династия Тан, Династия Аббасидов, Государство Шаи, Сяб, Государство Мерв.

Кирish. Bugungi kunda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar tobora strategik darajada rivojlanib borayotganligi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarining jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etishi natijasida Xitoy manbalarini o‘rganish va tadqiq etish dolzarb masala sifatida maydonga chiqdi. Bu borada Xitoy manbalari va sayohatnomalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qadimda va o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlarning sayohatnomalarida shaharlar hayoti, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat yoritiladi. “Du Huan sayohatnomasi” ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

“Du Huan sayohatnomasi” muallifi Du Huan (杜环, Dù Huán) hisoblanadi. Du Huan 762–763-yillarda yozgan bu asarida 12 yil davomida Turkistonning ko‘plab hududlarida ko‘rgan-kechirganlarini bayon qiladi.



Shuningdek, Du Huan sayohatnomasida Xitoyning Tang sulolasi (618–907-yillar) va Turk Xoqonligi o‘rtasidagi Buyuk ipak yo‘li ustidan nazorat qilish huquqini qo‘lga kiritish uchun bo‘lgan kurash, Talas daryosi bo‘yida sodir bo‘lgan jang haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Bu jangda asir olingan ko‘plab hunarmand va rassomlar Samarqandga olib ketilgan degan ma‘lumotlar uchraydi. Du Huan ularni Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarishni yo‘lga qoyganliklarini va do‘konlar ochganliklarini qayd etadi.

Mazkur manbalar bizga tarixni o‘rganishimizda, geografik tadqiqotlar qilishda muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Maqsad va vazifalar. Tadqiqotning maqsadi sifatida Xitoy sayohatnomalarida Markaziy Osiyo tarixiga oid berilgan ma‘lumotlarni tadqiq etish belgilangan. Qadimgi Xitoy manbalarida yurtimizga kelgan bir nechta xitoylik sayyoh va budda



rohiblarining xotiralarida madaniy aloqalar, savdo-sotiq munosabatlari, qadimiy shaharlar, ijtimoiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Tadqiqot davomida sayohatnomalarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni chuqur tahlil etish kabi vazifalar belgilangan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda uslubiy jihatdan, qiyosiy tahlil xususiyatiga ega mantiqiy-tarixiy, tizimlashtirish usullariga tayanildi. Tarixiy-qiyosiy tahlillardan so'ng ular asosida umumlashtirilgan xulolasalarga kelingan.

Natijalar va mulohazalar. VIII asrning 30–40-yillarida arablar shiddat bilan g'arbga yurish qilishdi, Tang sulolasi O'rta Osiyoning turli hududlarida o'rnatgan Djimi prefekturalari (羈糜府州, Jī mí Fūzhōu, Tang sulolasi davrida o'rnatilgan avtonom ma'muriy va siyosiy tashkiliy tizim) Tang hukumatidan harbiylarni yuborib, arablar istilosiga qarshi turishda yordam so'radi. Shu bilan bir vaqtda, Tibet imperiyasi zodagonlari Ansi to'rt garnizoni (Tang sulolasi davrida g'arbiy hududda harbiy kuch jamlangan to'rt hudud: Kucha, XoTang, Qashqar va Qarashar) qo'shni mamlakatlarga yanada shiddatli hujum qilib, talon-toroj qilishdi. O'sha davrda Tibet faoliyati Tang sulolasining g'arbiy hududdagi hukmdorligiga arablardan ko'ra kattaroq xavf yaratdi, shu sabab, Tang hukumati kuchlarni to'plab, Tibetga qarshi chiqish strategiyasini qo'lladi. Tang hukmdori Syuan Zong¹ hukmronligining oxirida Tibet Patola Shahis (Gilgit buddizm qirolligi)ni egallab, uning atrofidagi 20 dan ortiq mamlakatlarni boshqarar edi. Tang hukumati uch marta Ansi protektorati harbiy hokimini Tibetga qarshi yurishga yuborgan bo'lib, barcha yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagan. 747-yil Ansi protektorati hokimi o'rinbosari, to'rt garnizon harbiy qo'mondoni (四镇都知兵马使, Ansi to'rt garnizonining harbiy bo'limiga mas'ul yuqori darajali zobit) Gao Syandji o'n ming askar bilan Tibet imperiyasiga yurish qilib, kuchli zarba beradi. Gao Syandji qo'shini bilan Pomir va Hindukush tog'laridan oshib, Tibet imperiyasiga kiradi. Ular Tibetning g'arbiy hududlarga bosqinini to'xtatib, Tibetga qarshi kurashda ulkan g'alabaga erishdilar. Shu bilan bir vaqtda, arablarning Sharqqa bo'lgan bosqiniga ham ulkan zarba berib, bosqinni to'xtatishdi. Gao Syandji Ansi protektorati hokimi va to'rt garnizon harbiy hokimi lavozimiga ko'tarildi. Ulkan muvaffaqiyatga erishgandan so'ng, Gao Syandji ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, Shosh mamlakati (hozirgi Toshkent) ga bo'lgan munosabat masalasida katta xatolikka yo'l qo'ydi.

Shosh mamlakati (石国, Shí guó) (poytaxti Toshkentda joylashgan) Gao Syandji Ansi protektorati hokimi o'rinbosari va hokimi lavozimini egallagan davr mobaynida Shosh qiroli Tang hukumatiga sodiq bo'lib, arablarning Sharqqa istilosiga qarshilik ko'rsatish urushlarida juda katta rol o'ynadi. 750-yil Toxariston Yabg'usi Shosh hukmdori Tibet bilan aloqasi borligi haqida maxfiy ravishda xabar

¹玄宗 Xuánzong – Syuan Zong 712–756-yillarda Tang sulolasi hukmdori.



beradi. Gao Syandji Shosh hukmdori “vassallik odobi” ga amal qilmaganligi sababli unga qarshi yurish uyushtirishga izn so‘radi. Gao Syandji Tang qo‘shiniga boshchilik qilib, Shoshga kirib boradi. Bu sayohatnoma muallifi Du Huan mazkur qo‘shin askari edi. Tang qo‘shini o‘rab olib hujum qilgandan keyin, Shosh hukmdori taslim bo‘ldi. Shundan keyin Gao Syandji Shosh hukmdori va uning rafiqasini Chang An (长安, Cháng’ān, hozirgi Syan shahri) ga jazo ijro etishga yuborib (bosh kesish jazosi), Shoshning katta hajmdagi o‘lja (oltin, kumush, qimmatbaho toshlar)ni qo‘lga kiritdi. Shosh shaxzodasi qochib, O‘rta Osiyodagi mamlakatlarga Gao Syandjining vahshiyiligini oshkor qildi. Bu Shoshga bo‘lgan hamdardlik hissini hamda Gao Syandjiga bo‘lgan g‘azab va nafratni uyg‘otdi. Natijada arablar sharqqa urushni amalga oshirishdi. Gao Syandji o‘ttiz ming askardan iborat qo‘shinga boshchilik qilib, arablar bilan to‘qnashuvga kirishdi. Bu to‘qnashuv Talasgacha besh kun davom etdi. Tang qo‘shinidagi qarluqlar xiyonat qilib, arablar bilan birgalikda Tang qo‘shiniga ikki tomondan zarba berdilar. Gao Syandji butunlay mag‘lub bo‘ldi va askarlarining deyarli barchasi nobud etildi. Gao Syandji qiyinchilik bilan qaytib borgan bo‘lsa-da, o‘limdan qochib qutilgan Tang qo‘shinining aksariyati arablar tomonidan asir olingan bo‘lib, Du Huan ham ularning safida edi.

Du Huan asir olingach, O‘rta va G‘arbiy Osiyo hamda O‘rta dengiz bo‘yidagi turli hududlarda 12 yil sarson bo‘lib, 762–763-yillar savdogarlar kemasiga o‘tirib, Guangjouga qaytib boradi. U o‘zining barcha ko‘rib-eshitganlarini “Sayohatnoma” da yozib jamladi. Afsuski, mazkur kitob tarqalib ketgan. Quvonarlisi shundaki, “Keng qamrovli ensiklopediya” (《通典》¹, Tōng diǎn) sining bir bo‘limida saqlanib qolgan.

Xitoy va chet elda ko‘plab tarixchilar “Sayohatnoma”ni o‘rganib tekshirishgan. Xitoyda Ding Chyen “Sayohatnomaning geografik tadqiqoti” (《经行记地理考证》, Jīng xíng jì dìlǐ kǎozhèng),² Vang Guovey (王国维, Wáng Guówéi) “Qadimiy sayohatnoma tekshirilgan jamlanmasi” (《古行记校录》, Gǔ xíng jì jiào lù) da “Sayohatnoma” tekshirilib, izoh berilgan. Ozodlikdan avval Djang Yichun (张一纯, Zhāng Yīchún) “Du Huan sayohatnomasiga izohlar” (《杜环经行记笺记》, Dù Huán Jīngxíngjì jiān jì) asarini yozib, u yerda ko‘p izohlar qoldirdi va ma’lumotlarning aniqliligini tekshirib, ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarini jamladi.

¹ “Tongdian” Xitoy tarixidagi Tang Duyou tomonidan yozilgan birinchi to‘liq siyosiy kitob. U Chjenyuan hukmronligining 17-yilida (801-yil) Tang sulolasi imperatori Dezong tomonidan tuzilgan va o‘ttiz yildan ortiq davom etgan. Bu kitob Huang Yu (Sariq imperator va Yu oilasi) davridan Tyanbao oxirigacha, Tan sulolasi imperatori Syuanszun hukmronligigacha bo‘lgan qonun va qoidalarning evolutsiyasini alohida batafsil bayon qilib beradi. Ushbu kitob “O‘n havola” ro‘yxatiga kiritilgan.

² 丁謙. 叢書集成三編: 浙江圖書館叢書. 藝文印書館, 1971.



Mazkur kitobdagi “Sayohatnoma” tarixchi Djang Yichunning tekshiruv va izohlariga asoslangan. Shuningdek, sayohatnomada biz quyidagi davlatlarni o‘rganishimiz mumkin.

Suyob mamlakati (1)¹. Ansidan shimoli-g‘arb tomonda 500 km dan ortiq masofada Bedel dovoni² bor. Dovonning janubi Tang davlatining shimoliy chegarasi, dovonning shimoli esa Turk xoqonligining janubiy chegarasi, janubi-g‘arbda 1000 km dan ortiq masofada Pomir tog‘i jolashgan. Dovonning janubidan oquvchi suv Xitoydan o‘tib, Sharqiy Xitoy dengiziga quyiladi. Uning shimolidan oquvchi suvlar esa kichik etnik qabilalar yashovchi hududdan oqib, Shimoliy dengizga quyiladi. Shimolga bir necha kun yurilsa, Bogda-Ula³ cho‘qqisidan o‘tiladi. Uning dengizi tog‘da joylashib, bahor va yozda ko‘pincha yomg‘ir va qor yog‘adi, shu sabab xitoy tilida “Qor dengizi” (雪海, Xuě hǎi) deb nomlanadi. Uning o‘rtasida ingichka yo‘l bo‘lib, yonida suvli g‘or bor, uning kengligidan bu yerdan o‘tgan yoki bu yerga yiqilgan odam o‘zining qayerdaligini bilmay qoladi.

Bedel dovoni⁴ shimolida 500 km dan ortiq masofada Chu daryosi⁵ bor. Daryoning sharqiy boshida Issiqko‘l bor, bu yer sovuq bo‘lsa ham muzlamaydi, shu sabab xitoychada “Issiq dengiz” (热海, Rè hǎi) deb nomlanadi. Shu bilan birga, Suyob

¹ 碎叶国 (Suì yè guó) – “Buyuk Tang sulolasida G‘arbiga sayohat” asarida keltirilgan Suyob shahri (hozirgi nomi Oqbeshim). Syuan Szan (g‘arb mintaqasiga sayohat qilgan rohib) kelgan paytda “shahar 3–3,5 km ni tashkil etib, u yerda Markaziy Osiyo, Fors mamlakatlari, Hindiston kabi turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar istiqmot qilar edi”. Tang sulolasi hukmdori Li Dji (boshqa nomlari: Gao Zong, Diao Lu) hukmronligining birinchi yilida (milodiy 679-yil) Ansi protektorati hokimini tekshirish uchun yuborilgan Vang Fangyi (王方翼) “Suyob shahrini barpo etdi. Uning 4 tarafdin 12 eshigi bo‘lib, himoyani yengillashtirish uchun shaharga kirish va chiqish buriluvchan va berkinishga qulay shaklda qurilgan bo‘lib, qurilish ellik kunda tugatilgan. G‘arbiy hududda yashovchi aholi (胡人 – Tang sulolasi davrida Xitoyning shimoliy va g‘arbiy hududida yashagan, asosan, g‘arbiy hudud va Markaziy Osiyodan kelgan ko‘chmanchi xalqlar: uyg‘urlar, turkiy xalqlar, tibet etnik guruhi, qashqarlar va hokazo) shaharni ko‘rishga kelganda uning qanday qurilganligini anglay olmaganlar” (“Yangi Tang tarixi: Vang Fangyi haqida”/ 《新唐书·王方翼传》). Uning hajmi Tang sulolasi davridagi asl ko‘rinishidan farq qilib, hozirda bu shahar Qirg‘iziston Respublikasining To‘qmoq shahrida joylashgan.

² 勃大岭 (Bó dá líng) – hozirgi Shinjon–Uyg‘ur muxtor rayoni Uchturfan uyezdi hududidagi Xitoy Xalq Respublikasi va Qirg‘iziston chegarasi hududida joylashgan Bedel dovoni. Eduar Shavanning fikricha, “G‘arbiga sayohat” asaridagi Lingshan tog‘i deb Bedel dovoni nazarda tutilgan.

³ 雪海 (Xuě hǎi) – Eduar Shavanning fikricha, Djijim-bel tog‘idagi bir guruh ko‘l (Tang sulolasi davrida shimoli-g‘arbiy chegara nomi bo‘lib, Issiqko‘ldan 50 km uzoqlikda joylashgan) (Bogda-Ula cho‘qqisi).

⁴ 勃大岭北 (Bó dá líng běi) – uning joylashuvidan kelib chiqilsa, bu yerda shimoli-g‘arb nazarda tutilgan bo‘lib, “g‘arb” so‘zi tushib qoldirilgan bo‘lishi mumkin.

⁵ 碎叶川 (Suì yè chuān) – “G‘arbiga sayohat” asaridagi “Suyob suvi” (碎叶水), “Yangi Tang tarixi” (新唐书, Xīn táng shū) da “Siye shuy” (细叶水) deb nomlangan hozirgi Chu daryosi.



shahri mavjud bo‘lib, 749-yil Beyting Protektorati (北庭, Běi tíng) harbiy hokimi Vang Djengjyan (王正见, Wáng Zhèngjiàn) yurish qiladi. Shahar devorlari vayron qilinadi, shahar aholisi tarqalib ketadi, ilgari Malika Dzyaohe¹ yashagan joyda qurilgan Dayun ibodatxonasi² hali ham mavjud. Daryoning g‘arbi esa Shosh bilan qo‘shni bo‘lib, masofasi taxminan 500 km dan ortiqni tashkil etadi. Daryo markazida esa turli qabilalar va boshqa familiyali turkiy xalqlar istiqomat qiladi. Har birining bir necha o‘n minglik qo‘shini bor, shaharlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, o‘zaro urushlar va to‘qnashuvlar ko‘p bo‘lib turadi. Har bir dehqon sovut kiyib, o‘zaro talon-toroj uyushtirishadi va shu bilan qullikka olishadi. Daryoning g‘arbiy boshida Talas (yoki Taraz)³ nomli shahar bo‘lib, Shosh mamlakati katta shahri hamda 751-yil Gao Syandji mag‘lubiyatga uchragan joydir. Bu yerdan sharqda O‘rta dengiz bor bo‘lib, mart oyidan sentabrgacha havo ochiq bo‘ladi, aholi qor suvi yordamida ekin ekishadi, arpa, bug‘doy, guruch, no‘xat, dala no‘xati (yashil) eksa bo‘ladi, uzum sharbati (vino), tariq sharbati va sirkali sut ichishadi.

Shosh mamlakati, boshqa nomlari 赭支 (Zhě zhī) va 大宛 (Dàyuān)⁴ bo‘lgan. Tang hukmdori Syuandzong hukmronligining 742–756-yillari oralig‘ida to‘rt garnizon harbiy hokimi Gao Syandji mamlakat qiroli va uning rafiqasini asir olib poytaxtga qaytgan. Mamlakat hududida ikki asosiy suv – Djendju daryosi (真珠河, Zhēnzhū hé)⁵ va Dji daryosi (质河, Zhì hé)⁵ (ikki daryo hozirgi Norin daryosining

¹ 交河公主 (Jiāohé gōngzhǔ) – “Tang sulolasining institutsional tarixi” (《唐会要》, Táng huì yào): “(Malika) Dzyaohe Xoqon Ashina Huaydaoning qizi bo‘lib, 717-yil dekabr oyi Turk xoqoni Sulukka turmushga chiqqan”. “Boshqaruvga yordam beruvchi keng qamrovli o‘maklar” (《资治通鉴》, Zīzhì Tōngjiàn) da 722-yilda bo‘lgan deb yozilgan. “Eski Tang tarixi” (《旧唐书》, Jiù táng shū) da 715-yilda deb yozilgan bo‘lib, malika “Malika Dzinhe” (《金河公主》, Jīnhé gōngzhǔ) deb nomlangan.

² 大云寺 (Dà yún sì) – Dayun ibodatxonasi, U Dzetyan davrida “Dayun diniy yozuvlari” (《大云经》, Dà yún jīng) butun mamlakatda tarqatilgan bo‘lib, qadimdan hozirgacha Kuchar, Qashqar, Dunhuan, Uvey shaharlarida Dayun ibodatxonasi qurilgan.

³ 怛罗斯 (Dáluósī) – hozirgi Taraz yoki Talas shahri bo‘lib, “G‘arbiga sayohat” asarida “坦逻斯城” (Dáluósī chéng) nomi bilan berilgan. “Shahar 4–4,4 km atrofida bo‘lib, u yerda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar istiqomat qilgan”.

⁴ 大宛 (Dàyuān) – Shosh mamlakati bo‘lib, uning poytaxti hozirgi Toshkent. “Vey sulolasi tarixi” (《魏书》, Wèi shū) da “Dje she” (者舌, Zhě shé) nomi bilan keltirilgan. “Tang sulolasi tarixi” (《唐书》, Táng shū) da “Dje dji” (柘支, Zhè zhī), “Dje si” (柘析, Zhè xī) nomlari bilan, “G‘arbiga sayohat” asarida esa “Dje shi” (赭时, Zhě shí) nomi bilan kelgan.

⁵ 质河 (Zhì hé) – hozirgi Norin daryosi bo‘lib, “Yangi Tang tarixi: G‘arbiy shaharlar haqida” (《新唐书·西城传》) asarining Shosh (hozirgi Toshkent) bo‘limida: “janubi-g‘arbda Sirdaryo daryosi bo‘lib, Xitoyga “Djendju daryosi” (真珠河, Zhēnzhū hé) sifatida kiradi, yana bir nomlanishi – “Dji daryosi” (质河, Zhì hé). Bu yerda aytib o‘tilgan “Djendju daryosi” deb hozirgi Sirdaryoning yuqori oqimidagi Norin daryosi nazarda tutilgan. “Yangi Tang tarixi” asarida “Djendju daryosi” “Dji daryosi” ni anglatgan.



qadimgi nomi) bo‘lib, shimol va g‘arbga oqadi. Du Huan yeri tekis va keng bo‘lib, ko‘p mevalar o‘sadi, kuchuklar va yaxshi sifatli otlari bor deb ta’riflaydi.

Farg‘ona (So‘g‘d bekligi)¹ Talasdan 500 km janubda, sharqda tog‘lar bor, Shule mamlakati bilan 1000 km dan ortiq masofa bor, g‘arbda 500 km dan uzoqda Shosh mamlakati bor. Ko‘plab shaharlari bor, bir necha o‘n minglab askarlari bor. Tang sulolasi Syuan Dzung hukmronligi davrida milodiy 752-yili Malika He I ushbu mamlakatga turmush qurish uchun yuborilgan². Vodiya yovvoyi kalamushlar juda ko‘p. Bu yerda uzum, amalaka³, xurmo, shaftoli va nok yetishtirish qulay. Bu yerdan O‘rta dengizgacha barcha aholi loydan qilingan uylarda yashagan, qo‘y terisidan qilingan matolarda kiyinishgan, erkak va ayollarning barchasi etik kiyishadi, ayollari oq upa surishmaydi, faqatgina qoshga ko‘k-qora suyuqlik surishadi.

Qang‘ davlati (康国, Kāng Guó, hozirgi O‘zbekiston Samarqand shimoliy hududi) Mi davlati (米国, Mǐguó, hozirgi Samarqand hududidagi Panjakent shahri yoki Maymurg‘ bo‘lishi mumkin) ning janubi-sharqida 150 km dan ortiq masofada joylashgan bo‘lib, yana bir nomi Samodyen (萨末鞬, Sà mò jiān), yeri unumdor, xalqi boy, mamlakat kichik. Zardushtiy (祆, xiān) nomli xudoga ibodat qiladigan joy, ko‘plab davlat ishlari bilan shug‘ullanuvchilar shu yerdan chiqqan.

756-yilda Fors arablar tomonidan vayron qilinganiga yuz yildan oshgan edi.

Arablar, boshqa nomi Al-Kufah⁴ arablar hukmdori nomi Mo‘min (bu yerda Emir al-muminin, ya’ni Mo‘minlar amiri nazarda tutilgan) bo‘lib, poytaxti Kufa

¹ 拔汗那国 (Bá hàn nà guó) – Farg‘ona (So‘g‘d bekligi). “Vey sulolasi tarixi” (《魏书》, Wèi shū) da “Poluona” (破洛那, Pò luò nà), “Suy sulolasi tarixi” (《隋书》, Suí shū) da “Pohan” (跋汗, Pō hàn), “G‘arbga sayohat” da esa “Peihan” (怛捍, Pèi hàn) deb nomlanib, poytaxti Farg‘onada joylashgan.

² 大唐天宝十年, 嫁和义公主于此国。Tang sulolasi Syuan Dzung hukmronligi davrida milodiy 752-yili Malika He I ushbu mamlakatga turmush qurish uchun yuborilgan. “Yangi Tang tarixi: G‘arbiy shaharlar haqida” (《新唐书·西城传》): “Tang sulolasi Syuan Dzung hukmronligi davrida milodiy 744-yili Farg‘ona (So‘g‘d bekligi) nomi “Ning yuan” (宁远, Níngyuǎn) ga o‘zgartirildi. Tang imperatori mamlakat qiroliga ona tomon familiyasi “Dou” (窦, Dòu) ni sazovor qildi hamda unga imperator oilasidan bo‘lgan Malika He I ni turmushga berdi”. “Tang sulolasining institutsional tarixi” (《唐会要》, Táng huì yào), “Bitiklar bo‘limining o‘maklari” (《册府元龟》, Cè fǔ yuán guī), “Boshqaruvga yordam beruvchi keng qamrovli o‘maklar” (《资治通鉴》, Zīzhì Tōngjiàn)” kabi asarlarda ushbu hodisa Tang sulolasi Syuan Dzung hukmronligi davrida milodiy 744-yili sodir bo‘lgan deb qayd etilgan. Bu yerda esa “Tang sulolasi Syuan Dzung hukmronligi davrida milodiy 752-yili” deb berilgan bo‘lib, xatolikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

³ 鼈罗果 (Ān luō guǒ) – Amalaki deb nomlanuvchi meva. Li Shidjenning “Tibbiy moddalar jamlanmasi” (《本草纲目》, Běncǎo gāngmù) asarining 33-jildida: “Amalaki keng tarqalgan nomi “Syanggay” (香盖, Xiāng gài)” bo‘lib, mevalar ichida eng yaxshi turi hisoblanadi. U g‘arbda o‘sib, olmani eslatuvchi meva turidir”.

⁴ 亚俱罗 (Yà jù luō) – Akula/Al-Kufah, hozirgi Kufa shahri. “Dashi” (大食, Dà shí) nomi fors tilidagi transliteratsiyasi bo‘lib, “savdogar”, “cho‘pon”, ba’zida esa “ongli va dono” ma’nolarini anglatib, arablar nazarda tutilgan. Al-Kufah (亚俱罗, Yà jù luō) nomi arabcha tovushdan kelib chiqqan.



shahri. Bu yerning yosh erkak va ayollari o'ziga xos chiroyli, qaddi-qomatli (baland bo'yli va jussali), rangli va toza kiyimlarga kiyinadi, nafis va chiroyli ko'rinishi va xulq-atvorga ega. Ayol-qizlar ko'chaga chiqqanida yuzini albatta yopadi. Zodagon va kambag'alga ajratishmaydi, bir kunda besh marotaba namoz o'qishadi, go'sht yeyishadi, ro'za tutishadi. Ular kumush kamar taqishadi, sharob ichishmaydi, musiqa tinglashmaydi. Odamlar urushib qolishsa, hujum qilishgacha bormaydi. Ibodatxona (bu yerda masjid yoki odamlar birga namoz o'qiydigan joy nazarda tutilgan) bir necha o'n ming odamni sig'diradi. Har yetti kunda amir namozga chiqadi, yuqori joyga o'tirib, odamlarga din haqida so'zlaydi: "Inson hayoti qiyin, taqdir (qadar) oson emas. Zolim talon-toroj qilmaydi, yolg'on ko'p gapiradi, o'z xavfsizligini o'ylaydi, lekin boshqalar xavf soladi, kambag'al va nochorlarga zulm qiladi, bularning birini qilish ham, bundan-da kattaroq gunoh yo'q. Yurishga chiqqanda, dushman tomonidan o'ldirilganlar albatta osmonda (jannatda) yashaydi, dushmani o'ldirgan cheksiz boylikka erishadi". Yeri tabiiy ravishda ozuqalanadi (bu yerda odamlar bunday nasihatni yaxshi qabul qiladi degan ma'no bo'lishi mumkin), ular amirning gapiga quloq soladi va amal qiladi. Ularning dini muruvvatli, janozani tejamkorlik bilan o'tkazishadi, shahar ichida va qishloqlarda turli ekinlar, meva va sabzavotlar o'sadi. U yerda har tomondan odamlar yig'ilgan, turli buyumlar arzon narxda sotiladi, qimmatbaho toshlar va matolar bozor do'konlarida to'lib turadi. Odamlari ko'chalarda ot, eshak va xachirda yurishadi. Uylarida toshlarga o'yib yozilgan, Xitoydagi hashamatli aravalarga o'xshaydi. Bayramlarda zodagonlarga son-sanoqsiz shishali idishlar, misdan qilingan ovqat va suv soladigan idishlarni tuhfa qilishardi. Guruch va uni Xitoynikidan farq qilmaydi. U yerda bodom va palmada o'suvchi xurmo o'sadi, ularning sholg'omi taxminan 6 kg vaznda katta bo'lib, yumaloq shakl va juda xushbo'y hidga ega. Boshqa sabzavotlari boshqa davlatlarniki bilan o'xshash. Uzumlari tovuq tuxumidek katta. Ikki turdagi sifatli kunjut yog'i bor: birinchisining nomi – Yasmin, ikkinchisining esa – Meydzashi (没匠师, Méi zā shī). Vanilning ham ikkita sifatli turi bo'lib, birinchisining nomi – Chasaybeng (查塞奉, Chá sāi bēng), ikkinchisining nomi – Petrushka (萋芦荟, Qiā lú bá). Ingichka ipak tikiladi, oltin va kumush hunarmandlari, rassomlar bo'lib, xitoylik hunarmandlardan Tang sulolasi poytaxti Chanandan Fan Shu (樊淑, Fán Shū) va Lyu Tsi (刘泚, Liú Cǐ) kabi rassomlar, tikuvchilardan Hedonglik Le Yun (乐陨, Lè Yǔn) va Lyuy Li (吕礼, Lǚ lǐ) lar shu yerda bo'lgan. Tuyada ham yurishadi. Ularning otlari ba'zilarning aytishi bo'yicha O'rta dengiz sohilidagi ajdar va ot o'zaro juftlashishidan paydo bo'lgan bo'lib, qorni kichik, oyog'i uzun, oliy navdagilari bir kunda 500 km yurishi mumkin. Ularning tuyalari kichik va ozg'in, belida bir o'r-kachi bor, yaxshilari bir kunda 500 km yurishi mumkin. Tuyaqushlari ham bo'lib, 1,33 metrdan baland, oyog'i tuyaning tuyog'iga o'xshaydi, bo'ynida odam o'tirsa



bo'ladi, 2,5–3 km yo'l bosa oladi, tuxumi taxminan 1875 gramm bo'ladi. U yerda jag'-jag' daraxti ham o'sadi, yozgi xurmoga o'xshaydi, yog' qilsa bo'ladi. U yer-ning iqlimi iliq, yerida muzlagan qor bo'lmaydi, odamlar bezgak va ich-burug' bilan ko'p kasal bo'lishadi, bir yilda o'ntasidan beshtasi vafot etadi. Ho-zirgi kunda (asar bo'yicha) 40–50 ta mamlakat va shaharlarni zabt etib, o'ziga qo'shib olgan bo'lib, barchasi arablarga bo'ysunadi. Ko'p askarlari shaharlarni qo'riqlashga jalb qilingan. Ularning hududi O'rta dengizda tugaydi.

Marv (未祿国, Mò lù guó)¹, Yamey mamlakati (亚梅国, Yà méi guó) janubi-g'arbidan 350 km dan ortiq masofada joylashgan. Kichik etnik millatlardan Mo familiyaliklar aynan shu yer aholisidir. Marv 7,5 km atrofida, temir eshigi bor, shahar o'rtasida tuzli hovuz va ikkita buddizm ibodatxonasi bor. Uning hududi sharq va g'arb 70 km, janub-shimol 90 km ni tashkil etib, qishloqlari o'zaro bog'langan, daraxtlari juda zich joylashib, bir-biriga quyosh nurini tushiradi, to'rt tarafi o'ralgan; to'xtovsiz qum bo'lib, janubidan katta daryo mamlakat hududiga oqib kiradi², juda ko'p kanallarga bo'linib, atrofni sug'oradi. Yeri juda unumdor, odamlar orasta, uylari baland va qalin, shahar do'konlari adolatli va halol, daraxt bilan o'ymakorlik qilishadi, yer yordamida rasm chizishadi. Ularda yupqa kiyimlar, qo'y terisidan qilingan katta ustki kiyim (palto) lari bor bo'lib, ularning sifatilari bir necha yuz kumush pulga teng bo'lishi mumkin. Mevalardan qizil shaftoli gullari, yasmin, sariq nok bor, katta poliz ekinlari Syundji mevasi bor bo'lib, uning bir donasi 10 tadan ortiq odamga yetadi. Tuzlangan qovun 1,33 m dan uzun. Sabzavotlardan sholg'om, turp, uzun piyoz, suvli guruch, ko'plab uzum. Shuningdek, qoramol, yovvoyi ot, churrak, kaklik bor. Udum bo'yicha, may oyi yilning boshi bo'lib, har yili idishlarga chizib o'zaro sovg'a qilishadi. To'p o'ynash bayrami, arg'imchoq bayrami bor. Arablarning elchilari shu yerda uzoq turishadi. Bu yerdan O'rta dengizga qarab, arablar, forslar istiqomat qilishadi. Ular namoz o'qishadi, o'lik go'sht va kechagi go'shtni yeyishmaydi, kunjut yog'ini sochiga surishadi.

Shan mamlakati (苦国, Shān guó)³ arablar g'arbiy chegarasida, atrofi bir necha ming km ni tashkil etadi. Uylarini barpo etganda toshlarni yig'ib devor qi-

¹ 未祿国 (Mò lù guó) – hozirgi Marv xarobalari. Qadimgi mamlakatning poytaxti bugungi Turkmanistonning Mari shahri shimolida joylashgan. Kechki Han sulolasi davrida “Mulu shahri” (木鹿城, Mùlù chéng), Suy sulolasi davrida “Mu mamlakati” (穆国, Mù guó), “Yuan tarixi” (元史, Yuánshǐ) asarida esa “Malu” (马鲁, Mǎ lǔ) nomi bilan atalgan.

² Hozirgi kunda Murg'ob daryosi janubdan oqib kelib, shaharning janubidan o'tadi. Shunday ehtimol ham borki, qadimda Amudaryo Kaspiy dengiziga oqib o'tadi va bu daryo Amudaryo bo'lishi kerak. Ammo Tang sulolasi davrida Amudaryo Orol dengiziga oqqan.

³ 苦国 (Shān guó) – odatda, hozirgi Suriya hududidagi Damashq nazarda tutiladi. Ba'zilar fikricha, hozirgi Kavkazning janubi nazarda tutilgan. Ba'zilar fikricha esa, suriyaliklar



lishadi, don va oziq-ovqatlari juda arzon. Katta daryo sharqdan Al-Kufaga oqib kiradi. Savdogarlar to'xtovsiz savdo-sotiq bilan shug'ullanishadi. Odamlar jussali va baland bo'yli, kiyimlari keng, konfutsiy ta'limotiga e'tiqod qiluvchilar kiyimiga o'xshaydi. Shan mamlakatining 5 boshqaruv tizimi bor, o'n mingdan ortiq askari bor, shimolda turkiy hazarlar¹ bilan chegaradosh, turkiy hazarlar shimolida turkiy xalqlar bor.

Vizantiya imperiyasi (拂菻国, Fú lǐn guó)² Shan mamlakati g'arbida joylashgan bo'lib, ming km masofasida tog' bilan to'silgan. Da Chin (大秦, Dà Qín) deb ham nomlanadi. Odamlari oq va qizil rangda, erkaklarining hammasi ochiq rangli kiyim kiyishadi, ayollarining barchasi esa taqinchoqli ipak matolar kiyishadi. Vino va qatlamani yaxshi ko'rishadi, hunarmandlari qo'li gul, tikuvchilari ham o'z ishining ustasidir. Agar ulardan biri boshqa davlatda asir bo'lsa, o'lsa ham o'z odatlarini o'zgartirmaydi. Shisha hunarmandchilikda dunyoda hech kim bas kelolmaydi. Poytaxt 40 km atrofida, umumiy hududi 1000 km larga uzayadi, askarlari taxminan 1 milliondan ortiqni tashkil etib, ko'pincha arablar bilan to'qnashishadi. G'arbida O'rta dengiz, janubida Janubiy Xitoy dengizi, shimolida turkiy hazarlar bor. O'rta dengizning markazida bozor bo'lib, mehmon va mezbonlari ahil, savdo-sotiq faol amalga oshiriladi, lekin sotuvchi va xaridor bir-birini ko'rmaydi, barchasi xaridorlar olmoqchi bo'lgan buyum oldiga to'g'ri chiziq (yoki to'g'ri tayoq, bu yerda pul nazarda tutilishi ham mumkin) qo'yadi, sotuvchilar uni olishgandan keyin, xaridor buyumni qabul qiladi. Bu bozor "Ruhlar bozori" ("G'alati bozor") deb atalgan.

Mag'rib (摩邻国, Mó lín guó)³, Basraning janubi-g'arbida joylashgan. Cho'ldan 1000 km yurib, bu yerga kelish mumkin. Aholining odatlari qo'pol, guruch va bug'doyi kam, o'simlik va daraxtlari yo'q, otlari qurigan baliq yeydi, odamlari fors xurmosini yeydi. Bezgak keng tarqalgan.

abbosiylar sulolasining eng dastlabki poytaxti Al-Kufah, ya'ni hozirgi Iroqdagi Kufa shahri bo'lgan.

¹ 可萨突厥 (Kě sà tūjué) – Turkiy hazarlar 7-asrda Orol, Kaspiy va Qora dengizlarda faoliyat ko'rsatgan turkiy xalq va mamlakat bo'lib, uning siyosiy markazi hozirgi Volga daryosining quyi oqimida joylashgan Astraxan hududidir. Ilgari G'arbiy turk xoqonligi qaram bo'lib, uzoq davr Fors bilan to'qnashuvda, Vizantiya imperiyasi bilan esa do'stona munosabatda bo'lgan.

² 拂菻国 (Fú lǐn guó) – Vizantiya imperiyasi. Feng Chengjunning fikricha, bu O'rta dengizning sharqiy sohilida yashovchi yevropaliklarning forschadagi nomi bo'lib, Vizantiya imperiyasi va G'arbiy Osiyodagi O'rta dengiz sohillarini anglatadi.

³ 摩邻国 (Mó lín guó) – hozirgi Mag'rib shahri. "Yangi Tang tarixi: Vizantiya imperiyasi haqida" (《新唐书·拂菻传》): "Vizantiya janubi-g'arbidagi jaziradan 1000 km da joylashgan bo'lib, ba'zida "Molin" (磨邻, Mó lín), ba'zida "Laoleysa" (老勃萨, Lǎo bó sà) deb atalgan". Ding Chyen (丁谦, Dīng Qiān) ning izlanishicha, Molin Afrikadagi Marokash bo'lishi ehtimoli bor, Laoleysa esa Kastiliya Qirolligi yoki Mag'rib, hozirgi Ispaniya.



Ko'p mamlakatlarga borishda bu yerdan o'tiladi. Bir ko'li bor, dinlari turli xildir. Islom dini, xristianlik va zardushtiylik¹ dinlari bor. Ulardan zardushtiylik rivojlanib, xorijiyilar orasida keng tarqalgan, ovqat yeganda gapirishmaydi. Musulmonlar o'z ukalari, shogirdlari va qarindoshlari orqali o'rnak berishadi mezon o'rnatishadi, kichik xato qilishsa ham, o'zaro tortishuv va keyingi noxush hodisalarga cho'zilib ketmaydi. Cho'chqa, it, eshak, ot go'shtlarini yeyishmaydi, mamlakat hukmdori va ota-onasiga sajda qilishmaydi (eng ulug' zot deb ko'rmaydi), ruhlarga ishonishmaydi, Allohgagina ishonib qurbonlik qilishadi. Ularning odaticha, har yetti kunda bir dam olishadi, savdo qilishmaydi, pul va hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanishmaydi, kuni bo'yi sharbat (vino/spirtli ichimlik) ichib, o'yin-kulgiga berilishadi. Xristianlar ko'z kasalliklari va ichburug'ni tuzatishga, kasal ko'rinmasidan uni aniqlashga usta.

Shidzi mamlakati (hozirgi Shri Lanka)² SinTang (新檀, Xīn tán) va Poluomen (婆罗门, Pólúómén) deb ham nomlangan bo'lib, janubiy Tyandju (南天竺, Nán Tiānzhu) hisoblanadi. Undan shimolda odamlarning hammasi xorijiy ko'rinishda (mo'ylovli yoki chiroyli ko'rinish degan ma'noda aytilgan bo'lishi ham mumkin), kuz va yozda falokat va qurg'oqchilik bo'ladi; janubida esa odamlar ko'rinishi xunuk, to'rt fasl to'xtovsiz yomg'ir yog'adi. Buddizm ibodatxonalari qurilishi bu yerdan boshlangan bo'lib, odamlarning barchasi yonoqdan quloqqacha yuziga naqshlar chizishadi, kiyimini belga o'rashadi.

Xulosa va takliflar. Xitoy tarixining manbalari xilma-xil va boydir. Ular orasida qadimgi tarixga oid sayohatnomalar alohida o'rin tutadi va ularni o'rganish muhim vazifalardan biridir. Du Huan sayohatnomasida Markaziy Osiyo tarixiga oid ma'lum voqea-hodisalar, shaharlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Sayohatnomaning qimmatli ekanligi shundaki, unda voqealarning aniq bayon qilinishi va shu davr siyosiy, ijtimoiy, madaniy tarixini aniq ifodalaydi:

*Birinchi*dan, Tang qo'shinlari orasida qog'oz ishlab chiqaruvchi ishchilar ko'p edi. Shuning uchun arablar Samodyen (hozirgi Samarqand, O'zbekiston) qog'oz ishlab chiqaruvchi zavod qurishadi. O'shandan boshlab Xitoyning qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi O'rta Osiyoga kirib keldi, keyinchalik Arabistondan Yevropa va butun dunyoga tarqaldi. Jahon sivilizatsiyasining tarqalishi qog'oz ishlab chiqarishning hissasi tufayli jadal ravishda sodir bo'ldi. Xitoyning qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasining G'arbga tarqalishi Talas jangining kutilmagan va g'ayrioddiy natijasi haqida ma'lumotlarni ko'ramiz.

¹ 寻寻 (Xún xún) – G'arbiy O'rta dengizdagi qadimiy Karfagen hududi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Boshqalarning fikricha, Sosoniylar davlati yoki Zardushtiylik e'tiqodchisi, ya'ni G'arbiy Fors.

² 师子国 (Shī zǐ guó) – hozirgi Shri-Lanka.



Ikkinchidan, Du Huandan butun sayohati davomida Sharq va G'arbg'a sayohatdagi ikki asosiy transport chizig'i, ya'ni dengiz va quruqlikda sayohat qilishni boshdan kechirdi, bu esa oson emas. U nafaqat G'arbiy Osiyodagi arablar poytaxtiga tashrif buyurgan Tang sulolasining birinchi vakili, balki Misr, Sudan, Efiopiya va boshqa Afrika mamlakatlariga tashrif buyurgan birinchi xitoylik ham edi. Uning g'ayrioddiy sarguzasht tajribasi uni Xitoy kashfiyotlari tarixida chinakam ajoyib sarguzashtchi va tadqiqotchiga aylantirdi.

Har bir xalq tarixini o'rganishda uning qadimiy tarixiga va manbalariga murojaat etish, uning bugungi rivojlanishi xususiyatlarini to'g'ri anglashga yordam beradi. Ayniqsa, Xitoy kabi qadimgi va mo'jizakor mamlakat uchun nihoyatda muhimdir. Shuningdek, Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz. Boshqa tillardagi manbalardan ko'ra Xitoy manbalari voqea-hodisalar sodir bo'lgan yillarning aniq ko'rsatilishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 丁謙. 叢書集成三編: 浙江圖書館叢書. 藝文印書館, 1971.
2. S. I. Berzina. "Kushana coins in Axum", Information Bulletin, International Association for the Study of the Cultures of Central Asia, Issue 7, Moscow, 1984.
3. Akin, Alexander. "The Jing Xing Ji of Du Huan: Notes on the West by a Chinese Prisoner of War." Harvard Middle Eastern and Islamic Review 5 (1999): 77-102.
4. Lei W. The First Chinese Travel Record on the Arab World. – 2016.
5. Smidt W. G. C. A Chinese in the Nubian and Abyssinian kingdoms (8th century). The visit of Du Huan to Molin-guo and Laobosa //Arabian Humanities. Revue internationale d'archéologie et de sciences sociales sur la péninsule Arabique/International Journal of Archaeology and Social Sciences in the Arabian Peninsula. – 2001. – №. 9.



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT
// МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА
// INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

SAIDOLIMOV SAIDKHON

Professor, siyosiy fanlar doktori, O'zMU

ULUG'OV NURALI

Tadqiqotchi, O'zMU

Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta'siri

Annotatsiya. Mazkur maqolada siyosiy nutq va uning ahamiyati, bunday nutqlarning tayyorlanishida spichraytarning tutgan o'rni, shuningdek, tayyor bo'lgan nutqning jamoatchilikka ta'siri xususida so'z yuritiladi. Unda, jumladan, nutqning o'zaro muloqotda, jamoatchilik aloqalarida muhim element sanalib, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanish taraqqiyotida alohida rol o'ynashi haqida, spichrayter tayyorlayotgan nutqning nafaqat strukturasi, balki uni ommaga yetkazish usullarini ham mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarurligi, insonlarning his-tuyg'ularini, umid va maqsadlarini anglashi va his qila olishi, har bir so'z, jumlaning o'rni va ahamiyatini e'tiborga olishi lozimligi tilga olinadi.

Kalit so'z va birikmalar: spichrayter, spichrayting, ritorika, so'z san'ati, siyosiy nutq, jamoatchilik bilan aloqalar, notiqlik.

Abstract. This article deals with political speech and its meaning, the role of a speechwriter in preparing public speeches, as well as the impact of a prepared speech on the public. In it, in particular, speech is considered as an important element of mutual communication and social relations, playing a special role in the sustainable development of the state and society. It is argued that a speechwriter must be able to understand and feel people's moods, their hopes and goals, and also take into account the place and importance of each word and sentence.

Keywords and expressions: Speechwriter, speechwriting, rhetoric, speech art, political speech, public relations, public speaking.

Аннотация. В данной статье рассматривается политическая речь, ее значение, роль спичрайтера в подготовке публичных выступлений, а также влияние подготовленной речи на аудиторию. В частности, речь анализируется как важный элемент коммуникации и общественных отношений, играющий особую роль в устойчивом развитии государства и общества. Утверждается, что спичрайтер должен уметь понимать и чувствовать настроения людей, их надежды и цели, а также учитывать весомость и значимость каждого слова и предложения.

Ключевые слова: спичрайтер, спичрайтинг, риторика, искусство речи, политическая речь, связь с общественностью, публичные выступления.



Kirish. Jamoatchilik bilan munosabatda katta ahamiyat kasb etuvchi soʻz, muloqot, suhbat insoniyatning sivilizatsion taraqqiyotida muhim oʻrin tutgani bizga tarixdan yaxshi maʼlum. Qadimdan odamlar oʻz fikr va oʻylarini toʻgʻri bayon etishga, soʻzning qudrati va xususiyatini anglashga, undan unumli foydalanish mahoratini egallashga intilgan. Vaqt oʻtishi bilan nutq ham evrilishlar natijasida mukammallashib, dastlab uning ogʻzaki, soʻng esa yozma shakllari vujudga kelgan va takomillashib borgan.

Tarixan notiqlik, soʻzdan toʻgʻri hamda samarali foydalanish orqali koʻplab siyosiy yetakchilar va davlat arboblari xalqni boshqargan va harakatga keltirgan. Shu boisdan ham notiqlik qadimdan fan va sanʼat darajasiga koʻtarilgan hamda alohida oʻrganilgan.

Bugun jamiyat hayotida nutq texnologiyalari va soʻzning konstruktiv ahamiyati har qachongidan ham dolzarflik kasb etib bormoqda. Nutq – bu jamiyat aʼzolarining oʻzaro muloqotida, jumladan, jamoatchilik aloqalarida muhim element sanalib, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanish taraqqiyotida alohida oʻrin tutmoqda. “PR” (jamoatchilik aloqalari) texnologiyalarining rivojlanishi natijasida esa, til va nutqning ahamiyati yanada kuchayib bormoqda.

Maʼlumki, nutqning asosiy mezonib–bu uning mazmunidir. Qadimdan shakllanib kelgan ritorika fani aynan nutqni chiroyli va mazmunli shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etgan. Ritorika (oʻzbek tilida *notiqlik* deb nomlanadi) asosan tinglovchini ishontirishga qaratilgan boʻlsa-da, undan siyosatda maʼlum bir foydani koʻzlash, suda esa adolatni taʼminlash kabi masalalarda keng foydalanilgan. Shuning uchun ham tarixda ritorika tilni taʼsirchan va diqqatga sazovor tarzda qoʻllash sanʼati sifatida ifodalangan.

Muhokama. Bu borada buyuk Sharq mutafakkiri, soʻz mulking sultoni Mir Alisher Navoiy ham jiddiy shugʻullangan. Alisher Navoiy davriga kelib oʻzbek tilining mavqeyi, notiqlik sanʼati ancha yuksak darajaga koʻtarilgan. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”¹ asarining 24-fasli (bobi)ni aynan voizlik sanʼatiga bagʻishlagan.

Ushbu asarda Xoʻja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Irshod, Hotam Asom, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi oʻnlab voizlarning nutq mahoratlari haqida soʻz yuritilgan.

Asarda hazrat Navoiy “Voizlik hushyor kishilarning ishidir, ularning nasihatini qabul etgan kishidir. Vaʼzxon shunday boʻlishi kerakki, uning majlisiga boʻsh kirgan odam toʻlib chiqsin, toʻla kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish koʻruvchi boʻlsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor boʻlur”², degan fikrni ilgari surgan.

¹ Mahbub ul-qulub: (Qalblar sevgilisi). Masʼul muharrir va soʻzboshi muallifi S.Gʻaniyeva. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983. – 112 b.

² Mahbub ul-qulub, yuqoridagi manba, 32-bet.



Mir Alisher Navoiy nutq va uning qudratiga: “Til – bu nutqning quroli. Agar nutq noma’qul bo’lsa – u tilning ofatidir. Til orqali odam boshqalardan afzalligini namoyon etadi”, deb ta’rif bergan.

Albatta, so’z ulkan kuchga ega fenomen. Yu.Rojdestvenskiy so’zni ma’lumot va ma’rifat tarqatuvchilikdan ko’ra ko’proq safarbarlikka chorlovchi, o’ziga tortuvchi hamda ta’sir qiluvchi kuch ekanini alohida qayd etadi¹. Ilmiy adabiyotlarda ritorika bugungi spichraytingning (inglizchada speech – so’z, nutq, writing – yozmoq) dastlabki ko’rinishi, xususan, qadimgi logograf (grekcha logos – fan, so’z, grapho – yozmoq) kasbining zamonaviy shakli ekani qayd etilgan².

A.V.Kulnazarova qayd etganidek, zamonaviy dunyoning o’zgaruvchan sharoitlariga qaramay, spichrayting amaliy yo’nalish sifatida ritorikaning ming yillik tamoyillariga asoslangan holda, uni zamonaviy texnologiyalar bilan to’ldirib va boyitib boruvchi yo’nalishdir. Olim “zamonaviy ritorika – bu tinglovchini o’z g’oyalarga ishonitirish va unga lingvistik ta’sir ko’rsatishning turli usul va shakllarini o’z ichiga qamrab olgan fan hisoblanadi”, deb ta’kidlaydi³.

Uning fikricha, spichrayting ishonarli nutqni, ya’ni tinglovchilar ongiga ta’sir ko’rsata oladigan, ularning xatti-harakati yoki har qanday hodisaga bo’lgan munosabatini o’zgartirishga qodir bo’lgan nutqni yaratishga qaratilgan bo’lib, omma oldida nutq so’zlash bo’yicha eng samarali “PR” texnologiyalaridan biri hisoblanadi⁴.

Spichrayter nafaqat tayyorlayotgan nutqning strukturasi, balki gapirish va tinglash mexanizmlarini ham mukammal o’zlashtirgan bo’lishi zarur. Insonlarning his-tuyg’ularini, umid va maqsadlarini anglashi va his qila olishi, har bir so’z hamda jumlaning o’rni va ahamiyatini e’tiborga olishi lozim. V.A.Suxomlinskiy aytganidek, “Bir so’z bilan odamlarni o’ldirish yoki jonlantirish, yaralash yoki davolash, ular ongiga umidsizlikni ekish yoki ularni yangi g’oyalar atrofida birlashtirish, yagona maqsad sari ruhlantirish mumkin”⁵.

So’zning qudrati uning jonli va ta’sirchan ekani bilan belgilanadi. Shu bois ham so’zga talab katta bo’lib, u hamisha o’z tinglovchisiga yetib borishi, uning ongi, dunyoqarashiga ta’sir etishi uchun sayqallangan nutq matniga talab paydo bo’ladi.

Spichrayter nutq yozishda va so’zlardan unumli foydalanishda, birinchi navbatda, tinglovchiga zarur motivatsiya berish va uni eng ishonchli misollar, aniq dalillar bilan mustahkamlash masalasiga alohida e’tibor qaratishi lozim bo’ladi. Shuning uchun ham

¹ Рождественский Ю.В. Теория риторики. М., 2004. – С.25–30.

² Казанцева М.С. Спичрайтинг как технология подготовки политических текстов. Высшая школа экономики: Научно-учебная лаборатория исследований в области бизнес-коммуникаций, № 5. 2010. – С. 25–39.

³ Кульназарова А.В. Технологии спичрайтинга: учебное пособие / А. В. Кульназарова; СПбГУТ. – СПб., 2016. – С. 8.

⁴ Кульназарова А.В. O’sha manba.

⁵ Львов М.Р. Риторика. Культура речи. Учебное пособие, 2-е изд., испр. – М.: Издательский центр “Академия”, 2004. – С. 5. (– 272 с.)



“nima uchun tinglovchi notiq pozitsiyasini “to‘g‘ri” deb hisoblashi va aynan unga ishonishi kerak?” degan savollarga javob izlash, uning xohish-istaklarini e‘tiborga olish nutq samaradorligi va ta‘sirchanligini oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanib, ma‘ruzachiga ko‘zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy davrda siyosiy jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ostida katta bosimga uchrab, siyosiy yetakchi va rahbarlardan o‘z nutqiga bo‘lgan e‘tiborni juda yuqori darajaga ko‘tarishni talab etmoqda. Har qanday siyosiy shaxsning fikri va nutqi bugungi texnologiyalar vositasida keng yoyilmoqda va kuchli ta‘sir kuchiga ega bo‘lmoqda.

Shuning uchun ham bugungi globallashuv davrida nutq siyosiy liderlarning kuchli va samarali quroli sifatida maydonga chiqmoqda, ayni paytda yetakchilarning ong-u tafakkuri, ilgari surayotgan g‘oyalari ularning qay darajada nutq so‘zlashi bilan belgilanmoqda. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining 44-prezidenti Barak Hussein Obama o‘zining jonli hissiyotga (emotsiya) yo‘g‘rilgan, o‘ta ta‘sirchan va kuchli nutqlari orqali mamlakat tarixida mahoratli notiq prezidentlar qatoridan munosib joy olgan.

Yoki bo‘lmasa, norozilik aksiyalari ishtirokchisi bo‘lgan shvetsiyalik ekofaol Greta Tunbergning chiqishlarini olaylik. U professional tarzda tayyorlangan nutqni xuddi shu darajaga mos ravishda ommaga havola eta olishi, so‘z qudrati va to‘g‘ri ifoda usulidan foydalangani ortidan butun dunyoga mashhur bo‘lib ketdi.

Uning bu harakat faoliyati turli nufuzli ommaviy axborot vositalari orqali butun dunyo bo‘ylab namoyish etildi. 2018-yilda 15 yoshli Greta BMT shafe‘ligida o‘tkazilgan iqlim o‘zgarishiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada nutq so‘zlaydi. Uning atrof-muhit himoyasi borasida bildirgan keskin tanqidlari ko‘plab davlatlarda millionlab odamlarning o‘z hukumatlariga qarshi namoyishlar o‘tkazishiga sabab bo‘ldi. Greta Tunberg o‘z faoliyati, ta‘sirchan va keskin fikrlari uchun turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ta‘sis etilgan mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Uning nomzodi ikki marotaba tinchlik uchun Nobel mukofotiga loyiq deb topildi.

So‘z, uning cheksiz qudratidan oqilona foydalangan holda, nutq matnlarini tayyorlash va bu orqali ko‘zlangan maqsadga erishish bugungi spichraytingning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Oliy martabali shaxslar, davlat va jamoat arboblarning nutq va ma‘ruzalarining zalvorli, jozibador va ta‘sirchan chiqishi bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lib, buning uchun, avvalo, chuqur bilimli, keng dunyoqarash, boy so‘z zaxirasi va yuksak muharrirlik mahoratiga ega bo‘lgan yetuk kadrlardan iborat butun bir mualliflar guruhi talab etiladi. Ushbu guruh jurnalist, tilshunos, siyosatshunos, psixolog, san‘atshunos va boshqa soha vakillaridan iborat bo‘lishi mumkin. Bu kabi nutqlarni tayyorlash jarayoni



zamonaviy qilib “spichrayting” – “speechwriting”¹, mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar esa “spichrayterlar” – “speechwriter”²lar deb ataladi.

“Spichrayter yozuvchiga o‘xshasa-da, faqat u buni sahna ortida, ko‘proq kuch va kamroq maqto‘v bilan amalga oshiradi”, deb yozadi Emma Roller³.

Siyosiy nutqni tayyorlash va jamoatchilikka yetkazishda uning ta’sirchan, tushunarli va ishonarli bo‘lishi uchun nutqidagi har bir so‘z, fikr, raqam va argumentlarni to‘liq tekshirish, tavnologiyalardan qochish, lirik qilib aytganda, undagi so‘zlarni “ipga tizilgan marjon” kabi terib chiqish spichrayter faoliyatining asosini tashkil etadi, undan yuksak mahorat va tajriba talab etiladi.

Hammualiflik mahsuloti bo‘lgan spichrayting notiqning so‘zlashish uslubini o‘zlashtirish, uning mafkurasi va o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadini yaxshi anglash, unga kerakli so‘zlarni qo‘llashga yordam berish va shu orqali har bir masala yuzasidan alohida ta’sirchan nutq tayyorlash uning bosh maqsadini tashkil etadi.

Siyosiy nutq qanchalik teran, tushunarli va mazmunli bo‘lsa, jamoatchilik uni shunchalik tez va oson qabul qiladi, nutq samaradorligi ta’minlanadi.

Shuning uchun ham ommaviy nutq tayyorlash murakkab ilmiy izlanish va tadqiqot jarayoni bo‘lib, o‘ziga xos usul, yondashuv, texnologiya va mexanizmlarni qo‘llashni talab etadi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan milliy hamda xalqaro media makonning misli ko‘rilmagan darajada kengayib borishi kuzatilmoqda. Bugun har bir Internet foydalanuvchisi tomonidan onlayn muhitda o‘z kontentini yaratish orqali turli ijtimoiy-siyosiy masalalarga erkin munosabat bildirish imkoniyati, shuningdek, yetakchi shaxslar haqidagi ma’lumotlarning ochiqligi va keng axborot maydoniga juda tez tarqalishi siyosiy yetakchilarning ijobiy imijini yaratishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur holatda siyosiy yetakchilar, davlat va jamoat arboblari faoliyatida alohida o‘rin tutgan shaxs imiji, uning notiqlik mahorati borgan sari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir jamiyat yoki tashkilot o‘z jamoasini boshqarishda yetakchiga, liderga ehtiyoj sezadi. Siyosiy liderdan esa, avvalo, o‘z jamiyatini yaxshi bilishi, jamiyatning talab va ehtiyojlarini chuqur anglashi, o‘zini bu talablarni ta’minlovchi shaxs sifatida ko‘rsata

¹ “Speech” (ingliz.) – “nutq”, “Writing” (ingliz.) – “yozmoq”.

² “Speech” (ingliz.) – “nutq”, “Writer” (ingliz.) – “yozuvchi”.

³ Emma Roller, What It’s Really Like To Be A Political Speechwriter. July 30, 2015.

<https://www.theatlantic.com/politics/archive/2015/07/what-its-really-like-to-be-a-political-speechwriter/455706/>



olishi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi hamda unga bo‘lgan ishonchni qozonishi talab etiladi¹.

Ko‘rinib turibdiki, siyosiy yetakchi imiji hokimiyatga kelishni yoki hokimiyatda qolishni istagan barcha rahbarlar hisoblashishga majbur bo‘lgan muhim omillardan sanaladi².

Samarali siyosiy nutqlar muhim bo‘lishining asosiy sabablaridan biri–bu ularning qarashlarni ifodalash va jamoaviy harakatlarni ilhomlantirish qobiliyatidir. Siyosiy ma‘ruzachilar jozibali ritorika va ishonchli dalillar orqali tinglovchilarni o‘ziga jalb qilish orqali o‘z maqsadlari va intilishlarini bildirishlari, odamlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirishlari mumkin.

Masalan, Martin Lyuter Kingning “Mening orzuyim bor” (“I Have a Dream”) nutqi³ va Uinston Cherrillning “Biz sohillarda jang qilamiz” (“We Shall Fight on the Beaches”) nutqi⁴ kabi tarixiy nutqlari notiqlik naqadar kuchli ehtiros va hamjihatlikni uyg‘otib, ijtimoiy harakatlar va siyosiy o‘zgarishlarga olib kelishiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Nutqlarning chiroyli va jozibador bo‘lishi yaxshi, biroq, siyosat bu shou-biznes emas. Nutq olomonning faqat ko‘nglini olish yoki uni xursand qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin emas⁵.

Nutq ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan holda, samaradorlik va natijadorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Tinglovchilar, eng avvalo, ma‘ruzaning mohiyatini tushunishi, spiker nutqidan tegishli xulosalar chiqarishi va hayotiy masalalar yuzasidan to‘g‘ri yo‘nalish olishi muhim.

Spichrayter nutqning intellektual va she‘riy mahoratini namoyish etish uchun emas, balki u rejissor kabi katta auditoriyani qamrab olish, ular e‘tiborini tortish uchun yozadi, deb qayd etadi Gvinn Meyps⁶.

¹ Pac B. What Defines Good Political Leadership? July 24th, 2020, <https://bpac.in/what-defines-good-political-leadership/>

² Фролова Е.В. Коммуникативные стратегии формирования имиджа регионального лидера в электронных СМИ. Автореферат: дисс. на к.ф.н., Омского государственного университета им Ф.М Достоевского. 2007. – С.3.

³ Michiko Kakutani, The Lasting Power of Dr. King’s Dream Speech, 27 Aug. 2013, <https://www.nytimes.com/2013/08/28/us/the-lasting-power-of-dr-kings-dream-speech.html>; Why “I Have A Dream” Remains One Of History’s Greatest Speeches, <https://today.tamu.edu/2020/01/15/why-i-have-a-dream-remains-one-of-historys-greatest-speeches/>

⁴ We Shall Fight on the Beaches, <https://winstonchurchill.org/resources/speeches/1940-the-finest-hour/we-shall-fight-on-the-beaches/>

⁵ Finlayson A., van der Blom H., 2019, ўша жойда.

⁶ Mapes Gwynne. “The life of a political speech(writer): metadiscursive text trajectories in high-end language work.” *Journal of Linguistic Anthropology* 00, 2023, pp. 1– 21. <https://doi.org/10.1111/jola.12391>.



Shu bois spichrayterdan lingvistik ishlarda ko'p qirrali iste'dodga ega bo'lish bilan birga, yuqori darajada jamoatchilik bilan aloqa qilish kompetensiyalariga ham ega bo'lish talab etiladi.

Umuman olganda, spichrayting siyosatchilarning jamoatchilikka yetkazishi kerak bo'lgan fikrlari, maqsad va vazifalarini aniq va ishonchli tarzda bayon qilish mahoratidir. Zamonaviy sharoitda spichrayting siyosiy yetakchining xalqni o'ylantirayotgan hayotiy muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlari, masala yechimi yuzasidan yondashuvi, strategiyasi va taktik harakatlarini ko'rsatib berish hamda jamiyat a'zolarini ushbu g'oyalarga ishontirishning samarali texnologiyasi hisoblanadi.

Aytish kerakki, siyosiy yetakchilarning hokimiyatga kelishi va mashhurlikka erishishi, saylovlarda g'alaba qozonishi, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan aloqalarida yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lishida, albatta, spichrayterlarning o'rni beqiyos. Masalan, Devid Kameron va Barak Obama o'z partiyasining yetakchiligini aynan ta'sirchan nutq orqali qo'lga kiritgan taniqli siyosiy arboblarning sirasiga kiradi¹.

G'arbda, ayniqsa, AQSH va Buyuk Britaniyada spichrayter nafaqat birinchi raqamli shaxsning hamfikir va yordamchisi, balki davlat siyosatining strategi va ideologi ham hisoblanadi. Shu bois ular ommaga keng tanilgan bo'ladi. Ular orasida Jon Kennedining Ted Sorensen, Margaret Tetcherning Ronald Miller, Barak Obamaning Jon Favro kabi mashhur spichrayterlarining nomlarini keltirib o'tish o'rinli.

Zamonaviy spichrayter matnlarning muallif-tuzuvchisi, ekspert, tahlilchi va PR (jamoatchilik bilan aloqalar) mutaxassisi² bo'lishi bilan birga, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyalarni egallagan bilimli, dunyoqarashi keng so'z ustasi hamdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, spichrayter tomonidan siyosiy nutqlarni tayyorlashda ta'sirchan shiorlar, iboralar, aforizmlar, dono va hikmatli so'zlardan unumli foydalanish, zarur g'oyalarni omma oldiga olib chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu notiq uchun tez orada mashhur bo'lib ketish imkinoyatini beradi.

Ayniqsa, bu saylovoldi kampaniyalarida yaxshi natija berib, nutq samarasini bir necha bor oshirishga xizmat qiladi. Masalan, AQSH kongressmeni Gordon Braunning nutqidagi "Amerika shunchaki almashtirib bo'lmaydigan davlat emas, bu to'xtatib ham bo'lmaydigan davlat" (America is not just the indispensable nation, it is the irrepressible nation), degan iborasi unga katta g'alaba va shon-shuhrat keltirgan bo'lsa, AQSHning 45-prezidenti Donald Trampning "Amerikani yana buyuk qilamiz" (Make America Great Again) shiori uning 2017-yilgi saylovlarda g'alaba qozonishiga turtki bergan.

Buyuk Britaniyaning "Temir xonim" nomini olgan bosh vaziri Margaret Tetcherning "Ayol kishi faqat bola boqish uchun tug'ilgan emas" ("Lady's not for Turning") iborasi ham unga katta mashhurlik olib kelganini ham ko'pchilik yaxshi eslaydi, albatta.

¹ Lancaster S., 2009, o'sha manba.

² Якупов Ш.А., Корнейчук Ю.В. Спичрайтинг как одна из разновидностей PR. Международный научный журнал «Инновационная наука». №11, 2015. – С. 236.



Ma'lumki, siyosiy nutq siyosiy tilshunoslik doirasida o'rganilib, siyosatshunoslik va tilshunoslik chorrahasida yuzaga kelgan alohida yo'nalish sanaladi. U ijtimoiy-siyosiy hodisalarning tilning o'zgarishiga, ayni paytda, tilning mazkur jarayonlarga ta'siri va uning qonuniyatlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Zamonaviy lingvosiyosiy personologiyaning asosiy atamasi va uning o'rganish obyekti bu "lingvistik shaxs (siyosat)"dir. Siyosatchining professional (diskursiv) shaxs sifatidagi lingvistik shaxsiyatining o'ziga xosligi individual va institutsional kommunikativ nutq namoyandalarining kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Ba'zi tadqiqotchilar siyosatchini lingvistik shaxs sifatida tavsiflab, bu hodisaning sinkretik, ko'p o'lchovli xususiyatini alohida qayd etib o'tganlar¹.

Shu o'rinda "siyosat" tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ta'rifini yana bir bor esga olish o'rinli bo'lar edi. Siyosat tushunchasi juda keng va turli-tuman ma'nolarni anglatadi.

Siyosat qadimdan tarix, huquq va falsafa sohasiga oid tushuncha sifatida qabul qilingan bo'lib, siyosatning asosiy maqsadi jamiyat amal qilishi kerak va shart qilib belgilangan barcha tamoyillarni tahlil etib, ma'nosini ochib berishdan iborat bo'lgan.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanda siyosatni falsafiy maydondan chiqarib, alohida ilmiy disiplinaga aylantirishga urinishlar paydo bo'ldi. Natijada 1950-yillarga kelib, siyosat haqidagi an'anaviy falsafiy tushunchalar hech qanday ma'no va mazmun ifoda etmaydigan metafizik hodisa sifatida talqin etila boshlandi.

Haqiqatni ochib berishning yagona va eng maqbul yo'li bu ilm-fan ekani, an'anaviy siyosiy tushunchalardan esa voz kechish kerakligi ta'kidlandi. Biroq, keyinchalik siyosat ko'plab ilmiy-nazariy yondashuvlar va tahlil maktablarini o'z ichiga olgan mustaqil fan sifatida rivojlandi, qiziqarli va boy tadqiqot maydoniga aylandi².

Aristotel "Siyosat – bu fuqarolarning jamiyatni qiziqtirgan masalalar bo'yicha olib boradigan umumiy harakati. Shuningdek, insonni baxtli qilish san'atidir",³ deb ta'rif bergan bo'lsa, Veber siyosatni "Ma'muriyatni boshqarish yoki unga ta'sir o'tkazish vositasi" deya qayd etadi⁴.

Iston esa siyosatni siyosiy yoki ma'muriy hokimiyatga ko'ra moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni taqsimlashni o'z ichiga olgan jarayon sifatida e'tirof etadi⁵.

Lassvellning "Siyosat: kim nimani, qachon, qanday oladi" (Politics: Who gets what, when, how?) nomli kitobida "Siyosat teng hokimiyat" ma'nosida qo'llanilishini aytib o'tgan¹.

¹ Беляева Е.С. Роль образа автора политического текста в интерпретационной деятельности адресата (на материале инаугурационных речей президентов). Автореферат дисс. на к.ф.н. «Кемеровский государственный университет». Кемерово, 2019. – С.11.

² Heywood A. Politics. Macmillan Education UK, 2013, p. 24 (520 p.)

³ Аристотель, Политика. Сочинения: В 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983. С. 376–644.

⁴ Вебер М. «Политика как призвание и профессия», Избранные произведения, (Пер. Ю. Н. Давыдова), Издательство «Прогресс», Москва, 1990. – С. 644.

⁵ David Easton, A System Analysis of Political Life, John Wiley, New York, 1965.



Shundan kelib chiqib, siyosiy nutqni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishlarni jamoatchilikka yetkazish, ularga ta'sir ko'rsatish orqali mamlakatda bo'layotgan islohotlar, voqea-hodisalar va umuman, siyosiy jarayonlardan boxabar qilish vositasi sifatida tushunishimiz mumkin.

Siyosiy nutq siyosat sohasidagi alohida shaxslar yoki guruhlarning g'oyalari, qarashlari va dalillarini ifodalashini anglatadi. U jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va demokratik tamoyillarni himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Siyosiy nutq jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilishda xabarni yetkazish, ma'lumot tarqatish va siyosatni himoya qilish vositasi sifatida qo'llaniladi².

Asosiysi, siyosiy nutq boshqaruv, siyosiy jarayonlar hamda jamiyatni tashvishga soladigan masalalar bo'yicha fikr almashishga qaratilgan. U nutqlar, munozaralar, mitinglar, intervyular, matbuot anjumanlari, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi postlar kabi ko'plab shakllarda bo'lishi mumkin. Uning maqsadi nafaqat siyosiy ishtirokchilarning istiqbolini, balki saylovchilarning ham xohish va intilishlari, shikoyat va e'tirozlari, qiziqishlarini tinglovchiga yetkazishdan iborat.

Xulosa. Bugungi kunda ishonchli va ishonchsiz, to'g'ri va noto'g'ri xabarlarining juda tez tarqalishi va jamiyatning barcha qatlamlariga yetib borishi siyosatchilardan o'z vaqtida siyosiy muloqotga kirishishni, siyosiy nutqlardan tez-tez foydalanishni talab qilmoqda. Siyosiy yetakchilarning nutqlari mamlakatda va dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga xolis munosabat bildirish hamda jamiyat uchun bu borada to'g'ri yo'nalishni belgilashda muhim vosita rolini bajarmoqda.

Mazkur sharoit spichrayterlarga katta mas'uliyat yuklashi bilan bir qatorda, ulardan mamlakatda va atrofida sodir bo'layotgan voqelikdan doimiy ravishda xabardor bo'lishni, siyosiy nutqlarni hozirjavob shaklda tayyorlashni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy davrda siyosiy nutq va muloqot siyosiy jarayon va siyosiy tizimning muhim atributi, ajralmas qismiga aylandi. Jamoatchilikni davlat siyosati bilan tanishtirish, unga ishontirish va yagona maqsad sari birlashtirish, mavjud muammolar yechimi bo'yicha dolzarb vazifalar va strategik yo'nalishlarni belgilash, bu borada xalqni o'z vaqtida xabardor qilishda spichrayting samarali PR texnologiyalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Mukammal va samarali yozilgan nutq insonlar psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda, jamiyatning to'g'ri yo'lda rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa siyosiy nutq va muloqotni hayotga tatbiq etuvchi, uni mazmunan va shaklan boyituvchi spichrayting xizmatini davlat va jamiyat boshqaruvida, siyosiy jarayonlarda yanada dolzarb va muhim o'rin tutuvchi sohaga aylantirmoqda.

¹ Harold Dwight Lasswell, *Politics: Who Gets What, When, How*, P. Smith, New York 1950.

² Freedom of political speech: an imperative for democracy, *SG/Inf* (2022) 36, 6 October 2022.
<https://rm.coe.int/0900001680a86af5>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Kazantseva M.S. (2010) Спичрайтинг как технология подготовки политических текстов. Высшая школа экономики: Научно-учебная лаборатория исследований в области бизнес-коммуникаций, № 5. – С. 25–39.
2. Kulnazarova A.V. (2016) Технологии спичрайтинга: учебное пособие / СПбГУТ. – СПб., – С. 8.
3. Лувов М.Р. (2004) Риторика. Культура речи. Учебное пособие, 2-е изд., испр. – М.: Издательский центр “Академия”, – С. 3.
4. Qudratov T. (1993) Nutq madaniyati asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”.
5. Tursunov A. (2022) Zamaxshariyning “Navobig‘ al-kalim” asari va uning tuzulish prinsiplari. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), – Б. 19–24 . doi: 10.5281/zenodo.7216450
6. Aripova A.X. (2021) Nutq mohiyatini tashkil etuvchi muhim vosita. Scientific progress, 1 (6), – Б. 243–264.
7. Hasanova A.A. Nutq mohiyatini tashkil etuvchi muhim vosita. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181–1601 // Volume: 1, ISSUE: 6.

SADIBAQOSEV HABIBULLO*PhD, O‘XIA***Aqshning Janubiy-sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari
va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati**

Annotatsiya. Amerika Qo‘shma Shtatlari Janubi-Sharqiy Osiyoda Sovuq urush davridan boshlangan ittifoqlarning uzoq tarixiga ega. Bu ittifoqlar AQSHning mintaqadagi tashqi siyosatining asosi bo‘lib kelgan, ular barqarorlik va xavfsizlikni saqlashda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Qo‘shma Shtatlar Tailand, Filippin va Singapur bilan rasmiy ittifoqqa ega. Ushbu ittifoqlar o‘zaro mudofaa shartnomalariga asoslanadi, bu esa AQSHni hujum sodir bo‘lgan taqdirda ittifoqchilariga yordam berishga majbur qiladi. Qo‘shma Shtatlar Janubi-Sharqiy Osiyodagi Indoneziya, Malayziya va Vyetnam kabi boshqa davlatlar bilan ham yaqin xavfsizlik aloqalariga ega. Amerika Qo‘shma Shtatlarining Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqlari bir qancha sabablarga ko‘ra strategik ahamiyatga ega. Birinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo global savdo va tijorat uchun asosiy mintaqadir. Malayziya va Indoneziya o‘rtasida joylashgan Malakka bo‘g‘ozi dunyodagi eng muhim yuk tashish yo‘llaridan biridir. Ikkinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyoda neft va gaz kabi bir qancha muhim tabiiy resurslar mavjud. Uchinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy va siyosiy ahamiyati ortib borayotgan mintaqadir. Amerika Qo‘shma Shtatlarining Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqlari mintaqa barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlashga yordam beradi. Bu AQSHning iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini uchun muhim. Qo‘shma Shtatlar ittifoqlari mintaqada demokratiya va inson huquqlarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Kalit so‘z va birikmalar: AQSH, Janubi-Sharqiy Osiyo, ittifoqlar, strategik ahamiyat, barqarorlik, xavfsizlik, savdo, tijorat, tabiiy resurslar, demokratiya, inson huquqlari.



Abstract. *The United States has a long history of alliances in Southeast Asia, dating back to the Cold War. These alliances have been a cornerstone of US foreign policy in the region, and they continue to play an important role in maintaining stability and security. The United States has formal alliances with Thailand, the Philippines, and Singapore. These alliances are based on mutual defense treaties, which obligate the United States to come to the aid of its allies in the event of an attack. The United States also has close security relationships with other countries in Southeast Asia, such as Indonesia, Malaysia, and Vietnam. The United States' alliances in Southeast Asia are strategically important for a number of reasons. First, Southeast Asia is a key region for global trade and commerce. The Strait of Malacca, which runs between Malaysia and Indonesia, is one of the most important shipping lanes in the world. Second, Southeast Asia is home to a number of important natural resources, such as oil and gas. Third, Southeast Asia is a region of growing economic and political importance. The United States' alliances in Southeast Asia help to ensure that the region remains stable and secure. This is important for the United States' economic and security interests. The United States' alliances also help to promote democracy and human rights in the region.*

Keywords and expressions: *United States, Southeast Asia, alliances, strategic importance, stability, security, trade, commerce, natural resources, democracy, human rights.*

Аннотация. *Соединенные Штаты имеют долгую историю союзов в Юго-Восточной Азии, начиная со времен Холодной войны. Эти альянсы стали краеугольным камнем внешней политики США в регионе и продолжают играть важную роль в поддержании стабильности и безопасности. Соединенные Штаты имеют официальные союзы с Таиландом, Филиппинами и Сингапуром. Эти союзы основаны на договорах о взаимной обороне, которые обязывают США прийти на помощь своим союзникам в случае нападения. Соединенные Штаты также поддерживают тесные отношения в области безопасности с другими странами Юго-Восточной Азии, такими как Индонезия, Малайзия и Вьетнам. Альянсы США в Юго-Восточной Азии стратегически важны по ряду причин. Во-первых, Юго-Восточная Азия является ключевым регионом глобальной торговли и коммерции. Малаккский пролив, пролегающий между Малайзией и Индонезией, является одним из важнейших морских путей в мире. Во-вторых, Юго-Восточная Азия богата природными ресурсами, такими как нефть и газ. В-третьих, Юго-Восточная Азия является регионом растущего экономического и политического значения. Альянсы Соединенных Штатов в Юго-Восточной Азии помогают обеспечить стабильность и безопасность региона. Это важно для экономических интересов и безопасности Соединенных Штатов. Альянсы Соединенных Штатов также помогают продвигать демократию и права человека в регионе.*

Ключевые слова: *США, Юго-Восточная Азия, альянсы, стратегическое значение, стабильность, безопасность, торговля, коммерция, природные ресурсы, демократия, права человека.*

Kirish: *Janubi-Sharqiy Osiyoning strategik landshafti mintaqaning geosiyosiy ahamiyati, iqtisodiy dinamizmi va asosiy global savdo yo'llariga yaqinligidan kelib chiqqan holda AQSH tashqi siyosati uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola AQSH va uning Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari o'rtasidagi mu-*



him munosabatlarni o'rganadi, ularning xalqaro xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatini ta'kidlaydi. Global kuch almashinuvi ortishi va buyuk kuchlar raqobatining kuchayishi, xususan, Xitoyning mintaqaviy pozitsiyasi bilan ajralib turadigan davrda AQSHning Filippin, Tailand, Singapur va Vyetnam kabi davlatlar bilan qo'llab-quvvatlayotgan ittifoq va sherikliklari muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlar nafaqat mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni osonlashtiradi va gegemon tahdidlarga qarshi kurashadi, balki AQSH va uning ittifoqchilarining farovonligi uchun muhim bo'lgan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Ushbu alyanslarni tahlil qilib, ushbu maqola Janubi-Sharqiy Osiyodagi strategik sheriklik AQSHning ta'sirini kuchaytirishi va barqaror, qoidalarga asoslangan xalqaro tartibotni ta'minlashga qanday hissa qo'shishiga oydinlik kiritadi va shu bilan bu ittifoqlarning zamonaviy geosiyosatdagi doimiy dolzarbligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot usullari: Ushbu maqola AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqlarini sifat jihatidan tahlil qilishga asoslangan. Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar, shuningdek, hukumat hujjatlari, tahliliy markazlar hisobotlari, ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar va ilmiy tadqiqotchilarning maqolalari har tomonlama ko'rib chiqildi. Shuningdek, natijalarni tahlil qilishda SWOT tahliliy metodi qo'llanildi.

Natijalar: AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqlarining tarixiy holati va evolutsiyasi geosiyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllangan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan hozirgi kungacha AQSH mintaqaviy tahdidlarga qarshi turish, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va kuchlar muvozanatini saqlash, ayniqsa, Xitoy ta'sirining kuchayishi sharoitida asosiy Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan strategik munosabatlarni rivojlantirdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Janubi-Sharqiy Osiyoning geosiyosiy landshafti dekolonizatsiya va yangi milliy davlatlarning vujudga kelishi bilan ajralib turdi¹. Sovuq urushning boshlanishi bu ssenariyni yanada murakkablashtirdi, chunki AQSH va Sovet Ittifoqi butun dunyo bo'ylab ta'sir o'tkazish uchun kurashdilar. Janubi-Sharqiy Osiyo, birinchi navbatda, kommunistik kengayish qo'rquvi tufayli ushbu mafkuraviy kurashning markaziga aylandi.

1954-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo Shartnomasi Tashkilotining (SEATO) tashkil etilishi ana shu tashvishlarga bevosita javob bo'ldi. NATO namunasi bo'lgan SEATO tarkibiga Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi boshqa davlatlar qatorida Janubi-Sharqiy Osiyodan Filippin va Tailand ham kirdi. SEATOning asosiy maqsadi kommunistik tajovuzga qarshi jamoaviy mudofaa

¹ RAMNATH, K. (2020). "Intertwined Itineraries: Debt, Decolonization, and International Law in Post-World War II South Asia." *Law and History Review*, 38(1), pp:1–24.



mexanizmini ta'minlash edi¹. Garchi SEATO hech qachon NATOning kuchli harbiy salohiyatini rivojlantirmagan va oxir-oqibat 1977-yilda tarqatib yuborilgan bo'lsa-da, uning shakllanishi Sovuq urushning dastlabki davrida AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyoga qo'ygan strategik ahamiyatini ta'kidladi.

Koreya urushi (1950–1953-yillar) AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mojaro kommunistik harakatlarga qarshi turish uchun kuchli mintaqaviy ittifoqlar zarurligini ta'kidladi². AQSHning Janubiy Koreyadagi harbiy mavjudligi va undan keyingi xavfsizlik majburiyatlari kommunizm tarqalishining oldini olish uchun Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilarni himoya qilish zarurligini kuchaytirdi. Bu davrda AQSH tomonidan Filippin va Tailand kabi davlatlarga mudofaa va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan harbiy va iqtisodiy yordam ko'paydi.

Vyetnam urushi (1955–1975-yillar) AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqlarini chuqur shakllantirdi³. AQSH Vyetnamdagi ishtirokini kuchaytirar ekan, u moddiy-texnik ta'minot, razvedka va harbiy bazalar uchun mintaqaviy ittifoqchilarga tayandi. Masalan, Filippinda Amerikaning Vyetnamdagi operatsiyalari uchun juda muhim bo'lgan Klark havo bazasi (Clark Air Base) va Subik ko'rfazi harbiy-dengiz bazasida (Subic Bay Naval Base) AQSHning yirik harbiy inshootlari joylashgan edi⁴. Tailand ham muhim rol o'ynadi, AQSH havo operatsiyalari uchun bazalarni ta'minladi va muhim logistika markazi bo'lib xizmat qildi⁵.

1975-yilda Saygonning qulashi va undan keyin AQSH kuchlarining Vyetnamdan olib chiqib ketilishi AQSHning Janubi-Sharqiy Osiyodagi strategiyasida muhim burilish nuqtasi bo'ldi⁶. Vyetnam urushining yakuni AQSH tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqishni, to'g'ridan - to'g'ri harbiy aralashuvdan diplomatik va iqtisodiy aloqalarga e'tiborni o'zgartirishni talab qildi. Bu davr Vyetnam bilan munosabatlarni normallashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning boshlanishini ko'rsatdi va 1995-yilda diplomatik aloqalarni rasmiy ravishda normallashtirish

¹ Fenton, D. (2012). "SEATO's Strategic Concepts. In To Cage the Red Dragon: SEATO and the Defence of Southeast Asia, 1955-1965." NUS Press, pp:89–120.

² STUECK, W. (1986). "The Korean War as International History." *Diplomatic History*, 10(4), pp:291–309.

³ BUZZANCO, R. (1993). "Prologue to Tragedy: U.S. Military Opposition to Intervention in Vietnam, 1950–1954." *Diplomatic History*, 17(2), pp:201–222.

⁴ Corning, G. P. (1990). "The Philippine Bases and U. S. Pacific Strategy." *Pacific Affairs*, 63(1), pp:6–23.

⁵ Arne Kislenko. (2004). "A Not So Silent Partner: Thailand's Role in Covert Operations, Counter-Insurgency, and the Wars in Indochina." *Journal of Conflict Studies*, Vol.27, No.1, pp:1-8

⁶ Tilford, E. H. (1992). "VIETNAM: PROLONGLED CONFLICT-PROTRACTED WAR." *Journal of Third World Studies*, 9(2), pp:118–142.



bilan yakunlandi¹. Shuningdek, AQSH mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun 1967-yilda tashkil etilgan ASEAN tashkiloti bilan munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi.

1991-yilda Sovuq urushning tugashi Sovet Ittifoqining parchalanishi va global kuch dinamikasida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi². Kommunizmga qarshi mafkuraviy kurash endi asosiy mazmunini yo'qotgani sababli AQSH Janubi-Sharqiy Osiyoda iqtisodiy sheriklik va mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikka urg'u bera boshladi.

Janubi-Sharqiy Osiyoning strategik landshafti so'nggi o'n yilliklarda mintaqaning dinamik iqtisodiy o'sishi, geosiyosiy o'zgarishlar va Xitoyning mintaqaviy va global kuch sifatida yuksalishi natijasida sezilarli darajada rivojlandi. Amerika Qo'shma Shtatlari uchun Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan mustahkam ittifoq va hamkorlikni saqlab qolish mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, dengiz xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy farovonlikni qo'llab-quvvatlash uchun juda muhimdir.

Filippin: AQSH-Filippin munosabatlari Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi va eng muhim ittifoqlardan biridir. XX asr boshlariga borib taqaladigan tarixiy aloqalarga asoslangan bu hamkorlik 1951-yildagi O'zaro mudofaa shartnomasi bilan mustahkamlangan³. Ushbu shartnoma har ikki davlatni tashqi hujum paytida o'zaro mudofaa qilishga majbur qiladi va harbiy hamkorlik uchun mustahkam asos yaratadi.

2014-yilda AQSH va Filippin o'rtasidagi harbiy aloqalarni yanada mustahkamlovchi Kengaytirilgan mudofaa sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim (EDCA) imzolandi⁴. EDCA AQSH kuchlarining aylanma ishtirokini oshirish, qo'shma mashg'ulotlar o'tkazish, harbiy texnikalar va materiallarni oldindan joylashtirish imkonini beradi. Ushbu kelishuv, ayniqsa, Filippin Xitoyning keng tarqalgan hududiy da'volariga qarshilik ko'rsatgan Janubiy Xitoy dengizidagi kelishmovchiliklar holatida muhim ahamiyatga ega. Filippinning strategik joylashuvi, asosiy dengiz yo'llari va bahsli hududlarga yaqinligi uni navigatsiya erkinligi va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim hamkorga aylantiradi.

¹ Perrin Atreides. (2023). "From Bitter Enemies to Strategic Partners: The Remarkable Transformation of US–Vietnam Relations Since the 1973 Withdrawal." JIPA, pp:48–52.

² Guan, A. C. (2019). "2000–2006: Together into the New Millennium." Southeast Asia After the Cold War: A Contemporary History, NUS Press, pp:78–110.

³ Mutual Defense Treaty Between the United States and the Republic of the Philippines; August 30, 1951 https://avalon.law.yale.edu/20th_century/phil001.asp

⁴ Renato Cruz De Castro. (2014). "The 21st Century Philippine-US Enhanced Defense Cooperation Agreement (EDCA): The Philippines' Policy in Facilitating the Obama Administration's Strategic Pivot to Asia." Korean Journal of Defense Analysis, 26(4), pp:427–446.



Filippin, ayniqsa, Mindanao janubidagi islomiy jangari guruhlar tomonidan muhim ichki xavfsizlik muammolariga duch keldi¹. AQSH terrorizmga qarshi kurashda, jumladan, razvedka ma'lumotlarini almashish, harbiy tayyorgarlik kurslarida o'qitish va logistika yordamini ko'rsatdi. Birgalikda olib borilgan sa'y-harakatlar sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi, masalan, 2017-yilda Maravi shahri ISHIDga aloqador jangarilardan qaytarib olingan². Ushbu hamkorlik ittifoqning transmilliy xavfsizlik tahdidlarini bartaraf etish va Filippinning ichki barqarorligini oshirishdagi muhimligini ta'kidlaydi.

Harbiy va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikdan tashqari, AQSH turli iqtisodiy va rivojlanish dasturlari orqali Filippin bilan hamkorlik qiladi. Mingyillik muammolari korporatsiyasi (Millennium Challenge Corporation, MCC) kelishuvi va USAIDning boshqa tashabbuslari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, qashshoqlikni kamaytirish va boshqaruvni mustahkamlashga qaratilgan³. Ushbu dasturlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish orqali umumiy ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlaydi.

Tailand: Tailand 1833-yilda rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatilgan Qo'shma Shtatlarning azaliy ittifoqchisi bo'lgan⁴. 1966-yilda imzolangan Do'stlik va iqtisodiy munosabatlar to'g'risidagi shartnoma bu munosabatlarga asos bo'lib, iqtisodiy hamkorlik va o'zaro investitsiyalarni osonlashtiradi⁵. Tailandning strategik joylashuvi va mustahkam harbiy salohiyati uni AQSH uchun mintaqadagi qimmatli hamkoriga aylantiradi.

AQSH va Tailand harbiy hamkorligining eng ko'zga ko'ringan misollaridan biri—bu har yili o'tkaziladigan Cobra Gold mashqlaridir⁶. Dunyodagi eng yirik mashg'ulotlardan biri bo'lgan ushbu ko'p millatli mashg'ulotlarda AQSH, Tailand va boshqa mintaqaviy sheriklardan minglab askar ishtirok etadi. Cobra Gold insonparvarlik yordami va tabiiy ofatlarni bartaraf etishdan tortib murakkab jangovar operatsiyalargacha bo'lgan keng ko'lamli ssenariylar bo'yicha harbiy hamkorlikni va tayyorgarlikni yaxshilaydi. Ushbu mashq Tailandning harbiy hamkor va mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlik markazi sifatidagi strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.

¹ Addressing Islamist Militancy in the Southern Philippines | Crisis Group
<https://www.crisisgroup.org/asia/south-east-asia/philippines/addressing-islamist-militancy-southern-philippines>

² Charles Knight & Katja Theodorakis. (2019). "The Marawi crisis-urban conflict and information operations." Australian Strategic Policy Institute, <https://www.aspi.org.au/report/marawi-crisis-urban-conflict-and-information-operations>

³ Philippines, Millennium Challenge Corporation <https://www.mcc.gov/where-we-work/country/philippines/>

⁴ History of the U.S. and Thailand – <https://th.usembassy.gov/our-relationship/policy-history-2/io/>

⁵ The US-Thailand Treaty of Amity <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=2d178f41-6038-4054-b912-ee346fe5a241>

⁶ Elements of the 15th MEU, USS Somerset Begin Exercise Cobra Gold 2024
<https://www.pacom.mil/Media/News/News-Article-View/Article/3687528/elements-of-the-15th-meu-uss-somerset-begin-exercise-cobra-gold-2024/>



Tailandning siyosiy manzarasi hukumat va harbiy to'ntarishlarning tez-tez o'zgarishi bilan ajralib turdi, eng so'nggisi 2014-yilda sodir bo'lgan¹. Bu voqealar ba'zida AQSH–Tailand munosabatlarini, xususan, demokratik boshqaruv va inson huquqlari masalalari bo'yicha keskinlashdi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, Tailandning strategik ahamiyati doimiy hamkorlikni ta'minlaydi. AQSH demokratik qadriyatlarini himoya qilish bilan pragmatik xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar, mustahkam mudofaa aloqalari va iqtisodiy hamkorlikni saqlab qolish orqali bu murakkabliklarni yengib chiqdi.

Tailandning strategik joylashuvi uni terrorizmga qarshi kurash va mintaqaviy barqarorlikdagi muhim hamkorga aylantiradi². AQSH Tailand xavfsizlik kuchlari bilan razvedka ma'lumotlarini almashish, o'qitish va transmilliy tahdidlarga, terrorizm va odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma operatsiyalarda hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlik Tailandning ichki xavfsizligini mustahkamlaydi va kengroq mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shadi.

Singapur: Singapur, garchi rasmiy shartnomali ittifoqchisi bo'lmasa ham, AQSH uchun asosiy strategik hamkor hisoblanadi. 2005-yildagi Strategik asos kelishuvi (Strategic Framework Agreement, SFA) keng ko'lamli harbiy hamkorlikni, jumladan, Singapur obyektlaridan AQSH dengiz va havo kuchlari tomonidan foydalanish imkoniyatini beradi³. Singapurning yirik yuk tashish yo'nalishlari chorrahasida joylashgan strategik joylashuvi uning AQSH dengiz xavfsizligi manfaatlarini uchun ahamiyatini oshiradi.

Singapurning ilg'or harbiy salohiyati va strategik uzoqni ko'ra bilishi uni mintaqaviy xavfsizlikda ajralmas hamkorga aylantiradi. AQSH va Singapur qo'shma o'quv mashg'ulotlari, razvedka ma'lumotlarini almashish va mudofaa texnologiyalari sohasida hamkorlik qiladi. Singapurning F-35 qiruvchi samolyotlari kabi ilg'or harbiy texnikani sotib olishi va uning AQSH kuchlari uchun logistika markazi sifatidagi roli uning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi. Ikki tomonlama mudofaa munosabatlari kibermudofaa va terrorizmga qarshi kurash kabi sohalarda yaqin hamkorlikni ta'minlovchi Mudofaa sohasida hamkorlikni kengaytirish to'g'risidagi bitim (Agreement on Enhanced Defense Cooperation) kabi tashabbuslar bilan yanada mustahkamlanmoqda⁴.

¹ Janjira Sombatpoonsiri. (2017). "The 2014 Military Coup in Thailand: Implications for Political Conflicts and Resolution." *Asian Journal of Peacebuilding*, Vol.5, No.1, pp:131–154.

² United States-Thailand Communiqué on Strategic Alliance and Partnership – United States Department of State <https://www.state.gov/united-states-thailand-communicue-on-strategic-alliance-and-partnership/>

³ Singapore and the US Strengthen Defence Relations through Strategic Security Policy Dialogue https://www.mindef.gov.sg/web/portal/mindef/news-and-events/latest-releases/article-detail/2023/September/18sep23_nr

⁴ U.S. Security Cooperation With Singapore – United States Department of State, <https://www.state.gov/u-s-security-cooperation-with-singapore/>



Singapurning mustahkam iqtisodiyoti va global moliyaviy markaz sifatidagi maqomi uni AQSH uchun qimmatli iqtisodiy hamkorga aylantiradi. Ikki tomonlama savdo va sarmoya oqimi katta bo'lib, hamkorlik kiberxavfsizlik, moliyaviy tartibga solish va texnologik innovatsiyalar kabi sohalarni qamrab oladi. Aqlli shaharni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot loyihalari, tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha qo'shma tashabbuslar har ikki davlatning texnologik imkoniyatlari va raqobatbardoshligini oshiradi. Ushbu iqtisodiy hamkorlik chuqur va ko'p qirrali ikki tomonlama munosabatlarga sabab bo'lgan xalqlar o'rtasidagi aloqalar va ta'lim almashinuvi bilan to'ldirilmoqda¹.

Vyetnam: 1995-yilda diplomatik aloqalar normallashtirishdan beri AQSH-Vyetnam munosabatlari sezilarli darajada o'zgardi². 2013-yilda keng qamrovli hamkorlikning yo'lga qo'yilgani bu rivojlanib borayotgan munosabatlarning chuqurligidan dalolat beradi³. Rasmiy ittifoq yo'qligiga qaramay, Vyetnamning strategik joylashuvi va Xitoyning yuksalishi haqidagi umumiy xavotirlari uni AQSH uchun muhim hamkorga aylantiradi.

Vyetnamning Janubiy Xitoy dengiziga yaqinligi va Xitoy bilan hududiy nizolar bilan birgalikda⁴ uning navigatsiya erkinligi va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda AQSH manfaatlariga mos keladi. Mudofaa sohasidagi hamkorlik sezilarli darajada kengaydi, jumladan, AQSH harbiy-dengiz kuchlari kemalarining portga tashrifi, qo'shma o'quv mashg'ulotlari, patrul katerlari kabi mudofaa jihozlari topshirish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu tashabbuslar Vyetnamning dengiz salohiyatini oshiradi va mintaqaviy barqarorlikni yanada kengroq maqsadda amalga oshirishga hissa qo'shadi⁵.

AQSH va Vyetnam o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkam o'sdi, AQSH Vyetnamning eng yirik savdo hamkorlaridan biriga aylandi⁶. Savdo kelishuvlari va ikki tomonlama investitsiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanishni kuchaytirib, kuchli

¹ Singapore and the United States: Innovators, Partners, Friends. Ministry of Foreign Affairs Singapore, <https://www.mfa.gov.sg/Overseas-Mission/Washington/About-Singapore-US-Relations>

² Hao Tran. (2023). "Tracing The Arc: The Evolution Of US-Vietnam Diplomatic Relations." Vietcetera, <https://vietcetera.com/en/tracing-the-arc-the-evolution-of-us-vietnam-diplomatic-relations>

³ Vietnam and US establish comprehensive partnership, <https://vietnamembassy-usa.org/news/2013/07/vietnam-and-us-establish-comprehensive-partnership>

⁴ Ciociari, J. D., & Weiss, J. C. (2012). "The Sino-Vietnamese Standoff in the South China Sea." Georgetown Journal of International Affairs, 13(1), pp:61–69.

⁵ Phan Xuan Dung, Hoai Vu. (2024). "Vietnam-U.S. Security Cooperation Prospects under the Comprehensive Strategic Partnership." FULCRUM <https://fulcrum.sg/vietnam-u-s-security-cooperation-prospects-under-the-comprehensive-strategic-partnership/>

⁶ From Wartime Foes to Economic Partners: The Rise of the US-Vietnam Strategic Partnership <https://www.sourceofasia.com/from-wartime-foes-to-economic-partners-the-rise-of-the-us-vietnam-strategic-partnership/>



iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni yaratdi. Ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar AQSH–Vyetnam hamkorligining keng qamrovli xususiyatini aks ettiruvchi barqaror rivojlanishga ko‘maklashish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan tashabbuslar bilan yanada mustahkamlanmoqda.

3. Chatzky, Andrew, and James McBride. 'China's Massive Belt and Road Initiative'. Council on Foreign Relations, 2020. <https://www.cfr.org/background/chinas-massive-belt-and-road-initiative>.
4. CountryEconomy. 'China GDP - Gross Domestic Product 2023', 2023. <https://countryeconomy.com/gdp/china?year=2023>.
5. Ekrem, Erkin, and Ayşe Çolpan Yıldız. 'Türk Cumhuriyetleri – Çin Halk Cumhuriyeti İlişkileri'. In *30. Yılında Türk Cumhuriyetleri: Küresel Politika*, Ed. Fırat Yıldız, 67–110. İstanbul: Nobel Akademik Yayıncılık, 2021.
6. Purtaş, Fırat, and Ömer Faruk Kocatepe. 'Türk Cumhuriyetleri Arasında Bölgesel İşbirliği'. In *30. Yılında Türk Cumhuriyetleri: Bölgesel Politika*, Ed. Fırat Yıldız,



- 15–34. İstanbul: Nobel Akademik Yayıncılık, 2021.
7. Змеевский, А. В. ‘Шанхайская конвенция о борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом’. *Московский журнал международного права*, no. 4 (2001): 3–10. <https://doi.org/10.24833/0869-0049-2001-4-3-10>.
 8. Зонн, Игорь, Сергей Жильцов, Александр Семенов, and Андрей Костяной. ‘Трансграничные Реки Казахстана и Китая’, 1: Экономика и управление, 4, no. 27 (2018): 83–85.

NORMAYEVA MASHHURA

Tayanch doktorant, TDSHU
ORCID: 0009-0005-2221-2287

Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida)

Annotatsiya. Butun dunyodagi kabi ayollarning siyosatda ishtiroki va vakillik darajasi juda past darajada qolmoqda. Turkiya Respublikasida esa ayollarning siyosat sohasida vakillik darajasi ham, yuqori boshqaruv lavozimlarida egallagan ulushi ham dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlariga qaraganda pastroq ekanligining guvohi bo'lamiz. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotda, birinchi navbatda, siyosat, siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy ishtiroki tushunchalari konseptual tarzda tushuntiriladi, so'ngra ayollarning siyosiy ishtirokiga ta'sir qiluvchi omillar va ayollarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiluvchi amaliyotlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'z va birikmalar: siyosat, siyosiy ishtirok, ayollarning siyosiy ishtiroki, siyosiy vakillik, gender tengligi, maqsadli kvotalar, siyosiy partiyalar.

Abstract. The level of participation and representation of women in politics around the world is very low. In the Republic of Turkey, we can see that both the level of representation of women in the political sphere and the share of women in high management positions are lower than in other developed countries of the world. In this context, this study first explains the concepts of politics, political participation and women's political participation in a conceptual way, and then discusses the factors influencing women's political participation and the practices that serve to ensure women's active participation.

Keywords and expressions: Politics, political participation, women's political participation, political representation, gender equality, target quotas, political parties.

Аннотация. Как и в остальном мире, участие женщин в политике и их представительство остаются очень низким. В Турецкой Республике наблюдается, что как уровень политического представительства женщин, так и их доля на высших руководящих должностях значительно ниже. В этом контексте данное исследование сначала концептуально рассматриваются понятия политики, политического участия и политического участия женщин, а затем анализируются факторы, влияющие на участие



женщин в политической жизни, а также практики, способствующие их активному участию.

Ключевые слова: *политика, политическое участие, политическое участие женщин, политическое представительство, гендерное равенство, целевые квоты, политические партии.*

Kirish. Siyosiy ishtirokning ko‘plab tavsiflari mavjud, ammo siyosiy ishtirok tushunchasining umumiy qabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emas. Shu sababli, siyosiy ishtirokka oid ta’riflarning aksariyatini ko‘rib chiqamiz. Ushbu tushuncha bilan bog‘liq ta’riflar tahlil qilinsa, barcha ta’riflardan siyosiy ishtirokning siyosatni yo‘naltirishni maqsad qilgan xatti-harakatlar shakli ekanligi haqida umumiy fikrga erishilganligini aytish mumkin.

Siyosiy ishtirok tushunchasini tadqiqotchilar Alford va Fridland (1975) “Fuqarolar, davlat muassasalari va tashkilotlari tomonidan davlat boshqaruvi shaklidan tortib, kadrlar tanlashgacha bo‘lgan barcha turdagi tanlov va harakatlar orqali ularga bevosita ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar”, Huntington va Nelson (1976) “Fuqarolarning hukumat qarorlarini qabul qilishga ta’sir qilish uchun mo‘ljallangan faoliyati”, Milbrath (1981) “Fuqarolar tomonidan hukumat va siyosatga ta’sir qilish yoki qo‘llab-quvvatlash uchun qilingan harakatlar”, Kishlali (1987) “Fuqarolarning turli darajadagi hukumat qarorlari va amaliyotiga ta’sir qilish harakatlari”, Nie boshchiligidagi bir guruh olimlar (1989) “Fuqarolarning davlat mansabdor shaxslarini saylash va mansabdor shaxslarning faoliyatiga turli yo‘llar bilan ta’sir o‘tkazish bo‘yicha amalga oshiradigan qonuniy harakatlari”, Kapani (1998) “Jamiyat a’zolarining siyosiy tuzumga nisbatan holatlari, munosabati va xulq-atvorini belgilab beruvchi tushuncha”, Verba (1995) “Davlat siyosatini ishlab chiqish yoki amalga oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatish yoki bilvosita ushbu siyosatni amalga oshiradigan shaxslarni tanlashga ta’sir qilish orqali hukumat harakatlariga ta’sir qilish maqsadi yoki ta’siriga ega bo‘lgan faoliyat”, Chukurchayir (2000) “Fuqarolarning siyosiy tizimning qarorlar qabul qilish jarayonlariga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rivojlanish jarayonlariga va ushbu jarayonlar natijasida hosil bo‘lgan natijalarni taqsimlashga ta’sir qilish harakatlari”, Munroe (2002) “Fuqarolarning siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan qay darajada foydalanayotganligi (masalan, norozilik bildirish, erkin gapirish, ovoz berish, ta’sir o‘tkazish yoki faolroq ishtirok etish)”, O‘zkan (2007) “Dastlab ovoz berish xulq-atvori bilan shug‘ullanish, saylov kampaniyalarida faol ishtirok etish, siyosiy bahslarda qatnashish va bir qator siyosiy faoliyatni amalga oshirish”, Riley boshchiligidagi olimlar guruhi (2010) “Rasmiy ravishda tashkil etilgan fuqarolik va siyosiy faoliyat (masalan, ovoz berish yoki siyosiy partiyaga a’zo bo‘lish)ni o‘z ichiga olgan huquq va burchlar majmuyi”, Topbash (2010) “Odamlarning shaxsiy tanlovi va qarorlari natijasida siyosiy hokimiyatga saylanishi yoki bu



hokimiyatdagilarga ta'sir qilish uchun amalga oshiradigan harakatlari", Diemer (2012) "Saylovlarda ovoz berish va siyosiy tashkilotlarga kirish kabi siyosiy tizimdagi an'anaviy mexanizmlar orqali ishtirok etish", Akınji (2014) "Oddiy ovoz berishdan ancha samaraliroq harakatlargacha bo'lgan tadbirlar to'plami" deya ta'riflaydilar¹.

Asosiy qism. Siyosiy ishtirokning ta'rifida juda kengdir, buni ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlardan ham ko'rish mumkin. Milbrath (1981) fikricha, odamlar siyosiy omillarga turlicha munosabatda bo'lishadi. Ba'zilar o'zlari yashayotgan siyosiy hokimiyatni shunday qabul qiladi va ulardan kutilgan xatti-harakatlarni namoyon qiladi, ba'zilar esa siyosiy hokimiyatda bo'lishni va bu tizimni qo'llab-quvvatlashni yoki o'zgartirishni xohlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kimlardir siyosat bilan passiv munosabatda bo'lsa, ba'zilar faol siyosat bilan shug'ullanadi². Odamlar aktiv yoki passiv tarzda siyosatda ishtirok etadilar. Aristotelning "inson zoonpolitikon" degan gapi ijtimoiy hayot odamlar uchun juda tabiiy zarurat ekanligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, Aristotel inson ijtimoiy (siyosiy) hayvon ekanligini ta'kidlagan. Insonning aql-zakovat bilan yaratilganligining sababi adolat va huquqiy jamiyat hamda siyosiy tizimda yashash istagidir. Bunda odamlar tabiatan tizimga kiradi, lekin siyosiy tizimda bir xil darajada ishtirok etish har bir shaxsning orzusidir. Bunda jamiyatning tuzilishi, siyosiy madaniyati va iqtisodiy ahvoli kabi omillar siyosiy ishtirok darajasini belgilaydi³.

Milbrath (1965) harakatning oson yoki qiyin ekanligini hisobga olgan holda, siyosiy ishtirok darajalarini tomoshabin, o'tish va gladiator deb tasniflaydi. Eng qiyin harakat gladiator harakati deb tasniflanadi, eng oson harakatga qaratilgan harakatlar o'tish harakati deb tasniflanadi hamda oxirgi va eng oson harakat

¹ Akınçı, S. (2014). Siyasal Katılım Düzeyleri Üzerine Bir İnceleme. Sosyal Bilimler Dergisi 2014 (7), 33-45. Alford, R. R. ve Friedland, R. (1975). Political Participation and Public Policy. Annual Review Of Sociology, 1 (1), 429-479. Dündar, O. (2022) The Behavior of Voters to Participate in General Elections According to The Economic Voting Theory in Turkey: Spatial Panel Data Analysis. Economics in Corporate Finance and Management (pp.113-145). Eds. Mehmet Dağ and Şahin Ay, Ankara: İksad Yayınevi. Milbrath, L. W. (1981). Political Participation. In The Handbook of Political Behavior (pp. 197-240). Springer, Boston, MA. Nie, N. H., Verba, S. ve Converse, P. E. (1989) Siyasal Katılma Kamuoyu ve Oy verme Davranışı. I. Turan- T. Karamustafaoğlu (Çev.) Ankara: Siyasi İlimler Türk Derneği Yayınları. Ozcan, A. (2012). Toplumsal Cinsiyet Eğitiminin Üniversite Öğrencilerinin Toplumsal Cinsiyet Rol Tutumlarına Etkisi. (Doktora Tezi). Erciyes Üniversitesi Sağlık Bilimleri Enstitüsü. Topbaş, H. (2010). David Easton'un Siyasal Sistem Kuramı Bağlamında Siyasal Katılma: Erzurum Seçmeni Üzerine Bir Araştırma. İletişim Kuram ve Araştırma Dergisi, (30), 81-111.

² Milbrath, L. W. (1981). Political Participation. In The Handbook of Political Behavior (pp. 197-240). Springer, Boston, MA. P.198.

³ Akınçı, S. (2014). Siyasal Katılım Düzeyleri Üzerine Bir İnceleme. Sosyal Bilimler Dergisi 2014 (7), S. 39-40.



tomoshabin harakati sifatida tasniflanadi. Quyida ko‘rib chiqilayotgan harakatlar ifodalangan Milbrath jadvali keltirilgan.

Milbrathning siyosiy ishtirok darajalari ierarxiyasi¹

| |
|---|
| • Davlat lavozimini yoki siyosiy partiya ichidagi lavozimni egallash |
| • Saylovda qatnashish uchun nomzod bo‘lish |
| • Siyosiy maqsadlarda pul olish |
| • Muhim partiya yig‘ilishida qatnashish |
| • Nomzodlar yig‘ilishi |
| • Strategik uchrashuv |
| • Siyosiy partiyaning faol a‘zosi bo‘lish |
| • Vaqtni siyosiy kampaniyaga sarflash |
| • Miting yoki yig‘ilishda qatnashish |
| • Biror partiya yoki tashkilotga homiylik qilish |
| • Davlat amaldorlari yoki siyosiy partiyalar rahbarlari bilan bog‘lanish |
| • Partiya yoki nomzodlik ko‘krak nishonini taqib yurish, mashinaga yopishtirish |
| • Biror kishini ma’lum bir tarzda ovoz berishga ko‘ndirishga urinish |
| • Siyosiy munozarani boshlash |
| • Ovoz berishda ishtirok etish |
| • O‘zini siyosiy impulslarga (ogohlantirishlarga) ochiq tutish |
| • Faol bo‘lmagan – befarq (apexetik) |

Yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan siyosiy ishtirok darajasiga asoslanib, Milbrath xatti-harakatlar siyosiy tizimlar, vaqt va mamlakatlarga qarab farq qilishi mumkinligini aytadi. Milbrath eng oson harakat bo‘lgan tomoshabin harakati toifasini faol bo‘lmagan befarq odamlar, eng qiyin harakat – gladiator harakati – siyosiy partiyada ishtirok etish deb belgilagan. Shunga ko‘ra, ovoz berish, partiya ko‘krak nishoni (partiyaga a‘zolik) taqish, biror partiyaga ovoz berishga ko‘ndirish, siyosiy masalalarni muhokama qilish, siyosiy rag‘batlarga ochiq bo‘lish (shaxsning siyosiy ishtirokka qiziqishi) kabi harakatlar “tomoshabin” bosqichiga kiradi. Siyosiy mitingda qatnashish, siyosiy partiya yoki siyosiy partiya nomzodiga moddiy yordam ko‘rsatish, siyosiy shaxs (masalan, partiya yetakchisi, partiya a‘zosi) bilan munosabatda bo‘lish kabi harakatlar “o‘tish” bosqichiga kiradi. Siyosiy partiyada mavqega ega bo‘lish (masalan, faol a‘zolik), siyosiy partiyaga nomzod bo‘lish, siyosiy partiyaning saylovoldi tashviqotida ishtirok etish, siyosiy partiyaning strategiyasini belgilash yig‘ilishlarida qatnashish, siyosiy moliyalashtirish kabi harakatlar “gladiator” bosqichiga kiritilgan.

¹ Gü İtekin, M. C. (2017) Üniversite Öğrencilerinin Siyasal Yaşama Katılım Boyutlarının İncelenmesi: Mardin Örneği. 1. Hitit Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 10(2), 1561.



Nie va Sidney Verba (1972) oltita nuqtayi nazardan siyosiy ishtirok darajasini muhokama qildilar. Hatto ovoz bermaydiganlar, ya'ni siyosiy ishtirokka ega bo'lmaganlar, ovoz berishdan tashqari siyosiy ishtirokning boshqa turiga ega bo'lmaganlar, ya'ni faqat ovoz beradiganlar, shaxsiy muammolarni hal qilishga qaratilgan shaxsiy cheklangan ishtirokchilar, ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan jamoatchilik darajasida ishtirok etish, saylov kampaniyalarida faol ishtirok etishni o'z ichiga olgan kampaniyalarda ishtirok etish va barcha tadbirlarda ishtirok etuvchilardan iborat siyosiy partiyada ishlovchilar¹.

Amerikalik siyosatshunos olim Dahl (1963) siyosiy ishtirok darajasini to'rt nuqtayi nazardan muhokama qiladi. Unga ko'ra, bular qiziqish (siyosiy voqealardan keyin), ahamiyat (siyosiy voqealarga ahamiyat berish), bilim (siyosiy voqealar haqida ma'lumotga ega bo'lish) va harakat (siyosiy voqealarda ishtirok etish va siyosiy qarorlarga ta'sir qilish). Dahl ishtirokchilarni ham alohida tasnif qildi va siyosiy ishtirokni siyosiy qatlam, nosiyosiy qatlam, hokimiyatga intiluvchilar va hokimiyat tepasidagilar guruhlariga ajratdi².

Boshqa bir olim Olsen (1982) olti nuqtayi nazardan siyosiy ishtirok darajasini muhokama qildi. Bular kognitiv ishtirok (ma'lumotlar bo'yicha bilim va fikrni shakllantirish darajasi), mazmunli ishtirok (siyosatni muhokama qilish), saylovda ishtirok etish (partiya afzalligi, ro'yxatga olingan va haqiqatda ovoz berish), tashkiliy ishtirok (siyosiy, lekin partiyasiz ishtirok etish, tashkilotlar yoki siyosiy bo'lmagan maxsus manfaatdor tashkilotlardagi a'zolik va faoliyat), partiyaviy ishtirok (tashviqot tugmachasini taqish, pul xayriya qilish, siyosiy partiyada ko'ngillilik qilish yoki partiya qo'mitasida xizmat qilish) va hukumat ishtiroki (masalan, maktub yozish davlat amaldori yoki saylangan mansabdor shaxs)³.

Muhokama. Siyosiy ishtirok etishning turli maqsadlari va funksiyalari mavjud bo'lib, ular siyosiy tizimlarga qarab farqlanadi. Jamiyat ichidagi muvozanat va siyosiy konsensus kabi omillar demokratik siyosiy boshqaruv shaklida siyosiy ishtirok etishning maqsadi bo'lsa-da, hokimiyat vakili bo'lgan shaxslar avtoritar hukumat shaklida tasdiqlanishi va zarur bo'lganda, ular siyosiy ishtirok etish bilan tasdiqlangan o'z vakolatlaridan manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanishlari mumkin. Demokratik boshqaruv shakllarida siyosiy ishtirok etish funksiyalari; ular orasida siyosiy qarorlar qabul qiluvchi shaxslarni aniqlash, fuqarolarning siyosiy qarorlariga ta'sir ko'rsatish, jamiyatdagi muammolar va ularni hal qilish

¹Dündar, O. (2022) The Behavior of Voters to Participate in General Elections According to The Economic.

Voting Theory in Turkey: Spatial Panel Data Analysis. Economics in Corporate Finance and Management.

(pp.113–145). Eds. Mehmet Dağ and Şahin Ay, Ankara: Iksad Yayınevi. P.117.

² Dahl, R. A. (1963). Modern Political Analysis. New Jersey: Prentice- Hall. P.57–59.

³ Olsen, M. E. (1982). Participatory Pluralism: Political Participation in The United States and Sweden. Chicago: Nelson-Hall. P.62.



bo'yicha takliflarni siyosiy boshqaruvchilarga yetkazish, odamlarda daxldorlik va fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash kiradi¹.

Aytish mumkinki, odamlarning kasbi, jinsi va ta'lim darajasi kabi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning siyosiy ishtirok darajasiga ta'siri juda muhimdir. Oliy ma'lumotli odamlarning siyosiy faolligi yuqori, chunki ular ma'lumot darajasi past odamlarga qaraganda kun tartibiga rioya qilish, turli masalalar bo'yicha ma'lumot olish yoki bilim saviyasini oshirishga intilishlari tufayli siyosiy jihatdan ongliroq, deb hisoblash mumkin. Erkaklarning ta'lim darajasi va daromad darajasi ayollarga qaraganda yuqori ekanligi, patriarxal ijtimoiy tuzilish tufayli erkaklarning qaror qabul qilishda ayollarga qaraganda faolroq ekanligi, ayollarning bola tarbiyasi va uy bekasi bo'lishlarining talab qilinishi, ularning gender rollari natijasida ayollarning siyosiy faolligining past darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zdemir (2019) siyosiy ishtirokni ijtimoiy-iqtisodiy omillar nuqtayi nazaridan o'rganib chiqdi va odamlarning daromadi va ta'lim darajasi oshgani sayin siyosatga qiziqishi ortib borishini, kasblar bilan siyosatga qiziqish o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'qligini aniqladi. Tadqiqot ayollarning siyosiy ishtiroki (saylov berishdan tashqari) erkaklarnikiga qaraganda pastroq, turmush qurganlarning siyosiy xohish-istaklari esa turmush qurmaganlarga qaraganda ancha konservativ degan xulosaga keldi². Gökçe va boshqa bir guruh olimlar (2017) so'rovnoma o'tkazish orqali bakalaviyat talabalarining siyosiy ishtiroki darajasini o'rganib chiqishdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yoshi, jinsi, ma'lumoti va kasbi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar siyosiy ishtirokka ta'sir ko'rsatadi³. Yoon (2017) ijtimoiy-iqtisodiy omillarning saylovlarda ishtirok etishiga ta'sirini o'rganib chiqdi va ta'lim darajasi va sanoat xodimlarining saylovlarda ishtirok etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi⁴. Eser va Sarishahin (2016) o'z tadqiqotlarida so'rovnomaning qo'llash orqali siyosiy ishtirokka ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o'rganib chiqdi va ta'limning siyosiy ishtirok bilan ijobiy aloqasi borligini aniqladi. Tadqiqotda ma'lum bo'lishicha, daromad darajasi erkaklarning siyosiy

¹ Atabey, G. ve Hasta, D. (2018). Siyasal Katılım, Siyasal Yeterlik ve Toplumsal Cinsiyet. *Nesne Dergisi*, 6(13), 484–516.

² Ozdemir, G. (2019). Siyasal Katılmayı Etkileyen Sosyoekonomik Faktörler Uzerine Bir Araştırma- Çankırı Orneği. *Sakarya İktisat Dergisi*, 8(3), 252–283.

³ Gökçe, A. F. , Ozdemirci, I. and Ceylan, I. H. (2017). Üniversite Öğrencilerinin Siyasal Katılım Seviyesi: Kilis 7 Aralık Üniversitesi Orneği. *Süleyman Demirel Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 27, 289–319.

⁴ Yoon, H. Y. (2017). The Impact of Socioeconomic Factors on Voter Turnout in The Republic of Korea: Empirical Research for The Results of 18th and 19th Presidential Elections. *MPA/MPP Capstone Projects*, 297, 2–28.



ishtirokiga, ta'lim darajasi esa ayollarga ko'proq ta'sir qiladi¹. Pigon (2013) o'z tadqiqotida og'ir iqtisodiy sharoitlar Polshadagi prezidentlik va parlament saylovlarida ishtirok etish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatganini, gender, oilaviy ahvol va nikoh ko'rsatkichlari esa prezidentlik va parlament saylovlarida ishtirok etish ko'rsatkichlariga ta'sir qilmasligini aniqladi². Kaya (2008) o'z tadqiqotida Turkiyada aholi jon boshiga daromad va urbanizatsiya ko'rsatkichlari, ishsizlik darajasi past, qaram yosh aholi va qaram aholi bo'lgan hududlarda saylovlarda ishtirok etish darajasi yuqori bo'lgan degan xulosaga keldi³. Gallego (2007) o'z tadqiqotida yosh, ma'lumot va ijtimoiy sinf omillari siyosiy ishtirok etishning yomonlashuvining asosiy sabablari bo'lib, jins va kasbga bog'liq o'zgaruvchilar siyosiy ishtirok bilan kamroq bog'liq degan xulosaga keldi⁴.

Shunday qilib, siyosiy ishtirok bu – siyosatni yo'naltirishni maqsad qilgan xatti-harakatlar shakli bo'lib, u juda ko'p siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy omillar ta'sirida turlicha tarzda bo'lishi mumkin. Ba'zi olimlar guruhi jins ham siyosiy ishtirokka ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil deb hisoblashsa, boshqa guruh olimlar esa jinsning siyosiy ishtirok bilan aloqasi yo'qligini ta'kidlaydilar. O'tmishdan hozirgi kungacha bo'lgan siyosiy ishtirok jinsga qarab baholanganda, butun dunyoda siyosiy ishtirokning erkak tuzilishiga ega ekanligi ko'rinadi. Butun dunyoda ayollarning siyosiy ishtiroki erkaklarnikiga qaraganda ancha past darajada qolmoqda, garchi ularda hech qanday to'siq bo'lmasa ham.

Turkiyada ham xuddi shunday vaziyatning sabablari ko'p bo'lsa-da, eng yaqqol sabab siyosatning erkaklar hukmronligidagi tuzilishi ekanligi ma'lum. Siyosatda erkaklar hukmronlik qiladigan bunday tuzilma tufayli ayollarning siyosiy ishtirokida ko'rinmas to'siqlar mavjud va ularning ishtiroki, odatda, ovoz berish darajasida qolmoqda. Ayollarning siyosiy ishtiroki ovoz berish darajasida bo'lganligi, jamiyat o'rtasidagi farqda gender asosidagi rollarning ustunligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinki, erkaklarning davlat sektorida ustunlik qilishi va ayollarning esa asosan xususiy sektorda band bo'lishi bilan ham belgilanishi mumkin⁵.

¹ Eser, H.B. and Sarışahin, P. (2016). Cinsiyet- Siyasal Katılım İlişkisi: SDU Ornek Olayı. Süleyman Demirel Üniversitesi Vizyoner Dergisi, 7(15), 38–58.

² Pigon, A. (2013). What Affects Voter Turnout? Macro and Micro Evidence From Poland. Collegium of Economic Analysis Annals, 32, 77–105.

³ Kaya, I. (2008). Coğrafi Bağlam, Siyasal Katılım ve Parti Tercihleri: 22 Temmuz 2007 Türkiye Genel Seçimlerine Coğrafi Bir Bakış. Türkiye Coğrafyası Araştırma ve Uygulama Merkezi (TUCAUM) V. Coğrafya Sempozyumu, 16–17 Ekim, Ankara.

⁴ Gallego, A. (2007). Unequal Political Participation in Europe. International Journal of Sociology, 37(4), 10–25.

⁵ Atabey, G. ve Hasta, D. (2018). Siyasal Katılım, Siyasal Yeterlik ve Toplumsal Cinsiyet. Nesne Dergisi, 6(13), 484–516. Pınarcıoğlu, N. Ş. (2017). Eril Siyasette Kadın Temsili (Mi?). Batman Üniversitesi Yaşam Bilimleri Dergisi, 7(1/1), 12–24.



Ayollarning siyosiy ishtiroki passiv ishtirok sifatida ta'riflangan ovoz berishdan tashqari, kamdan kam hollarda bo'lsa-da, partiya ichidagi ma'lum lavozimlarda qatnashish, mitinglarda faol ishtirok etish, saylovda nomzod bo'lish orqali ham aktiv bo'lishi mumkin¹. Bunday holda, ayollarning siyosiy faolligi yuqori lavozimlarda ishtirok etish nuqtayi nazaridan juda past darajada ekanligi muammosi tug'iladi. Xotin-qizlarning siyosatda muhim mavqega ega bo'lishini ta'minlash va yuqori bo'g'inlarda ishtirok etish darajasini oshirish uchun ta'lim, iqtisod, siyosiy erkinlik va siyosiy vakolatlarda gender diskriminatsiyasi kuzatilmaligi kerak. Butun dunyoda olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, siyosiy qarorlar qabul qiluvchilar davlat va siyosatda ayollarning bo'lishiga, ayollar qatlamining shakllanishiga unchalik ahamiyat bermayotganini ko'rish mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, mamlakatlarning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy tuzilishi va gender mafkurasi ayollarning siyosiy faolligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardir².

Parlamentlararo ayollarning global va mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichlari (Inter parliamentary union (IPU), 2022)

| Milliy parlamentlarda ayollarning global va mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichlari | | | |
|---|-----------------------------|---------------|--------|
| Hudud | Quyi palata va bir palatali | Yuqori palata | Umumiy |
| Amerika | 34.4 % | 34.3 % | 34.4 % |
| Yevropa | 31.0% | 30.4 % | 30.9 % |
| Afrika | 26.3 % | 25.3 % | 26.2 % |
| Osiyo | 21.2 % | 19.2 % | 21.0 % |
| Okeaniya | 19.8 % | 49.4 % | 22.9 % |
| Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika | 18.4 % | 10.9 % | 16.9 % |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, butun dunyoda ayollarning siyosiy vakillik darajasi erkaklarnikiga nisbatan ancha past. Statistika ma'lumotlari ayollarning siyosiy faolligi pastligini tasdiqlaydi. Ayollarning parlamentlarda vakillik darajasi eng yuqori 34,4% bilan Amerikada, eng past esa 16,9% bilan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Osiyoda ayollarning vakillik darajasi 21% ni tashkil qiladi. 1995-yilda butun dunyo bo'ylab

¹ Çağlar, N. (2011) Kadının Siyasal Yaşama Katılımı ve Kota Uygulamaları. Süleyman Demirel Üniversitesi Vizyoner Dergisi, 3(4). 56–79.

² Zeng, B. (2014). Women's Political Participation in China: Improved or Not? Journal of International Women's Studies, 15(1), 136–150.



ayollarning vakillik darajasi 11,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda parlamentdagi ayollarning vakillik darajasi 24 foizga oshgan¹.

Aytish mumkinki, ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillardir.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ayollarning siyosatda o'zlari uchun kengroq yo'nalishlarni topishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, ijtimoiy-madaniy rivojlangan mamlakatlarda ayollar yaxshi ta'lim olishlari, jamoat joylarida osongina o'z o'rnini egallashlari va faol ishtirok etish orqali siyosiy maydonda ko'proq vakillik qilishlari mumkin. Ayollar ta'limdan uzoqlashgan, sog'liqni saqlash xizmatlaridan to'liq foydalana olmaydigan va ishsizlik kabi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ustun bo'lgan jamiyatlarda ayollarning siyosiy faolligi past bo'lishi kutiladi.

Ayniqsa, iqtisodiy sharoit ayollarning siyosiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy sharoiti yaxshi, farovonligi yuqori bo'lgan mamlakatda ayollarning siyosiy faolligi ancha yuqori bo'ladi. Mamlakatdagi madaniy omillar ham ayollarning siyosiy faolligiga va ayollarning siyosatdagi yuqori lavozimlarda bandligiga ta'sir qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, agar biror mamlakatda madaniy omillar bilan parallel ravishda ayollarning siyosatda faol ishtirok etishlari qo'llab-quvvatlansa, boshqacha aytganda, bir mamlakatning madaniy tuzilishi ayollarning siyosiy ishtiroki bo'lishi kerak bo'lgan darajada bo'lsa, bu mamlakatda ayollarning siyosiy faolligi yuqori bo'ladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ayollarning jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy ahvoli, iqtisodiy yetarliligi bevosita ularning siyosiy faolligiga ta'sir qiladi. Erkaklar hech qanday maxsus harakat qilmasdan siyosatda bo'lishlari mumkin bo'lsa-da, ayollar uchun vaziyat butunlay boshqacha. Ayollarning parlament kabi yuqori boshqaruv lavozimlarida o'z o'rnini topishi uchun ular erkaklarnikidan ko'ra ko'proq iqtidorli, bilimli va shu lavozimga mos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishi kutiladi.

Ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir qiluvchi omillardan yana biri—bu mamlakatdagi demokratik tuzilmadir. Ayollarning vakillik darajasi mamlakatning demokratik tuzilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Demokratik jamiyatlar ayollarning saylov huquqidan tortib, fuqarolik huquqlariga qadar ko'plab sohalarda rivojlanish darajasiga ega. Mamlakatlarning demokratiya darajasi saylovlarda ko'proq ovoz olish orqali ayollarning saylovda g'alaba qozonish qobiliyatini oshiradi, parlamentdagi siyosiy partiyalar, shuningdek, siyosiy tuzilmalar soni raqobatni kuchaytiradi, ayollarga nomzod bo'lish imkoniyatini beradi.

¹ Inter Parliamentary Union (2020). Parlamentoda Kadınlar: 1995–2020 Inter-Parliamentary Union, For Democracy. For Everyone 1-24.



Ayollarning siyosatga qiziqishi yo'qligi siyosatchilar tomonidan ayollarning siyosiy sohadagi vakillik darajasi pastligiga ta'sir qiluvchi omil sifatida tez-tez tilga olinadi. Turk olimlari Toprak va Kalayjiog'lu (2004) tadqiqotida "Siyosatga qiziqmayman" degan ayollarning nisbati 81,4% bo'lsa, erkaklarda bu ko'rsatkich 65,6% ni tashkil etgan¹. Bu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, agar parlamentdagi erkak va ayol nisbatiga ta'sir qiluvchi yagona omil siyosatga qiziqish bo'lsa, Turkiya Buyuk Millat Majlisidagi deputatlarning uchdan bir qismi ayollar bo'lishi kerak edi. Ayollarning kam vakillik va faol ishtirok etishini ularning siyosatga qiziqishi yo'qligi bilan bog'liq deyish juda sayoz yondashuv.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiya Respublikasida ayollarning siyosiy faolligi va jamiyatdagi gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasi o'laroq, Turkiya respublikasi bu jabhada dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan joy egallamoqda. Shunday ekan o'z-o'zidan haqli savol tug'iladi. "Ayollarga siyosatda faol ishtirok etish imkonini berish uchun nimalar qilish lozim?"

*Birinchi*dan, gender tenglikka erishish uchun milliy va xalqaro miqyosda siyosat ishlab chiqish zarur. Inson huquqlari va demokratiya nuqtayi nazaridan ayollarning siyosiy sohadagi vakilligi yaxshilangani gender tengligiga erishish nuqtayi nazaridan juda muhim ko'rsatkichdir. 1952-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi konvensiya nashr etilgan. Ushbu kelishuv doirasida ayollarning barcha davlat boshqaruv organlariga erkaklar bilan teng ravishda, hech qanday kamsitishsiz saylanish huquqiga ega ekanligi ta'kidlandi. Ushbu kelishuvga qaramay, gender tengsizlik hamon davom etmoqda. Shu munosabat bilan siyosiy qaror qabul qiluvchilar o'z rejalari va dasturlarini gender tengligi nuqtayi nazaridan siyosatda ayollarning vakilligini oshirishga qaratilgan qayta tashkil etishlari kerak. Ayollar va erkaklar hayotning barcha sohalarida teng huquqli bo'lishini ta'minlash, iqtisodiy hayotda erkaklar va ayollar tengligini kafolatlash, ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish kabi bir qator amaliyotlarni o'zlashtirish zarur.

*Ikkinchi*dan, gender tengligini ta'minlash uchun parlamentlarda erkaklar va ayollar nisbati 50 foizni tashkil etishi zarurligi BMT tomonidan ta'kidlandi. Jamiyatda gender tengligini ta'minlash ijtimoiy huquqlar, iqtisodiy vaziyat, siyosiy va madaniy vaziyat va qonuniy huquqlar kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda ularning ko'zga ko'rinarli vakilligini ta'minlash, mahalliy va milliy miqyosda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

*Uchinchi*dan, mamlakatlar ayollarning siyosatda faol bo'lishlari va ularning vakillik darajasini oshirishlari uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirishlari va loyi-

¹ Kalaycıoğlu, E. ve Toprak, B. (2004). İş Yaşamı, Üst Yönetim ve Siyasette Kadın. İstanbul: Tesev Yayınları. S.77-78.



halar ishlab chiqishlari kerak. Ayollar vakilligi yuqori bo'lgan mamlakatlar o'rganilganda, bu mamlakatlarda siyosiy tizimlar, huquqiy tizimlar va kvota qo'llash kabi ko'plab tartibga solishlar amalga oshirilganligi va mamlakatlar ushbu qoidalarni hech qanday uzilishlarsiz amalga oshirganligi ko'rinadi. Ayollarning siyosatda yuqori sur'atlarda namoyon bo'lishini va faol rol o'ynashini ta'minlaydigan amaliyotlardan biri bo'lgan kvota qo'llash qisqa muddatda ayollar vakillik darajasini oshirish nuqtayi nazaridan eng samarali amaliyotlardan biridir. Kvota qo'llashning o'zi parlamentdagi ayollar vakillik darajasini kerakli darajada oshirmaydi. Ayollar vakillik darajasini kerakli darajada oshirish uchun saylov tizimlarini aniqlash, yuqori kvota stavkalariga ega bo'lish, ro'yxat bo'yicha ayollar saylanishi mumkin bo'lgan joylarda bu stavkalarni belgilash va shunga o'xshash amaliyotlarni yo'lga qo'yish zarur.

Shunday qilib, ayollarning siyosatda faolligi gender tengligi va demokratlashirish nuqtayi nazaridan juda muhim mezondir. Bunda har bir mamlakat siyosiy institutlari zimmasiga xotin-qizlarning siyosiy vakilligini oshirish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini ovoz berish darajasidan partiyalarda muhim o'rinlarni egalash darajasigacha oshirishga xizmat qiladigan amaliyotlarni joriy etish vazifasini amalga oshirish mamlakatlarning rivojlanishi va jamiyatlar farovonlashuvi uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akıncı, S. (2014). Siyasal Katılım Düzeyleri Uzerine Bir Inceleme. Sosyal Bilimler Dergisi 2014 (7), 33–45.
2. Alford, R. R. ve Friedland, R. (1975). Political Participation and Public Policy. Annual Review Of Sociology, 1 (1), 429–479.
3. Atabey, G. ve Hasta, D. (2018). Siyasal Katılım, Siyasal Yeterlik ve Toplumsal Cinsiyet. Nesne Dergisi, 6(13), 484–516.
4. Blank, R. H. (1974). Socio-economic Determinism of Voting Turnout: A challenge. The Journal of Politics, (36) 3, 731–752.
5. Çağlar, N. (2011) Kadının Siyasal Yaşama Katılımı ve Kota Uygulamaları. Süleyman Demirel Üniversitesi Vizyoner Dergisi, 3(4). 56–79.
6. Dahl, R. A. (1963). Modern Political Analysis. New Jersey: Prentice- Hall.
7. Dündar, O. (2022) The Behavior of Voters to Participate in General Elections According to The Economic Voting Theory in Turkey: Spatial Panel Data Analysis. Economics in Corporate Finance and Management (pp.113–145). Eds. Mehmet Dağ and Şahin Ay, Ankara: Iksad Yayınevi.
8. Eser, H.B. and Sarışahin, P. (2016). Cinsiyet- Siyasal Katılım İlişkisi: SDU Ornek Olayı. Süleyman Demirel Üniversitesi Vizyoner Dergisi, 7(15), 38–58.
9. Göksel, Z. S. (2015). Türkiye'de Kadınların Kamusal Görünürlüğü Ve Etkinliği Bağlamında Siyasi Partilerin Kadın Kolları: Mecliste Temsil Edilen



- Siyasi Partilerin Kadın Kolları Üzerine Sosyolojik Bir Araştırma (Yüksek Lisans Tezi), Konya: Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü .
10. Inter Parliamentary Union (2020). *Parlamentoda Kadınlar: 1995–2020 Inter-Parliamentary Union, For Democracy. For Everyone* 1–24.
 11. Kalaycıoğlu, E. ve Toprak, B. (2004). *İş Yaşamı, Üst Yönetim ve Siyasette Kadın*. İstanbul: Tesev Yayınları.
 12. Kaya, I. (2008). *Coğrafi Bağlam, Siyasal Katılım ve Parti Tercihleri: 22 Temmuz 2007 Türkiye Genel Seçimlerine Coğrafi Bir Bakış*. Türkiye Coğrafyası Araştırma ve Uygulama Merkezi (TUCAUM) V. Coğrafya Sempozyumu, 16–17 Ekim, Ankara.
 13. Milbrath, L. W. (1965). *Political Participation*. Chicago: Rand McNally & Company.
 14. Milbrath, L. W. (1981). *Political Participation*. In *The Handbook of Political Behavior* (pp. 197–240). Springer, Boston, MA.
 15. Nie, N. H., Verba, S. ve Converse, P. E. (1989) *Siyasal Katılma Kamuoyu ve Oy verme Davranışı*. I. Turan- T. Karamustafaoğlu (Çev.) Ankara: Siyasi İlimler Türk Derneği Yayınları.
 16. Olsen, M. E. (1982). *Participatory Pluralism: Political Participation in The United States and Sweden*. Chicago: Nelson-Hall.
 17. Ozcan, A. (2012). *Toplumsal Cinsiyet Eğitiminin Üniversite Öğrencilerinin Toplumsal Cinsiyet Rol Tutumlarına Etkisi*. (Doktora Tezi). Erciyes Üniversitesi Sağlık Bilimleri Enstitüsü .
 18. Pınarcıoğlu, N. Ş. (2017). *Eril Siyasette Kadın Temsili (Mi?)*. Batman Üniversitesi Yaşam Bilimleri Dergisi, 7(1/1), 12–24.
 19. Pigon, A. (2013). *What Affects Voter Turnout? Macro and Micro Evidence From Poland*. *Collegium of Economic Analysis Annals*, 32, 77–105.
 20. Russell, O. Ç. (2016). *Türkiye’de Seçime ve Geleneksel Olmayan Siyasal Faaliyetlere Katılımı Etkileyen Bireysel Seviye Faktörler*. Ankara Üniversitesi Siyasal Bilgiler Fakültesi Dergisi, 71(2), 437–463.
 21. Topbaş, H. (2010). *David Easton'un Siyasal Sistem Kuramı Bağlamında Siyasal Katılma: Erzurum Seçmeni Uzerine Bir Araştırma*. *İletişim Kuram ve Araştırma Dergisi*, (30), 81–111.
 22. Yoon, H. Y. (2017). *The Impact of Socioeconomic Factors on Voter Turnout in The Republic of Korea: Empirical Research for The Results of 18th and 19th Presidential Elections*. *MPA/MPP Capstone Projects*, 297, 2–28.
 23. Zeng, B. (2014). *Women's Political Participation in China: Improved or Not?* *Journal of International Women's Studies*, 15(1), 136–150.

**MEDIHANUR ARGALI**

*Ph.D, Res. Asst. National Defence University, Atatürk Institute
for Strategic Research and Graduate Studies
ORCID: 0000-0003-0777-7077*

**Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between
Uzbekistan and Azerbaijan**

Abstract. *This article aims to examine the fraternal ties between Uzbekistan and Azerbaijan in the context of cultural diplomacy. With their shared Turkic heritage, the two countries have historically demonstrated a robust engagement in domains such as language, art, and literature. In the contemporary era, these ties have been reinvigorated through the conduit of cultural diplomacy. By fostering collaboration in education, the arts, and cultural activities, the two nations have reinforced the bonds between their respective peoples, while fortifying the solidarity within the Turkic community. Uzbekistan and Azerbaijan serve as pivotal actors in the transmission of their cultural legacy to future generations.*

Keywords and expressions: *Uzbekistan, Azerbaijan, Cultural Diplomacy, Turkic States.*

Annotatsiya. *Ushbu maqoladan maqsad O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi qarodoshlik aloqalarini madaniy diplomatiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqishdan iborat. Umumiy turkiy merosga ega bo'lgan ikki davlat tarixan til, san'at va adabiyot kabi sohalarida faol hamkorlik qilib kelgan. Zamonaviy davrda bu aloqalar madaniy diplomatiya orqali qayta tiklandi. Ta'lim, san'at va madaniy faoliyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirib, ikki davlat o'z xalqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, turkiy hamjamiyat ichida hamjihatlikni mustahkamlamoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon o'z madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.*

Kalit so'z va birikmalar: *O'zbekiston, Ozarbayjon, madaniy diplomatiya, turkiy davlatlar.*

Аннотация. *Цель данной статьи - рассмотреть братские связи между Узбекистаном и Азербайджаном в контексте культурной дипломатии. Имея общее тюркское наследие, эти две страны исторически поддерживали активное взаимодействие в таких областях, как язык, искусство и литература. В современную эпоху эти связи активизировались благодаря культурной дипломатии. Развивая сотрудничество в области образования, искусства и культурной деятельности, две страны укрепляют связи между своими народами, и одновременно содействуют консолидации тюркского сообщества. Узбекистан и Азербайджан играют ключевую роль в сохранении и передаче своего культурного наследия будущим поколениям.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Азербайджан, культурная дипломатия, тюркские государства.*

Introduction. Uzbekistan and Azerbaijan are two Turkic States with a long history of shared cultural and historical traditions. Despite their geographical location to the east and west of the Caspian Sea, cultural and historical interactions between Uzbekistan and Azerbaijan have remained strong for centuries.



Situated in the middle of the Silk Road, Uzbekistan and Azerbaijan have historically been centres of science, art and trade, and this shared history has laid the foundations for today's cultural diplomacy. The two countries share common Turkic roots, language similarities, literary and artistic heritage, which have linked the two peoples throughout history and have been further strengthened in the modern era.

Since gaining independence in 1991, Uzbekistan and Azerbaijan have made significant strides in the realm of cultural diplomacy, particularly in the 21st century. Cultural diplomacy has become an integral part of the foreign policies of the two countries, reinforcing not only political and economic cooperation but also cultural ties. Uzbekistan and Azerbaijan, two important actors of the Turkic world, are reviving their historical ties through cultural projects and activities, thereby deepening their cooperation in several fields, including education, art, language and history. This cooperation creates a new synergy not only between the two countries but also throughout the Turkic world.

Since gaining independence in 1991, Uzbekistan and Azerbaijan have made significant strides in the realm of cultural diplomacy, particularly in the 21st century. Cultural diplomacy has become an integral part of the foreign policies of the two countries, reinforcing not only political and economic cooperation but also cultural ties. Uzbekistan and Azerbaijan, two important actors of the Turkic world, are reviving their historical ties through cultural projects and activities, thereby deepening their cooperation in several fields, including education, art, language and history. This cooperation creates a new synergy not only between the two countries but also throughout the Turkic world.

This article seeks to examine the fraternal ties between Uzbekistan and Azerbaijan, with a particular focus on the role of cultural diplomacy in forging and sustaining these ties. It also aims to evaluate the historical, cultural and political dimensions of these ties. Furthermore, the objective is to analyse the evolution of cultural cooperation between the two countries in the modern period and its overall impact on the Turkic world.

This study examines the cultural dimension of diplomatic relations between Uzbekistan and Azerbaijan, utilising historical and cultural data. In the article, the interactions between the two countries will be discussed, regarding sources including historical texts, cultural events and educational cooperation. Additionally, regional cooperation and cultural diplomacy mechanisms in the Turkic world will be analysed, with a focus on the future direction of these relations.

Cultural Diplomacy in the Modern Era

Cultural diplomacy represents a foreign policy instrument utilized to foster cultural connections between nations. In the modern era, this concept is not limited to the political and economic interests of states; it also encompasses their objective of achieving long-term peace and cooperation through the promotion of cultural interaction between peoples. Cultural diplomacy serves to establish a connection between two countries or societies, utilising elements such as art, literature, education



and history. In the contemporary era, within the context of globalisation, cultural diplomacy has assumed a pivotal role in the soft power strategies of states.¹

Cultural diplomacy has a conceptual framework that was developed in the 1960s and is regarded as one of the foreign policy instruments defined as 'soft power' (yumshoq kuch). This concept, which was first proposed by Joseph Nye, emphasises that countries can exert influence in the international arena through cultural values and interaction, in addition to military and economic pressure. According to Nye, a country's soft power is created through the spread of its cultural appeal and ideals.² In this context, cultural diplomacy is an instrument of foreign policy that aims to establish a wider network of international relations by deepening social, cultural and educational interactions between countries.

The scope of modern cultural diplomacy has been expanded to promote a country's cultural heritage, art, language and values to other countries, to create a positive image in international relations. In particular, the advent of digital technologies and social media has enabled cultural diplomacy to transcend the limitations of inter-state relations, extending its reach to a global arena.³

The contribution of Russian scholars to the definition of cultural diplomacy is related to the broader contextualisation of the concept. In Russia, cultural diplomacy is often referred to as 'культурная дипломатия' and occupies an important place as the official cultural policy of the state. The aim of cultural diplomacy is defined as "the strengthening of Russia's international image, the promotion of its national cultural values and heritage".⁴ Although this approach originated during the Soviet era and was initially shaped by ideological interactions, it is currently supported primarily by cultural and scientific cooperation in the modern era.

As posited by the Russian scholar Medvedev, cultural diplomacy signifies the expansion of educational, scientific and cultural projects, as well as the fortification of mutual comprehension between peoples. Cultural diplomacy exerts a far-reaching influence, not only at the state level, but also through civil society and academia.⁵

Cultural diplomacy is becoming an increasingly significant aspect of international relations. This is due to several factors, including:⁶

- Soft Power: As an alternative to hard power elements such as cultural diplomacy, and military and economic power, cultural diplomacy increases a

¹ C.P. Schneider, *Cultural Diplomacy: Hard to Define, but You'd Know It If You Saw It*. *Brown Journal of World Affairs*, 2006, pp.55-57.

² See: J. Nye, *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs, 2004.

³ M.C. Cummings, *Cultural Diplomacy and the United States Government: A Survey*. Center for Arts and Culture, 2003, p. 102.

⁴ В. А. Медведев, Культурная дипломатия как инструмент "мягкой силы" в международных отношениях. *Вестник МГИМО*, 4(25), 2012, 35-40.

⁵ Ibid.

⁶ A.S. Mattila, *Cultural Diplomacy: A Theoretical Framework*. Palgrave Macmillan, 2011, p.215.



country's soft power by increasing its attractiveness and enabling other countries to cooperate voluntarily.

- **Image Creation:** The cultural products of a country shape the perception in other countries by creating a positive image of that country.
- **Cultural Exchange and Understanding:** Cultural diplomacy increases understanding between different cultures and paves the way for cultural exchange.
- **Economic Benefits:** Cultural events and exchanges stimulate economic growth in sectors such as tourism, education and cultural industries.




Figure 1: Cultural Diplomacy Practices.

Source: Figure created by the author.

Cultural diplomacy is a strategy employed by numerous countries. France, for instance, utilises the Alliance Française network to disseminate French culture globally, while Italy seeks to enhance its national image through events in the realms of fashion and design. South Korea, similarly, leverages popular culture products such as K-pop and K-drama to cultivate a global fan base.¹

Consequently, in the contemporary era, cultural diplomacy has emerged as a pivotal instrument, facilitating the more efficacious conduct of states within the global milieu. Cultural diplomacy serves to advance a more tranquil and cognizant world by fortifying not only inter-state relations but also the bonds between disparate cultures.

The bilateral cooperation between Uzbekistan and Azerbaijan represents a case study in modern cultural diplomacy. It serves to reinforce the bonds between the two

¹ UNESCO, *Cultural Diplomacy: A Handbook for Practitioners*. Paris, UNESCO, 2017.



countries, which are anchored in a shared historical, linguistic, and cultural heritage. In multilateral forums such as the Organisation of Turkic States, the two countries are actively engaged in promoting their collective cultural legacy on the global stage. Educational collaboration, cultural events, and art initiatives stand out as the primary instruments that reinforce the fraternal ties between the two peoples.

Historical Ties

Uzbekistan and Azerbaijan are two significant members of the Turkic world, with a long history of shared cultural and historical traditions. Despite the geographical distance between these two countries, they have historically shared numerous common characteristics. The migration of Turkic tribes from Central Asia to the Caucasus, a process that commenced in pre-Islamic times, has resulted in a robust foundation for interaction between Uzbekistan and Azerbaijan. In particular, the nomadic and settled lifestyles of Turkic tribes in these regions have left a significant imprint on the region's geography.¹ The historical processes uniting Central Asia and the Caucasus have developed through the establishment of common cultural, linguistic and trade ties. The adoption of Islam, the influence of the Seljuk Empire and the commercial links provided by the Silk Road are among the factors that contributed to the deepening of relations between Uzbekistan and Azerbaijan. During the Soviet era, these two countries were under a unified political system and subsequently transformed their relations following the attainment of their independence. The historical ties between Uzbekistan and Azerbaijan are a significant foundation for the bilateral cooperation that exists today.²

The historical record indicates that various Turkic tribes have inhabited the territories of Uzbekistan and Azerbaijan. The rise of the Great Hun Empire in Central Asia, followed by the Gokturk Khaganate, constituted a pivotal moment in the establishment of Turkish culture and identity in these geographies. As a result of the westward expansion of Turkish tribes, Azerbaijan has become one of the most significant centres of Turkish presence in the Caucasus region. Uzbekistan, in contrast, is the centre of Central Asia and has been under the rule of various Turkish states, including the Karakhanids and the Timurid Empire, following the Göktürk Khaganate.³

The earliest known historical connections between the peoples of Uzbekistan and Azerbaijan can be traced back to the 9th-7th centuries BC. At that time, the Cimmeric-Iskit-Sakka tribes, originating from Altai, established a partial settlement in the territory of present-day Uzbekistan. They subsequently continued their movement

¹ See: Touraj Atabaki and Sanjyot Mehendal, *Central Asia and the Caucasus: Transnationalism and Diaspora*. London: Routledge, 2005.

² Denis Sinor, "The Historical Role of the Turk Empire." In *The Cambridge History of Early Inner Asia*, edited by Denis Sinor, 285–316. Cambridge, Cambridge University Press, 1990, pp. 102 – 105.

³ Yuri Bregel, *An Historical Atlas of Central Asia*. Leiden: Brill, 2003. pp. 52-54.



from the north, traversing the Crimea and the Great Caucasus Mountains, and proceeded to occupy the territory of present-day Azerbaijan. During this period, the Massaget tribes, representing a formidable military-political unity, inhabited the territory of present-day Uzbekistan and Azerbaijan.¹

Shuni esda tutish kerakki, har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Taqqoslash uchun turli madaniyatlarning ko'rinishlaridan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz. Inglizlarga xos bo'lgan xislatlar – bu hazil-mutoyiba, istehzo, imo-ishoralar, yashirin ma'nolar va aytilmagan fikrlar. Nazarimda inglicha bir ibora – jumla juda qiziq: *I don't think it's a very good idea – Men bu juda yaxshi fikr deb o'ylamayman*. Bu biror narsaga o'z salbiy munosabatini bildirishda aytiladi. Agar shu fikrni *It's a bad idea – Bu yomon fikr* jumlasini bilan ifodalansa, ushbu bayonot

¹ Gibson Robert. Intercultural Business Communication. Oxford University Press, 2002 111p.

² Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, pp. 26–31

³ Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.6.



boshqalar tomonidan to'g'ridan to'g'ri va ma'lum darajada qo'pollik sifatida qabul qilinadi. Xorijiy hamkorlar bilan muloqot jarayonida bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik kerak¹.

Muloqot jarayoni nafaqat og'zaki nutqdan, balki paraverbal hodisalar (masalan, nutq tezligi, to'xtashlar, ovoz balandligi va boshqalar) va og'zaki bo'lmagan til uslubi (mimika, imo-ishoralar, o'tirish tarzi, suhbatdoshgacha bo'lgan masofa va boshqalar).

Turli madaniyatlarda bir xil belgilar boshqa ma'noni anglatishi mumkinligini doimo esda tutish muhimdir. Turli mamlakatlar xalqlari imo-ishoralari bir xil ma'noni ifodalamaydi, aksincha har xil madaniyatlarda ko'p hollarda qarama-qarshi fikrni anglatadi².

Bir mamlakatda bu oddiy deb hisoblansa, boshqasida u haqoratli va tahqirli sa'y-harakat sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, qoshlarini chimirgan ingliz kishisi suhbatdoshining gapiga shubha bilan qaraydi, nemis madaniyati vakili esa bu xatti-harakati bilan hayratlanishini ifodalaydi.

Rang belgilari ramziyligi turli madaniyatlarda tubdan farq qiladi. G'arbiy Yevropa madaniyatlarida qizil rang xavf, muammo, urush (Finlyandiya, Fransiya, Italiya), g'azabni anglatishi mumkin. Sovuq mamlakatlarda bu-quyoshning rangi, issiq mamlakatlarda esa olov rangini anglatadi, chunki olov yong'in va vayrona-garchilik xavfini keltirib chiqaradi.

Xitoyda qizil rang baxt rangi, to'ylar ramzi hisoblanadi va omad keltiradi, lekin qizil siyoh bilan xat yozish taqiqlanadi, chunki u "qabul qiluvchini uyda qovurish" istagini ifodalaydi. Qizil rang Germaniya, Shimoliy Yevropa mamlakatlari va Hindistonda sevgi rangi (hind to'yida kelin libosi – sari) timsolidir.

Nemislar qizil rangni hayot bilan bog'lashadi. Agar kimdir kutilmaganda vafot etsa, ular aytadilar: *heute rot, morgen tot / bugun qizil, ertaga o'lik*. Aksariyat mamlakatlarda qizil svetofor taqiqlovchi chiroqdir. Uydagi qizil chiroq Niderlandiyada (Amsterdamdagi qizil chiroq tumani) butunlay boshqacha talqin qilinadi.

Odamlar bir-biriga nafaqat qanday salom berishlari, shuningdek, bir-birlariga qanaqa gullar taqdim etishlari juda qiziqarli. Ba'zi gullar baxtsizlik va g'am-kulfat bilan bog'liq: masalan, Braziliyada binafsha, Angliya, Kanada va Shvetsiyada oq liliyalar, oq va sariq rang gullar Tayvanda, Meksikada esa sariq rang.

Yevropa madaniyatlarida bir xil oq rang ijobiy ma'noga ega bo'lib, yengillik va poklik rangidir. Sharq mamlakatlarida oq rang motam, qayg'u alam belgisi. Jumladan, oq kiyim O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ta'ziya libosidir.

Qora rang aksariyat mamlakatlarda taxminan bir xil ma'noni anglatadi: motam (Xitoy madaniyatidan tashqari), baxtsizlik, qayg'u, yovuzlik, hasad. Bundan tashqari, Xitoyda qora kiyim kiyish tavsiya etilmaydi.

¹ Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.7.

²Верещагин Й.М., Костомаров В.Г. В поисках новых путей развития лингвостранаведения: концепция речеповеденческих тактик. <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-012>



Meksikada qizil gullarga nisbatan salbiy munosabat mavjud, chunki qadimgi xurofotlarga ko‘ra, ular yomon afsun qilishadi.

Xitoy va vyetnamliklar uchun qurigan gullar o‘lim belgisi hisoblanadi. Germaniyadagi osiyolik muxojirlar nemis qo‘shnilari o‘z xonadonlariga nega qurigan guldastalar qo‘yishni tushuna olmaydi. Xitoyda odamlar doimo toq sonli gullar yoki narsalarni berishadi. Ularning nazarida juft raqamlar omadsizlikka olib kelar ekan.

Rossiyada xrizantema ko‘pincha ayollarga ham, erkaklarga ham sovg‘a sifatida beriladi. Italiya va Fransiyada oq xrizantema barcha dafn marosimiga yoki qabriston ziyoratiga olib kelinadi.

Garchi barcha madaniyatlar raqamlardan foydalansa ham, ular har doim bir xil mazmun kasb etmaydi. Masalan, 4 raqami xitoyliklar uchun yomonlikni angatadi. Chunonchi og‘zaki talaffuzi “o‘lim”ga o‘xshaydi. Shu sababli, Xitoyda ko‘plab binolar to‘rtinchi qavatga ega emas. Odamlar uylarni, shuningdek, avtomobil yoki telefon raqamlarini raqamlashda 4 raqamidan voz kechishga harakat qilishadi. Ular 4-siz raqam uchun ko‘proq pul to‘lashdan xursand. Ba‘zi Sharqiy Yevropa madaniyatlarida 8 raqami omad, baxt va muvaffaqiyat keltiradi, hatto jannat soni, deb qabul qilingan.

G‘arb va AQSHning ba‘zi madaniyatlarida 13 raqamiga nisbatan noto‘g‘ri qarashlar mavjud bo‘lib, ular bu baxtsizlik keltiradi, deb bilishadi. Shuning uchun, ko‘plab mehmonxonalar va binolarda o‘n uchinchi qavat yo‘q, o‘n ikkinchidan keyin darhol o‘n to‘rtinchi raqam keladi. 13 raqami bo‘lgan uy deyarli uchramaydi. Germaniyada 13 raqami xurofiy qo‘rquvni keltirib chiqaradi, xonalarni, joylarni va hokazolarni raqamlashda o‘tkazib yuboriladi.

Muayyan mamlakatga xos bo‘lgan kommunikativ xatti-harakatlarning umumiy madaniy me‘yorlariga e‘tibor qaratish lozim. Ular uning qabul qilingan odob-axloq qoidalari, xatti-harakatlari va muloyim muomala qoidalarini aks ettiradi.

O‘zbek, ingliz va amerika madaniyatlari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, o‘zbeklar odatda rasmiy va norasmiy sharoitlarda qo‘l siqishadi. Britaniya va amerikaliklarga kelsak, ular faqat odamlar bilan uchrashganda yoki rasmiy vaziyatlarda qo‘l berib ko‘rishishni taklif qilishadi. Keyinchalik uchrashganda, ular shunchaki boshlarini qimirlatib, og‘zaki nutq bilan hamrohlik qilishadi. Sharqiy Afrikada salomlashish xotin va bolalarning yoki boshqa qarindoshlarning salomatligi, farovonligi haqidagi savollar bilan to‘ldiriladi.

Arab mamlakatlarida ayollarga qo‘l berilmaydi, Rossiyada tadbirkor ayolga qo‘l uzatilmaydi, lekin uning tashabbusini kutadi va hokazo. Aksariyat arab mamlakatlari, xususan, Fors ko‘rfazidagi monarxiya davlatlarida Ramazon oyida barcha restoranlar, oshxonalar, qahvaxonalar saharlik tugagandan so‘ng oqshomga qadar berkitiladi. Ko‘chalarda va ommaviy jamoatchilik joylarida ovqatlanish va tamaki chekish rasman man etiladi.

Shu o‘rinda bir qiziq fakti aytib o‘tmoqchiman. Yaqin va O‘rta Sharq aksariyat mamlakatlarida ko‘pincha uchrashganda bir-birini quchoqlab, biroz vaqt qo‘llarini ushlagan holatda qoladigan erkaklarni uchratish mumkin.



O'rta Yer dengizi mamlakatlarida erkaklar ham, ayollar ham bir-birlarini yaxshi bilmasalar ham, yuzlaridan o'pish bilan salomlashadilar. Germaniya, Skandinaviya va Buyuk Britaniyada o'pish ayollar orasida keng tarqalgan.

Muloqot jarayonida ko'z bilan aloqaga katta ahamiyat beriladi. Ba'zi Sharq madaniyatlari vakillari muloqotda suhbadosh ko'ziga qarab gaplashishni afzal ko'rishmaydi. Ammo G'arb madaniyati vakillari uchun ko'zga tik qarab muloqotda bo'lish muhim hisoblanadi.

Turli biznes madaniyatlari punktuallikka turlicha munosabatda bo'lishadi – masalan, britaniyaliklar kechikishni odobsizlik deb bilishadi, meksikaliklar va aksariyat arab mamlakatlari xalqlari esa buni yomon odat yoki mas'uliyatsizlik deb hisoblamaydi.

Madaniyatlarda mezbon va mehmon o'zini qanday tutishi haqida ma'lum qoidalar mavjud. Butun dunyoda mavjud bo'lgan uzoq mehmondo'stlik an'analariga asoslanadi. Aksariyat mamlakatlarda mehmondo'stlik buzilmaydigan madaniy qadriyatdir.

Masalan, Germaniyada chet ellik hamkasbini uyga kechki ovqatga taklif qilayotganda, unga aniq vaqt va nimani taklif qilishingiz mumkinligini ko'rsatish muhimdir. Agar mehmon ma'lum oziq-ovqat yoki spirtli ichimliklarni taqiqlashni aytsa (masalan, diniy munosabat tufayli sabablar va boshqalar), keyin kelganida rioya qilmaslik e'tiborsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

Chet eldagi hamkasblar yoki biznes hamkorlaridan kelgan taklifnomalarda madaniy qoidalarga rioya qilish muhimroqdir. Mehmondo'stlik uzoq an'anaga ega bo'lgan madaniyatlarda (masalan, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, slavyan mamlakatlari yoki Afrika) mezbon o'z mehmoniga hurmat belgisi sifatida taklif qiladi¹.

Xulosa sifatida aytish lozimki, xalqaro munosabatlar sohasidagi bo'lajak mutaxassislar kasbiy va lisoniy ijtimoiy-madaniy jihatdan muhim ko'nikma va mahoratlarini tayyorgarlik bosqichida rivojlantirishlari kerak.

Tarjimonlar instituti xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda beqiyos yordam beradi. Qadim zamonlarda muzokaralarda qatnashish, diplomatik yozishmalar olib borish va hujjatlarni imzolash uchun tashqi aloqalar bo'limlari tarkibida chet tillarini biladigan butun bir xodimlar guruhi paydo bo'la boshlagan. **Sitseron** va **Demosfen** asarlarida hujjatlarni o'qish va tarjima qilishga qodir bo'lgan "izohlovchilar"ga oid ma'lumotlar zikr qilinadi. O'rta asrlarda G'arb davlatlarida tarjimonlar faqat rohiblardan iborat bo'lib, ular nafaqat ibodat, balki xorijiy tillarni o'rganish bilan shug'ullangan. Ularni interpres yoki hermeneuma deb atashgan. 12-asrda ko'plab Yevropa mamlakatlarida tarjimonlar "*dragomanlar*" deb atala boshlandi. Dragoman Yaqin Sharq va Osiyo davlatlari hamda Yevropa diplomatik va savdo vakolatxonalari o'rtasida tarjimon va vositachining rasmiy lavozimidir. Lavozim tarjima va diplomatik vazifalarni ham o'z ichiga qamrab olgan.

¹ Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, pp.26–31



O'rta asr musulmon Sharqida xalifalik Devonxonasi (kanselariya – kotibiyat) diplomatik aloqalar o'rnatish niyatida bo'lgan davlatlarning tillarini yaxshi biladigan oliyjanob va o'qimishli kishilar tayinlangan. Ashtarxoniyalar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan shoir, sayyoh Xoja Samandar Termiziy o'zining “Dastur ul-muluk” (“Podshohlarga qo'llanma”) nomli qimmatli asarida “Elchi – podshohning tili”, “Komil aql sohibi yuzlab mard lashkarlar yordami bilan uddasidan chiqmaydigan ishini so'z bilan hal qiladi”, deb yozgan¹.

Ketma-ket tarjima birinchi marta 1919-yilda Parij tinchlik konferensiyasida amalga oshirilgan. 1928-yilda Kominternning Sovet Ittifoqida o'tkazilgan yalpi Kongressida mikrofon yordamida sinxron tarjima qilish yo'lga qo'yilgan. 1933-yilda esa sinxron tarjimonlar o'z ishlari uchun naushniklardan foydalanganlar. Ammo sinxron tarjima hali ham vaqti-vaqti bilan qo'llanilgan.

Sinxron tarjimonlik haqiqiy kasbiy faoliyat sifatida 1945-yil Nyurnberg sudida fashist urush jinoyatchilari ustidan sud jarayonida to'liq shakllangan. 1951-yildan beri nafaqat BMT, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tadbirlarida, shuningdek muayyan bir davlatda xalqaro miqyosda o'tkaziladigan turli forumlar va anjumanlarda ham mustahkam o'rin egalladi.

Tarjimonlar orqali suhbatlashish muzokaralar jarayoniga sezilarli o'zgarishlar kiritadi. birinchidan, tadbirni o'tkazish xarajatlari oshadi; ikkinchidan, amaliy muzokaralar jarayoni uzaytiriladi; uchinchidan, hamkor sheriklar o'rtasida ayrim tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. Biroq, muzokaralar qanday mavzuda o'tkazilishidan qat'i nazar, unda tarjimonning roli juda kattadir. Tarjimon barcha ishtirokchilar e'tiborini bog'laydi, bunda ko'p narsa uning tarjima qilgan narsasiga emas, balki uni qanday bajarishiga ham bog'liq.

Tarjimon ishiga qo'yiladigan talablar:

tilni mukammal bilishi, shevalar bo'lsa, ularni ham o'rganishi kerak. Misol uchun, tarjimon faqat arab adabiy tilini bilsa, arab davlatlarining turli vakillari bilan o'tkaziladigan muzokaralar (Islom hamkorlik tashkiloti, Islom taraqqiyot banki, Fors ko'rfazidagi arab davlatlari uyushmasi) davomida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin;

tarjima asabiy taranglik bilan kechganligi sababli, tarjimon befarq, bo'sh bo'lmasligi, balki sezgir, hozirjavob, yuzaga kelgan vaziyatni hissiyotga berilmasdan, vazminlik va tezkorlik bilan anglashi darkor;

muzokaralar mavzusi, suhbat va tarjima paytida duch kelishi mumkin bo'lgan barcha maxsus atamalarni yaxshi bilishi kerak;

qaysi shaxslarning nutqini tarjima qilishi, so'zlovchining o'zini tutishi, uning mentaliteti va suhbatida ishlatadigan iboralarni yaxshi bilishi zarur;

tarjima imkon qadar aniq bo'lishi kerak. Shu bois tarjimonlarni “so'zlovchining aniq aks sadosi” deb bejiz aytishmagan. Tarjimaning asosiy qadr-qiyamati go'zallik yoki badiiylik emas, balki aniqlikdir:

stenografiyani o'zlashtirish;

¹ A.Madramimov, G.Fuzailova. Manbashunoslik, pp 234-235, Toshkent-2008



tarjimon xotirjam, diqqat-e'tiborli va vazmin bo'lishi kerak. Ayni paytda jizzaki, shuhratparast va hissiyotga beriladigan bo'lmasligi zarur.

Shunday qilib, siyosiy, madaniy, iqtisodiy sohalarida globallashuv, jahon miqyosida integratsiyalashuv va birlashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoit xalqaro munosabatlar yo'nalishi mutaxassisidan jahon siyosatidagi tendensiya va o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish, tahlil qilish, yaqin va uzoq kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni ko'ra bilish va kasb mahoratini doimo oshirib borishni taqozo etadi.

Xulosa. Xalqaro munosabatlar mutaxassisi jahon taraqqiyotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qirralarini bilishi va tahlil qilishi juda muhim. Shu bois, chet tilini o'rgatishdan asosiy maqsad kasbiy faoliyatning turli sohalarida samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til aloqalari va kommunikatsiyalarini o'zlashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy til nafaqat muloqot vositasi, balki kasbiy faoliyat vositasi bo'lgani uchun talabalarda chet tilida lisoniy va ijtimoiy kompetensiyani hamda bilimlar asosida mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

Aytish mumkinki, bugungi kunda xalqaro masalalar bo'yicha mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda kasbiy nutqda madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni o'z ichiga olgan yangi professionallik paradigmasi paydo bo'lmoqda. Suhbatdosh sherigini to'g'ri tushunishga erishishi uchun bo'lajak xalqaro mutaxassis o'quv bosqichida lingvistik ijtimoiy-madaniy xususiyat va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak.

Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning o'ziga xos jihati shundaki, ularni nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki vaziyatning kontekstual ahamiyati, mezbon mamlakat til qurilmasining o'ziga xos xususiyatlarini, kasbiy diskurs (nutq) da muloqotni belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni e'tiborga olgan holda kasbiy faoliyat olib borishga tayyorlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdul Aziz Al-Hurr, Nawzad Abdul Rahman Al-Haiqi. The Art of Report Writing, 2023, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp 99–101 (In arabik).
2. Abdulaziz Al-Hurr, Diplomacy, Leadership and Power, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp. 60–61, Doha 2022. (In arabik).
3. Gibson Robert. Intercultural Business Communication. Oxford University Press, 2002 111p.
4. Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.6
5. Воевода Й.В. Подготовка специалистов-международников к межкультурной коммуникации в профессиональном дискурсе. Современная коммуникативистика. 2012, pp.26–31 (Ин Русциан)
6. Верешагин Й.М., Костомаров В.Г. В поисках новых путей развития лингвостранаведения: концепция речеповеденческих тактик. <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-012> (In russian)



7. Попов В.И. Современная дипломатия, п.34–35. Москва 2003 (In Russian)
8. Рябова М.В. Культура и язык как фундаментальные составляющие межкультурного общения. https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-1_75.pdf (In russian).
9. A.Madramov, G.Fuzailova. Manbashunoslik, pp 234–235., Toshkent, 2008.

ABDURASULOV JAVLON

Tayanch doktorant, JIDU

Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy holati

***Annotatsiya.** Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji zamonga va jarayonlarga mos ravishda shakllanib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro munosabatlar tizimini rivojlanish evolutsiyasi siyosiy jihatlarini tahlil asosida o'rganadigan bo'lsak, doimo u yoki bu ko'rinishda rivojlanish tendensiyasi kuzatilgan. Xalqaro munosabatlar tartibi siyosiy va iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lgan Xalqaro munosabatlar «aktori» tomonidan o'rnatilgan hamda ma'lum vaqt davomida amal qilib, keyin navbatdagi tartibga o'z o'rnini bo'shatib bergan.*

Ushbu maqolada geosiyosiy qarashlarning fan sifatida shakllanishi induktiv va deduktiv tahlil va muhokama qilinadi. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari sifatida olimlarning ilgari surgan qarashlarining zamonaviy holati mintaqalar kesimida O'zbekiston milliy manfaatlarini inobatga olib tadqiq qilingan.

Geosiyosat fanining bo'limlari va rivojlanish bosqichlari xalqaro munosabatlar tizimining rivojlanish xronologiyasi kesimida o'rganilgan hamda hozirgi jarayonlarga bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Zamonaviy geosiyosatga bir qancha qarashlar Sovuq urush davrida jadallik bilan tarqala boshladi. Barcha mondialistik loyihalarning asosiy yo'nalishi "demokratik", "gumanistik", "progressiv" qadriyatlarini keng targ'ib etish va G'arbning strategik ustuvorligi ostida yagona dunyo tizimiga o'tishining Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

G'arb va Sharq geosiyosiy maktablar qarashlarining qiyosiy tahlili hamda ularning ahamiyatining joriy holati muhokama qilinadi. Shuningdek, geosiyosiy qarashlarning xalqaro munosabatlar tizimlaridagi o'rni O'zbekiston xalqaro munosabatlarida tizimida barqaror siyosiy va geosiyosiy faoliyatini olib borishidagi takliflar ilgari surilgan. Zamonaviy geosiyosatda Ikkinchi jahon urushidan so'ng paydo bo'lgan bir qancha g'arbone qarashlarning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun zamonaviy ta'siri va O'zbekiston milliy manfaatlardan kelib chiqib, salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha turlicha qarashlar keltirilgan hamda mulohazalar bayon etilgan.

***Kalit so'z va birikmalar:** xalqaro munosabatlar, Markaziy Osiyo, geosiyosat, barqarorlik, xalqaro tartib, G'arb va Sharq maktabi, milliy manfaatlar, rimlond, xartlond, mondializm, atlantizm toposiyosat, neoyevrosiyochilik, morfosiyyosat, fiziosiyosat.*

***Abstract.** In the international arena, we can observe that the development of events occurs in accordance with time and processes. If we analyze the political aspects of the evolution of the*



international relations system, a development trend is always observed in one form or another. The order of international relations is established by the "actors" of international relations who are politically and economically strong, and it operates for a certain period before giving way to the next order.

This article discusses the formation of geopolitical views as a science using inductive and deductive analysis and discussion. The modern state of scholars' opinions on the main categories of geopolitics is studied in the context of regions, considering Uzbekistan's national interests.

The sections and stages of the development of geopolitics are studied in the chronological context of the development of the international relations system, and their connection with current processes is shown.

Modern geopolitical views began to spread actively during the Cold War. The influence of the main directions of all mondialist projects on the wide dissemination of "democratic," "humanistic," and "progressive" values and the transition to a single world system under the strategic priority of the West on the Central Asian region is considered.

A comparative analysis of the views of Western and Eastern geopolitical schools and their current significance is discussed. The place of geopolitical views in international relations systems is also considered, and proposals for conducting stable political and geopolitical activities in Uzbekistan's international relations are put forward. Various views are presented on the modern influence of a number of Western views that emerged after World War II on the Central Asian region, as well as considerations on mitigating their negative consequences based on Uzbekistan's national interests.

Keywords and expressions: *International relations, Central Asia, geopolitics, stability, international order, Western and Eastern school, national interests, rimland, hartland, globalism, Atlanticism, topopolitics, neo-eurosianism, morphopolitics, physiopolitics.*

Аннотация. *На международной арене можно наблюдать, что развитие событий происходит в соответствии с временем и процессами. Если проанализировать политические аспекты эволюции системы международных отношений, то всегда наблюдается тенденция развития в той или иной форме. Порядок международных отношений устанавливается «игроками» международных отношений, обладающими политической и экономической мощью, и действует в течение определенного времени, после чего уступает место следующему порядку.*

В данной статье рассматривается формирование геополитических взглядов как науки с использованием индуктивного и дедуктивного анализа и обсуждения. В разрезе регионов изучены современные подходы ученых к основным категориям геополитики с учетом национальных интересов Узбекистана.

Разделы и этапы развития геополитики изучены в хронологическом контексте развития системы международных отношений и показана их связь с современными процессами.

Современные геополитические взгляды начали активно распространяться в период холодной войны. Рассмотрено влияние на регион Центральной Азии основных направлений всех мондиалистских проектов по широкому распространению «демократических», «гуманистических», «прогрессивных» ценностей и переходу к единой мировой системе под стратегическим приоритетом Запада



Обсуждается сравнительный анализ подходов западных и восточных геополитических школ и их актуальное значение. Также рассмотрено место геополитических взглядов в системе международных отношений и предложены рекомендации по проведению стабильной политической и геополитической деятельности в международных отношениях Узбекистана. Приведены различные взгляды на современное влияние ряда западных взглядов, возникших после Второй мировой войны, на регион Центральной Азии, а также высказаны соображения по смягчению их негативных последствий с учетом национальных интересов Узбекистана.

Ключевые слова: *международные отношения, Центральная Азия, геополитика, стабильность, международный порядок, западная и восточная школы, национальные интересы, Римленд, Хартленд, глобализм, атлантизм, топополитика, неоевразийство, морфопополитика, физиопополитика.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, siyosiy, geoiqtisodiy va geosiyosiy manzarasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu sohalarda beqarorlik, tartibsizlik, xaos (parokandalik) kuchayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan sohalarda kuzatilayotgan tartibsizlik va beqarorlik holatlarining barchasida inson erkinligi, hokimiyatga bo'lgan intilish, resurslarga egalik qilish uchun kurash hamda dunyo tartibini o'rnatishga bo'lgan harakatlar yotadi.

Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji zamonga va jarayonlarga mos ravishda shakllanib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro munosabatlar tizimini rivojlanish evolutsiyasining siyosiy jihatlarini tahlil asosida o'rganadigan bo'lsak, doimo u yoki bu ko'rinishda rivojlanish tendensiyasi kuzatilgan. Xalqaro munosabatlar tartibi siyosiy va iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lgan Xalqaro munosabatlar aktori tomonidan o'rnatilgan hamda ma'lum vaqt davomida amal qilib keyin navbatdagi tartibga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Geosiyosiy qarashlar fan sifatida 19-asr oxirlaridan boshlab shakllana boshladi. Bu hodisa jahondagi iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to'g'ri keldi. Fransuz olimi I. Lakostning e'tiroficha, "geosiyosat" Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng olimlarning geosiyosiy qarashlarining ayrimlari amalda o'z aksini topgandan keyin uni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada oshib ketdi. Fridrix Ratsel "geosiyosat" so'zidan o'z asarlarida foydalanmagan bo'lsa-da, u geosiyosat fanining otasi hisoblanadi. U 1897-yil chop etgan "Siyosiy geografiya" asarida davlatlarning geografik joylashuvi, iqlimi va geografik joylashuvining xalqaro maydondagi o'rniga geosiyosiy qarashlarini ifoda etadi. "Geosiyosat" atamasini birinchi bo'lib Rudolf Chellen "Davlat hayotning bir shakli sifatida" nomli asarida qo'llaydi. U geosiyosat – borliqdagi davlatlarni geografik organizm sifatida o'rganuvchi fan sifatida ta'riflaydi¹. Ilmiy

¹ Геополитические тетради // Элементы. 1993. №3. –С.17.



doirada hamda siyosatchilar orasida ham «geosiyosat» tushunchasiga nisbatan turli ta'riflar berilgan. «Zeitschrift fuer Geopolitik» nomli nemis jurnalida “Geosiyosat–bu davlatning geografik aqli” deb ta'riflanadi. Fransuz geosiyosatchisi Mishel Fushening fikricha, ingliz va nemis geosiyosati jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo'lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Amerika ensiklopediyasida geosiyosatga an'anaviy yondashuv–“siyosiy hodisalarning geografik jihatlari”ni o'rganuvchi fan sifatida bayon etilgan. Xalqaro ensiklopediya geosiyosatni “tegishli tashqi siyosat yuritish maqsadida kontinental va dengiz yashash joylari hamda siyosat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi intizom” deb ta'riflaydi. Amerikalik olim K. Grey XX asrning 70-yillari ikkinchi yarimida geosiyosatni “odamlar tomonidan idrok etilayotgan, o'zgartirilayotgan va foydalaniladigan shakldagi jismoniy muhit bilan jahon siyosati o'rtasidagi munosabatlar” haqidagi fan deb atagan. XX asrdagi mavjud kommunistik davlat vakillari geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan foydalanuvchi siyosiy konsepsiya deb, uning asosini irqchilik, mustamlakachilik, sotsial–darwinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi geosiyosiy jarayonlar kommunistlar uqtirib kelgan g'oyalar amalda o'z isbotini topmaganini ko'rsatdi. Rus geosiyosatchisi N.Nartov fikricha, geosiyosat oraliq fan bo'lib, maxsus o'ziga xos tadqiqot maydoniga ega emas. Siyosatga, siyosiy hodisalarga ko'proq e'tiborini qaratsa-da, ularni geografik omillar, aspektlar asosida umumlashtiradi. Rus geosiyosatchisi V. Dergachev geosiyosat va siyosiy geografiyani o'zaro taqqoslar ekan, siyosiy geografiya atrof-muhit, makondagi imkoniyatlar, xususiyatlarni siyosiy jarayonlar rivojiga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida olib qaraydi. **K. Gadjiyev** fikricha, geosiyosat jahon hamjamiyatining hozirgi holati, evolyutsiyasi, faoliyati, kundalik turmush tarzi tamoyillari va qonuniyatlari, global va strategik yo'nalishlari, obykti va tarkibini o'rganuvchi fan hisoblanadi. **Y.Tixonravov** esa geosiyosatni siyosatni geografik muhit tomonidan yaratilgan – joylashgan atrof-makon, iqlim, landshaft, foydali qazilmalar, ekologiya, demografiya va shu kabi siyosiy bo'lmagan tizim o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida olib qaraydi. **N. Starikov** mazkur fan nimani o'rganishini ushbu formula asosida tushuntirishga harakat qiladi: geosiyosat= siyosat+ tarix+ geografiya¹. **A.G.Dugin** geosiyosatni mafkura deb hisoblaydi – “hokimiyat dunyoqarashi, hokimiyat va hokimiyat uchun ilm”, “hukmronlik ilmi” sifatida bu tushunchaga yondashadi.

Sovet davlati tashqi siyosat olib borishda har bir mintaqadagi tub iqtisodiy, geografik, demografik omillar, manfaatlardan kelib chiqib emas, balki mafkuraviy omillardan kelib chiqib yondashgan edi. Ushbu holatlar ayniqsa «sovuq urush» davrida geoyosatga, uning obyektiga xolisona murojaat etish imkonini bermadi.

¹ Стариков Н. Геополитика: как это делается. СПб. 2014. –С. 8.



Lekin bu degani sobiq Ittifoq mutaxassislari bu fanga, uning qator imkoniyatlariga, amaliy ahamiyatiga umuman e'tibor berishmadi degani emas.

Umuman olganda, geosiyosat bilan bog'liq tadqiqotlarni, unga nisbatan berilgan ta'riflarni shartli ravishda yo'nalishlar asosida tahlil etish mumkin. Bular:

1-yo'nalish: geografiya va siyosat o'rtasidagi munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Bu yo'nalishdagilar geografiyaga birlamchi omil sifatida qarab, uning siyosatga ko'proq ta'sir etishini uqtirishadi;

2-yo'nalish: muayyan mintaqa yoki jahonda hokimiyat uchun siyosiy kuch markazlarining o'zaro kurashlariga e'tibor beriladi. Bu yo'nalishda asosan davlatlararo raqobatga urg'u berib, fanning umumiy xususiyatlaridan bahs etadi;

3-yo'nalish: geosiyosatga kompleks yondashuv, ya'ni geografik omillardan tashqari iqtisodiy, demografik, diniy va boshqa shu kabi omillarga ham keng asosda yondashgan, tadqiq qilgan va qilayotgan geosiyosatshunos tadqiqotchilar fikrlari;

4-yo'nalish: davlatlar qudratining geografik omillarga bog'liq jihatlarni ilgari surish.

5-yo'nalish: davlatning qudratini qamrab oluvchi geosiyosiy omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: hududiy, siyosiy, geografik, iqtisodiy, logistik, tabiiy iqlim sharoiti, madaniy, demografik, harbiy va ekologik omil shaklida namoyon etilishi.

Qayd qilingan mulohazalar asosida geosiyosatga quyidagi ta'rifni berish mumkin: **geosiyosat** – davlatning har tomonlama kuch salohiyatiga ta'sir etuvchi, uning ichki va tashqi siyosatdagi ustuvor manfaatlarini ifoda etadigan geografik, iqtisodiy, transport, madaniy, demografik harbiy va siyosiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan omillarni birgalikda mujassam va tadqiq etuvchi fandır.

Geosiyosatning tadrijiy taraqqiyotiga e'tibor bersak, uning predmeti ham zamonga mos tarzda takomillashib, o'zgarib borganligiga amin bo'lamiz. Chunki jamiyatdagi geosiyosiy jarayonlar mavjud davlatlar manfaatlarini bilan bog'liq bo'lgan real voqelikni o'zida aks ettiradi. Shu boisdan har bir davrda geosiyosat predmeti sifatida jamiyatdagi ustuvor sohalar va xalqaro siyosatga daxldor bo'lgan strategik masalalar namoyon bo'lgan. Misol uchun, Osiyo davlatlarini bir-biri bilan bog'laydigan muhim bo'g'ozlar kamligi, borlari ham kashf etilmaganligi sabab dengizdagi kuch-qudratga kam e'tibor qaratildi. Ilk saltanatga asos solgan ahamoniylar vakili Doro I (mil. av. 522 – 486) Afinaga dengizda bas kela olmadi. Kushon, Turk xoqonligi, Somoniylar, Temuriylar haqida gap ketganida talassokratiya xususida bir nima deb bo'lmaydi. Geosiyosat asoschilari, jumladan A.Mexen, X.Makkinder fikricha, dualizm dastlab tarixiy-madaniy sivilizatsiyalar o'rtasida dushmanlik adovatlarini, turli xil ziddiyatlarni, o'ziga xosliklarni keltirib chiqarishiga e'tibor qaratgandi.




Geosiyosatning asosiy kategoriyalari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqamiz: geosiyosiy makon, geosiyosiy maydon, geostrategik mintaqqa, geosiyosiy mintaqqa, geosiyosiy liniya, geosiyosiy raqibchilik, geostrategik chegara, davlatning milliy xavfsizligi, milliy manfaat, hudud, ekaspansiya va sh.k.

Geosiyosatning fan sifatida shakllanishiga quyidagi olimlarning hissasi katta. Ulardan nemis olimi **F.Ratsel** (1844–1904), shved davlatshunosi **R.Chellen** (1864–1922), amerikalik admiral **A.Mexen** (1840–1914), ingliz geograf nazariyotchisi **X.Makkinder** (1861–1947), nemis olimi **K.Xausxofer** (1869–1946), amerikalik (asli gollandiyalik) **N.Spikmen** (1893–1943) va rus iqtisodchi olimi **P.N.Savitskiy** (1895–1968)ning nomlarini keltirish mumkin.

F.Ratsel o‘zining shoh asari bo‘lmish – “Antropogoyegografiya” (1893), «Siyosiy geografiya» («Politische Geographie») (1897), «Davlatlarning makoniy o‘shish qonunlari» (1897), «Dengiz xalqlar qudratining omili sifatida» (1900) kabi asarlarida o‘z geosiyosiy qarashlarini bayon etadi. U davlatlarning makoniy jihatdan o‘shishining yettita tamoyilini ishlab chiqqan: 1) har qanday makon o‘sha joyda istiqomat qilayotgan millatlar madaniyatining o‘shishi bilan birgalikda kengayib boradi; masalan: MO mintaqasi aholisi 1991-yilda 50,6 mln. atrofida bo‘lsa, 2023-yil yakunlariga ko‘ra 80,9 mln.ni tashkil qilgan. Deyarli 60% ga o‘shish kuzatilgan: 2) davlatdagi g‘oyaviy birlik, savdo tarmoqlari va faol harakatlar hamda nechog‘liq «tortish kuchi»ga egaligi davlat qudratining o‘shishiga ulushini qo‘shadi; 3) davlatning o‘shishi boshqa davlatlarni o‘ziga qo‘shib

olish va bo‘ysundirish evaziga bo‘lishi mumkin; misol uchun: Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasiga 19-asrdagi bosqinchilik yurishlari: 4) chegara – davlat o‘shish darajasining nechog‘liq kuchga qodir yoki qodir emasligini ko‘rsatuvchi chekka sarhad hisoblanadi. Ular o‘rtasida muvozanat davlat maydonining mustahkamlik darajasini ko‘rsatadi; masalan, MO mintaqasidagi anklav va eksklav hamda Afg‘onistondagi tog‘li va markazdan uzoq hududlarning mustaqillikka bo‘lgan intilishlari; 5) davlat o‘shish asnosida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar: fizik-geografik muhitga, qirg‘og‘iy chiziqlarga, daryolar o‘zaniga, tabiiy resurslarga boy rayonlarga katta e‘tibor beradi; 6) nisbatan





ibtidoiy turmush tarzga ega bo'lgan davlatlarga o'sish tashqaridan, sivilizatsiya darajasi yuqori davlatlardan keladi; Amerika minaqasiga yevro'paliklarning ta'siri amalda o'z aksini topgan; 7) ijtimoiy jihatdan hududlarning doimiy o'sib borishi davlatlardan davlatlarga o'tadi va bu qonuniyat¹.

Ratselning qarashlarini o'rganish asosan Germaniya yer, tabiiy zaxiralar yetishmovchiligidan o'z hududidan siqilib qolayotgan degan nuqtayi nazar asosda shakllangan degan fikrga kelishimiz mumkin. Bu omillar Ratselning qator asarlarida o'z isbotini topdi. F.Ratsel «qonun»larining amaliyotda nechog'liq aks etganligiga amin bo'lamiz. Bunga XIX asr oxirlarida jahon siyosiy xaritasida hokimiyat va boyliklarni qo'lga kiritish uchun yetakchi davlatlarning harbiy-siyosiy harakatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, ikkala jahon urushlarida Ratselning siyosiy realizmga yaqin bo'lgan qarashlari xalqaro

maydonda amaliy jihatlarini namoyon qilganini ko'rishimiz mumkin.

R.Chellen 1864-yilda tug'ilgan. Shved sotsiologi, politologi, tadqiqotchisi. Uning qalbi **germanfil** milliy ruhi bilan sug'orilgan. Fon Gumbolt Ratsel bilan bir qatorda nemis klassik geosiyosatining otasi hisoblanadi. U geosiyosatga "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" sifatida ta'rif bergan². "Geosiyosat" atamasi ilmiy doirada birinchi bo'lib shved olimi Rudolf Chellen tomonidan ishlatilgan. R.Chellen davlatning qudratini unda mavjud bo'lgan beshta jihat

bilan bog'laydi, bular: 1) davlat geografik makon sifatida; 2) davlat muayyan xalq sifatida; 3) davlat o'ziga xos xo'jalik sifatida; 4) davlat jamiyat sifatida; 5) davlat boshqaruv sifatida³.

R.Chellen geosiyosat fanining quyidagi bo'limlardan iboratligini aytadi:

Toposiyosat–davlatning siyosiy jihatdan qanday muhit bilan qurshalganligini o'rganadi. Bu jihatdan R.Chellen davlatning geografik joylashuvini «davlat siyosatining kalitidir», – deydi. Afg'onistondagi siyosiy beqarorlikning sabablaridan

¹ Исаев Б.А. Геополитика: Учебное пособие. СПб., 2006. –С 144–145.

² Rudolf Kjellen. Die Staat als Lebensform, 1916.

³ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. – С. 97.



geografik joylashuvining kuchlar muvozanatida chegara vazifasini o'tab qolgani, deb ta'kidlash ham mumkin. Buyuk Britaniya va Rossiya bunga yaqqol misol.

Morfosiyoat – davlat hudud jihatidan qanday ko'rinishga ega, yoysimon, duma-loq yoki uzunchoq holatda joylashganligi, davlatda markaz bilan joylar o'rtasidagi aloqalarning geografik tizimi va davlatning tashqi dunyoga geografik jihatdan chiqish imkoniyatlari masalasiga e'tibor beriladi. Masalan, Norvegiya, Italiya hamda O'zbekiston hududlarini ham geografik joylashuvi. R.Chellen fikricha, davlatning katta-kichikligi uning qudratiga poydevor bo'lishi mumkin.

Fiziosiyosat – davlat hududlarining markazga qanday pozitsiyada ekanligini, ular munosabatlari ko'lamini tadqiq etuvchi bilimlar. Markaziy Osiyo davlatlarining tog'li hamda anklav-ekslav kabi hududlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Alfred Mexen ta'limotida dengiz kuchlarining qudrati masalalarini ko'rib chiqadi. A.Mexen (1840–1914) AQSH harbiy-dengiz floti admirali, harbiy-dengiz nazariyotchisi, tarixchi. A.Mexen Amerika oddiy zobitidan admiral darajasigacha ko'tarilgan. 1885-yildan boshlab Nyu-Portdagi (Roud-Aylend, AQSH) «Naval War College»da harbiy flot tarixidan dars bera boshlagan. 1890-yil u o'zining «Tarixda dengiz kuchlari» (1660–1783) nomli birinchi kitobini nashrdan chiqardi. A.Mexenning mazkur asari keyinchalik harbiy strategiya borasida bitilgan klassik manba sifatida jamoatchilik o'rtasida tan olindi. AQSHning dengiz kuch markaziga aylanishi uchun, avvalo, Tinch okeanda Fillipin orollarini o'ziga bo'ysundirishini ta'kidlagan. Negaki, A.Mexen Fillipin orollarini AQSH ning dengiz kuch markaziga aylanishidagi va u egallashi lozim bo'lgan strategik mintaqa deb biladi¹.

A.Mexen uchun tashqi siyosatning asosiy quroli savdo hisoblanadi. Shuning uchun harbiy yurishlar natijasi savdo sivilizatsiyasining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berishi lozim. Savdo–bu iqtisod. Iqtisod uchun esa quyidagi uch omilni muhim deb biladi: 1) ishlab chiqarish – dengiz yo'llari orqali tovar va xizmat ko'rsatish almashinuvi; 2) navigatsiya; 3) mustamlakalar (jahon miqyosida tovar almashish harakatini yo'lga qo'ygan ishlab chiqaruvchilar)². MO mintaqasi orqali Xitoyning “Bir kamar–bir yo'l”, Afg'oniston orqali dengiz portlariga chiqish rejalashtirilgan savdo-iqtisodiy loyiha Mexenning qarashlarida faqat dengiz portlariga ega davlatlarning manfaatlari inobatga olingan. Uning kamchiligi sifatida quruqlikdagi temiryol'lar istiqbollari inobatga olinmagan.

Davlatning dengiz kuchiga aylanishi bir qator parametrlar bilan belgilanadi.

A.Mexen dengiz kuchida mujassam bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi parametrlarni ko'rsatadi: $SP = N + MM + NB$, ya'ni SP (Sea Power) – dengiz qudrati, N – harbiy flot, MM – savdo floti, NB – harbiy-dengiz bazalari (dunyodagi muhim nuqtalarda nazoratni o'rnatish)³

¹ Alfred Mahan. “The influence of Sea Power in history (1660 – 1783)”. N-Y. 1890.

² Мэхен А. “Влияние морской силы на истории (1660–1783)”. М-Л. 1941.

³ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. –С. 157.




V.V. Jeltovning fikricha, bu strategiya Birinchi jahon urushida ham, ikkinchi jahon urushida ham biron davlatga yoki koalitsiyaga muvaffaqiyat keltirmadi. Harbiy harakatlarda har doim ham flot hal qiluvchi ro'l o'ynayvermaydi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, Mexenning harbiy-dengiz strategiyasi zaif bo'lib chiqadi¹. Mexen strategiyasining zaif tomonlaridan yana bir jihati vaqt va zamon bilan bog'liq. U o'z davrida dengiz kuchlari rivojlanayotgan davrdan kelib chiqqan. Uning kamchiliklaridan–biri zamonaviy harbiy qurol-yarog'larning yaratilishini inobatga olmagan, deb aytishimiz mumkin.

B.Isayevning fikricha, dengiz qudrati mustamlakalar bosib olishda, savdo va yuk tashishda, flot madadi bilan gegemonlikni qo'lga kiritishda o'zini oqladi². Shu bilan birga yana shuni ta'kidlash lozimki, AQSHning Ikkinchi jahon urushidan keyin harbiy dengiz floti ko'magida amalga oshirilgan harbiy operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshgan.

A.Mexen geosiyosiy qarashlariga bugungi sharoitdan kelib chiqib yondashsak, albatta u ahamiyatini ham amaliyotda, ham nazariyada yo'qotmagan. A.Mexenning barcha asarlari umumiy jihatdan bir mavzuga—"dengiz kuch markazlari" muammosini tadqiq etishga qaratilgan. Mexen konsepsiyasi geosiyosatda birinchi bo'lib fanning nazariy-uslubiy jihatlarini amaliyot bilan bog'lagan holda ma'lum bir tartibotga keltirishga zamin yaratdi. Xususan, MO mintaqasi davlatlarining dengiz portlariga chiqish uchun bir necha yillik urinishlari hamda arzon va xavfsiz savdo yo'llarini topishda A.Mexenning qarashlari o'z ahamiyatini saqlab turganidan darak beradi.

Xelford Makkinder (1861–1947) ingliz geografi, geosiyosatchisi, geosiyosiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan nazariyalar asoschisi. Geosiyosiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan qator ilmiy atamalarning kirib kelishi bevosita uning nomi bilan bog'liq: 1) Heartland – "Xartlend"; 2) Pivot Area – asosiy o'lka; 3) Outer Crescent – tashqi yarim oy davlatlari; 4) Midland Ocean Area – ichki okean zonasi kabilar.

Makkinder davrida Buyuk Britaniya imperiyasi o'z qudratining cho'qqisiga erishishdi. X.Makkinder "Tarixning geografik o'zagi" (1904) asarida A.Mexenning dengiz kommunikatsiyasining ahamiyati borasidagi qarashlarini yanada g'oyaviy jihatdan to'ldirdi. Xalqlarning tarixida, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotida geografik makon, joylashgan o'rin muhim ahamiyat kasb etadi.



¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. –С. 157.

² Исаев Б.А. Геополитика. С 194–195.



Yevrosiyoning "markazi" atamasi o'rniga u "Xartlond"—"Asosiy o'lka" tushunchasini ilgari surgan¹. Shu o'rinda aytish joizki, "Xartlond" nazariyasi 1904-yil X.Makkinder tomonidan «Tarixning geografik o'qi» asarida ishlab chiqilgan. Biroq olim bu asarida «xartlend» atamasini qo'llamagan. «Xartlend» atamasi 1915-yil ingliz geografi J.Feygriv tomonidan ilmiy doiraga kiritilgan. "Kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, butun "Xartlond"ga hokimlik qiladi. Agar kim "Xartlond"ni boshqarsa, butun jahon oroliga hokimlik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kim jahon orolini boshqarsa, butun dunyoga hokimlik qiladi"². Bu nazariyaning amaldagi talqini sifatida SSSRning ma'lum vaqt davomida hukmronligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Hozirgi kunda Xartlond chizig'idagi davlatlar buyuk kuchlarning raqobat maydoni hamda har tomondan Yadro qurollariga ega davlatlar qurshovida qolgani ushbu qarashni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Xausxofer fikricha, aholi ko'chada geosiyosiy fikrlashni, uning daholari esa geosiyosiy faoliyat yuritishni bilishlari lozim. "Geosiyosat elementlari" to'plamida o'zining quyidagi qator xulosalarini ilgari suradi: 1. Geosiyosat siyosiy hodisalarni geografik makonga bog'liqligini aks ettiruvchi ta'limot. 2. Geosiyosat siyosiy makondagi organizmlarni, ularning tarkibini tahlil etishda fundamental geografiyaga, ayniqsa, siyosiy geografiyaga tayanib ish yuritadi. 3. Siyosiy jarayonlarning borishi, erishiladigan natijalarni qator geografik omillar belgilab beradi. Albatta, ularni inobatga olmaslik mumkin emas; 4. Geosiyosat davlatning geografik vijdoni bo'lib qolishi lozim. Mazkur olimning qarashlari nazariy asoslanganligi hamda umumiy xarakterga egaligi bilan farqlanadi.

Nikolas Spikmenning (1893 – 1943) Amerikada yashab ijod qilgan, asli kelib chiqishi esa gollandiyalik bo'lgan. Uning «Jahon siyosatida Amerika strategiyasi» (1942), «Jahon geografiyasi» kabi mashhur asarlari geosiyosat olamida katta ahamiyatga ega. Uning qarashlari **X.Makkinder** konsepsiyasini inkor qilib, jahonda uchta geostrategik markazlarning mavjudligini aytgan, ya'ni: Shimoliy Amerikaning Atlantika okeani qirg'oqbo'ylari, Yevropa mintaqasi va Yevrosiyoning Sharqiy Osiyodagi qirg'oq bo'ylari uning nazarida, yana Hindiston to'rtinchi kuch markazi sifatida namoyon bo'lishi mumkin³. Qarashlar zamon va makonga qarab o'zgarib borishi jihatidan Hindiston hozirgi kunda tobora Janubiy Osiyoda kuch markaziga aylanib bormoqda. Aholisi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib olganligi, Sun'iy yo'ldoshga ega bo'lganligi hamda 160 dan ortiq yadro kallaklariga egaligi bundan dalolat beradi. JIDU tadqiqotchisi I.Gaffarov "Zamonaviy AQSH–Hindiston munosabatlarining konstruktiviteti jihatlarini" nomli maqolasida ilmiy xulosalar natijasida asoslab bergan. Janubiy Osiyodagi geosiyosiy o'zgarishlar bevosita MO mintaqasi va Afg'onistondagi geosiyosiy barqarorlikda katta ahamiyatga ega.

¹ Дугин А. Основы геополитики. изд-во "Арктагея". –М. 1997. –С 44.

² Поздняков Э.А. Философия политики. Ч.2. –М. 1994. –С 246.

³ Поздняков Э.А. Философия политики. Ч.2. –М. 1994. –С 250.



X.Makkinder dunyoning markaziy makoni sifatida «xartlend» –**Yevrosiyoni aytgan bo'lsa**, N.Spikmen unga qarshi dunyoning markaziy Makoni sifatida Yevrosiyoning g'arbdan janub bo'ylab sharqqa o'zgargan qirg'oqbo'yi hududlarini ko'rsatadi («rimlend» deb nomlaydi «rim» – yoy, halqa). Ular o'rtasidagi farq shuki, X.Makkinder amerikalik tadqiqotchi singari «ichki yarim oy»ga markaziy strategik makon sifatida qaramagan. N.Spikmen Amerika geosiyosiy harakatlarining asosiy yo'nalishini quyidagi ikki ko'rinish bilan bog'lagan va unga erishish uchun kurashish kerakligini ta'kidlagan:

Germaniya va Yaponiyaning harbiy kuch sifatida namoyon bo'lib turishini saqlamoq lozim, biroq Yevrosiyoda SSSR – Xitoy ittifoqining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Yevropaning birlashuviga yo'l bermaslik kerak. Qudratli Yevropa federatsiyasi oxir-oqibat AQSH ning dunyodagi pozitsiyasini chegaralash va kuchsizlantirishga olib keladi. Amerikalik tadqiqotchining bashoratlari AQSH tashqi siyosatida bugungacha o'z aksini topmoqda. II jahon urushidan keyin Germaniya va Yaponiya harbiy kuch markazi sifatida o'z qudratlarini saqlab qola olmadilar. Lekin keyinchalik AQSH vositachiligida o'z harbiy salohiyatini oshirmoqda. Yevropadagi integratsiya jarayonlariga mumkin qadar to'sqinlik qilmoqda.

Birinchi rus geosiyosatchisi **Petr Savitskiyning geosiyosiy konsepsiyalarini** «Dasht va o'troqlik» (1922), «Rossiya – Yevrosiyoning geografik tahlili» (1926), «Yevrosiyoning geografik va geosiyosiy asoslari» (1933) kabi asarlaridagi geosiyosiy qarashlarida Rossiyaning geografik joylashuviga katta e'tibor berilgan. Tadqiqotchining fikricha, Rossiya jahon siyosiy xaritasida joylashuvi jihatidan sivilizatsion shaklga ega. Davlat nafaqat geografik qulay makonda joylashgan, balki uning hududlari jahon geosiyosiy maydonida «o'rtaliq» makonni tashkil etadi. U o'zining «Dasht va o'troqlik» nomli mashhur maqolasida yevrosiyochilar uchun nazariy asos bo'lgan «Yevrosiyoda tatarlarsiz (turklarsiz) buyuk Rossiya davlati bo'lmas edi», – degan geosiyosiy formulasini o'rta tashlagan. Uning qarashlarida X.Makkinder, A.Mexen, N.Spikmen va boshqa klassik geosiyosatchilarning tafakkuriga qarshi bo'lgan ko'p jihatlar mavjud. Shunga qaramasdan, uning Turon konsepsiyasini o'rta tashlagani va xolisona uni tadqiq etgani MO mintaqasi va o'zbekistonlik geosiyosatchilar uchun ahamiyatli deb baholanadi.

Yevrosiyoning geostrategik mavqeyi va istiqboli rus geosiyosatchi olimi, **Lev Nikolayevich Gumilevning fikricha** Yevrosiyoda mavjud bo'lgan elatlar to'g'risidagi g'oyani mantiqiy nihoyasiga yetkazadi va etnik ruslar faqat sharqiy slavyanlarga tegishli bo'g'inlardan biri bo'lmay, balki turkiy qabilalar va slavyanlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan alohida etnos degan fikrni ilgari suradi. Olimning nazarida, buyuk rus tamadduni «Cho'l va O'rmon» o'rtasida o'rnatilgan tarixiy hamkorlik natijasida turkiy-slavyan etnogenezi asosida yuzaga kelgan degan qarashlarni ilgari surgan. Zamonaviy dunyoda qabila va urug'chilik munosabatlari birmuncha



iste'moldan chiqqani kuzatildi. Yozilgan konvensiyalar, kelishuvlar va qonunlar o'zaro taribga solish mexanizm ro'lini o'ynamoqda. Ushbu olimning qarashlari hozirgi vaziyat nuqtayi nazaridan barcha hududlar ahamiyatini saqlab qolgan deya olmaymiz.

Yevrosiyochilik g'oyasini "**neoyevrosiyochilik**" tarzida rivojlantirgan va bu borada salmoqli ilmiy natijalarni qo'lga kiritgan rus olimlaridan biri **Aleksandr Gelevich Dugin** 1962-yilda Moskva shahrida harbiy oilasida tug'ilgan. Rossiyada birinchi geosiyosat qo'llanmasi hisoblangan "Geosiyosat asoslari" (1997), "Konservativ inqilob" (1994), "Yevrosiyo misteriyalari" (1996), "Bizning yo'l" (1999), "Makon bilan fikrlash" (2000), "Yevrosiyochilik asoslari" (2002) kabi asarlari orqali o'z qarashlarini bayon etgan. U neoyevrosiyochilik g'oyasiga tayangan siyosiy oqimga asos solgan, Neoyevrosiyochilikning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasidagi muhim jihat shundaki, u Yevrosiyo pozitsiyasidan turib Yevropa yoki roman-german madaniyatini tanqid qilish emas, balki anglosakson dunyosiga, jumladan, AQSh ni tanqid qilishga yo'naltirilgan. A.Dugin nazarida yevrosiyochilik harakatining platformasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

– ideokratiya, davlat va har bir fuqaroning oliy ruhiy maqsadga xizmat qilish mas'uliyatidan iborat;

– yevrosiyocha tabiiy tanlanish, ya'ni xos axloqiy me'yorlar.

Amerikalik taniqli siyosatshunos **Zbigneu Bjezinskiy**, "mamlakatning xalqaro mavqeyini yoki uning xalqaro miqyosdagi ta'siri darajasini belgilovchi boshqa omillar hudud omiliga qaraganda muhimroq bo'lsa-da, mamlakatning geografik o'rni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda hanuz muhim rol o'ynaydi. Davlatning harbiy, iqtisodiy va siyosiy qudrati qancha katta bo'lsa, uning hayotiy muhim geosiyosiy manfaatlari, ta'siri va ishtirok etish doirasi radiusi ham shuncha keng bo'ladi." Geosiyosiy muhit tashqi siyosiy doktrinaning mazmuni va xususiyatini ko'p jihatdan belgilaydi.

Geosiyosatning tadrijiy taraqqiyotidan kelib chiqib, geosiyosiy konsepsiyalar borasidagi mulohazalarimizga quyidagi xulosalarni keltirishni lozim topdik:

1. Geosiyosiy konsepsiyalarni tahlil etishda ularni bir-biridan, o'z davridan kelib chiqib o'rganish maqsadga muvofiq. Ular davriy farqlanadi, mazmun jihatidan biri birini ma'lum darajada to'ldiradi va ulardagi qarama-qarshilik yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

2. Geosiyosatda geografik omillar katta ahamiyatga ega bo'lib, ko'lamiga ko'ra u davlatlarning tabiiy iqlimi, geografik joylashuvi, relyefi, hududi, fauna va florasini, shuningdek, siyosiy tuzumini, iqtisodiy va texnik taraqqiyotini o'ziga qamrab oladi.

3. Geosiyosatda siyosiy va geografik tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, davlatning demografik, ijtimoiy holati, madaniyati va mafkurasini inobatga olish to'g'ri geosiyosat yuritish uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy geosiyosatga bir qancha qarashlar Ikkinchi jahon urishidan so'ng jadallik bilan tarqala boshladi. Ulardan **Atlantizm** (G'arbiy Yevropa, asosan, AQSH)



sivilizatsiyasining dunyoning boshqa mintaqalariga geosiyosiy va madaniy ta'sirini yoyish uchun qabul qilingan siyosiy qarashlar nazariyasi Ikkinchi jahon urushi oxirida vujudga kelgan. Uning asoschilari: N.Spikman, A.Maxan, X.Makkinder, D.Mayning, S.Xantington. N.Spikman (1893–1943) G'arbiy Yevropa kelib chiqishi umumiy madaniyati, mafkurasi bilan bog'langan mamlakatlarning liberal kapitalizm va demokratiya, ularning siyosiy va axloqiy taqdirining birligi "Atlantika kontingenti"ni ajratib ko'rsatdi. Atlantizm konsepsiyasining amaliy misoli sifatida 1949-yilda Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotining (NATO) tuzilishi, Qo'shma Shtatlar tomonidan SSSRga qarshi strategiyasini amalga oshirish, kapitalistik va sotsialistik dunyo o'rtasidagi qarama-qarshilik mafkuraviy ta'sir ko'rsatish kabilar yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu yo'nalish bugungi kunda ham siyosiy jarayonlarda o'z o'rnini va ahamiyatini saqlab kelmoqda. MO mintaqa davlatlari geosiyosiy balansni saqlashga urinishlariga qaramasdan bir necha yillardan beri geosiyosiy qarama-qarshiliklar maydoniga aylantirishga urinishlar kuzatildi.

Optimistik Atlantizmchilarning asosida "**Mondializm**" (liberal demokratiya prinsiplari asosida davlatlar o'rtasidagi har qanday tafovutlar (madaniy, milliy, diniy, mafkuraviy) bartaraf etilishini ko'zda tutuvchi Yagona dunyo sivilizatsiyasining shakllanishini nazarda tutuvchi geosiyosiy konsepsiya. Bu yo'nalishning yorqin vakili Frensis Fukuyama hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy holatlar va urf odatlar ushbu qarashni reallikdan uzoqlashtiradi. Masalan, Afg'oniston yaxlit davlat bo'lishiga qaramasdan, hududlar o'rtasidagi madaniy tafovutlar mavjudligi siyosiy beqarorliklarga sabab bo'lmoqda.

Uchinchi yo'nalish Zbignev Bjezinskiy nomi bilan bog'liq. Bu yo'nalish "**Yangi tartibdagi amerikacha gegemonlik**" davri deb ataladi va – Buyuk shaxmat doskasi" asarida bayon etgan. Uning Ukraina bo'yicha aytgan fikrlari hozirda bashorat qilganiday sodir bo'lmoqda. Uning qarashlarini hozirda yanada chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.

Amerikalik olim **S.Xantington** "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibotining qaytadan qurilishi" asarida so'nggi yillarda yer yuzida kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini tahlil etadi. U quyidagi sivilizatsiyalarni ko'rsatib o'tadi: slavyan - provaslav; konfusiychilik (xitoy); yapon; islom; hind; lotin amerikasi; afrikacha (ehtimol). Xantington XXI asrning eng asosiy konfliktini shunday tasavvur qiladi "G'arb qolgan dunyoga qarshi". Shunday ekan, atlantistlar o'z e'tiborlarini quyidagilarga qaratishlari lozim: ehtimoli mumkin bo'lgan qarama qarshilikka doim tayyor turish; G'arbg'a qarshi kontinental alyans tuzilishiga yo'l qo'ymaslik; o'z manfaatlari doirasida tashqi hamkorlikni kuchaytirish (Birinci navbatda, Lotin Amerikasi davlatlari bilan); lokal xarakterdagi to'qnashuvlarni sivilizatsiyalararo xarakter olishiga yo'l bermaslik; islom davlatlari o'rtasidagi turli mazmundagi kelishmovchiliklardan foydalanish; G'arb manfaatlarga xizmat qiluvchi turli xalqaro institutlarni ko'paytirish va shu kabilar. Neoatlantizm doktrinasining



qisqacha ko‘rinishini shunday izohlash mumkin. Mondialistik g‘oyalar ko‘proq betaraf pozitsiyada turgan turli kasbdagi yevropaliklar, ingliz liberallariga, shuningdek, sho‘rolarga xos bo‘lgan. Masalan, Sesil Rous tomonidan tuzilgan “Davra stoli” guruhi a‘zolari – yagona Dunyo hukumatini tuzish va butun dunyoda to‘siqsiz savdo tizimini shakllantirishga hissa qo‘shishi” shart edi. Rus olimi A.Duginning fikricha, Millatlar Ligasi, BMT va YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ham ana shunday mondialistik ruhdagi tashkilotlar sirasiga kiradi. XX asr davomida bunday mondialistik tashkilotlar ortiqcha shov-shuvlardan qochib, yashirin, sirli tusga ega bo‘lib, nomini tez-tez o‘zgartirib turgan¹.

Amerikalik yirik bankir Morgan asos solgan “Xalqaro munosabatlar bo‘yicha kengash” dastlabki mondialistik tashkilotlardan bo‘lgan. Ushbu norasmiy tashkilot AQSHning jahon hamjamiyatiga nisbatan olib boradigan strategiyasini ishlab chiqish, “Dunyo hukumati”ni tashkil etish va sayyorani to‘lig‘icha yagona qolipga solishni maqsad qilib faoliyat yuritgan. Bu tashkilot 1921-yilda “Butunjahon tinchligi uchun Karnegi Jamg‘armasi” ning shubasi sifatida tashkil topgan. Uning a‘zolari hisoblangan barcha yuqori mansabdagi siyosatchilarni sayyoramizning kelajagi to‘g‘risidagi mondialistik qarashlar birlashtirgan².

Barcha mondialistik loyihalarning asosiy yo‘nalishi “demokratik”, “gumanistik”, “progressiv” qadriyatlarni keng targ‘ib etish va G‘arbning strategik ustuvorligi ostida yagona dunyo tizimiga o‘tishni ko‘zda tutadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi Makkinder ta‘rifi bilan aytganda dunyoning yuragi (“Xartlond”) hisoblanadigan Yevrosiyaning o‘rtasida joylashgan. O‘zbekiston joylashgan bu mintaqa ahamiyati haqida Birinchi Prezident Islom Karimov shunday degan edi: “Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko‘p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo‘ldan borishlariga bog‘liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatdan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e‘tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubha yo‘qki, bu davlatlarning tanlab olgan yo‘li islom dunyosida yuz berayotgan murakkab jarayonlarning qanday natijalarga olib kelishiga va umuman, jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi”³.

O‘zbekistonning hududi dengizlar bilan tutashmagan, binobarin davlatning dengiz va okeanlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyati yo‘q. A.Mexen bo‘yicha O‘zbekiston geosiyosiy jihatdan eng noqulay muhitda joylashgan. O‘zbekiston Bjezinskiy ta‘kidlaganidek, “Yevrosiyo Bolqoni” yoki madaniyati, mafkurasi “Beqarorlik yoyi”ning qoq markazida joylashgan, barcha turdagi muammolar mavjud Eron,

¹ Garri Devisning "Dunyo konfederatsiyasi uchun universal harakat", "Federal Ittifoq" va hatto ingliz parlamenti.

² Дугин А. Основы геополитики—М.:АпКТОгеа,1997—С 121—130.

³ I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. 1997.



Afg'oniston, Pokiston, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Kavkaz halqasida joylashgan. Spaykmen fikricha, bunday muhitda joylashgan davlatlar betaraf tashqi siyosat olib borishi kerak. O'zbekiston olib borayotgan tinchlikparvar tashqi siyosati bilan bu muammolarni hal qilishda mintaqada yetakchi kuchga ega. Aholining ko'pligi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, umuman, iqtisodiyotning har bir sohasini rivojlantirishga, davlatning iqtisodiy potensialini oshirishga yordam beradi. Chunki, davlatning moddiy boyligi uning aholisining mehnati bilan yaratiladi. Fransuz olimi Jan Boden aytganidek, "boylikni faqat odamlar yaratadi". Bundan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston qudratli mehnat salohiyatiga ega.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagicha takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Jamiyatdagi geosiyosiy jarayonlar mavjud davlatlar manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan real voqelikni o'zida aks ettirishini inobatga olib, MO mintaqasi va O'zbekiston geosiyosiy jarayonlarda ustuvor sohalar va xalqaro siyosatga daxldor bo'lgan strategik masalalar namoyon qiladigan quruqlik bilan bo'liq bo'lgan aynan MO mintaqasining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib axborot asriga mos geosiyosiy tadqiqotlar sonini oshirish;

geosiyosiyda siyosiy va geografik tomonlari bilan cheklanib qolmasdan, davlatning demografik, ijtimoiy holati, madaniyati va mafkurasini inobatga olish to'g'ri geosiyosat tadqiqotlar olib borishini e'tiborni qaratish;

g'arbning strategik ustuvorligi ostida yagona dunyo tizimiga o'tishni ko'zda tutuvchi "demokratik", "gumanistik", "progressiv" qadriyatlarni MO mintaqasiga boricha talqin qilishdan oldin ilmiy xulosa hamda tadqiqot natijalariga tayanish. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasiga olib chiqish choralari ko'rish;

tarixiy "Katta o'yin" va "Yangi katta o'yin" tajribalaridan kelib chiqib, MO mintaqasi joriy holatiga ko'ra, ma'lum manda Kiber xavfsizlik tahdidlari, mass-media va sun'iy intellekt rivojlanishi, sputnik va yadro quroliga ega bo'lishga bo'lgan urinishlar, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar, inson ongi va axborotga egalik uchun bo'lgan kurashlarni yuzaga kelishi Buyuk kuchlarning kurash maydoniga aylib qolish MO yangi geosiyosiy xavf-xatar va imkoniyatlar deb baholash mumkin. Shuni inobatga olib mintaqa davlatlari uzoq muddatga mo'ljallangan milliy manfaatlarga mos geostrategiyasini ishlab chiqishni mintaqa davlatlarining kun tartibiga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". 1997.



2. "The Making of the Westphalian State-System: Social Property Relations, Geopolitics and the Myth of 1648" Benno Gerhard Teschke 1999. London School of Economics and Political Science.
3. "200 лет венской системе: проект и практика европейской дипломатии" МГИМО. 2015.
4. "Yalta and Potsdam conferences - the premises of the beginning of the cold war" European University of Tirana. Alban Malia 2009.
5. "International Relations Theory" Knud Erik Jørgensen 2017.
6. Politics and Neoliberalism: Structure, Process and Outcome / Edited by Harland Prechel. – Oxford: Elsevier, 2007.
7. Геополитические тетради // Элементы . 1993. №3.
8. Стариков Н. Геополитика: как это делается. СПб. 2014.
9. Исаев Б.А. Геополитика: Учебное пособие. СПб., 2006.
10. Rudolf Kjellen. Die Staat als Lebensform, 1916.
11. Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория.
12. Alfred Mahan. "The influence of Sea Power in history (1660–1783)". N-Y. 1890.
13. Мэхен А. "Влияние морской силы на истории (1660–1783)". М.-Л. 1941.
14. Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория.
15. Исаев Б.А. Геополитика.
16. Дугин А. Основы геополитики. Изд-во "Арктагея"–М. 1997.
17. Поздняков Э.А. Философия политики. Ч.2. М. 1994
18. Дугин А. Основы геополитики. –М.: Арктогея, 1997.
19. Михалев А.В «Новая большая игра» в центральной Азии: фактор Монголии. // Региональная экономика: теория и практика № 2. 2013.
20. Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М.: Библион, 2003.
21. Z.Vzjeniskiy «Buyuk shaxmat taxtasi».
22. Emre, The US Grand Strategy and the Eurasian Heartland in the Twenty-First Century, in Geopolitics, Vol. 14, No. 1, (2009).



FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

MAVRULOVA MUNISA

Dotsent, PhD, O'zDSMI

Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma'naviy
ehtiyolarini shakllantirish to'g'risida

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonni barpo etish, ma'rifatli davlatni qurish konsepsiyasining muhim jihataridan biri shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyolarini shakllantirish va qondirish masalasidir. Bu borada o'rta asr Sharq allomalari tomonidan jiddiy izlanishlar olib borilgan. Maqolada ana shu masalalar, shuningdek, mamlakatda yangi ma'naviy makonni qurishda allomalarimiz tomonidan qoldirilgan buyuk merosning bugungi kun uchun nechog'liq muhim ehtiyojga aylanganligi haqida fikrlashiladi.

Kalit so'z va birikmalar: Sharq, mutafakkir, alloma, madaniyat, ma'naviyat, ehtiyoj, ma'rifatli jamiyat, taraqqiyot, ma'naviy makon, shaxs, ijtimoiy, faoliyat, tarbiya, xalq, g'oya, ta'limot.

Abstract. One of the main aspects of the construction of New Uzbekistan, the concept of building an educational state, is the formation and satisfaction of the cultural and spiritual needs of the individual. Serious scientific research was carried out in this direction by the great Eastern scientists in the Middle Ages. This article analyzes the significance and necessity of that great scientific heritage of our ancestors in the construction of a new spiritual society in modern conditions.

Keywords and expressions: East, great figure, culture, spirituality, need, educational community, development, spiritual society, personality, social activity, education, people, idea, teaching.

Аннотация. Одним из основных аспектов строительства Нового Узбекистана, концепции построения просвещенного государства является формирование и удовлетворение культурно-духовных потребностей личности. В данном направлении великими учёными Востока проведены серьезные научные исследования. В данной статье анализируются значение и необходимость великого научного наследия наших предков в создании нового духовного общества в современных условиях.

Ключевые слова: Восток, великий деятель, культура, духовность, потребность, просветительское сообщество, развитие, духовный социум, личность, социальная деятельность, воспитание, народ, идея, учение.

Insonning mohiyati uning erkinlikka va doimiy ravishda o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Har bir shaxsning ilm egallashi, mehnat qilishi, o'zida ma'naviy jihatdan yetuk odam sifatlarini shakllantirishga bo'lgan qiziqish va talablari uni muntazam ravishda harakatga undaydi.



Bularning barobarida shaxs mukammalligi har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan omiliga aylanadi. Mazkur holat jahon tarixi, ma'rifatli dunyoning ming yillar davomida shakllangan qiyofasini belgilab beradi. Umuman, ma'rifatli dunyoning asosiy belgisi, xususiyatli jihati shaxs intellekti, yuksak ma'naviy olami, ushbu jamiyatning ijtimoiy axloqi bilan xarakterlanadi.

Biroq, keyingi paytlarda shaxs ma'naviy olamini shakllantirish, jamiyat ijtimoiy axloqi me'yorlarini takomillashtirishga murakkab ichki va tashqi sabablar o'z ta'sirini o'tkazmoqda. "Hammamizga ayonki, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jaryonlari bashariyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar kuchaymoqda. Faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, hali "oq-qora"ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda" (Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent, "Tasvir", 2021.7-bet).

Darhaqiqat, bunday tahdidlar kun sayin ko'payib bormoqda. Ana shunday vaziyatda xalqimizni eson-omon saqlash, milliy o'zlikni anglash jarayonini yanada kuchaytirish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim yo'llaridan biri – bu kishilarda, ayniqsa, yoshlarda ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni shakllantirish va qondirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Shu o'rinda, eng avvalo, ehtiyoj, ma'naviyat, ma'naviy-madaniy ehtiyoj kabi atamalar mazmun-mohiyatini tushunib olishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. "Ehtiyoj" so'zi muxtojlik, zaruriyat, talab, hojat kabi ma'nolarni beradi (O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-tom. –Toshkent, "O'zbekiston", 2020. 69-bet).

Ehtiyoj atamasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning barchasida alohida tadqiq etish obyekti hisoblanadi. Chunki, mazkur tushuncha har bir fanning kelib chiqishi, shakllanishi, evolutsiyasi haqida eng ishonarli, ilmiy jihatdan asoslangan xulosa chiqarishga imkon beradi.

Ehtiyoj tushunchasining kelib chiqish tarixi juda qadimiy. Qadimgi Sharq, xususan, mamlakatimiz hududida ilm-fanning rivojlanishi, turli tamaddunlarning paydo bo'lishi, yuksak ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlarning yuzaga kelishi ehtiyojlar mahsulidir. Ma'lumki, zardushtiylik dinining milliy va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy qoidalari "Avesto"da bayon etilgan.

Qadimda odamlarning tabiat kuchlari oldidagi o'zligi, ijtimoiy birlikning mavjud emasligi, qabilaviy urushlar natijasida tinimsiz qon to'kishlar, ommaviy axloqsizliklar –



bularning bari insoniyatdan muayyan qadriyatlarga e'tiqod qilishni talab qila boshladi. Ana shu e'tiqod esa ehtiyoj tufayli sodir bo'ldi.

Zardushtiylik diniga e'tiqod – ixlos qilgan ajdodlarimiz inson hayoti-yu tirikchiligining asosiy manbayi bo'lgan ona Zaminni, uning har bir siqim tuprog'ini zo'r mehr-muhabbatda e'zozlaganlar, uning nopok bo'lishiga yo'l qo'ymaganlar. Ajdodlarimiz butun vujudlari bilan ona zaminga, olovga, tuproqqa, suvga ta'zim qilganlar. Bitmas-tugunmas javohirlar koni, jamiki noz-ne'matlar xazinasi hisoblangan zaminni, egnimizni but, qornimizni to'q qiladigan yerni, tuproqni muqaddas bilib ardoqlashgan, qadriga yetishgan, e'zozlashgan. Bularning bari insoniyatning yuksak darajada yashashga, intilishiga quvvat bergan ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan.

Qadimdan odamlar o'z taraqqiyot yo'lini moddiy farovonlikda, ma'naviy komillikda, jamoat bo'lib yashashda ko'rganlar. Bu, shubhasiz, ijtimoiy ehtiyojlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Abu Nasr Forobiy bu haqda quyidagilarni yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.

Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi insonlarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rname, natijada inson jamoasi vujudga keldi". (Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2016. 286-bet).

Mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiy o'zining "Falsafatu Arastutolis" asarida Arastu inson ma'naviy ehtiyojlarini ezgulik tamoyili bilan bog'lab o'rganganligini ta'kidlaydi. Ta'kidlanishicha, Arastu odamlarning orzu qiladigan barcha boshqa istaklaridan ustun turuvchi ezgulik deb biladigan va intiladigan maqsadlari to'rtta, deb tushuntiradi. Bular: tan sog'lomligi, tuyg'ular (a'zolarining) sog'lomligi, turli narsalarni idrok etishga bo'lgan qobiliyat sog'lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog'lomlik ham bo'ladi), intilishga bo'lgan qobiliyat sog'lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog'lomlik ham bo'ladi) (Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 68-bet).

Bugun O'zbekiston o'z oldiga demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo etishni maqsad qilib qo'ygan. Ushbu ulkan maqsadlarga erishishning eng muhim omili ham ijtimoiylashgan jamiyatni qurishdan iboratdir. Ochiq, demokratik jamiyatda insonning o'z iste'dodlarini namoyish eta olish ko'nikmasining paydo bo'lishi, ularning ijtimoiylashuvi, shu jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me'yoriy hujjatlarda aks etgan talablarga javob berish, ijtimoiy qadriyatlarga amal qilish, jamiyat va davlatdan begonalashuv holatidan qutulish jarayonlari har bir shaxsda ma'naviy ehtiyojlarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi. Bu esa ma'naviy ehtiyojlarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.



Mazkur masalaga Sharq allomalari alohida e'tibor berishgan. "Har bir inson, – deydi Abu Nasr Forobiy, – tabiatiga ko'ra o'z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko'p narsalarga (kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kitoblar, ustozlarga, do'stlarga) ehtiyoji bor. Inson barcha zarur narsalarni bir o'zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi. Boshqa insonlar ham shunday holatda bo'ladilar. Insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvlari zarur bo'ladi. Bu jamoada har bir shaxs o'z tabiatiga, iste'dodi va qobiliyatiga yarasha kasb-hunarlarini o'rganib, har kun o'z san'atida (hunarida) kamolotga yetishga harakat qiladi. Shu sababli (turli millat va turli dinga mansub) turli joylarda yashovchi odamlar turli jamiyatlarga birlashadilar" (Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 238-bet).

Abu Ali ibn Sino ma'naviy ehtiyojlarni insonning go'zallikka bo'lgan intilishi bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, go'zallikka erishish vositasi muhabbatdir, kamol topish esa uning nafsini tarbiyalash orqali yuzaga chiqadi. Bu g'oyalar Ibn Sinoning "Risolayi fil ishq" asarida bayon qilingan bo'lib, u olamning paydo bo'lishini, unda hodisalararo uyg'unlik va sabab-oqibat bog'lanishlarining mavjudligini Sababi Avvalning (Alloh taoloning) tajalliyoti (olam hodisalarida namoyon bo'lishi), koinotdagi ilohiy tartibot va universal uyg'unlikning Yer yuzidagi ifodasi sifatida qaraydi. Olamdagi barcha narsalar o'zining mohiyatiga ko'ra mukammallikka intiladi, bu intilish esa Xayri Mutloq (Xudo)ning zotidan kelib chiqqan bir quvvat ekanligi ta'kidlanadi. (M. Jakbarov komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy negizlari. – Toshkent, "Tafakkur", 2011. 194-bet).

Darhaqiqat, ma'naviy ehtiyojlar insonning o'z mukammalligiga bo'lgan ehtiyoji tufayli shakllanadigan ijtimoiy hodisadir. Mukammallik deganda mutafakkir-allomalarimiz, eng avvalo, inson tarbiyasi, uning jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga amal qilishi, tartib-qoidalarni hurmat qilishi kabi jarayonlarni e'tiborga olishgan. Ibn Sino ma'naviy qadriyatlarining boshqa ne'matlardan ustuvorligini tasdiqlab, kishi qalbini buzuvchi boylikka va oltin-kumushga hirs qo'yishni, turli shahvoniy lazratlarga bo'lgan ehtiyojlarni insonning ma'naviy kamoloti yo'lidagi to'siqlar, deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy esa ma'naviy ehtiyojlarni jamiyatning paydo bo'lishi, unda odamlarning o'zaro hamkorlikda yashashga bo'lgan intilishlari bilan uyg'unlikda ko'radi. Shu nuqtayi nazardan Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishi sababini ongli mavjudotlarning bir-birlari bilan birgalikda yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojlaridandir, deb tushuntiradi. Chunki, kishilar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, tabiat kuchlari bilan kurashda o'zlarini saqlab qolish uchun jamoa bo'lib yashashga muhtoj edilar. Shuning uchun Beruniy kishilarning uyushma (to'da) bo'lib yashashlari, o'zaro hamkorlikka va bir-birlariga yordam berishga intilishlarini tabiiy, qonuniy jarayon, deb qaraydi.

Kishilarning ehtiyojlari xilma-xilligi va turlarining ko'pligi bilan odatdagi hayvonlarning ehtiyojlaridan farqlanadi. Bir kishi o'zining barcha ehtiyojlarini yakka holda qondirishga qodir emas. "Shuning uchun, – deb yozadi Beruniy, – odam yana bir



qancha kishilarning hamkorligiga muhtojdir. Ehtiyojlarning xilma-xilligi va turlarining ko‘pligi, ularni qondirish uchun bir qancha odamlarning uyushma (to‘da) bo‘lishi kerak. Shu sababdan odamlar shaharlarni ta‘sis etish zarurati tug‘ilgan edi”. (Бируни. Минерология: собрание сведений для познания драгоценностей. – М: «Наука», 1963. 11- стр).

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Gap shundan iboratki, har doim ham ehtiyojlar, jumladan, ma‘naviy ehtiyojlarning soni ularni qondirishning yo‘llari, vositalardan ko‘proq bo‘ladi. Bunday hol esa, shubhasiz, jamiyatda muayyan ijtimoiy kelishmovchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Inson taraqqiy etgan sari unda mukammallikka bo‘lgan intilish oshib boraveradi. Ehtiyoj har doim uni qondirish jaryonidan oldinda bo‘ladi. Agar o‘sib boruvchi ehtiyojlar o‘z vaqtida va sifatli qondirilmas ekan, bunday vaziyatda shaxs va jamiyat o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy-ma‘naviy barqarorlikka intilgan har qanday jamiyatda mazkur mutanosiblikni ta‘minlash, manfaatlar uyg‘unligiga erishish eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Mutafakkir-allomalarimizning ta‘kidlashlaricha, ehtiyojlarning ko‘pligi va ularni qondirish vositalarining kamligi sabablari, odamni boshqa ongli mavjudotlar bilan birlashishga majbur qiladi. Ehtiyojlarni o‘zaro hamkorlik orqali qondirish borasida har bir odam mehnatning muayyan bir turi bilan shug‘ullanishga boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ilk mehnatning natijasini ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalarining miqdori bilan o‘lchaydi.

Ammo, tirikchilik vositalarining o‘lchovlari bir-biriga mosligi tufayli, kishilarning mehnatga va tirikchilik vositalariga bo‘lgan ehtiyojlari ham bir xil emas. Mana shu mehnat qimmatini va tirikchilik vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarning o‘lchovli aniq belgilab olish maqsadida kishilar har ikkalasiga baho qo‘yish va uning tegishli ekvivalentlarini belgilash xususida kelishuv–murosaga keladilar. Moddiyot bilan bog‘liq ehtiyojlarning o‘lchovlarini aniqlashda muayyan darajada yengilliklar bor. Ammo, ma‘naviy ehtiyojlar va ularni qondirishdagi o‘lchovlar masalasini aniqlash juda qiyin.

O‘zbek milliy qadriyatlar tizimida ma‘naviy ehtiyojlar masalasi ko‘proq axloq va komil inson konsepsiyasi bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan. O‘zbek axloqshunosligida axloqning asosini hilm, afv va sabr tashkil etishi, ushbu ijtimoiy hodisa shafvat va g‘azab qo‘ziganda nafsni jilovlash ma‘nolarida ham ishlatilgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Qadimdan axloq ilmi ulamolari “Odamdagi axloqlar uning yaratilishida qo‘shib yaratilgan bo‘ladimi yoki kishi axloqni keyin o‘rganadimi?” degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan. Ulardan ba‘zilari: “Yaxshi bo‘lsin, yomon bo‘lsin, axloq inson yaratilgan chog‘ida qo‘shib yaratiladi. Axloqni keyin kasb qilib bo‘lmaydi”, deganlar. Boshqa bir guruh axloq ilmi ulamolari esa: “Inson tug‘ilganda hech qanday fazilat yoki razilatsiz tug‘iladi. Unda qanday xislat bo‘lsa, tug‘ilgandan keyin paydo bo‘ladi”, deganlar.



Musulmon axloq ilmi ulamolari esa: “Insonga ota-onasida bor ba’zi axloqlarning xamirturushi onasining qornida homila holatida yotgandayoq o’tadi. Alloh taolo bandani xalq qilish chog’ida unda axloq qobiliyatini qo’shib yaratadi. Inson tug’ilib o’sishi jarayonida tarbiya, muhit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o’zida rivojlantiradi yoki yo’qotib yuboradi”, deydilar. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –T.: “Sharq”, 2012. 242-bet).

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda, axloq, shuningdek, axloqsizlik ham har bir insonning ona qornidagi rivojlanish jarayonidayoq shakllana boshlaydi. Ammo, uning to’liq shakllanishi asta-sekinlik bilan, insonning kamolot sari qadam tashlab borishi bilan birga yuz beradi. Insonda muayyan darajada axloqning mavjudligi va uni rivojlantirishga bo’lgan intilishi esa har bir individning ma’naviy ehtiyoji asosida paydo bo’ladi.

Shaxsda ma’naviy ehtiyojlarning asosini tashkil etuvchi axloq tizimining shakllanishi juda ko’p omillarga bog’liq. Fikrimizcha, buning eng dastlabki va eng muhim omili – tarbiyalanuvchining qanday muhitda tarbiya topayotganligi bilan bog’liqdir. Muhit qay darajada mustahkam ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog’liq bo’lsa, ana o’sha holatda mazkur masalada muayyan maqsadga erishish mumkin. Bunda o’zbek oilasi, mahallasi, qarindoshlik rishtalari, o’qish va ish jarayonida yaratilgan ijtimoiy-ma’naviy muhit asosiy rollarni o’ynaydi.

O’zbek milliy tarbiya tizimida, ma’naviy ehtiyojlar shakllanishi jarayonida ustuvor ahamiyatga ega masalalardan yana biri, bu – komil inson tarbiyasi masalasidir. Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib oladi. Buning biri – hamida axloq bo’lsa, ikkinchisi – o’z-o’zini tanish. Shu ikki asosning bor yoki yo’qligiga qarab u odamlarni uch qismga ajratgan. Birinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o’z-o’zini tanimagan odamlar. Ikkinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan, ammo o’z-o’zini tanimagan odamlar. Uchinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan va o’z-o’zini tanigan odamlar. Olimning nazarida ana shu keyingi – uchinchi toifa odamlar komil insonlardir (Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. –Toshkent, “Yozuvchi”, 1996. 152-bet).

Jamiyat a’zolarida ma’naviy ehtiyojlarning shakllanishida ilm olish, bilim to’plashga ham juda katta e’tibor berilgan. Odamlar bir-birlaridan moddiy boyligi bilan emas, balki ma’naviy boyligi darajasi bilan farq qiladilar. Insonning qadri uning ilmi, ixlosi va aqli bilan belgilanadi. Ilmli odam har joyda aziz: “Sen qanchalik bilimdon bo’lib, oqilona ish tutsang, seni shunchalik izzat-ikrom qilishadi”.

Vujud taraqqiyoti uchun ozuqa zarur bo’lganidek, inson ma’naviyatining rivoji uchun ham bilim kerak. Bilim yordamidagina inson o’z hayot yo’lini to’g’ri topa oladi. Bilim inson yo’lini yoritadi. Uning tufayli odamlar turli sifat va mushkulotlarni bartaraf etadi: “Bilimsiz uzoq va noma’lum yo’l safariga chiqma. Bilim nuriga ega bo’lmagan odam shubhasiz, tinch-xotirjam yashay olmaydi” (Akmal Saidov. Attorshunoslik. –Toshkent.: “Sharq”, 2013. 231-bet).



Mutafakkir-allomalarimiz komil inson va axloq masalasida o'ziga xos ta'limot yaratganliklarini ta'kidlash lozim. Bu ta'limotning negizini esa tariqat odobini saqlash, riyozat chekishdan qo'rqmaslik, rahmdil bo'lish, halol luqma bilan kifoyalanish, saxiy bo'lish, barcha faoliyatni ilm-fan asosiga qurish kabi azaliy qadriyatlar tashkil etadi. Shu ma'noda yurtimizda o'ziga xos axloq kodeksi yaratilgan, deyishga ham ilmiy, ham amaliy asoslar bor.

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish odamlar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ular ma'naviy ehtiyojlarining qay darajada shakllantirilayotgani va qondirilayotganiga bog'liqdir. Alohida ta'kidlash kerakki, har bir jamiyatda uning o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ma'naviy hayotini tashkil etish amaliyoti mavjud.

To'g'ri, ijtimoiy rivojlanishning barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan, an'anaviy tarzda sayqallanib, xalqimiz orasida milliy qadriyatga aylanib ketgan tarbiya tizimi mavjud. Biroq, zamon va makondagi yangiliklar, ijtimoiy-siyosiy voqealar natijasida jamiyatning siyosiy mafkurasi bazisi va ustqurmasidagi revolutsion hamda evolutsion o'zgarishlar aynan shu davrga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni talab etadi. Jamiyatning o'zi ham aynan shu talab asosida o'ziga xos ma'naviy ehtiyojlar tizimini yaratadi.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligi mazkur mamlakatda fuqarolar madaniy-ma'naviy ehtiyojlarining qay darajada qondirilishiga bog'liq. Buning uchun, eng avvalo, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg'unligi masalasiga e'tibor berish lozim. Madaniyat va san'at durdonalarini o'zlashtirishga, undan yanada ko'proq va kengroq bahra olishga bo'lgan eng maqbul imkoniyat esa faqat mazkur masalaning xalq – jamiyat – davlat tamoyili asosidagina paydo bo'lishi mumkin. Bugun, Yangi O'zbekistonni barpo etish asosida ana shu tamoyil shakllanmoqda. Bu esa odamlarimizda sog'lom ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning ham shakllanishida, ham qondirilishida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan ma'naviyatshunos olim A.Erkayevning qayd etishicha, ma'naviyatning inson va jamiyatning sog'lom ehtiyojlarini rag'batlantirish orqali ularning manfaatlarini himoya qilishida, o'zaro muvozanatga keltirishda uning praksiologik (praksiologiya amaliy harakat usullari samaradorligi to'g'risidagi ta'limot) mazmuni va vazifalari yana bir bor namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, insonning yuksak intilishlari ma'naviyatga, tuban istaklari ma'naviyat-sizlikka aloqador. Ma'naviylik asosida quriladigan munosabatlar inson va jamiyat hayotini yengillashtiradi, insoniylik, halollik, o'zaro izzat-hurmat, ishonch, mehroqibat, o'zaro yordam, jamoaviylik mustahkamlanadi. Asta-sekin ijtimoiy munosabatlar zo'ravonlikdan xalos bo'la boshlaydi. Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni zo'ravonlikdan xalos etish, tolerantlikni o'stirish va insonparvarlashtirish ma'naviyatning muhim praksiologik vazifalaridan biri. (Abdurahim Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. 2-kitob. –T.: "Ma'naviyat", 2018. 74-bet).



Albatta, ma'naviy ehtiyojlar masalasi, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Uning nazariy ahamiyati mazkur holatning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash, millat va jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy, g'oyaviy jihatdan poklantirish, shaxs, jamiyat, davlatning bu boradagi manfaatlarining mutanosibligiga erishishdan iborat. Amaliy ahamiyat esa, ma'naviy ehtiyojlarni shaxs va jamiyat orasida keng ma'noda shakllantirishning eng samarali va maqbul usullarini ishlab chiqish va amaldagi ro'yobiga erishishni ta'minlash bilan bog'liq hodisadir.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, jamiyat ma'naviy hayotining eng muhim tomonlaridan biri ma'naviy-madaniy ehtiyojlar masalasidir. Ma'naviy hayotning asosini, uning genetik mohiyatini mazkur ehtiyojlar tashkil etadi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, davlat tomonidan ijtimoiy masalalarga e'tiborning kuchayishi bilan ma'naviy ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining alohida, mustaqil komponentiga aylana boradi.

Ma'lumki, o'rganayotgan mavzu doirasida madaniy va ma'naviy faoliyat hamda ma'naviy ehtiyojlar nisbatiga ham alohida to'xtalib o'tish muhimdir. Madaniy faoliyat shaxs va jamiyatning davlat va millat taraqqiyoti yo'lida olib boradigan sa'y-harakatlarini tartibga solish, muvofiqlashtirish natijasida erishiladigan holatdir.

Madaniy faoliyat tarixan hech qachon, hattoki, jamiyat va mamlakat inqirozli, bo'hronli vaziyatlarda ham insonning ana shu holatga nisbatan o'z munosabatlari, ichki his-tuyg'ularini ifoda etgan holda shakllanadigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Madaniy faoliyat jamiyat a'zolarining iste'dod, qobiliyat, qiziqishlari natijasida yuzaga keladigan mavjudlik. Uning borligi jamiyat hayotini barqarorlashtirish, iste'dodli insonlarning qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda o'z aksini ko'rsatadi.

Ayni paytda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan yana biri ma'naviy faoliyat masalasidir. To'g'ri, hozircha madaniyatshunoslik va ma'naviyatshunoslikda ma'naviy faoliyat masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. Aslida, jamiyatning taraqqiyoti, mazkur jamiyatning axloqiy me'yorlari masalasi fuqarolarda ma'naviy faoliyatning qay darajada faol yoki faolsizligi darajasiga bog'liqdir.

Ayniqsa, bugun butun dunyoda shiddat bilan kuchayib borayotgan, globallashuv odamlar ongi, tafakkur tarzi, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarini o'zgartirib yuborayotgan bir davrda ma'naviy faoliyat insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi muhimdir. Ma'naviy faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra madaniy faoliyatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki, ushbu fenomen hodisa kishilardagi axloq, insonparvarlik, adolatparvarlik kabi azaliy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuch hisoblanadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, madaniy faoliyat jamiyat hayotini yanada go'zallashtirsa, kishilarda ular iste'dodi, qobiliyatlarini ochishga imkon bersa, ma'naviy faoliyat jamiyatni axloqiy, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan barqarorligini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Shu ma'noda ma'naviy faoliyatni shaxs, millat va jamiyatning ma'naviy munosabatlari, jarayonlari, aloqa va muloqotlari majmuyi, ijtimoiy



hayotning barcha jabhalarini axloqiy jihatdan poklantirishga yo'naltirilgan maqsad va unga erishish holati sifatida anglash mumkin.

Ma'naviy faoliyatning ratsional mag'zini tarbiya jarayoni tashkil etadi. Xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotini tarbiya, axloqni isloh qilish jarayonlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Milliy tariximizning qaysi davrini olib qaramaylik, barchasida milliy tarbiya, axloqimiz o'sha davr xususiyatlarini e'tiborga olgan holda takomillashib, sayqallanib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, jadid bobomiz Abdulla Avloniy shunday deydi: "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharif, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdir" (Abdulla Avloniy. So'ylasang, so'yla, yaxshi so'zlardan. – T.: "Ma'naviyat", 2022. 15-bet).

Ushbu fikr tarbiya fenomenining asl maqsadini ochib bergan deyish mumkin. Gap shundaki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot dunyosida yosh-u qari bilmagan, o'qimagan narsaning o'zi yo'q. Oddiy tarbiya jarayonidan to mukammal texnologiyalargacha, tirikchilik muammolarini hal etishdan jahoniy geopolitik muammolargacha – barcha-barcha narsadan xabardormiz. Ya'ni, Abdulla Avloniy qayd etganidek, hammamiz biluvchimiz, ammo bilgan narsaga amal qilish bobida esa no'noqmiz. Axloq, tarbiya fenomeni ana o'sha nomutanosiblikni bartaraf etuvchi vositaga aylanishi lozim. Ma'naviy faoliyat shu naqtayi nazardan har qanday mamlakat va jamiyatni mafkuraviy, g'oyaviy tahdidlardan asrab qoluvchi muhim omilga aylanib boraveradi.

Ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning shakllanishi va qanoatlantirilishi masalasida shu narsani aniqlash lozimki, bu jarayonda ma'naviy-madaniy mahsulotlar, qadriyatlar, asarlarni yaratish birlamchimi yoki ularni o'zlashtirishga bo'lgan shaxs va jamiyat ehtiyojimi? Ta'kidlash lozimki, bu o'ta muhim masala. Mazkur savolga javob berishda, madaniyat, ma'naviyat, umuman, ehtiyojlar masalasiga munosabat bildirishda ushbu jarayonlarga qay tarzda yondashuvni aniqlab olish alohida ahamiyatga ega holatdir.

Ochiq, demokratik jamiyatda insonning o'z iste'dodlarini namoyish eta olish ko'nikmasining paydo bo'lishi, ularning ijtimoiylashuvi, shu jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me'yoriy hujjatlarda aks etgan talablarga javob berish, ijtimoiy qadriyatlarga amal qilish, jamiyat va davlatdan begonalashuv holatidan qutulish jarayonlari har bir shaxsda ma'naviy ehtiyojlarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi. Bu esa ma'naviy ehtiyojlarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi sharoitida madaniy-ma'naviy ehtiyojlar har qanday davlat va jamiyatni rivojlantirishning muhim, hal qiluvchi omillaridan biriga aylanib bormoqda. Bunda Sharq, xususan, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlar tomonidan bizga meros bo'lib qolgan turli ta'limotlar, g'oyalar alohida o'ringa ega.

Ularning madaniy-ma'naviy ehtiyojlar jamiyatni birlashtiruvchi, odamlarda ijtimoiylashuv kayfiyatini shakllantiruvchi kuch ekanligi to'g'risidagi g'oyalari bugun



ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotmagan. Yangi O'zbekistonda ma'rifatli davlatni barpo etishda eng muhim omillardan bo'lgan yangi ma'naviy makon, kuchli ma'naviyatni ham aslida shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish asnosida yuzaga chiqarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шавкат Мирзиёев. *Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ҳоямизнинг пойдеворидир.* – Тошкент, “Тасвир”. 2021.
2. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати.* 5-том. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2020.
3. Абу Наср Форобий. *Фозил одамлар шахри.* –Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2016.
4. Жакбаров М. *Комил инсон ҳоясининг тарихий-фалсафий негизлари* – Тошкент, “Тафаккур”, 2011.
5. Бируни. *Минерология: собрание сведений для познания драгоценностей.* –М., “Наука”, 1963.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. *Тасаввуф ҳақида тасаввур* – Тошкент, “Шарқ”, 2012.
7. Нажмиддин Комилов. *Тасаввуф. Биринчи китоб.* –Тошкент, “Ёзувчи”.1996
8. Акмал Саидов. *Атториунослик* –Тошкент, “Шарқ”, 2013.
9. Абдурахим Эркаев. *Маънавиятиунослик.* 2-китоб. –Тошкент, “Маънавият”, 2018.
10. Абдулла Авлоний. *Сўйласанг, сўйла, яхши сўзлардин.* – Тошкент, “Маънавият”, 2022.





Bosishga ruxsat etildi 25.09.2024. Bichimi 1/16. Shartli b.t. 18, 5.
100 nusxada, original-maket asosida bosildi.
Buyurtma № Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining
kichik bosmaxonasida bosildi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20.

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024